

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

O`ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

“O`ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI”

FANIDAN

MA'RUZA MATNLARI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lif yo'nalishi: 5120300–Tarix (jahon mamlakatlari bo'yicha)

Andijon - 2018

Mazkur ma’ruza matnlari O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2016 yil “22” yanvardagi 24 - sonli buyrug’i bilan (buyruqning 2 - ilovasi) tasdiqlangan “O’zbek davlatchiligi tarixi” fani dasturi asosida tayyorlandi.

.

Tuzuvchilar:

Erkayev E. – ADU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasи dotsenti,
tarix fanlari nomzodi;

Taqrizchilar:

Abdullayev M. – ADU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasи dotsenti,
tarix fanlari nomzodi;

Sobirova M. – ADU, “O’zbekiston tarixi” kafedrasи dotsenti,
tarix fanlari nomzodi;

Mazkur ma’ruza matnlari Andijon davlat universiteti Kengashining 2018 yil 30 avgustdagи 1-sonli bayonmasи bilan ko’rib chiqilib nashrga tavsiya etilgan.

1- Mavzu. Kirish. Davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi Reja

1. Fanning predmeti, maqsad va vazifalari
2. Fanning o`rganishning ahamiyati
3. Davlatchilik tushunchasi va uning kelib chiqishi

Tayanch so‘z va iboralar. *Davlatchilik tushunchasi, qarindosh-urug‘chilik jamoasi, hududiy qo‘sni chilik jamoasi, ijtimoiy mansablar, davlat boshqaruvi, boshqaruv tasnifi, rahbarlik, boshqaruv vazifalari, ijtimoiy boshqaruv, davlatning vazifalari*

1991 yil 31 avgustda O`zbekistonning davlat mustakilligi kayta tiklanganligi e’lon kilindi. Xuddi shu kuni jamiyatimiz xayotiga O`zbekiston davlati, O`zbek davlatchiligi tushunchalari kirib keldi. Tugri, davlatchilik o`zbek xalki tarixi uchun yangilik emas, ammo 130 yillik mustamlaka davrida ayniksa sunggi bir necha avlod nazdida davlat, davlatchilik tushunchalari unut bulgan edi. Chunki mazkur davrda davlatning o`zi yukka chikarilgan edi. Demak, endigi sharoitda tarixchilar oldida turgan katta vazifalardan biri tugridan-tugri O`zbekiston davlati tarixini, o`zbek davlatchiligi tarixini ilmiy asosda urganishdan iborat.

O`zbek davlatchiligi tarixi fanning asosiy maksad va vazifalari jumlasiga kuyidagi asosiy ustuvor yunalishlar kiradi:

O`zbekistonda ilk shaxarsozlik madaniyatining shakllanishi va eng kadimgi davlatchilikning kelib chikishida azaliy utrok axolining madaniyati xal kiluvchi omil bulganini yoritish, miloddan avvalgi IX-VIII va VII-VI asrlarda ilk davlatchiligimiz tarakkiyoti jarayonini chukur va izchil tadkik kilish;

Axamoniylar boskini, A.MAkedonskiy va uning vorislari davrida kadimiylar davlatchiligidan tiklash uchun kurashning moxiyatini olib berish. Kushonlar sulolasiga davri tarixini o`zbek davlatchiligi tarixi sifatida talkin kilish. Buyuk ipak yuli, uning paydo bulishi, rivojlanish boskichlari, uning vatanimiz tarixi tarakkiyotida tutgan urnini kursatib berish;

Ilk rivojlangan urta asrlarda o`zbek davlatchiligining barcha boskichlari tarixini yaxlit tizim sifatida urganish va uning jaxon silivizatsiyasi rivojlanishidagi xissasini tadkik kilish;

XIV asr ikkinchi yarmi XV asrda markazlashgan o`zbek davlatchiligi rivojlanishining o`ziga xos konuniyatlarini va xususiyatlarini, Amir Temurning jaxon tarixida tutgan urnini yoritish. Buyuk Boburiylar sulolasiga davlatchilik tarixini xam o`zbek davlatchilik tarixinining bir kismi sifatida talkin etish;

XVI-XIX asr birinchi yarmida o`zbek davlatchiligining o`ziga xos xususiyatlarini, siyosiy tarkoklik sharoitida boshkarish usullaridagi nuksnlarni, madaniyat, fan, san’at soxalaridagi tanazzul alomatlarini urganish;

O`zbekiston xalkini chor Rossiyasi mustamlakachiligi va Shurolar ibtidodi davridagi iktisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy axvoliga xolisona baxo berish;

O`zbek davlatchiligi tarixinining istiklol kulga kiritilgandan keyingi eng yangi davrini xar taraflama yoritib berishdan iborat.

O`zbekiston xududida tub axolini va uning ajdodlarini kup ming yillar davomida utrok yashab kelganlili xamda maxalliy madaniyatning boy kadimgi ildizi va utmish o`zbek davlatchiligi tarixining goyaviy asoslaridan biridir. Shuningdek, O`zbekistonda davlatchilikning paydo bulishida va o`zbek xalkining etnik jixatdan shakllanishida tub utrok dexkonchilik axolisi tutgan urni aloxida axamiyat kasb etadi. Bugungi o`zbek xalki tarixan shu zaminda yashagan xalkning davomchisi va shu yerda shakllangan turmush tarzi va madaniyatining tulakonli vorisi xisoblanadi. O`zbekistonda davlatchilikning kelib chikishida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarda shakllangan sun`iy sugarishga asoslangan dexkonchilik xujaligi, xunarmandchilik va maxsulot almashishning kelib chikishi asosiylar omil bulib xizmat kilgan. Shu bilan birga O`zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida tub axolining urf-odatlari, an`analari va ma`naviyati, azaliy ijtimoiylashuv jarayoni birlashtiruvchi omil bulib kelgan.

O`zbekiston xududlari kadimdan to bugungi kungacha xukm surgan maxalliy davlatlarning vujudga kelishi, bu davlatlardagi ijtimoiy-iktisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlar, ularning o`ziga xos xususiyatlarini organish o`zbek davlatchiligi tarixi fanining predmeti xisoblanadi. Shu bilan birga O`zbekistonning ilk davlatchiligi tarixi geografik xududiy ma`noda nafakat bugungi O`zbekiston, balki butun Urta Osiyo mikiyosidagi kadimiy, madaniy, iktisodiy va siyosiy jarayonlarni kamrab olgan siyosiy ijtimoiy xodisa sifatida talkin kilindi.

1998 yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bir gurux tarixchi –olimlar bilan uchrashuvida kilgan ma`ro`zada o`zbek davlatchiligi tarixining anik yunalishiga, uning ilmiy-metodologik konsepsiyalariga doir muxum fikr-muloxazalarni bayon kildi. Bir so`z bilan aytganda ijtimoiy fanlar oldida turgan vazifalar anik belgilab berildi. Ushbu yunalishdagi muxum masalalardan biri bu-fanning manbashunoslik masalasidir.

O`zbek davlatchiligi tarixining kadimiy ildizlarini ochib berishda arxeologik moddiy manbalar asosiylar urin tutadi. Vatanimiz davlatchiligi tarixini organishda Vatanimiz xududidan topilgan arxeologik topilmalar muxum axamiyatga ega. Birok davlatchilik tariximizni organishda asosiylar manba yozma yodgorliklardir. Boshkacha aytganda, tarixnavislikning rivojlanib borishi va ularda jamiat xayotining turli yunalishlari buyicha ma`lumotlarning o`z aksini topishining o`ziyok o`zbek davlatchiligi boy va rang-barang tarakkiyot yuliga ega bulib kelganini kursatadi. O`zbek davlatchiligi tarixini organishda urta asrlar tarixnavisligining sulolalar tarixiga bagishlangan asarlar silsilasi muxum urin tutadi. Bu borada Abul Fazl Bayxakiyning «Tarixi Bayxaki», Muxammad ibn Sulaymon ar-Rovandiyning «Roxat as-sudur», Sadr ad Din Ali al-Xusaynining «Zubdat-at tovarix», Muxammad ibn Axmad Nisoviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Manguburni», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafidin ali Yazdiyning «Zafarnoma», Tojiddin Salmoniyning «Tarixnama», Abdurazzok Samarkandiyning «Matlai sa`dayn va majmai baxrayin», Fazlullox Ro`zbexonning «Mexmonnomai Buxoro», Xofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Muxammad Yusuf Munshiyning «Tarixi mukimxoniy», Muxammad amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Niyozmuxammad Xujandiyning «Tarixi

Shoxruxiy», Axmad Donishning «Risolayo muxtasari az tarixi sultanati xonadoni mangitiya» kabi asarlarini aloxida urin tutadi.

Mazkur asarlar orkali muayyan sulola faoliyat kursatgan zamonlardagi siyosiy, davlat boshkaruvi, iktisodiy, ijtimoiy, tashki siyosat masalalari tugrisidagi tasavvurlarni ixchamlashtirib olish mumkin.

Davlatchilik tariximizning eng kadimgi davrlariga oid xolatini tasavvur kilishga imkon beradigan yozma yodgorliklar xam yuk emas, avvalo miloddan avvalgi 1 ming yillikning birinchi choraklariga tugri keladigan «Avesto» kitobi davlatchilik tariximizni organishda goyat kimmatli manba xisoblanadi.

Gerodot, Ksenofont, Ktasiy, Polibiy, Diodor, Arian, Strabon, Pliniy, Plutarx, Kursiy Ruf, Pompey Trog va boshka yunon-rim tarixchilari asarlarida va shuningdek o`zbek davlatchiligi tarixining dastlabki 1,5 ming yilini yoritishda «Tarixiy guvoxliklar», «Ulug Xan xonadoni tarixi», «Suy xonadoni tarixi», «Txan xonadoni tarixi» singari Xitoy tilidagi birlamchi manbalarning axamiyati xam goyat kattadir.

Ammo davlatchilik tarixining keng va xar tomonlama organishda turkiy, fors va arab manbalarning urni bekiyosdir.

O`zbekiston Respublikasi mustakilligidan keyingi dastlabki yillarda Vatan tarixini organish, ukitish borasida katta muammo paydo buldi. Bu muammoning o`zagini o`zbek davlatchiligi tarixi masalasi tashkil kilar edi. Chunki 130 yilga yakin davom etgan chor mustamlakachiligi va Shurolar xukmronligi yillarda xalkimiz kuplab kadriyatlar bilan bir katorda tarixidan xam maxrum kilingan edi. Bu yillarda yaratilgan tarix kitoblarida Vatanimiz tarixi, ayniksa davlatchiligi tarixi tamoman soxtalashtirilib talkin kilindi.

Vatanimiz davlatchiligi kup ming yillik tarixga ega ekani, juda kadim zamonlardan boshlab Markaziy Osiyoda davlatchilik an'analari shakllanganligi buyuk davlatchilik shovinizm va kommunistik mafkura ta'kibi bois yetarlicha uranilmadi. Bu masalaga doir ma'lumotlar xam xalkdan yashirib kelindi. Chunki o`zbek xalki davlatchiligining kup ming yilliklarga borib yetishi kizil salanat yulboshchilari bulmish rus shovinizmi manfaatlariga tugri kelmas edi. Chunki slavyanlar davlatchiligi XI asrdan boshlansa-yu, ular mustamlakasi bulmish o`zbeklarning davlatchilik an'anasi eramizdan avvalgi ming yilliklar bilan belgilanishi albatta sharmandalik edi. Shu bois xam xalkimiz o`zining xakkonyi tarixini organishdan maxrum kilingan. Shu bilan birga Vatanimiz tarixini organish uchun muxum bulgan goyat kimmatli kulyozma asarlar, modldiy ashyolar Moskva, Leningrad kabi shaxarlarga olib ketilgan edi.

Mustakillikdan keyingi yillarda Vatanimiz tarixini ukitish va organishda yetarlicha darsliklar, manbalar yukligi bois katta muammo paydo buldi. Xalkimiz tarixi xakida anik tasavvurga ega bulishi uchun xakkonyi tariximizni yaratish lozim edi. Shurolar davrida maktab programmasida O`zbekiston tarixini organish uchun 3-4 soat ajratilgan bulib, biz asosan SSSR tarixi deb atalgan slavyan tarixini urganar edik. Oliy ukuv yurtlarida esa O`zbekiston tarixi deyarli ukitilmagan. Bu davrda nashr kilingan mavjud O`zbekiston SSR tarixi deb atalgan kitoblarda esa tariximiz kommunistik mafkura an'analari asosida

yoritilgan, ya’ni tariximiz ayovsiz koralangan. Kadim ajdodlarimizning davlatchilik an’analari umuman tadkik kilinmagan, urganilmagan.

Mustakillikdan keyingi yillarda bu masala prezidentimiz I.A.Karimovning asarldarida ma’ro’za va nutklarida eneg dolzarb masala sifatida kun tartibiga kuyildi. Utgan davr mobaynida tarixiy an’analarimizni, kadriyatlarimizni tiklash borasida kuplab xayrli ishlar kilindi. Xozirda bizning vatanimiz nafakat shark balki umujaxon silivizatsiyasi beshiklaridan biri bulganini butun jaxon tan olmokda.Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga doir risolalar yozishmokda. Birok xaligacha bizda chukur ilmiy asosga tayangan taxlil, muayyan masalalarda ilmiy yondashuv yetishmayapti. Ilmiy tipda aytganda tariximizni urganishda anik, yaxlit konsepsiya yuk. Xolbuki milliy o’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Ushbu xakikat davlat siyosati darajasiga kutarilishi zarur. Shu xolatdan kelib chikkan xolda prezidentimizning xar bir asarida milliy tariximiz xakida albatta yangicha fikr va goyalar ilgari surilmokda. Bu masala yo`zasidan farmon va karorlar kabul kilinmokda. Jumladan 1996 yil 16 dekabrda «O’zbekiston yangi tarixini yaratish tugrisida» gi Vazirlar Maxkamasining karori e’lon kilindi. Bu karorga binoan O’zbekiston yangi, xakkoni tarixini yaratish borasida izlanishlar boshlab yuborildi. Birok middiy davlatchilik tarixi masalasi xano`z yechilmagan muammo bulib kolmokda edi. 1998 yilning iyul oyida prezident I.A.Karimov bir gurux tarixchi – olimlar bilan uchrashib, Vatanimiz tarixining eng dolzarb 2 ta masalasi davlatchilik masalasi va o’zbek xalkining etnik shakllanishi masalasini muxokama kildi. Bu uchrashuvda prezidentimiz «Tarixiy xotirasiz kelajak yuk» deb nomlangan ma’ro’zasida juda ajoyib konseptual ilmiy-nazariy goyalarni ilgari surdi.Bu uchrashuvdan keyin Vatanimiz tarixini urganish, xakkoni tariximizni yaratish borasida bir kancha chora-tadbirlar belgilab olindi.

1998 yil 24 iyulda Vazirlar Maxkamasining «O’zbekiston Respublikasida Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish tugrisida»gi karori chikdi. Karorda tarix institutining faoliyati buyicha bir kancha kursatmalar va vazifalar belgilandi. «O’zbekiston tarixi» deb nomlanganilmiy jurnal ta’sis etildi. Bu karor e’lon kilingandan keyin tariximizni ayniksa milliy davlatchilik tarixini urganish yuorasida xam amaliy ishlar boshlab yuborildi. Tarix instituti olimlari yetakchiligidagi o’zbek davlatchiligi tarixi konsepsiysi ishlab chikildi. Bu konsepsiya «O’zbekiston tarixi» jurnalining 1999 yil 1-sonida e’lon kilindi. Vatanimiz davlatchiligi tarixi masalalariga doir ilmiy makolalar nashr kilina boshlandi. Oliy ukuv yurtlarida Milliy davlatchilik tarixi sifatida ukitila boshlandi. Vatanimiz tarixi xakkoni tarzda bayon kilingan yangi maktab darsliklari vujudga keldi. Umuman aytganda milliy davlatchilik konsepsiyasining yaralishi ilgarigi davlatchilik tariximizni urganish yulida katta axamiyatga ega buldi. U bir dastur sifatida goyat katta kimmatga ega.

Dunyo tarixida shaharlar, siyosiy birlashmalar, uyushmalar, keyinroq esa davlatning paydo bo‘lishi uzoq davom etgan jarayondir. E.V.Rtveladzening fikricha, bu jarayon turli xalqlarda turli yo’llar bilan bo‘lib o’tgan.

Birinchidan, davlatlar paydo bo‘lishining osiyoCHA ishlab chiqarish usuliga asoslangan "SHarq yo‘li" bo‘lib, unda iqtisodiyotning asosini sug‘orma

dehqonchilik tashkil etgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipial boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli miloddan avvalgi IV ming yillikdan milodiy I asrgacha yirik daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O'rta Osiyo kabi mintaqalarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining **ikkinci**, «Evropa yo'li» Evropa mintaqasida mil.avv.V asrdan boshlab miloddiy III asrgacha qadimgi polislarida mavjud bo'lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqlanishuvi jarayoni (sinflar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo'ldi.

Ma'lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan hudud bilan bog'liq bo'lgan davlatchilikning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. SHunga qaramay, Qadimgi SHarqdagi ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta'kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi Qadimgi SHarq davlatchiligi tarixi bilan o'zviy bog'liqdir.

Qadimgi SHarq turli hududlaridagi tabiiy sharoit o'ziga xos bo'lib, ko'pincha davlatlarning paydo bo'lishi ushbu holat bilan bevosita bog'liq edi. Ayniqsa, yirik daryolar - Nil, Dajla, Frot, Hind, Ganga, Xuanxe, Amudaryo va Sirdaryo Qadimgi SHarq xalqlari tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ijtimoiy va hududiy birlikning asosi hisoblangan jamoalar mavjudligi Qadimgi SHarq ijtimoiy tuzilmasining muhim o'ziga xos tomoni edi. Barcha Qadimgi SHarq davlatlari (ayrim shahar-davlatlar bundan mustasno) juda ko'plab qishloq jamoalaridan tashkil topgan bo'lib, ularning har birida boshqaruv tartibi mavjud edi. Yirik ishlar, ayniqsa sug'orish tartibi bilan bog'liq ishlar amalga oshirilganda ko'pgina jamoalar birlashuvi davlat hokimiyati rolining oshishini ta'minlar edi.

Ko'p hollarda tadqiqotchilar jamoalarning birlashuvi natijasida paydo bo'lgan davlatchilik tizimini murakkab sug'orish tartibi tashkil etilishi, erlarni sun'iy sug'orilishi, daryo vohalari va tog' oldi hududlarining o'zlashtirilishi hamda to'g'onlarning qurilishi bilan bog'laydilar. YUqoridagi omillarning mavjud bo'lganligi aniq. Lekin, fikrimizcha, ularni tashkil etish nazorat va boshqaruvni, hisob-kitobni talab etar edi. Demak, buning uchun yozuvchi mirzalar, hisob-kitobchilar va hukmdorlar zarurati tug'ilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun hunarmandlar faoliyat ko'rsatgan. Ushbu murakkab tizim xavfsizligini ta'minlash uchun qurolli guruhlar tuzish, hamda ma'lum hududlarni mudofaa inshootlari bilan o'rab olish kerak bo'lgan. SHu tariqa jamiyatda ikkita yangi tuzilma- shahar va davlat paydo bo'la boshlaydi.

Davlat yoki shahar-davlat ma'lum hududlarni o'z nazoratiga olishi va bu hududlarni kengaytirib borishi natijasida chegaralar paydo bo'lgan. Hududlarning kengayishi va chegaralarning o'zgarishi natijasida davlatlar o'rtasida urushlar kelib chiqadi. CHegaralar masalasida ta'kidlash joizki, qadimgi davrlarda ular ko'p

hollarda tog‘lar va dasht hududlar orqali, ayrim hollarda esa daryolar orqali o‘tgan. SHuning uchun ham tarixiy yondashuv shuni talab etadiki, tarixning turli davrlarida davlatlar chegaralari o‘zgarib turgan va hozirgi chegaralarga mutlaqo mos tushmaydi.

O‘rta Osiyo, umuman O‘zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo‘lishi masalalari tadqiqotchilar orasida hamon bahslarga sabab bo‘lib kelmoqda Bu o‘rinda ushbu jarayonga asosiy turtki bo‘lib yanada jadallashtirgan omillarni aniqlash nihoyatda muhimdir¹. Bronza davridayoq sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik O‘rta Osiyo xo‘jaligining asosini tashkil etgan. Sug‘orma dehqonchilikning yuqori unumdar shakllari jamiyatda hal qiluvchi o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, dehqonchilik rivoji natijasida qo‘srimcha mahsulot va xususiy mulk ko‘rinishlari paydo bo‘ldi.

O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalari sun’iy sug‘orish birmuncha qo‘lay bo‘lgan Amudaryo (yuqori, o‘rta, quyi) oqimlari bo‘ylarida, Murg‘ob vohasida, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Bunday holatni dunyo tarixidagi dastlabki davlatlar – Misr (Nil) va Mesopotamiya (Dajla va Frot) misolida ham ko‘zatishimiz mumkin.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, dastlabki yirik shahar markazlarining paydo bo‘lish muammolari davlatlar paydo bo‘lishi masalalari bilan o‘zviy bog‘liq muammo hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, bizga qadar etib kelgan yozma manbalar O‘rta Osiyo hududlarida ilk davlatlar paydo bo‘lishi haqida nisbatan aniq ma’lumotlar bermaydi. Bu o‘rinda arxeologik ma’lumotlarning ahamiyati beqiyosdir.

Jamiyat hayotida metallning keng yoyilishi – dastlabki shaharlar va davlatchilikning asosiy omillardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib O‘rta Osiyoning juda ko‘plab bronza va ilk temir davri yodgorliklaridan (Anov, Sopolli, Jarqo‘ton, Qiziltepa, Ko‘zaliqir, Afrosiyob, Daratepa, CHust, Dalvarzin va boshq.) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan metall qurollar topib o‘rganilgan. Mehnat quollarining metalldan ishlanishi mehnat unumdarligining yanada oshishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

So‘nggi bronza davriga kelib hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va alohida xo‘jalik tarmog‘i sifatida shakllanib rivojlanishi jamiyatdagi iqtisodiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, asosini ilk shaharlar tashkil etgan davlatchilikning paydo bo‘lishi uchun muhim bo‘lgan qo‘srimcha mahsulot ko‘payishiga turtki bo‘ldi. Ilk davlatlarning paydo bo‘lishida ilk shaharlardagi o‘zaro ayrboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan. So‘nggi bronza davriga kelib shimoldagi ko‘chmanchi

¹ Давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланишига турлича ёндошувлар, назариялар, давлатчилик типлари ва шакллари масалалари бўйича батафсил маълумот олиш учун сўнгги ийларда киёсий таҳлил этилган қўидаги ишларга каранг: Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд: Институт археология АН РУз, 1993. – С. 132-140; Кашанина Т.В. Происхождение государства и права. Современные трактовки и новые подходы. – М.: Знание, 1999. – С. 51-103, 316-332; Ртвеладзе Э.В. ва бошқ. Қадимги Ўзбекистон цивилизацияси: давлатчилик ва ҳуққу тарихидан лавҳалар. – Тошкент. Адолат, 2001. – 10-58 бб; Сагдуллаев А.С. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Тошкент. Академия, 2000. – 16-43 бб. Шайдуллаев Ш.Б. Илк давлатларнинг археологик белгилари // О‘zbekiston tarixi. Тошкент. 2002. №3, 3-10 бб. ва бошқ.

chorvador qabilalar va janubdagagi o'troq dehqonchilik aholisi o'rtasida o'zaro mol ayirboshlash va madaniy aloqlar yanada jadallahadi. Janubiy va shimoliy hududlardan topilgan topilmalaridagi juda ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo'llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, turli tarixiy viloyatlarda joylashgan yirik mustahkam maskanlar o'rni va atroflarida (Sopolli, Jarqo'ton, Namozgoh, Dalvarzin, Qiziltepa, Erqo'rg'on, Bandixon, O'zunqir) dastlabki shahar markazlari shakllanib rivojlana boshlaydi. Ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeい bilan ajralib turgan. Bunday shaharlar o'zлari joylashgan vohalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifalarini bajargan bo'lishi shubhasizdir.

Davlatning dastlabki bosqichlarini o'rganishda Zardo'shtiyarning muqaddas diniy kitobi Avestoning ahamiyati beqiyosdir. Olimlarning e'tirof etishlaricha, Avesto SHarq xalqlari qadimgi davrini tadqiq etishda hozircha muhim manba bo'lib, u o'zining bu ahamiyatini bundan buyon ham saqlab qoladi. Bu kitob dastavval, e'tiqodlar, tillar va dinlar, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy hayot rivojlanishi bosqichlari haqidagi ilk to'plam hisoblanadi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayonlar davlatchilik va iqtisodiy rivojlanishning umumiy doirasida bo'lib o'tgan.

Avesto davri turli qabila va elatlar, jamoalar e'tiqodlarining mukammal jahon dini darajasidagi din bilan almashayotgan davr edi. SHuningdek bu davr tub iqtisodiy o'zgarishlar va ishlab chiqarishda sifatiy olg'a siljishlar davri bo'lganligi bilan ham izohlanadi-ki, bu holat ierarxik to'zumga ega bo'lgan davlatchilik hamda urbanizatsiyaning yangi bosqichga ko'tarilishiga, kasbiy hunarmandchilik, birinchi galda, metallurgiyaning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratgan edi. Mis, bronza keyinroq esa temirning paydo bo'lishi ishlab chiqarishdagi katta o'zgarishlarga, jumladan, hunarmandchilikning maxsus tarmoqlarga ajratilishiga va mahsulot ayirboshlashga olib keldi-ki, bu jarayon shaharlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga, dehqonchilik va chorvador aholi turmush tarzida tub o'zgarishlar bo'lishiga imkon yaratdi.

Avestoda ilk davlat uyushmalari hisoblangan bir qator tarixiy-madaniy viloyatlar sanab o'tiladi. Ular orasida Aryanam Vayjo (oriylar tekisligi), Gava Sug'da, Mouru, Bahdi, Nisaya kabilalar bo'lib, fikrimizcha, ular O'rta Osiyo, Janubiy Uraloldi va Markaziy Qozog'iston hududlarida joylashgan. Bu ulkan mintaqada muhim polimetallar makonlari, Amudaryo va Sirdaryo quyi oqimlarida keng yaylov hududlar, Baqtra, Mavr, Niso va Sug'dda urbanizatsiyalashgan markazlar mavjud edi.

Avestoda madhiyalarida ma'lum ijtimoiy bosqichlardagi izchillik va ierarxiyani ko'zatish mumkin. SHuningdek, Avestoda ilk shaharlar shakllanishi bosqichlari Axuramazda farmoni bilan dastlabki odam Yima tomonidan mustahkamlangan «vara» bunyod etishi misolida ko'zatiladi. Bunday «vara»lardan biri arxeologlar tomonidan Janubiy Ural-Qozog'iston «shaharlar o'lkasi»dan topilgan bronza davriga oid Arkaim yodgorligida bo'lishi mumkin. Arkaim

yodgorligi bir necha mustahkamlangan manzilgohllardan iborat bo‘lib, handaqlar va ko‘p qatorli mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan, kirish qismi himoyalangan. YOdgorlik murakkab va aniq tuzilishga ega. YOdgorlik hududlaridan hunarmandchilikning avvalo, metall eritish va unga ishlov berishning izlari, bronzadan yasalgan buyumlar topilgan. Avesto madhiyalarida eslatilgan «vara» shaklidagi himoyalangan inshootlar bunyod etilishi shahar madaniyati belgilarini, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning yuqori darajasini, nom davlatlar ko‘rinishidagi shaharlar shakllanishini o‘zida aks ettiradi. Bu jarayonning bosqichma-bosqich rivojlanishi esa O‘rta Osiyoning janubiy va markaziy hududlarida ko‘zatiladi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyoda eng qadimgi davlatlarning shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyoti, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo‘lishi bilan o‘zviy bog‘liqidir. Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to‘liq echimini topmagan bo‘lib, xususan, O‘rta Osiyo eng qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk shaharlarning ahamiyati muammoi shular jumlasidandir.

2-Mavzu. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi

Reja:

1. Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari
2. Davlatlarning boshqaruv tizimidagi funktsiyalar

Tayanch so‘z va iboralar. *Davlat apparati, boshqaruvchi tizim, boshqariluvchi tizim, o‘zaro hamkorlik tizimi, muvofiqlash-tiruvchi boshqaruv, taktik boshqaruv, boshqaruvda qonuniylik, moddiy va protsessual munosabatlar, vazifa-vakolatlar, idoraviy vakolatlar*

O‘zbekiston davlatchiligining tarixi O‘zbekiston istiqbolga erishgandan (1991 yil 31 avgust) so‘ng XX asrning 90 yillaridagina tarix fanining yetakchi muammoi sifatida to’la-to’kis o‘rganila boshlandi.

O‘zbek davlatchiligi yo‘zaga kelishining tabiiyligi rivojlanishining o‘ziga xosligi va an‘anaviyligi ayrim davrlarda o‘zga davlatlarning bu hududda hukmron bo‘lganligiga qaramasdan uning yangi asosda tiklanishini belgilovchi omillaridan biri bo‘ldi.

Mazkur muammo ilmiy tadqiq etishning muhimligi va yangilagini ta’kidlar ekanmiz, biz oldingi yillarda mamlakatimizdagi va chet eldagilarning qator avlodlari amalga oshirgan muhim tarixiy tadqiqotlarni inkor etmaydi.

Biroq ular o‘zgacha sharoitlarda boshqa mafkura va metodologiya asosida yozilgan va o‘zgacha mazmun va mohiyatga egadir. Jumladan, o‘zga davlatlarga qaram millatlarni tarixini adaolatli yoritib bo‘lmash edi. Chunki, SSSR hududida

davlatchilik yagona bo'lib, "mayda" millatlarning o'tmishi, hozirgi davri haqidagi tarixini keng yoritishga yo'l qo'yagan.

I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Ahvol shu darajaga borgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Biroq ular tomonidan yaratilgan tarix darsliklarni o'qir edik"- deganlaridan haq gapni etgan edi. (Karimov I. A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" T. "O'zbekiston" 1998 y. 4 bet.)

1991 yil avgustdan boshlab Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng Vatan tarixini har tomonlama o'rganishga kirishdik. Sobiq SSSR davridagi darsliklar qaytadan ko'rib chiqilishiga erishildi.

Biroq o'zbek davlarchiligi tarixi muommosini aniq bir maqsadga yo'naltirilgan holda ta'qiq etish faqat 1999 yildan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagagi "O'z.RFA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish" qaroridan so'ng boshlandi. Bundan oldin (1998 yil 27 iyun) O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning bir gurux tarixchi olimlar va ommaviy axborat vositalari vakillari bilan uchrashuvida tarix fani borasida bildirilgan istak va takliflari ilmiy yondashuvga asoslangan o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsensiyasining g'oyaviy asosini tashkil etadi. 2000 yildan boshlab tarixchi va shu sohaga oid muammolari hamkorligida "O'zbek davlatchiligi tarixi" deb atalgan so'ngi bronza (mil. 3-2 ming yilliklar) davridan hozirgi davrgacha bo'lган o'ch ming yillik davrini qamrab oluvchi fundamental tadqiqotlarni yaratishga kirishilgan.

O'zbek davlatchigili tarixini yozishda nazariy me'morchilik asoslarini bilish katta ahamiyatga ega.

Ilmiylik , holislik , tarixiylik metodlari o'zbek davlatchiligi tarixini yoritishning kaliti hisoblanadi.

Birinchidan, O'zbek davlatchiligi tarixini yaxlit konsepsiyasini amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni, nisbatan mustaqil bo'lgan bo'laklarga , ya'ni davrlarga bo'lsh va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Mustaqillik yillarida to'plangan tarixiy hujjatlarni ilmiy asosda umumlashtirishdan iborat.

Ikkinchidan, ilmiylik bilan birga u yoki bu masalalarni voqeliklarni yoritishda holislik muhim ahamiyatga egadir. Bunda har bir tarixiy hodisalarini tahlil qilayotganda xolis, haqqoniy ravishda o'rganish. Ya'ni O'zbekiston davlatchiligi tarixidagi voqeа hodisalar qanday sodir bo'lgan bo'lsa, shundayligicha yoritish ko'zda tutilgan.

Xolislik talab etadigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo'nalishda tarixiy-madaniy taraqqiyotni (tarixini turli davrlarida) o'rganish jarayonida bo'lib o'tgan yoki shu taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan voqeа-hodisalarini hech bir o'zgarishlarsiz, qanday bo'lib o'tgan bo'lsa o'sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o'ta muhimdir. Bu borada aniq manbaviy asoslarga tayaniish tarixiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini asoslash lozim.

Uchinchidan, O'zbek davlatchilik tarixini o'rganishning metodologik asoslaridan yana biri bu voqeа hodisalarini dialektik tarzda o'ranganishdir.

Dialektika, olamning yaxlit, unda sodir bo'ladigan xodisalar, voqealar umumiyl va o'zaro bog'lanishda o'zluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo'ladi deb

ta’lim beradi. Bu metod davlatchilik tarixini o’rganishda uni to’laligicha, voqealarni bir-biri bilan bog’liqlikda, ayrim tarixiy voqealarni bir butunlikda o’rganishni taqozo qiladi.

Voqealarni turixini o’rganishda jahon xalqlari tarixini bilan bog’liqligini nazarda tutadi. Chunki, eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o’tmishga qadar O’rta OSiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Eron, Afg’oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar o’rtasida yagona iqtisodiy va madaniy makon mavjud edi.

To’rtinchidan, O’zbek davlatsilik tarixini o’rganishda tarixiylik metodi ham alohida o’rin egallaydi. Bu metod davlatchilik tarixida sodir bo’lgan voqealarni o’rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqealarni bilan boshqasini sabab oqibatli bog’lanishi ham ko’rsatiladi. Bu metod voqealarni qay tarzda sodir bo’lganini jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularni roli to’g’risida to’g’ri haqqoniy fikr yuritishga o’rgatadi. Xalqni o’tmishiga, hozirgi zamon va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida qarashni talab etadi.

Darhaqiqat, xar bir xaql o’zi bosib o’tgan haqiqiy tarixini bilmay turib o’zlikni anglash mumkin emas.

I. Karimov ta’kidlaganlaridek, O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. U yana bir muhim muammoni o’rtaga tashladi, bu esa Vatan tarixini o’qitish va o’rganishni davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi zarur dedi.

O’zbek xalqining tarixiy o’tmishi ma’naviyati haqida gap ketganda shuni alohida eslab o’tish joizki, O’zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo’ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o’tdi? Deganlarida xaqli savol o’rtaga tashlangan edi.

I. A. Karimov ushbu muammoni o’rtaga tashlar ekan, hozirgi davrda yurtimizda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti atroflichcha tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlarni yaratish lozim degan aniq vazifani qo’ydi.

Zero, davlatchiligidan ko’p ming yillik taraqqiyot yo’lini o’rganish bugungi kunda eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Ma’lumki, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida yerga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo’lib qoldi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo’jaligi va hunarmandchiligining tez o’sishiga olib keldi. Daryolarni to’sib to’g’onlar qurib, kanallar qazib, yerlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi.

O’rgatilgan ishchi hayvonlari qo’shilgan temir tishli omochlar bilan yerni haydashning o’zlashtirilishi, hosildorlikni oshishini, ko’proq mahsulotlar yetishtirishni ta’minladi. Bular insonlarni bir muncha yaxshi yashash olib keldi. Urug’chilik munosabatlar o’zgarib, ikki urug’ a’zolaridan tashkil topgan er-xotin juft oilalar rivojlandi. Bir necha juft oilalar uyushib, katta patriarchal oilalar urug’ jamoasidan ajralib chiqdi, ularga urug’ jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlar ajratib berildi. Shu tariqa urug’ jamoasining umumiyligi xo’jaligi oilalar jamoasiga bo’lindi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataldi.

“Avesto”da ta’kidlanishicha, katta patriarchal oila-“nmana”, yana bir necha “nmana”larning birlashuvi—urug’ jamoasi-“vis”ni tashkil etgan. Ma’lum hududdagi qo’shni “vis”larning birikuvidan hududiy qo’shnichilik jamoasi—

“varzana”, yana bir necha “varzana”lar jamoasining uyushuvidan qabila—“zantu” tashkil topadi. Bir necha qabilalarning birlashuvi natijasida qabilalar ittifoqi—“daxyu” vujudga kelgan. Arxeolog olim A. Asqarov tomonidan topib o’rganilgan Sherobod cho’lidagi Sopollitepada bu holatni aynan ko’zatish mumkin. Bu yerda o’troq dehqonchilik xo’jaligi asosida tashkil topgan 8 ta katta oila jamoasining qishlog’i, ularni birlashtirgan omil urug’chilik iplari emas, balki birinchi navbatda ishlab chiqarish bo’lgan. Ana shu 8 ta katta oila tarkibida patriarxal tizimi asosida qurilgan 100 dan ortiq juft oilalar bo’lgan.

Katta oila jamoasini boshqarish ishi ular orasidan saylangan oqsoqol—“nmanapati” qo’lida bo’lgan. Demak, Sopollitepada 8 ta oqsoqol bo’lib, ularni birlashtiruvchi oqsoqollar kengashi bo’lgan.

“Avesto”da aytilganidek, “nmana”-katta oila jamoasi , “nmanapati”-katta oila boshlig’i. Agar shu tizmidan kelib chiqqandigan bo’lsak, Sopollitepa qishlog’i aholisi 8 ta “nmana”dan tashkil topgan. “Vis” – urug’ jamoasi “vispati” esa ana shu “nmana”larni birlashtirgan oqsoqollar kengashining boshlig’i, urug’ oqsoqoli, katta qishloqlarning boshlig’i. Demak, ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo’’tabar zotlar—oqsoqollar qo’lida bo’lib, ular jamoa hayoti bilan bog’liq bo’lgan barcha ishlarni oqsoqollar kengashi orqali hal qilganlar.

Oqsoqollar kengashi qo’lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo’lib, u jamoaning kundalik faoliyatidagi xo’jalik masalalarini hal qilgan.

Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o’zida o’zining oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustoz va murabbiy bo’lgan.

Urug’-qishloq oqsoqoli esa oqsoqollar kengashining boshlig’i sifatida butun qishloq ahlini ham boshlig’i hisoblangan. Mo’tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a’zolari uchun majburiy bo’lgan.

Ishlab chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o’z xususiy mulkiga ega bo’lgan. Xususiy mulk kelib chiqishi, jamoalarning ishlab chiqarish qonun qoidalari asosida tashkil topishi o’z navbatida mulkiy tabaqlananishni keltirib chiqardi.

Boylik avvalo jamoa oqsoqollari , harbiy boshliqlar, mo’’tabar shaxslar qo’lida to’planib boradi. Ular hosildor yerlarni egallaydilar va ko’plab chorva mollariga ega bo’lib, jamoani boshqarganligi uchun ham katta ulush olganlar. Oqsoqollar o’z iste’mollaridan ortiq qolgan mahsulotlarni, mis, oltin, kumush buyumlarga ayribosh qilganlar. Qabilalar o’rtasida hosildor va yaylovlar uchun, chorva mollari uchun urushlar kelib chiqqan. Urushda qo’lga tushgan o’ljalarini ko’p qismini yo’lboshilar va oqsoqollarga berilgan va ular jamiyatda katta mulkka ega bo’lib, ularni zadogonlar deb atashgan.

Ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo’lishi asta –sekin ortiqcha mahsulotlarni ayriboshlashni hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini keltirib chiqardi. Jamoa a’zolaridan ishlab chiqarishning o’zlariga qulay sohalarini talab oldilar. Shu tariqa dehqonchilikdan chorvachilik, keyinroq hunarmandchilik ajralib chiqqan. Ular o’rtasida o’zaro ayriboshlash bozorlarni keltirib chiqardi. Datlabki shaharlar paydo bo’ldi. Arxeologlar (Afrosiyob) Samarqandning sharqiy qismi, Yerqo’rg’on va O’zurqir (Qashqadaryo vodiysi), Ko’zalaqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo) va boshqa qadimiy shaharlarni o’rganishgan. Qadimiy shaharlar mudofaa

devorlari bilan o'ralgan, ularda saroylar, qal'alar, hunarmandchilik ustaxonalar, bozorlar bo'lган. Uni shahar boshliqlari –hokimlar boshqargan. Shu tariqa jamiyatda sinfiy tabaqalanish avj oldi. Kambag'al va boylarga ajralib ketdi. O'zoq davom etgan bu jarayon hozirgi O'zbekiston hududida ham davlatlarni tashkil topishi uchun shart sharoitlarni tayyorladi.

O'rta Osiyo hududidagi ilk davlat to'zulmalari to'g'risidagi qadimiy yozma tariximizning eng noyob manbasi hisoblangan "Avesto" kitobi qadimshunos olimlarning o'lkamizning turli hududlariga olib borilgan qidiruv ishlari, ularning muhim natijalari, muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Qadimimgi Yunon, Rim va Eron manbalari asosida aniq fikrlarni keltirsa bo'ladi. Ulardan Geradod, Polibiy, Ktesiy, Strabon, Arrian kabilarni asarlari, forsiy mixxat yozuvlari. Shuningdek, arxeolog Ya. G'ulomov, S. Tolstov, V. Masson, A. Asqarov, A. Sagdullaev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molikdir.

O'zbek xalqi davlatchiligi yani jamiyat hayotini boshqarish tamoyillariga asoslangan dastlabki siyosiy to'zulmalar o'troq, sun'iy sug'orish dehqonchilik va chorvachilik zaminida bronza davridayoq Amudaryo va Sirdaryo havzalarida vujudga kela boshlagan. Uning tadrijiy davomida mil. av 1 ming yillik boshlarida aniqrog'i VIII-VII asrlarda Vatanimiz hududlarida "Katta Xorazm", "Baqtriya", "So'g'diyona" nomi bilan mashhur bo'lган dastlabki davlatlar barpo bo'lган.

Xorazm davlati egallagan hudud, hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubiga (Marv, Turkmaniston, Xirot (Afg'oniston) shimoliy) atroflarigacha yoyilgan.

Mil. av so'ngi ming yillikning boshlariga tegishli Amirobod madaniyati, Quyi Amudaryo havzasida yo'zaga kelgan o'ziga hos sun'iy sug'orish inshoati hamda dastlabki shahrozlik timsoli bo'lган shahar, qal'alar –Qal'alaliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasidan davlat to`zilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Negaki, bu singari umumelatlar, qavm-qabilar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o'zgarishlar davlat boshqaruvi yo'li bilangina amalga oshirishi mumkin bo'ladi. Qadimshunos olim Ya. G'ulomov tomonidan aniqlangan 200 km o' zunlikdagi eni bir necha o'nlab metr dan iborat bo'lган kanal o'zani obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi.

Geradod ma'lumotiga qadimda Oks (Amudaryo) daryosi bo'y lab 360dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari suv inshoatlari barpo etilib cho'lli, sahro yerlarga suv chiqarilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Geradod Xorazmga meva sabazvotning, g'allani barcha turlarini yetishtiradigan o'lka deb qayd etgan. Bu ko'hna hudud bag'rida ming yillar davmomida saqlanib kelayotgan ko'plab asori-atiqlar saqlanib yotganligini eslatib o'tgan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozircha aniq emas. Ba'zi bir tahminlarga qaraganda, Xorazmning siyosiy sulolasi Siyovushonlar sulolasi bo'lganligini zikr etadilar.

O'zbek davlatchiligining yana bir asosi – Baqtriya podsholigdir. Uning tarkigida Hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoliy – sharqiy qismi, So'g'diyona va Marg'iyona yerlari kirgan.

Rim tarixchisi Kurtsiy Rufning fikricha, “Baqtra daryosi nomidan shahar , viloyatning nomi chiqqan” .

Binobarin, “ Baqtriyaliklar “ juda qadim manbalarda tilga olinib, bir necha qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

Ktesiy ma'lumotiga ko'ra, bu o'lka obi-hayotga mo'l-ko'lligi unumdar yerlari ko'p bo'lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiyo topgan, aholi bog'dorchilik , mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo'lgan.

Qashqadaryo vohasining mil. av VIII-VII asrlariga oid Sangirtepa , O'zunqir, Yerqo'rg'on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko'ktepa singari makonlarni o'rghanish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlar.

Yunon tarixchisi Ktesiy va Geradodlarning bergen ma'lumotlariga Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, bu o'lka bitmas-tugamas boyliklar makoni degan edilar.

Shunday qilib, yuqoridaagi keltirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatdiki, davlatchilik jamiyatining ichida o'z ichki qonuniyatları ichida asosida paydo bo'ldi, rivojlanadi ya'ni davlat to'zummasi tashqaridan tayyor holda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbek davlatchilik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas .

O'zbekistonda “Voha davlatchiligi”, “Shahar davlatlar”, Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Mezoamerikadagi “noma” davlatchiligi kabi ilk sivilizatsiya belgiları paydo bo'ldi va rivojlandi. Shular asosida mil. av VIII-VII asrlarda Baqtriya podsholigi va “Katta Xorazm” davlatlari shakllandi.

3-Mavzu.Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So`g`diyona davlatlari.

Reja

- 1. Qadimgi Baqtriya podsholigi**
- 2. Qadimgi Xorazm davlati**
- 3. Qadimgi Sug'diyona**

Tayanch so'z va iboralar. Avesto, Baqtriya, Jarqo'ton, Erqo'rg'on, Kuchuktepa, Qiziltepa, Xorazm va So`g`diyona

Hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqi, O'zbekistonning janubi va Tojikistonning janubi-g'arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda Bahdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika, Tuxolo kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni Baqtriya deb atash e'tirof etilgan("SHohnoma"da Baxtar zamin, qadimgi turkiylarda Bahodirlar yurti).

Arxeologik ma'lumotlarning guvohlik berishicha, milloddan avvalgi II ming yillik o'rtalariga kelib Surxon vohasida qadimgi dehqonchilik madaniyatining jadallik bilan rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishning o'ziga xos xususiyat va qonunlariga

ega edi. Agar davlatchilik asosini shahar madaniyati tashkil etilishini hisobga oldigan bo‘lsak, bu jarayon O‘zbekistonning janubida, Baqtriya hududida milloddan avvalgi II ming yillik birinchi yarmidayoq shaharmonand qishloq Sopollitepa misolida boshlangan edi. A. Asqarovning fikricha, agar Sopollitepa o‘zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlari bilan protoshahar, ya’ni, Avestoda tilga olingan “vara” inshootini eslatsa, Jarqo‘ton yodgorligi O‘zbekiston hududida birinchi bor shakllangan tom ma’nodagi shahar edi. Jarqo‘ton qadimgi SHarq shaharlaridan tarkibiy jihatidan farq qilmaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha, Jarqo‘ton ko‘rinishidagi ko‘hna shaharlarni qadimgi SHarqdagi nom-davlatlar shakllari bilan qiyoslash uchun dalillar etarli. Ammo, Mesopatamiya nom-davlatlarining asosiy belgilaridan bo‘lgan yozuv Jarqo‘tonda mavjudligi hozircha bahslarga sabab bo‘lmoqda. Umuman olganda, milloddan avvalgi II ming yillikning so‘nggi choragiga kelib qadimgi Baqtriya hududlarida davlatchilikning nom yoki voha tipidagi siyosiy uyushmalari shakllana boshlaganligiga ilmiy asoslar bor.

Milloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko‘pgina tarixiy-madaniy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. Bu o‘zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog‘liq edi:

1. Temir buyumlarning paydo bo‘lishi va keng tarqalishi.
2. Qal’alari bo‘lgan qishloqlarning paydo bo‘lishi va keyin ularning shaharlarga aylanish.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o‘zgarishi.
4. SHarqiyaning qabilalarining migratsiyasi.

Arxeologik nuqtai nazardan, yuqoridagi davr Marg‘iyona tipidagi YOz I madaniyati mavjud bo‘lgan davrga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotchilar YOz I madaniyati davrini milloddan avvalgi II-I ming yillik bo‘sag‘asi – VIII-VII asrlar bilan belgilaydilar. Surxon vohasidan aynan mana shu madaniyatga o‘xshash yodgorliklar ko‘plab ochib o‘rganilgan. Bu davrda Baqtrianing to‘rtta-Ulonbuloqsoy, Bo‘stonsoy, Urgul va Halqajar vohalari o‘zlashtirilgan bo‘lib, arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Kuchuktepa, Jarqo‘ton, Bandixon va Qiziltepa ularning marakazlari edi. YUqoridagi vohalar o‘troq ziroatkorlar va chorvador-sastarlar harbiy boshliqlarining mulklari, markazlar esa ularning qarorgohlari bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Milloddan avvalgi I ming yillikning birinchi yarmida Qadimgi Baqtriya davlati tarkibiga Marg‘iyona va Sug‘diyona ham kirganligi taxmin qilinadi. Bu haqda turli hal ma’lumotlar mavjud bo‘lib, qadimgi fors podshosi Doro I Marg‘iyonada bo‘lib o‘tgan Frada boshchiligidagi qo‘zg‘oltonni (milloddan avvalgi 521 yil) bostirgani haqidagi Behistun yozuvlarini “man a men nimalarni qildim Baqtriyada” deb, hulosalaydi. Doro III davrida Baqtriya va Sug‘diyona birlashtirilgan o‘lka bo‘lib, unda Bess nomli satrap hokimlik qilgan davrda Baqtriya, Marg‘iyona hamda Sug‘diyona aholisining urf-odatlari va madaniyati bir-biriga ancha o‘xshash bo‘lgan.

Tarixning otasi Gerodotning “Tarix” asarida Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga olnadi. YUNON tarixchisi Ktesiy Knidskiy Baqtriya haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Tarixchi davlatdagi ko‘plab

shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtra (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas-tuganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Tadqiqotchilar ning fikrlarga qaraganda Qadimgi Baqtriya podsholigi qudratliligi jihatdan qo'shni viloyatlardan ancha ustun bo'lib, ular orasida alohida mavqega ega bo'lган. Baqtriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda ham Old Osiyoga qadar mashhur edi. Ayniqsa, Badaxshon lojuardi (lazurit) va la'li juda qadrlangan.

Avestoning eski qismlarida Axuramazda yaratgan "eng yaxshi o'lkalar va mamlakatlar orasida to'rtinchi bo'lib go'zal va bayroqlari baland ko'tarilgan **Bahdi** mamlakati" atamasi uchraydi. Ayrim olimlarning fikricha bu "baxtar" atamasiga mos kelsa kerak. Baqtriya haqidagi keyingi qadimgi ma'lumotlar Axamoniylar podsholarining mixxatlarida va bo'rtma tasvirlarida uchraydi. Misol uchun, Axamoniylar podsholarining markazlaridan biri Persepol shahridagi saroy devorlarida bo'rtma rasmlarda baqtriyaliklar idishlar ko'targan va ikki urkachli Baqtriya tuyalari bilan tasvirlanadi. Demak, Baqtriya mustaqil satraplik sifatida Axamoniylar davlatining iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lган.

A.Sagdullaevning tadqiqotlariga ko'ra, Baqtriya haqidagi turli ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchilari-Gerodot, Ktesiy, Arrian, Strabon, Kursiy Ruf, Diador, Pliniy kabilarning asarlarida ham mavjud bo'lib, ular bu podsholikning qadimiyligi va yuksak madaniyati haqida ma'lumotlar beradi. Xususan, Ktesiy Knidskiy Ossuriya podshosi Nin Belidning Baqtriyaga qilgan yurishi, uning baqtriyalik ayol Semiramidaga uylanganligi, Baqtriya podshosi Oksiart va uning boy xazinasi haqida ma'lumot beradi. Ktesiyning Baqtriya chegaralari haqidagi ma'lumotlari ham qiziqarlidir. Uning xabar berishicha: g'arb tomondan Baqtriya tekisligiga boradigan yo'lni tog'lar to'sib turadilar, ulardan faqat dovonlar orqali o'tib borish mumkin. Baqtriya Tanaisdan Hind daryosiga cho'zilgan bo'lib, Tanais uni Evropadan, Hind daryosi esa Hindistondan ajratib turadi.

Gerodot o'zining "Tarix" asrarida Baqtriya va baqtriyaliklarni 45 marta tilga oladi. "Baqtriya" atamasi Esxilning milloddan avvalgi V asrda sahnaga qo'yilgan "Fors"lar tragediyasida ham uchraydi. Yana bir qadimgi tarixchi Strabon Baqtriyani "oriylar o'lkasining javohiri" sifatida ta'riflaydi.

Baqtriyaning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirganligi haqida yozma va arxeologik ma'lumotlar nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra, milloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalariga kelib, Amudaryodan kechuv joyida va daryo yoqalab yo'llar bo'yida qal'alar (SHo'rtepa, Talashqon, Termiz, Xirmontepa) bunyod etiladi. Bu holatni olimlar Ahamoniylar ma'muriyatining Baqtiriyadan Sug'dga o'tuvchi yo'llarni qattiq nazoratda tutgan bo'lishi mumkinligi bilan izohlaydilar. Bu davrga kelib Baqtriya aholisi joylashuvida ham sezilarli o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bronza davrida o'troq dehqonchilik manzilgohlari asosan Baqtriyaning shimoli-g'arbida markazlashgan bo'lsa, keyinroq bu ko'lam kengayib shimoli-sharqiy qismlarni ham qamrab oladi. Tog' oldi hududlaridagi vohalarda aholi turmush tarzi yanada qizg'inlashib borgan bo'lsa, Surxondaryo, Konfirnihon, Vaxsh, YAvansuv atroflarda yangi vohalar o'zlashtiriladi.

E.V.Rtveladze Baqtriyadagi bu davrga oid tadqiqotlarni umumlashtirib, ushbu hududlardagi aholi joylashuvining quyidagi o‘nta vohasini ajratadi:

1. Ulanbuloqsoy-Amudaryoning irmog‘i bo‘lgan Ulanbuloqsoy vohasini egallagan bo‘lib, uning hududlarida Kuchuktepa va Dabilqo‘rg‘on joylashgan.
2. SHerobod-Amudaryoning irmog‘i bo‘lgan SHeroboddaryoning o‘rta oqimida joylashgan. Bronza davrida o‘ng qirg‘oq SHeroboddaryoda manzilgohlar paydo bo‘ladi va keyinchalik chap qirg‘oq hududlari o‘zlashtirilib vohaning chegarasi Angorgacha cho‘ziladi.
3. Urgul (Bandixon)-Bandixonsoyning o‘rta oqimida joylashgan. Ilgarigi o‘ng qirg‘oqdagi Bandixon I va II inqirozga uchrab, chap qirg‘oqda yangi manzilgoh – G‘ozimullatepa I paydo bo‘ladi.
4. Halqajar-Surxondaryoning o‘ng irmog‘i Halqajar vohasi hudularini egallaydi. Bronza davrida bu erdagi irmoqlar havzalari o‘zlashtirilgan bo‘lsa, milloddan avvalgi VII asrdan boshlab daryoning chap qirg‘og‘ida manzilgohlar paydo bo‘ladi. Bu vohadagi eng yirik yodgorlik Qiziltepa ko‘hna shahri hisoblanadi.
5. YUqori Surhon-Surxondaryoning o‘rta oqimi havzasida joylashgan bo‘lib bu vohada ham ikkita manzilgoh aniqlangan. Ulardan biri SHerobodsoyning o‘ng qirg‘og‘ida, ikkinchisi esa Dashnobodsoyning o‘rta oqimida joylashagan.
6. O‘rta Surxon-Surxondaryoning o‘rta oqimi havzasida joylashgan bo‘lib, bu vohadan ham ikkita manzilgoh-Hayitobodtepa va Bandixonsoyning Surxondaryoga quyilishi joyida joylashgan Nomsiztepa aniqlangan.
7. Amudaryo-Termizdan Boldirgacha bo‘lgan Amudaryoning o‘rta oqimi havzasida joylashagan. Bu vohada Termizning pastki qatlamlari va Kampirtepadagi 0,5 km. g‘arbda joylashgan Nomsiztepa milloddan avvalgi I ming yillik o‘rtalariga oiddir.
8. Vaxsh – YAvan – Vaxsh va YAvansuv daryolarining o‘rta oqimida joylashagan. Bu vohadan uchta manzilgoh – Tomoshatepa, Boldaytepa va SHo‘rchi yaqinidan Nomsiztepa aniqlangan.
9. Quyi Kofirnihon – Kofirnihon daryosining quyi oqimlarini egallaydi. Bu vohadan uchta – Qalaimir, Munchoqtepa va Xirmontepa manzilgohlari aniqlangan.
10. Boytudasht-Panj vohasining yuqori qismidagi Boytudasht mavzesida joylashgan. Bu vohadan unchalik katta bo‘lмаган sakkizta manzilgoh aniqlangan.

SHunday qilib, milloddan avvalgi I ming yilikning o‘rtalariga kelib qadimgi O‘zbekistonning janubida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq ko‘plab o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. YUqoridagi sanab o‘tilgan vohalarning har biri ma’lum hududiy-siyosiy birlashmani tashkil etgan bo‘lib, o‘z nomiga, ma’muriy markazlariga, yirik shaharlariga ega bo‘lgan bo‘lishi mumkin edi. Misol uchun, Surxondaryodagi Qiziltepa ko‘hna shahri atrofida to‘rtburchak shaklda qurilgan qadimgi uy-qo‘rg‘onlari (Qizilcha) 3-4 ta qo‘shni uylardan iborat bo‘lib, alohida joylashgan qishloq jamoasini tashkil etganlar. Har bir katta oila jamoasini ma’lum

uy-joy, chorva va erga egalik qilib, ma'lum darajada iqtisodiy mustaqil bo'lgan. Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvi, ibtidoiy davrlarga oid urug'-qabilaviy birlashuvdan tubdan farq qilib, ilk davlatchilik shakllari paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

Milloddan avvalgi VII-VI asrlar Baqtriya jamiyatida hududiy bo'linish shakllanib, alohining o'troqlashuv jarayonlari yanada kuchayadi. Ko'hna shaharlar qishloq xo'jalik atroflariga ega bo'lib, qal'alar paydo bo'ladi, muhim savdo yo'llari bo'yalarida tayanch istehkomlar barpo etiladi. Turli binolar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati etakchi o'rinn egallaydi.

O'rta Osiyodagi yana bir yirik davlat uyushmasi-Qadimgi Xorazm davlati hisoblanadi. "Katta Xorazm" va "Qadimgi Xorazm" masalasi bo'yicha o'zbekistonlik va xorijlik ko'plab olimlar turli-tuman tadqiqotlar olib borgan bo'lsalarda bu masalalar hamon tadqiqotchilarining bahs-munozaralariga sabab bo'lib kelmoqda. Avesto va yunon-rim tarixchilari ma'lumotlari bu munozaralarning asosini tashkil etadi. Undan tashqari, o'tgan asrning 50-60 - yillaridan boshlab bugunga qadar olib borilgan arxeolgik tadqiqotlar natijalari ham Xorazm davlatchiligi tarixi bo'yicha boy materiallar berdi.

Avvalo so'ngi yillardagi ibtidoiy davr yodgorliklarining qiyosiy tadqiqotlaridan (X.Matyakubov) xulosa chiqaradigan bo'lsak, Xorazm mil.avv IV-III m.y. dayoq O'rta SHarqning qadimgi sivilizatsiyalar olami bilan uzoq SHimolni bevosita bog'lovchi xalqa rolini o'tay boshlagan. Bronza davri Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlari qadimgi Xorazm erlarini o'zlashtirib bir-biri bilan qizg'in aloqada bo'lgan, SHimol va Janubdan ta'sir qabul qilib, yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan qabilalar madaniyati edi.

Ularning urug' jamoalari yarim erto'la uy -joylarda istiqomat qilib motiga dehqonchiligi va chorvachilik bilan shug'ullanib, ibtidoiy ishlab chiqarish xo'jaligi sari ilk qadam tashlaganlar. Ammo, ularning moddiy xo'jalik taraqqiyoti darjasи O'rta Osiyoning janubiy mintaqalari (Baqtriya, Marg'iyona) dagi qabilalarga nisbatan ancha orqada edi.

Amirobod madaniyati (mil.avv IX-VIII asrlar) davrida Amudaryo quyi havzasida yashovchi aholi hali davlatchilikdan bexabar bo'lib, irrigatsiya xususiyati ibtidoiy urug'-qabilachilik an'analarini saqlab qolgan aholi jamiyatiga xos edi. O'rta Osiyoning Janubiy mintaqalariga qaraganda Xorazm vohasi aholisi uzoq vaqt beqaror suv oqimi sharoitida, noqo'lay tabiat injiqqliklari girdobida qolib kelgan. Qadimgi yozma manbalar ma'lumotlari va mavjud arxeologik yodgorliklarning qiyosiy tahliliga ko'ra, Xorazmda davlatchilik ildizlarining paydo bo'lishigan asos bo'lgan ilk shaharsozlik madaniyati sohiblari-Xorazmiylar ko'chib kelgach tarkib topdi va rivojlandi.

"Xorazm" atamasining kelib chiqishi haqida ko'plab fikrlar mavjud. Olimlarning katta guruhi "Xorazm" atamasining ikkinchi komponenti -zmi, -zamni hind-evropa tillariga mansub - zemo - er, o'lka, mamlakat ma'nosini beradi degan xulosaga kelganlar. So'zning birinchi komponentiga kelganda olimlar fikrlaridagi yakdillik yo'qoladi va u turlicha - "Ozuqaga boy mamlakat", "Unum dor er" (E.Byurnuf, E.Zaxau, U.Geyger, U.Tomashek), "Go'zal mamlakat" (F.Yusti), "Unumsiz, yomon er" (F.SHpigel), "Pastlik er" (P.Lerx, N.Veselovskiy,

X.Klipert), “Quyoshli yoki SHarqiy o‘lka” (S.Tolstov, P.Savelev, F.Sulaymonova), “SHarqiy zamin”, “Kunchiqar mamalakat” (I.Mo‘minov) tarzida talqin etiladi.

YAna bir guruhi olimlar “Xorazm” atamasi uch leksima asosida (Uvarizami, u – “yaxshi”+ vara – “qal’ a”, ”qo‘rg‘on”+zimi-“er”) paydo bo‘lgan deb hisoblab, mazkur tarixiy atamaning ma’nosini “yaxshi qo‘rali er”, “Ajoyib qal’ali o‘lka” yoki “Mustahkam qo‘rg‘onli diyor”(Bogolyubov, A.Muhammadjonov) tarjima qiladilar. So‘ngi tadqiqodlarda “Xorazm” atamasining o‘zagi qadimgi turkiy asoslarga ega bo‘lishi mumkin degan fikrlar ilgari surilib (“Xuar” (“Suvar”) – “suv”(“xu”) – suv, “Ar”-er, odam, “m”- birinchi shaxs qo‘shimchasi) va u “Suv(daryo) odamlari” yoki “suv egalari” (M.Zakiev, SH.Kamoliddin, O‘Nosirov) deb tarjima qilingan.

Olimlarning ta’kidlashicha, Avestoda tilga olingan Aryoshayona yoki Aryanam Vaychax shu manbada eslatilgan Kavi Vishtaspning podsholigi bo‘lib, milloddan avvalgi IX-VIII asrlarda Drang‘iyona, Satagadiya, Ariya, Marg‘yona va Amudaryoning o‘rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. G‘arb tadqoqtchilari V.Xenning va I.Gershevichlar Avestodagi Kavi Vishtapsning davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblaydilar. “Katta Xorazm” muammosi Gerodot ma’lumotlaridan boshlangan. U “Tarix” asarining uchinchi kitobida quyidagicha ma’lumot beradi: “Osiyoda bir vodiylor. Uning barcha tomoni tog‘ bilan o‘ralgan, tog‘ni esa beshta dara kesib turadi. Bir vaqtlar bu vodiylor xorasmiylarga tegishli bo‘lib, xorasmiylar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarga chegaradosh erlarda joylashgan. Vodiyni o‘rab turgan tog‘dan Akes nomli yirik daryo boshlanadi”.

Gerodottan sal oldinroq yashab o‘tgan Gekatey parfiyaliklarning sharqi yomonida joylashgan “Xorazmiya”ni, “bir qismi tekisliklarda, bir qismi tog‘larda yashovchi xorazmliklarni” eslatib o‘tadi. Tadqiqotchi V.A.Livits ham bu “Katta Xorazm”ni Marv va Hirotning to‘rtta rayoniga joylashtiradi. Agar “Katta Xorazm” davlati Marv va Hirot atroflarida joylashgan taxmin rost bo‘lsa, A.S.Sagdullaevning fikricha, bu davlat forslar podshosi Kir II tamonidan bo‘ysundirilganidan so‘ng xorasmiylar Quyi Amudaryoning Xorazm hududlariga ko‘chib borganlar deb faraz qilinadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, miloddan avvalgi VI asr qadimgi forslar xorasmiylarni janubdan quyi Amudaryo erlariga siqib chiqargan.

Qadimgi Xorazm xo‘jalik tartibining tuzilishi janubiy hududlardagi sug‘orish tizimini eslatsa-da, o‘lchamlari jihatdan ancha kichik. M.A.Itinaning fikricha, bu davrda urug‘doshlarning qishloqlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan manzilgochlarning maydonlari kengayganligi ko‘zatiladi. Bu manzilgochlarda katta oilalar yashagan bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida xo‘jalik vazifalari, jumladan, sug‘orish tarmoqlarini saqlash va rivojlantirish bilan shug‘ullanganlar.

So‘nggi bronza davrida ham qadimgi Xorazm xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik xo‘jaligi edi. Bu davrga oid makonlardan juda ko‘plab turli hayvonlarning suyak qoldiqlari topib o‘rganilgan. CHorvachilik xo‘jaligida ot asosiy o‘rinda bo‘lib ulardan yuk tashish va safarga chiqishda foydalananilgan. Ayrim manzilgochlardan ot anjomlarining topilishi shu jarayondan

dololat beradi. Bu o'rinda ta'kidlash joizki, olimlar orasida massaget qabilalari totemlarida ot kulti markaziy o'rinda turishi haqidagi fikrlar ham bor.

O'troq dehqonchilik qabilalarining chorvachiligi uy chorvachiligi xususiyatiga ega edi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil. avv. I ming yillikning boshlariga kelib Orol bo'yidagi xo'jaligi asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan qabilalar o'rtasida farqlar shakllana boshlaydi. Mil. avv. VII-VI asrlarga kelib esa, ular madaniyati o'rtasidagi farqlanish yaqqol ko'zga tashlanadi.

Fikrimizcha, aynan mana shu davrdan boshlab, SHarqiyl Orol bo'yida yarim ko'chmanchi chorvador xo'jalik madaniy shakli ustunlik qilgan bo'lsa, Amudaryoning janubiy o'zanlarida esa yuqori darajadagi sun'iy sug'orishga asoslangan o'troq dehqonchilik xo'jaliklarining ahamiyati ortib boradi.

Mil. avv. I ming yillikning ikkinchi choragiga kelib Orol bo'yida hunarmandchilik ajralib chiqishining dastlabki belgilari ko'zatiladi. Ortiqcha mahsulotning ko'payishi esa mulkiy va ijtimoiy tabaqalanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga kelib qadimgi Xorazm hududlarida sug'orma dehqonchilikning taraqqiy etishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida ibtidoiy jamoa munosabatlari o'rniga davlatchilik tizimi shakllana boshlaydi. Ushbu tizimning shakllanishida qadimgi shaharlarning ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qadimgi Xorazm shaharlarining rejaviy uslublari – ichki va tashqi tuzilishi, himoya inshootlari, tabiiy joylashuvi nuqtai nazaridan ko'p hollarda bir-biri bilan o'xhashlik topadi.

Tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan Xorazmning eng qadimgi shahar-qal'alaridan biri bo'lgan Ko'zaliqirning quyi madaniy qatlamlarini S.P.Tolstov mil.avv VII-VI asrlar bilan, V. Masson esa mil. avv. V-IV asrlar boshlari bilan belgilagan edi. So'ngi tadqiqotlarda esa Ko'zaliqirda hayot butun mil.avv VI va V asrning birinchi yarmida mavjud bulgan degan xulosalar ustunlik qilmoqda.

Ko'zaliqir qadimgi Xorazmdagi dastlabki tuzilishi ancha aniq bo'lgan, himoya devorlari bilan o'rabi olinib diniy-topinish xususiyatiga ega bo'lgan me'moriy yodgorlikni o'zida aks ettiradi. Uning atroflaridagi keng maydon, aftidan keyingi qurilishlarga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Ta'kidlash joizki, mil. avv. VI-V asrlarga kelib O'rta Osiyo shaharsozlik madaniyatida ibodatxonalar qurilishi muhim bo'lib, asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ko'zaliqir O'rta Osiyoning boshqa shaharları kabi vohaning mustahkamlangan harbiy-siyosiy va ma'muriy markazi hisoblanib, rivojlangan sug'orma dehqonchilik bilan ta'minlangan edi.

S.Tolstov Amudaryoning quyi havzalari "Katta Xorazm" tarkibiga kirganligi haqidagi konsepsiyanı ilgari surib, Xorazmda mil.avv VIII-VII asrlarda dastlab qabilalarning harbiy konfederatsiyasi paydo bo'lib, undan davlat uyushmasi o'sib chiqdi degan fikrga kelgan bo'lsa, V.Masson bu fikrga qarshi chiqib, arxeologik materiallar tahlili Xorazmda Ahamoniylarga qadar markazlashgan davlat tashkil topganligini tasdiqlamaydi, degan fikrga keldi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga tayangan V.T.Vorobeva, o'tgan asrning 70-yillarida "Katta Xorazm"ning janubiy chegarasi Amudaryoning o'rta havzalari (Qo'shgal'a, Odoytepa atroflari)dan o'tgan va uning shimoliy chegaralari Amudaryoning quyi havzalarini qamrab olganligi hamda qadimgi Xorazm davlati

“Katta Xorazm” davlat konfederatsiyasining tarkibiga kirganligi haqidagi g‘oyani ilgari surdi. B.Vaynberg va S.Baratovlar ham V.Vorobeva g‘oyalariga yaqin fikr bildirganlar.

R.Fray “Katta Xorazm” davlatining hududi Marv – Hirot atroflarini qamrab olib, Ahamoniylar bosqinidan so‘ng bu hudud aholisi Oks (Amudaryo)ning shimoliga ko‘chganligi haqida fikr bildirgan bo‘lsa, I.Xlopin va I.Pyankovlar Xorazmdagi ahamoniylargacha bo‘lgan davlatchilikni inkor etadilar. A.Asqarov esa, xorasmiylarning Tajan (gerirud) va Xilmend daryolari havzalaridan shimolga, quyi Amudaryo havzalariga ko‘chishi mil.avv VI asrda ro‘y bergen bo‘lib, “Katta Xorazm” davlati konfederatsiyasining shimoliy chegarasi Amudaryoning o‘rtasi chegarasigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olganligi haqidagi fikrlarni ilgari suradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mil.avv. V-IV asrlarda Xorazm va unga qo‘shni bo‘lgan hududlarni urbanizatsiya jarayonlari qamrab olgan edi. Natijada bu hududlarda tarixiy-madaniy dehqonchilik vohalari paydo bo‘ladi va ular ilk davlatchilikning asosi edi. Mil.avv. VI asrdan boshlab esa hozirgi Xorazm vohasida davlatchilik shakllanib u qadimgi SHarq sivilizatsiyasi markazlaridan birga aylanib bordi.

Ilk temir davri O‘rtalik Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o‘rin egallagan Sug‘diyona o‘lkasi turli qadimgi manbalarda Sug‘da, Sug‘uda, Sug‘diyona nomlari ostida eslatib o‘tiladi. Bu nomlarning kelib chiqishi va ularning ma’nosи haqida hozirchi aniq fikr yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar (V.Tomashev) bu nomni eroncha “SUS” – “yonmoq, yaltiramoq, nur taratmoq” so‘zidan olingan desa, ayrimlari (O.Smirnova) bu “Gava sug‘uda” atamasi “hosildor vohalar o‘lkasi” degan ma’noni beradi deb hisoblaydilar. Avestoning YAsht kitobida tilga olingan “Sug‘d makoni Gava” – Sug‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra (A.Sagdullaev), Gava (Gau) – “buqa”, “poda”, Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlarida takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gauxona, Gaumurda, tog‘lar Gau, cho‘qqi Gau va boshqalar).

Hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini (Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqardaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent atroflari) o‘z ichiga oluvchi Qadimgi Sug‘diyona va Sug‘diylar haqida ilk yozma manbalarda ma’lumotlar deyarli kam. Avestoda viloyatlarning nomi ikki xilda ko‘rsatilgan – Gava Sug‘da va alohida Sug‘da. Gerodot esa Sug‘diylarni ikki marotaba – Ahamoniylar davlatining XVI satrap o‘lkasidagi xalqlarni sanab o‘tganda va forslarning qo‘shinlari safida jangchi – sug‘diylarning o‘rnini ko‘rsatib berganda tilgan olgan. Ammo tarixchi Sug‘d shaharlari, daryolari, tog‘lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday ma’lumotlar qoldirmagan. Ahamoniylar mixxatlari Sug‘diyona haqida asosan rasmiy darajada e’lon qiladilar va turli xil tarixiy muammolarni o‘rganishda ulardan foydalanish og‘ir kechadi. Gekatey, Ktesiy va Ksenofont asarlarida Sug‘diylar haqida ma’lumotlar yo‘q.

Aleksandr Makedonskiy davri va so‘nggi yunon-rim tarixshunoslari asarlarida tarixiy-geografik ma’lumotlar ancha keng berilgan. Sug‘diyonadagi alohida joylarda, viloyatlar, qal’alar – Nautaka, Ksenippa, Maroqanda, Bagi,

Basileya – “podsho shahri”, Politemet-Zarafshon, “Oksiart, Sug‘d qoyasi” va boshqa xabarlar shular jumlasidandir.

Bu ma’lumotlar asosida turli fikrlarga ega bo‘lish mumkin. Dastavval, mill. avv. IV asrga kelib, sug‘diylarning hududiy joylashuvi, ularning yashash uchun foydalangan asosiy erlarining chegaralari, daryo vohalari va viloyatlari aniqroq ko‘rinadi. Ammo, bu jarayonning tarixiy an‘analari – sug‘diylarning yoyilishi, o‘troq vohalarining paydo bo‘lishi va shu joylarda yirik shahar markazlariga asos solinishi yanada qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Qadimgi viloyatlarning joylashuv hududlari anchagina muammoli masala bo‘lib, tadqiqotchilariga qaraganda, O‘rta Osiyoning janubiy viloyatlariga (jumladan, Sug‘diyonaga ham) ko‘chmanchilarining hujumi-bu hududlarda davlat uyushmalari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin edi.

Ilk temir davri Sug‘diyonada, alohida hududiy tartib guruhida bo‘lib markaz vazifasini bajargan bir necha manzilgohlar turlari mavjud edi. Bular maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo‘lib, tuman – voha markazi vazifasini bajaruvchi markazlar – Daratepa, Konimex, CHordara; maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo‘lgan viloyat markazlari vazifasini bajarishi mumkin bo‘lgan shaharlar – O‘zunqir, Erqurg‘on, Xo‘ja Bo‘ston; bir necha viloyatlar markazi vazifasini bajaruvchi shaharlar – Afrosiyob (Maroqanda) va Buxoro kabilardir.

Arxeologik ma’lumotlarga qaraganda, hunarmandchilik muassasalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib boradi. Bu manzarani Afrosiyob topilmalari tasdiqlaydi. Bunday manzilgohlar asta – sekinlik bilan hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylanib boradi. Bu jarayonda qadimgi yo‘llar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ta‘kidlab o‘tishimiz joizdir. Afrosiyob, O‘zunqir, Erqurg‘on kabi ko‘hna shaharlar O‘rta Osiyo shimoliy dasht hududlardan keluvchi yo‘llar ustida joylashgan.

SH.Odilov, G‘arbiy Sug‘dda mil. avv. VI-V asrlardagi qishloqlar paydo bo‘lishini O‘rta Amudaryo tomonidan aholining kirib kelishi bilan bog‘laydi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyoda davlatchilik tarixining boshlanishi janubiy hududlarda boshlanib markaziy va shimoliy hududlarga yoyilgan deb hisoblanadi.

Arxeologik manbalarning ma’lumot berishicha, mil. avv. VII-VI asrlarga kelib O‘rta Osiyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar anchagina murakkablashadi. Bu o‘rinda Qadimgi Baqtriya ma’lumotlarini keltirib o‘tish joizdir.

Agar Midiya sultanating sharqiy chegaralari SHimoliy Parfiya va Ariyani o‘z ichiga olganligini hisobga oladigan bo‘lsak, midiyaliklarning Baqtriyaga harbiy xavf tug‘dirishi aniq edi va yana bir harbiy hujum havfi shimoldagi ko‘chmanchi qabilalar bo‘lib, bu holat Baqtriyaga davlat uyushmasi paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin edi. Kir II ning O‘rta Osiyoga yurishi-Ahamoniylarning Baqtriyaga va sak-massaget uyushmasi kabi jiddiy raqiblari mavjud bo‘lganligining dalilidir. Forslar O‘rta Osiyo janubiy vloyatlarini bosib olganlaridan keyingina, ya’ni, mil.avv. 530 yilda sak – masagetlar ustiga yurish boshlaydilar. Demak, bu paytga kelib Baqtriyaga harbiy – siyosiy uyushmasi tarkibiga Baqtriyadan tashqari Marg‘iyona va Sug‘diyona ham kirgan edi.

Bizning fikrimizcha, O'rta Osiyo hududlarida ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishida harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega edi. Chunki, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko'tarila olmaydi.

Eng so'nggi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil etar ekanmiz, Qiziltepa (Surxondaryo), YOztepa (Turkmaniston), O'zunqir, Erqo'rg'on (Qashqadaryo), Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqand) kabi ko'hna shahar va manzilgohlar sopol buyumlari va qurilish usullari bir-biriga nihoyatda o'hshash ekanligining guvohi bo'lamiz. Ammo, Erqo'rg'on, Kuchuktepa, Qiziltepa, YOztepadan topilgan mil. avv. IX-VII asrlarga oid buyumlarga o'xshash buyumlar Xorazm hududlaridan shu paytga qadar topilmagan.

Demak, qurilish usullari va moddiy madaniyatdagi o'zaro o'xshashlik, mil. avv. I ming yillikning boshlari Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona hududlari o'rtasida hech bo'limganda etnik tarixiy – madaniy birlik mavjud bo'lganligidan dalolat berib, bu o'xshashlik savdo-sotiq munosabatlari, o'zaro almashinuv va qadimgi savdo-tranzit yo'llariga ham bog'liq edi. Mil. avv. VI asrga kelib esa, Xorazm mustaqil davlat sifatida tashkil topadi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'zaro almashinuvda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Xorazmdagi ilk temir davri savdo-tranzit yo'llari voha ichidagi ichki yoki ikkinchi darajadagi yo'llar vazifasini o'tar edi. Asosiy savdo yo'llari esa Baqtryadan Janubiy Sug'd (Qashqadaryo), Markaziy Sug'd (Samarqand) orqali Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysiga o'tib ketardi.

Arxeologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqlanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, YAqin SHarqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan bo'ladigan tashqi ta'sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi.

Turli qadimgi manbalarda Sug'diyona nomi tilga olinsa ham, alohida davlat sifatida eslatilmaydi. Bu hol tadqiqotchilarning turli bahslariga sabab bo'lishiga qaramasdan, arxeologik tadqiqotlar bu masalaga ko'pgina aniqliklar kiritadi. Darslik muallifi bu tadqiqotlarni tahlil qilib va boshqa ma'lumotlarni umumlashtirib shunday hulosa chiqaradi.:

- Mil. avv. I ming yillikning boshlariga oid tarixiy – madaniy yodgorliklar Sug'diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi;
- Sug'diyona davlatchiligi tarixida nafaqat chetdan bo'lgan tashqi ta'sir, balki, ichki omillar imkoniyatlarining ham ahamiyati katta bo'ldi;
- Mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida Sug'diyona Baqtriya davlati doirasida nafaqat siyosiy, balki etnik-madaniy birlikni tashkil etardi. Qurilish usullari, me'morchilik san'ati va moddiy madaniyatdagi o'xshashlik fikrimiz dalilidir. Zero, bunday o'xshashlik iqtisodiy, madaniy munosabatlar hamda siyosiy birlik asosida paydo bo'lishi mumkin edi;

- Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan keyingi davrlarda Sug‘diyona mustaqil davlat sifatida mavjud bo‘lib, qo‘sni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni yanadi rivojlantiradi.

4- Mavzu. Yunon-Baqtriya, Qang‘ va Kushonlar davlatchiligi.

Reja

- Aleksandar Makedonskiyning harbiy yurishlari va unga qarshi kurash. Davlat boshqaruvi.**
- Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi**
- Qang‘ davlati**
- Kushonlar davlatining o‘zbek davlatchiligi tutgan o‘rni.**

Tayanch so‘z va iboralar. Ahamoniylar sultanati, Filipp II, Aleksandr, YUNon-makedonlar, Yunon-Baqtriya, Qang‘, Kushonlar

Ulkan Ahamoniylar sultanati o‘zining g‘arbga qilgan ekspansiyasi natijasida yunon davlatlari bilan to‘qnashadi va buning natijasida mil.avv. V asrning birinchi choragida yunon-fors urushlari boshlanadi. Mil.avv. V asr davomida betinim urushlar, saroydagi fitnalar, bosib olingan xalqlarning ozodlik uchun kurashlari Ahamoniylar davlatini ancha zaiflashtirib qo‘ygan edi. Mil.avv. IV asrining o‘rtalaridan boshlab esa, Bolqon yarim orolidagi shahar-davlatlar kuchaya boshlaydi. Bu davrda Makedoniya podshosi Filipp II Bolqon yarim orolida o‘z mavqeini mustahkamlab olib Ahamoniylarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi.

Filipp II o‘z davriga mos harbiy islohotlar o‘tkazib tartibli va yaxshi qurollangan qo‘sish tuzishga muvaffaq bo‘ldi. Mil.avv. 336 yilda Ahamoniylar davlatiga qarshi kurash boshlandi. Ammo, Filipp II ning o‘ldirilishi tufayli bu kurash to‘xtab qoldi. O‘scha yili taxtga Filipp II ning o‘g‘li 20 yoshli Aleksandr o‘tirdi. U Ahamoniylarga qarshi urushga jiddiy kirishib Kichik Osiyodan Parmenion boshliq qo‘sishlarni chaqirtirdi. Harbiy kengash to‘zib quruqlikda va suvda harakat qilayotgan qo‘sishlarni aniq vazifalar qo‘ydi.

Mil.avv. 334 yil mayida (Graniq daryosi yonida), 333 yil oktyabrida (Gavgamela, SHimoli-sharqi Mesopotamiyada) bo‘lgan janglarda fors qo‘sishlari to‘la mag‘lubiyatga uchradi. SHundan so‘ng Aleksandr uchun Ahamoniylar davlatining markazlariga yo‘l ochilgan edi. Aleksandr dastavval Bobilni, so‘ngra So‘za, Persepol, Pasargada shaharlarini egallab fors podsholarining xazinalarini qo‘lga kiritdi. So‘nggi Ahamoniy hukmdori Doro III avval Midiyaga, keyin esa Baqtriyada qochib ketdi. Kursiy Rufning ma’lumotlariga ko‘ra Baqtriyaga Doro III ga qarshi fitna uyushtirilib u o‘ldiriladi va fitnaga boshchilik qilgan Bess o‘zini Ahamoniylar podshosi deb e’lon qiladi. Ammo, Bess Aleksandrga harbiy qo‘sishlarni qarshi qo‘ya olmadi.

Mil.avv. 329 yilning bahoriga qadar Aleksandr Ariya, Drang‘iyona, Araxosiya kabi viloyatlarni egallab Oks-Amudaryo bo‘ylariga chiqib keladi. Arrian va Kursiy ma’lumotlariga ko‘ra bu paytda daryo juda sersuv bo‘lib, to‘lib

oqardi. Amudaryodan kechuv joyini tadqiqotchilar Kelif atroflari, CHushqago‘zar, Termez atroflari va SHo‘rob deb hisoblaydilar. Nima bo‘lganda ham, Aleksandr qo‘sishnlari qoplarga somon-xashak to‘ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o‘tganligi haqida yozma manbalarda ma’lumotlar saqlangan.

Aleksandr qo‘sishnlari daryodan o‘tgach Bessni ta’qib etib «Sug‘d viloyati Navtakaga» yo‘l oladilar (Avval Ptolomey Lag boshchiligidagi ilg‘or qism, keyin asosiy kuchlar). Sug‘d erlarida Spitaman boshliq mahalliy sarkardalar Aleksandrni to‘xtatib qolish maqsadida Bessni asir olib unga topshiradilar. Ammo, Aleksandrda harbiy yurishlarni to‘xtatish niyati yo‘q edi. Navtakadan so‘ng yunon-makedon qo‘sishnlari Sug‘diyonaning poytaxti Smarakandaga yurish qilib uni egallaydilar. Kursiy Ruf ma’lumotlariga ko‘ra yunon-makedonlar «shaharda o‘zlarining kichik gornizonlarini qoldirib, yaqin atrofdagi qishloqlarni yondirib va vayron etib», shimoli-sharqqa tomon harakat qila boshlaydilar. Jizzax va O‘ratepa oralig‘idagi tog‘li hududlarda yunon-makedon qo‘sishnlari qattiq talofat ko‘radilar. Aleksandrning o‘zi ham og‘ir yarador bo‘ladi. SHunga qaramasdan tog‘li hudud aholisini qiyinchilik bilan mag‘lub etgan yunon-makedonlar dasht ko‘chmanchilari saklar va Sug‘diylar o‘rtasida chegara bo‘lgan YAksart-Sirdaryoga tomon harakat qiladilar.

YUNon-makedonlar YAksart bo‘yida to‘xtab bu erdagisi shaharlarga o‘z harbiy qismlarini joylashtira boshladilar. Ko‘p o‘tmay bu shaharlar aholisi Aleksandrga qarshi qo‘zg‘alon ko‘taradilar. Daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi saklar ham o‘z qo‘sishnlarini bir erga to‘play boshlaydilar. Xuddi shu paytda Baqtriya va Sug‘diyona hududlarida ham Aleksandrga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlanib ketadi.

Aleksandr dastlab YAksart bo‘yida o‘z mavqeini mustahkamlashga qaror qilib, bu erdagisi qo‘zg‘olonlarni bostirdi. Sug‘diyonada mil.avv. 329 yil ko‘zida Spitaman boshchiligidagi qo‘zg‘oloni (Maroqandda) bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligidagi qo‘sishnlarni jo‘natdi. O‘zi asosiy kuchlar bilan saklar ustiga yurish qildi. Ammo, bu yurish muvafaqiyatsiz tugadi.

Farnux boshchiligidagi Maroqandaga jo‘natilgan qo‘sishnlar Spitaman tomonidan mag‘lubiyatga uchradi. Aleksandrning o‘zi asosiy kuchlari bilan Sug‘diyonaga qaytishga majbur bo‘ldi. O‘rta Osiyo hududlarida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar yunon-makedon zulmidan ozod bo‘lishga qaratilgan bo‘lib, Aleksandrning «varvar» larni osonlikcha bosib olmoqchi bo‘lgan rejalarini puchga chiqardi.

Sug‘diyonaning tog‘li hududlaridagi bosqinchilar qadami etmagan joylarda qo‘zg‘olonchilar yashirinib olgan edilar. Sug‘diyonaning deyarli barcha aholisi Spitaman tomonida bo‘lib, uning g‘alabalariga katta umid bog‘lagan edilar. Aleksandr esa, mil.avv. 329-28 yillar qishlovini Baqtriyada (ba‘zi manbalarda Navtakada deyiladi) o‘tkazar ekan vaqtini behuda ketkazmadidi. U bu erda Xorazm hukmdori Farasman bilan mo‘zokaralar olib bordi. Natijada Aleksandrning Xorazmga yurish rejasi to‘xtatildi.

Mil.avv. 328 yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurash yana avj oldi. Mahalliy aholi yirik shaharlar, qal’alar, tog‘li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 ming

qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar – Gefestion, Ptolemy Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi.

YUNon-makedonlarning shafqatsiz urushlari natijasida ko'pgina mahalliy aholi qirilib ketdi. Qolganlari ham tog'li hududlarda kurashni davom ettirdilar. Bu o'rinda Spitamanning jasorati haqida to'xtalish joizdir. U doimo raqiblarining zaif joylarini izlar va ularga aynan o'sha joylardan zARBalar berar edi. Spitaman Sug'diy va baqtriyalik zodagonlar, hamda saklar bilan ittifoqlikda dushmanga qarshi kurashishga harakat qildi. Manbalarning ma'lumot berishicha mil.avv. 328 yilning oxirida Spitaman o'z vatandoshlari xiyonatining qurboni bo'ladı. Spitaman tajribali davlat arbobi va sarkarda bo'lib, u bosqinchilarni Ona – yurtidan haydab chiqarishi uchun imkoniyati bo'lgan barcha tadbirni ko'rdi, chorallardan unumli foydalanishga harakat qildi. U mohir sarkarda bo'lib dushmanning kichik hatosidan ham unumli foydalanar va uning zaif tomonlarini topishga harakat qilardi. Ammo, Aleksandr harbiy kuch-qudrati jihatdan Spitamandan ustun edi.

Spitaman halok bo'lganidan so'ng asosan tog' qal'alari qo'zg'olon o'choqlariga aylanadi. YOzma manbalarda eslatilgan «Sug'd qoyasi» (yoki «Arimaz qoyasi»), «Xorien qoyasi» shular jumlasidandir.

Aleksandr Makedonskiy mahalliy aholini kuch bilan engish nihoyatda og'ir ekanligini anglab etganidan so'ng turli yo'llar bilan ularga yaqinlashishga qaror qildi. Mahalliy xalq vakillariga nisbatan siyosatini tubdan o'zgartirdi. Xususan, zardushtiy qohinlariga birmuncha erkinliklar berib o'zi ham bu dinni qabul qildi. Qo'zg'olon boshliqlari Oksiart, Sisimir, Xorien kabilarni avf etib, mol-mulklarini qaytarib berdi. Hatto, qo'zg'olonga qatnashganlarga mukofotlar tarqata boshladi. Mahalliy aholi bilan qarindoshlik munosabatlarini o'rnatib Oksiartning qizi go'zal Roksanaga (Rohshanak) uylandi. Natijada mahalliy zodagonlarning deyarli barchasi Aleksandr hokimiyatini tan olib uning xizmatiga o'tib ketdilar. Mil.avv. 327 yilning oxirida Sug'diyonadagi qo'zg'oloning so'nggi o'choqlari ham bostirildi.

YUNon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida kurash olib borar ekan, O'rta Osiyo xalqlari mislsiz jasorat namunalarini ko'rsatdilar. Ular yunonlar o'ylaganidek, «varvarlar» va madaniyatdan orqaga qolgan emas, balki o'z davrining yuksak harbiy san'ati va madaniyatiga ega ekanliklarini namoyish etdilar. Aleksandr qo'shnari butun SHarq davlatlarini o'zlariga bo'ysundirganlarida Sug'diyona va Baqtriyadagi kabi qattiq qarshilikka uchramagan edilar. Bu holni Aleksandr tarixini yozgan ko'pgina qadimgi davr tarixchilari ham e'tirof etadilar.

O'zbekiston hududlarida yashagan mahalliy aholi o'z ozodligi va mustaqilligi yo'lida bir tan-bir jon bo'lib harakat qilganlar. Ammo, kuchlar nisbati va harbiy texnikaning teng emasligi ko'p hollarda bosqinchilar ustunligini ta'minlagan. SHunga qaramasdan bunday holatlar davlatchilik tarixida muhim iz qoldirgan.

SHunday qilib Xorazm, CHoch (Toshkent vohasi), Farg'ona va saklar yurti Aleksandrdan mustaqil bo'lib qoladi. Sug'diyona, Baqtriya, Marg'iyona va Parfiya Aleksandrning davlatiga qo'shilib, keyinchalik ularning hududida ayrim yunon-makedon davlatlari vujudga keladi.

Aleksandrning harbiy yurishlari SHarq va G‘arb o‘rtasidagi keng savdosotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishiga olib keldi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o‘zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo‘silish jarayoni boshlanadi. Bu jarayonning ta’sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me’morchilik, kulolchilik va tasviriy san’at, yangi yozuvlarning tarqalishi, tangashunoslik hamda diniy e’tiqodlarda ko‘rish mumkin. YUnionlar o‘z navbatida qadimgi SHarqning juda ko‘plab madaniy yutuqlarini qabul qiladilar hamda mahalliy aholi madaniyatiga ham ta’sir o‘tkazadilar. Aleksandr davridan boshlab, bir necha asrlar davomida, SHarqning siyosiy tarixi (davlat tizimi, boshqaruv usullari, qonunlar va huquq) da turli an’analarning qo‘silib rivojlanganligini ko‘zatishimiz mumkin.

Mil.avv. 323 yilda Aleksandr Bobilda to‘satdan vafot etdi. Uning vafot etishi bilanoq davlatdagи markazdan qochuvchi kuchlarning harakatlari faollahuvi natijasida Aleksandr to‘zgan davlat parchalanib uning o‘rniga nisbatan barqarorroq bo‘lgan davlat uyushmalari paydo bo‘ladi. Ta’kidlash lozimki, Aleksandr davlatining parchalanishi va uning xarobalarida yangi davlatlar tizimining paydo bo‘lishi tinchlik yo‘li bilan emas balki, Aleksandrning Makedonskiyning yaqin sarkardalari – diadoxlar o‘rtasidagi tinimsiz urushlar tufayli bo‘lib o‘tdi. Diadoxlar o‘rtasida 40 yildan ziyodroq davom etgan jangu-jadallar natijasida Aleksandr mulklari bo‘lib olinadi.

Aleksandr Makedonskiy mulklariga egalik qilish shu bilan yakunlandiki, mil.avv. 306 yilda nisbatan kuchli bo‘lgan diadoxlar – Antigon Birko‘zli (Odnoglasiy), Demetriy Poliorket, Ptolomey Lag, Lazimax, Salavka, Kassandrlar o‘zlarini podsho deb e’lon qildilar hamda bu bilan Aleksandr davlati xarobalarida o‘z davlatlarini barpo etishni ma’lum qildilar. SHu tariqa tarix sahnasida G‘arb va SHarq an’analarini uyg‘unlashtirgan ellistik davlatlar paydo bo‘ldi. Ana shunday yirik davlatlardan biri-Salavkiylar davlati edi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilarining e’tirof etishlaricha, YUnion-Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo‘zg‘oloni xususiyatiga ega bo‘lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar YUnion-Baqtriya davlati paydo bo‘lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil.avv. 256, 250, 248 va 246-145 yy). Bu davlatning asosi Baqtriya bo‘lib, ba’zi hukmdorlar davrida (Evtidem, Demetriy, Evkratid) Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi katta erlar qo‘sib olinadi.

Baqtriyaning salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va YUstinda o‘zuq-yuluq ma’lumotlar saqlangan bo‘lsada bu haqda batafsil ma’lumotlar uchramaydi. SHunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo‘jalik hujjatlari, san’at yodgorliklari, sug‘orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari bergen ma’lumotlar asosida bu davlatdagи ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Ammo, YUnion-Baqtriya davlatining siyosiy tarixi ko‘p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi.

YUnion-Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo‘lib, tangashunoslik ma’lumotlari Diodot I,II,III, Evtidem I,II, Demetriy, Geliokl,

Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi YUnion-Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo‘lib idora etganlar.

YUnion-Baqtriya markazlashgan davlat bo‘lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satrapiya) larga bo‘lingan bo‘lib, bu viloyatlar boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo‘ysunar edilar. Ammo, bu davrda davlat nechta satrapiyalar bo‘lganligi va ular qanday nomlanganligi ma’lum emas. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, satrapiyalarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an’analariga amal qilingan bo‘lishi mumkin.

YUnion-Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo‘sishin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta’kidlash lozimki, yunon-baqtriya qo‘sishinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo‘shtinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq-suvoriylardan iborat bo‘lgan. Qo‘sishinlar tarkibida harbiy fillar ham bo‘lgan.

Antik davr O‘zbekiston hududlarida tarqqiy etgan davlatlardan biri – Qang‘ davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang‘ davlati mavjud bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar mil.avv. III asr oxiri – II asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Ammo, Qang‘ davlati va qang‘arlar tarixining mashhur bilimdoni K. SH. SHoniyozovning fikricha, bu davlat mil. avv III asming boshlarida paydo bo‘ladi. Keyinroq esa, YUnion-Baqtriya davlati va qo‘shti ko‘chmanchi qabilalar bilan bo‘lgan kurashlar natijasida Qang‘ davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O‘rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi.

Qang‘ davlati asosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarida istiqomat qilganlar. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududiy asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang‘ davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o‘z chegaralarini ham kengaytirib boradi. YA’ni, mil.avv. II va milodiy I asrda Qang‘ davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O‘rta Sirdaryo erlari, Talas vodiysi va CHu daryosining quyi oqimidagi erlarni o‘z ichiga olar edi.

Qang‘ davlati haqida bizgacha etib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolasi tarixida (mil.avv. 202-mil. 25 yy) Qang‘ podshosi o‘z **oqsoqollari** bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma’lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o‘sha davrda tashkil topgan Qang‘ davlatida **kengash** muhim rol o‘ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Demak, o‘sha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo‘lib, podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog‘liq masalalar ana shu kengash yig‘ilishida hal qilingan.

Qang‘ davlatiga qarashli erlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo‘lingan bo‘lib, ularning har birini **jobg‘u** yoki **yobg‘u** (qad. Xitoy manbalarida – chjaovu) deb nomlangan xokimlar boshqargan. Jobg‘ular mamlakat boshqaruvida Qang‘ podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg‘ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug‘-qabila boshliqlaridan tayinlangan.

Mil.avv. II-I asrlarga kelib Qang‘ davlati kuchayishi natijasida bir qancha viloyatlar unga tobe etiladi. N. YA. Bichurin, Xitoy solnomalarida qang‘lilarga tegishli qo‘yidagi beshta viloyatlar haqida ma’lumotlar borligini ta’kidlaydi: Suse (Susye), Fumu, YUni, Gi, YUegyan. Ushbu viloyatlarning qaysi hududlarda joylashganligi haqida tadqiqotchilar orasida yagona fikr yo‘q. Ayrim tadqiqotchilar (V. V. Bartold, M. E. Mason, S. P. Tolstov) Suseni-Kesh (SHaxrisabz), Fumuni-Zarafshondagi Kushoniya, YUnini-Toshkent, Gini-Buxoro, YUegyanni-Urganch va uning atroflari bilan aynan bir deb hisoblaydilar. Ammo, Qang‘ga tobe viloyatlarning bunday joylashtirish to‘la holda ilmiy asoslanmagan bo‘lib, munozarali hisoblanadi.

Qang‘ davlatining etnik tarkibi xilma-xil bo‘lib, uning anchagina katta hududlarida Sug‘diyona, Xorazm va Toshkent vohasida yashovchi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqlar bilan shug‘ullanib kelgan o‘troq aholi bilan birqalikda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvadar qabilalar (saklar, massagetlar, toharlar, alanlar va boshqalar) istiqomat qilganlar. Sirdaryoning o‘rtasi oqimida yashagan qang‘lilar Qang‘ davlati tashkil topishida asosiy o‘rinni egallagan bo‘lib, Qang‘ podsholari asosan qang‘lilar bo‘lgan.

Mil.avv. II - mil. II asrlarda Qang‘ davlati o‘z rivojlanishining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Qang‘ podsholariga bo‘ysunuvchi yarim mustaqil viloyatlarni birlashtirgan bu davlat o‘z vaqtida anchagina kuchli bo‘lib, o‘zbek davlatchiligi tarixida o‘z o‘rniga egadir. Agarda antik davrda O‘rta Osiyoning janubida shakllangan Kushon va Parfiya davlatlari Ahamoniylar, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar asos solgan davlatlar an‘analarini o‘zlashtirib taraqqiy etgan bo‘lsa, Qang‘ davlati taraqqiyotida ko‘chmanchilar davlatchiligi belgilari borligi bilan ajralib turadi.

Bizga qadar etib kelgan yozma manbalar va bugunga qadar olingan arxeologik ma’lumotlarga asoslangan tadqiqotchilar Qang‘ davlati, uning tarkibi, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tarixini yoritishga, mazkur siyosiy birlashmada davlatchilik boshqaruvining shakllanishi va rivojlanishi xususida o‘z munosabatlarini bildiradilar.

Tadqiqotchilarining e’tirof etishlaricha, qang‘lilarning ko‘pchiligi shaharlarda va katta-kichik qishloqlarda yashaganlar. SHaharlar mustahkam himoya inshootlari bilan o‘rab olinib, ularda qal’alar ham mavjud bo‘lgan. Ko‘pchilik shaharlarning avvaldan o‘ylangan rejaviy to‘zum asosida qurilganligi Qang‘ davlatida shaharsozlik madaniyati rivojlanganligidan dalolat beradi.

Mustahkam himoya inshootlari va qal’alarga ega bo‘lgan shaharlarda hamda yirik qishloq va qo‘rg‘onlarda yirik qabila boshliqlari, urug‘ yoki jamoa oqsoqollari, boy-badavlat oilalar va qisman hunarmandlar yashaganlar. Turarjoylar asosan paxsa va xom g‘ishtdan qad ko‘targan. Qang‘ davlati aholisining ko‘pchilik qismi tarqoq holda kichik-kichik qishloqlarda, erto‘lalarda, kapa uylarda va o‘tovlarda yashab, yarim o‘troq va ko‘chmanchi turmush tarzi yuritganlar.

SHahar va qishloqlarda hunarmandchilikning ko‘plab sohalari – kulolchilik, temirchilik, teriga ishlov berish, zargarlik, toshtaroshlik, to‘qimachilik kabi o‘nlab turlari rivojlangan edi. Arxeologik ma’lumotlarning guvohlik berishicha, yirik shaharlarda hunarmandchilikning ma’lum sohasiga ixtisoslashgan ustalarining

mahallalari mavjud bo‘lgan. Tadqiqotlar natijasida topilgan rangdor sopol idishlar, turli matolar qoldiqlari, charm buyumlar, ot-ulov anjomlari hamda turli zebzynatlar Qang‘ davlati madaniyati nihoyatda rivojlanganligidan dalolat beradi. SHuningdek, Kanka harobalaridan, Jo‘nariq atroflaridagi tepaliklardan, Qovunchitepa, CHoshtepa va Toshkent vohasining ko‘pgina hududlaridan mil.avv. III – milodiy V asrga oid arxeologik topilmalar ham Qang‘ madaniyati rivojining namunasidir.

Qang‘ tadqiqotchilarining e’tirof etishlaricha, bu davlat madaniyatining yuqori darajasi tasodifiy hol emas. YAksart-Sirdaryoning o‘rtal oqimida yashovchi qang‘lilarning Sug‘diyona, Farg‘ona hamda daryoning quyi oqimida yashovchi ko‘plab xalqlar bilan o‘zaro madaniy va iqtisodiy aloqalari Qang‘ davlati madaniyati taraqqiyotiga asos bo‘lgan edi. SHuning uchun ham ko‘p hollarda ular madaniyatidagi umumiylig ko‘zga tashlanadi. Undan tashqari Qang‘ davlati hududlaridan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlarining o‘tganligi ham davlatning iqtisodiy va madaniy rivojiga, qo‘sni davlatlar bilan siyosiy va diplomatik aloqalarning taraqqiy etishi uchun omil bo‘lib xizmat qilgan edi.

Tarixiy manbalar YUnion-Baqtriya davlati ko‘chmanchi qabilalar tomonidan tor-mor etilganligi haqida ma’lumot beradi. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriyani assiylar, passianlar, toxarlar, saklar qabilalari bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, – “Baqtriya va Sug‘diyonaning skif qabilalari saraukalar va assianlar bosib oladilar”. Tadqiqotchilarining fikricha, har ikkala tarixchi bitta qabila haqida ma’lumot bergen.

Qadimgi Xitoy manbalari Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma’lumot beradi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv. 172-161 yillar oralig‘ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunlardan mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng O‘rtal Osiyoning shimoliy hududlarida ko‘chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida **“Da-yuechji”** – **“Buyuk”** yoki **“Katta yuechji”** deb eslatiladi. CHjan Szyan ma’lumotlariga ko‘ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag‘lubiyatga uchragach O‘rtal Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonidan o‘z poytaxtlariga asos solganliklari ta’kidlanadi.

Tadqiqotchilariga ko‘ra, yuechjilar mil.avv. 140-130 yillar oralig‘ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko‘p o‘tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma’lumotlariga ko‘ra, Katta yuechji hukmdorlari qo‘l ostida beshta xokimlik (Xi-xeu) bor bo‘lib, ular Xyumi, SHAunmi, Guyshuan, Xise va Dumillardan iborat edi. Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko‘pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo‘ladilar:

1. Mil.avv. 139-125 yillar – Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.
2. Mil.avv. 25 yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo‘lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi. YUEchjilar bo‘ysundirgan hududlar Xise, SHAunmi, Guyshuan, Xyumi,

Dumi mulklaridan iborat bo‘lib, ular xi-xou (yabg‘u) tomonidan birlashtirilgan.

3. Mil.avv. 25 yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo‘lishi. Kushon (Guyshuan) yabg‘usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to‘rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Ta’kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o‘rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma’lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma’lumotlar va ilk o‘rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

1. YUnion-Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O‘rta Osiyo va SHimoliy Afg‘oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil.avv. II asrning oxiri – I asr).
2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo‘lishi va gullab yashnashi (milodiy I-III asrlar).
3. Ko‘chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qo‘lashi (III asr oxiri – IV asr).

Kushon davlatining paydo bo‘lishi haqida ko‘proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma’lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar sultanatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo‘lgan bo‘lsada, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga juda ko‘plab aniqliklar kiritish imkonini bergen tadqiqotlar olib borildi. Ayniqlsa, 1961 yil Londonda o‘tkazilgan xalqaro simpozium, 1968 yil Do‘shanbeda YUNESKOning konferensiyasi, 1970 yil Qobuldagagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, undan keyin ham bu masala bo‘yicha ko‘plab xalqaro anjumanlar bo‘lib o‘tdi.

Mil.avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib Qobuliston va Qandahorni zabt etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin ko‘hna shahri harobalari bo‘lgan Kushon davlati o‘z ahamiyatiga ko‘ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim sultanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy manbalaridagi “**Guyshuan hokimi Kiotszyukyu**”, ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan “**Kushon podshosi Kujula Kadfiz**”ga aynan mos to‘shadi.

Tangashunoslik ma’lumotlariga tayangan tadqiqotchilarning fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80 yildan ziyodroq umr ko‘rib 50-60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35 yilda vafot etadi. O‘zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo‘limgan yuechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari G‘arbiy va Janubiy Afg‘oniston va SHimoliy Hindistonni o‘z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko‘tariladi. Ammo, manbalarining guvohlik berishicha Kadfiz I davrida Kushon davlati to‘la shakllanib bo‘limgan

edi. Har holda, bu davrda Kushonlar o‘z tangalariga ega bo‘lmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiyga) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o‘g‘li Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o‘tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o‘tirganidan so‘ng “Tyanchju (Markaziy Hindiston)ni zabit etdi va u erga o‘z sarkardalaridan birini boshqarish uchun qoldirdi. SHu davrdan boshlab yuechji kuchli va boy davlatga aylandi”, deb xabar beradilar. Bu xabarni tangashunoslik ma’lumotlari ham ta’kidlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning o‘ng qirg‘oq Baqtriyadan, Tojikiston va O‘zbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so‘nggi yillardagi tadqiqotlariga ko‘ra, Kadfiz II zarb ettirgan **“SHohlar shohi – buyuk xaloskor”** degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim sultanati bilan aloqalar o‘rnatganligi haqida ma’lumotlar bor.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushonlar sultanati gullab-yashnashining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo‘shib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan Peshovar (Afg‘oniston) atroflariga ko‘chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi SHimoliy Hindiston, Afg‘oniston, O‘rta Osiyoning katta qismi, SHarqiy Turkmanistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, “Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon shuxrati qo‘shni mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko‘pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g‘arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o‘z garovga qo‘ygan odamlarini yuborar edilar”.

Kushonlar sulolasi yozma manbalar asosida va tangashunoslik tadqiqotlari orqali o‘rganilgan. Kushonlar davrida chiqarilgan ilk tangalarning bir tomonida YUnion-Baqtriyaning so‘nggi podshosi Germey tasviri, ikkinchi tomonida esa “kushonlar yabg‘usi Kujula Kadfiz” degan so‘zlar bor. Demak, dastlab Kushon hokimlari o‘z nomlarini “podsho”, “shoh” tushunchalari bilan bog‘lamaganlar. Ammo, Kushon davlati hududining kengayishi va siyosiy-harbiy ahamiyatining ortib borishi bilan birga tanga pullarda “shoh”, “shohlar shohi” atamasi ko‘plab uchraydi. Bunday o‘zgarishlar Xitoy muallifi bergen ma’lumotlarni ya’ni, davlatning harbiy qudrati ko‘pchilik mamlakatlar tomonidan tan olinganligini isbotlaydi.

Podsho Kanishka I o‘zidan oldingi davlat boshqaruvi an’analarini saqlab qoldi va davom ettirdi. Ma’lum viloyatlar va shaharlar davlat tepasida turuvchi oliy hukmdor noiblari tomonidan boshqarilar edi. Bunday noiblar podsho tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Ular oliy hukmdorga, ya’ni, podshoga so‘zsiz itoat etib, doimiy ravishda davlat xazinasiga o‘lponlar tulab turganlar. Kushonlar davrida mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq tartibi haqida ma’lumotlar bizgacha saqlanmagan bo‘lsa-da, bunday tartib mavjud bo‘lganligi aniq.

Kushonlar davrida madaniy hayotning yanada yuksalganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, Kanishka davrida Hindistondan tarqalgan budda dini davlat diniga aylandi. Oromiy va yunon yozuvlari asosida kushon yozuvi mavjud bo‘lgan. SHuningdek, bu davrda Sug‘dcha va xorazmiycha yozuvlar ham bor edi. Ushbu yozuvlar yodgorliklarida o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan. SHuningdek, Kushonlar davrida O‘rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining quruvchilik, haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi sohalarida ham katta yutuqlarga erishilgan. Xorazm, Sug‘diyona, Baqtriya, Farg‘ona, CHoch, SHarqiylar Turkiston va SHimoliy Hindistondan ochilgan ko‘plab madaniy yodgorliklar yuqoridagi hudadlardagi madaniy hayot o‘zining yuqori cho‘qqisiga chiqqanligidan dalolat beradi.

Kushonlar davrida binokorlik va me’morchilik ham shaklan ham mazmunan rivoj topganligi ko‘ztiladi. CHunki, bu davrdagi ma’muriy, diniy, ishlab chiqarish, turar-joy, mudofaa inshootlari, SHarq me’morchiligi bilan ayrim o‘xshashliklar topsada, o‘ziga hos tomonlari ustunlik qiladi. Me’morchilikning o‘ziga hos namunalari Dalvarzin, Xolchayon, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa kabilardan o‘rganilgan bo‘lib, ular jahon miqyosida mashhur bo‘lgan obidalardir.

Kushon davlatining inqirozga uchrashi Gerk-Baqtriya va Rim sultanati tarixiy taqdiriga ancha o‘xshab ketadi. Bu davlatlarning barchasi qo‘lash arafasida tinimsiz yurishlar olib borishga majbur bo‘lganlar. Tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish uchun ichki va tashqi sabablarga ko‘ra, zaiflashgan yirik davlatlarda etarli harbiy imkoniyat topilmadi. Milodiy IV asrga kelib Kushon podsholigi o‘zining asosiy hududlaridan mahrum bo‘ldi. Bu podsholikning ayrim mulklari SHimoliy Hindistonda saqlanib qoldi.

5-mavzu.Eftalitlar davlati Reja

REJA.

- 1. Eftalitlar davlatining shakilanishi va uningrivojlanish tarixi.**
- 2. Eftalitlar davrida Osiyoda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar.**

Tayanch so‘z va iboralar. Eftaliylar, ichki va tashqi kurashlar, Kidar, “oq xunlar”, Prokopyi Kesarskiy, Devori qiyomat, Kampirak, Rivdad, Kushoniya, Arqud, “kamoni chochiy”, ma’muriy markaz, Zahariq, Darg‘om, “kadivar”lar, shahanshoh Pero ‘z, xalqaro savdo, buddaviylik, xrustianlik, moniylik.

Ma’lumki so’nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarni xulosalariga ko‘ra eftalitlar, ularning etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixi manbalarda turli xil qarashlar mavjud. (Ma’lumki xalqning etnik qatlami va etnik tarkibi deganda bir_birdan muayyan darajada farqlanadi. Etnik qatlam degai xalqning shaklangan hududi, makoniga tegishlidir.Xalqning etnik tarkibi deyilganda esa uning shaklanishida qatnashgan qabila, urug’lar, elatlar va hattoki xalqlar nazarda tutiladi.)

Rim va Vizantiya tarixchilari Marqelin(IV asr), Prokopiy Kesariyskiy, Feofon Vizantiyskiy (VI asr), arman tarixchisi Lazar Parbskiy (V asr), xitoy solnomachilaridan Bye-Shi (VI asr) bergan ma'lumotlar shular jumlasidandir. Masalan, eftalitlar xitoy manbalarida «i-da», «s-da», armanlarda idal, xepthal, arablarda xaytal,suriya va lotin manbalarida eptal deb nomlanadi.

Rus va Vizantiya tarixchilarining ko'pchiligi eftalitlarni turki qabila-massagelarning so'ngi bo'g'inidan kelib chiqan deb fikr bildiradilar. «Avesto»da esa tatlar nomi bilan eslatib o'tilgan. F. Vizantiskiy esa eftallar nomi bilan bog'laydi. Shu narsa aniqki,eftalitlar Turkiston mintaqasida yashab kelgan turki qavmlardandir. Eftalitlar hukumdori Vaxshunvar Eftalon 457 yilda Chog'aniyon (hozirgi Surxon yerlari), Toxariston va Badaxashoni o'ziga bo'ysundiradi. So'ng ular So'g'dda ham mustahkamlanib oladilar. Ko'p o'tmay eftalitlar Qobul Panjob vodiylarini,Kuchu Qashqar va Xo'tanni (Sharqiy Turkiston)ni zabit etadilar. Shunday qilib, Kushonlar sulolasini egallagan hududlarni to'liq qo'lga kiritib, o'z siyosiy hokimyatini yanada mustaxkamlaydilar.

Eftalitlar o'zining g'arbiy-janubiy qo'shnisi bo'lgan kuchli raqib Eron sosoniyalarini ham o'zoq vaqtlar xiroj to'lashga majbur qilganlar (551 yillargacha).

VI asr boshlariga kelib eftalitlar sulolasini shu qadar kuchayib ketdiki, ular 502 yilda Vizantiyaga yurish qilib 506 yilda sulk to`zilib, Vizantiyadan katta miqdorda o'lja olib qaytganlar. Eron sosoniyalarining hukmdori Perozni o'g'li Kovad, uning o'g'li Xusrav-1 Anushervon ham 554 yilga qadar xiroj to'lab turgan. Keyinroq Turk xoqonligining eftalitlarga bergan kuchli zarbasidan so'ng Eron eftalitlari ta'siridan xalos bo'lgan.

Ilk o'rta asrlardagi Xitoy manbalarida ta'kidlanishicha, eftalitlarni ko'chmanchi qabilalar ekanligi, ularning yurtida shaxarlar yo'q desa,vizantiyaliklar muaarix (tarixchi) Prokopiy Kesariyskiy esa «eftalitlar (saltanati) bir hukumdor orqali idora etilib, o'z qonuniy (adolatli) davlatchiligidagi egadir. O'zaro qo'shnilar bilan munosabatda me'yorini saqlashda vizantiyaliklar va forsladan hech bir qolishmaydilar».

Demak,eftalitlar davrida ham Kushonlar davridagi kabi saltanat yakka hukumdor tomonidan boshqarilgan. Taxt, otadan bolaga qolmay, shu suloladan kim loyiq deb topilsa, o'sha taxtga o'tirgan. Ana shu nomzodni aniqlab taqdim etadigan qandaydir kengash ham mavjud bo'lgan. Bu kengash sulolaning mo''tabar nomoyondalari hamda saltanat arkonlaridan iborat bo'lgan bo'lishi extimoldan o'zoq emas. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bunday ulka saltanatni boshqarishda, yuksak darajada faoliyat ko'rsatish qiyin edi. Shuning uchun, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston hududlarida,shuningdek ba'zi bir viloyatlarida,boshqaruv eftalitlar nomidan mahalliy xonodon (sulola) tomonidan olib borilgan. Shuningdek,markaziy hokimyat noiblari orqali idora etish usuli ham bu vaqtida o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lishi kerak. Eftalitlar ulkan hududda boshqaruvni qo'lga kiritgach,obod dehqonchilik voxalariga.rivvojlangan shaharlarga savdo yo'llariga ega bo'ladilar. Eftalitlarni bir qismi ko'chmanchi bo'lsa ikkinchi – kattaroq qismi shahar va qishloqlarda yashaydigan o'troq aholi bo'lgan. Toxariston va So'g'da dexqonchilik bog'dorchilik rivoj topgan. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alladan tashqari sholi ham yetishtirilgan.

Xitoy manbalarida qayd etilishicha V-VI asrlarda Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyo yerlarida ko'plab paxta ekilar edi. Bu paxtalar Xitoyda ham mashhur bo'lган. Tog' va g'or oldi erlaridagi aholi yilqichilik bilan shug'ullangan. Farg'ona vodiysida zotdor otlar ko'paytirilgan.

Eftalilar davrida asta - sekin yerga egalik qilish tartibida yangi munosabatlar shaklanib bordi. Bu davrga kelib sinfiy tabaqalanishning keskin kuchayishi orqasida ayrim mulkdorlarning mavqeい ko'tarilib, ular jamosining oddiy a'zolarini o'z qo'l ostiga kiritib mulkclarini ular hisobiga kengaytirib borganlar. O'zining chek eridan ajralib, bu xil mulkdor dehqonlar ta'siriga tushib, ularning yerlarida ishslashga majbur bo'lган kishilar kadivarlar, ya'ni ijradorlar deb atalgan. Shuningdek, erkin jamoa asosida dehqonchilik qiluvchi aholi – kashovarzlar ham mavjud edi. Shu tariqa, kadivarlar boy dehqonlar foydasiga ma'lum to'lov va majburiyatlar asosida ishlab bergenlar. Bu davlatda hali patriarchal qulchilik munosabatlarining qoldiqlari ham mavjud edi. Chunonchi, boy dehqonlar mulklarida juda ko'plab qullar bo'lганligi, ulardan turli yumushlarda keng foydalanganligi tarixiy hujjatlarda tilga olinadi.

Aholi quiyi tabaqalari huquqining poymol etilishi, ularning ayovsiz eksplatatsiya qilinishi natijasida ijtimoiy adolat va haqqoniyat yo'lidagi xalq harakatlari g'alayonlarning yo'zaga kelishiga sabab bo'ladi. VI asr birinchi choragida yo'z bergen Mazdak qo'zg'oloni buni yaqqol ifodasidir. Mazdakchilar «Z harf» bilan boshlanadigan 4 narsani aholi o'rtasida teng baham ko'rlishini yoqlab chiqqandilar: zamin (er), zar (oltin boylik), zo'rlik (kuch-hokimiyat) va zan (xotin). Bunda mazdakchilar g'oyalardan shuni anglash mumkinki, ular ijtimoiy adolat tushunchasini birinchi o'ringa qo'yib, bunda yer-mulk, boyliklarni aholi o'rtasida barobar taqsimlashni o'rtaga tashladilar. Ular davlat hokimiysi tomonidan fuqarolarning daxlsizligi va qonuniy huquqlarini himoya qilinishi, ayollar tengligini yoqlaganlar. Biroq mazdakchilarni g'oyalarni amalga oshirish qiyin edi, chunki sinfiy tabaqalanish kuchayib, mulkiy tengsizlik avj olayotgan edi. Shu bois mazdakchilar harakati hukmron tizim tomonidan bostirildi. Ammo bu harakatning g'oyalari xalq orasida saqlanib, adolat yo'lidagi kurashlarga xizmat qildi.

Eftalitlar davrida aholining bir qismi ko'chmanchi chorvadorlar, ular chorvachilik, yilqichilik bilan shug'ullangan. Suv havzasi, daryo bo'ylariga yaqin hududlarda dehqonchilik rivoj topib bordi. Jumladan, Xorazm, So'g'd, Chog'aniyon va Toshkent vohasida dehqonchilik madaniyati salmoqli o'r'in tutgan. Darg'om kanali Eski Angor, Zang kanallari kabi suv inshootlari dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Bu davrda yangi tipdag'i ko'r kam va gavjum shahar-qal'alar vujudga keldi. Xorazmdagi Berkutqal'a, Bozorqal'a, Toshkentdagi Oqtepa shular jumlasidandir. Bu qal'alarda bir necha oilalar yashagan bo'lib, qalin paxsa devorlari bilan o'ralgan. Ularda hukmron tabaqalar uchun hashamatli bezakli ark-qasrlar qurilgan.

Eftalitlar poytaxti Poykand o'z davrining eng ko'r kam, obod shaharlaridan sanalgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, VI-VII asrlarda Buxoro yaqinidagi Varaxsha saroyi buxorxudotlarning qarorgohi bo'lган. Bu yerlarda hunarmandchilik, savdo-

sotiq, qurilish ishlari ancha irvojlangan, unda turli mamlakatlarning savdo karvonlari xilma xil mollari bilan savdo qilganlar. Shaharda ko'plab bozorlaru rastalar, karvonsaroylar mavjud bo'lган. Mamlakatni savdo-sotiq ishlarida Eronning tanga pullari bilan bir qatorda buxorxudotlar tangasi, so'g'diy va Xorazm tangalari ham keng muomalada yurgan.

Eftalitlar, Eron, Hindiston, Xitoy va o'zoq Vizantiya davlatlari bilan ham qizg'in savdo aloqalarida bo'lganki, bu esa ularga foyda, manfaat keltiribgina qolmay, ayni chog'da ularni o'zaro yaqinlashuvlarida, tinchlikni saqlashda muhim rol o'ynagan.

Eftalitlar davrida madaniyatini rivojlanaganligini arxeologik topilmalar asosida topilgan moddiy va ma'naviy yodgorliklarini eslash kifoyadir. Masalan, Varaxsha shahri obidalari, Termiz yaqinidagi Bolaliktepadan topilgan Saroy bezaklari avlodlarimiz badiiy mahoratining yorqin dalilidir.

Bu davrda yozuv madaniyati ham rivoj topgan. Aholi o'rtasida keng tarqalgan so'g'd yozuvi bilan birga Xorazm va Eftaliy yozuvlari ham qo'llanilgan.

Eftalitlarda kishilar turli dinlarga e'tiqod qilganlar. Eng keng tarqalgan dindardushtiylik bilan bir qatorda Buddha dini ham rasm bo'lган. Shu bilan birga mahalliy aholi e'tiqod qilib kelgan. Vaxsh, Mitra, Anaxita, (quyosh) xudolariga ham sig'inganlar. Sharqda qadimda nishonlab kelingan «Navro'z» va unga xos marosimlar keng bayram qilingan.

Eftalitlarda bir necha aka-ukada bitta umumiy xotin bo'lган. Hukmron taabaqa vakillari esa ko'p xotinli odat hukm surgan. Xullas, eftalitlar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

563 yillarda eftalitlarga qarshi ikki tomonlama hujum uyushtirildi. Ya'ni shimoldan turkiylar, janubdan eron sosoniylarini xujumi natijasida eftalitlar inqirozga yo'z tutadi, bu 562-567 yillarni o'z ichiga oladi.

6-mavzu. Turk hoqonligi va uning davlat boshqaruvi tizimi.

Reja

- 1.Turk xoqonligining tashkil topishi va boshqaruv tizimi**
- 2.Turk xoqonigining xalqaro aloqalari.**

Tayanch so'z va iboralar. *Turk el, turkash, tukyu, tuqdus, qabila boshlig'i Abanbu, Asan, Asyan-shod, Tuu, Bumin, xoqonlar, G'arbiy Turk xoqonligi, So'yob, yabg'ular, tudunlar, To'n yabg'u, "o'n o'q eli", "shod", ixshid, ixrid, afshin, budun, tegin, elxon, el, "qora budun", malikshoh*

O'zbek davlatchiligi tarixida turkiy hoqonlik davlati katta va muhim o'rinni egallaydi. Turkiy hoqonlik xususidagi ma'lumotlar yetarli bo'lsada, biroq ularning ko'pchiligi bir-biriga zid bo'lib, to'liq ma'lumotlar bermaydi. Birinchi navbatda VII-VIII asrlarda to'plangan manbalar ancha qimmatlidir. Bular epigrafik yodgorliklar – O'rxun-Enasoy runik yozuvlari, Xitoyning «Tan xonadoni tarixi» VII-IX asrlar tarixiy manbasi, VI asr oxirida yashagan Vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektori Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efseykiylarning tarixiy asarlaridir. Shuningdek, arab tarixchilari Tabariy, Denovariy (IX-X asr)

o'lkamiz fo'zololaridan Abu Rayhon Beruniy, Narshaxiy (X asr) va boshqalar asarlarida ham uchraydi. «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Manas»kabi umumturkiy xalq dostonlarida, shuningdek, Maxmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot tarixi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. 1999 yili Alpomishning 1000 yilligi mamlakatimizda keng nishonlanib, Termizda qaxramon Alpomishga mahobatli haykal ham o'rnatildi.

Xitoy va boshqa manbalarida, turkiylarning eramizning 92 yilida Oltoy va Tuvaga tutash hududlarda turkiy qabilalar, chunonchi Ashin, Arg'u, O'g'iz, O'tto'z tatar, Qarluq Kitan, Tolis, Turk, Uyg'ur, Duba va boshqa qabilalar yashaganlar.

VI asr boshlarida Oltoyda siyosiy jarayonlar faollashdi. O'sha paytda hozirgi Mo'g'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jo'jan xonligi hukmronlik qilardi.

Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eron hududlarida esa Eftalitlar hukmronlik qilardi. Xitoyning shimoliy qismida hukmronlik qiluvchi Vey sulolasi (386-558) xonadonlarining kelib chiqishi ham turkiy tilli xalqlarga borib taqaladi. Shundan qilib, VI asr boshlarida O'zoq sharqdan Kaspiy dengizigacha bo'lган hududlarda hokimiyat tepasida turkiy sulolalar turgan.

VI asr boshlarida turkiy qavmlar orasida Ashin urug'idan Asan Va – Tuu 460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlaricha bo'ysundiradilar va Oltoy turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuu o'g'li Bumin tele qabilasini ham bo'ysundiradi. Bumin Jo'jan xonligiga tobelikdan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jo'jan xonligi qo'shinlarini yengib, ularni o'ziga bo'ysundiradi.

Bumin 551 yilda yangi davlat Turk xoqonligiga asos soldi. Uning poytaxti Oltoydag'i O'tukan shahri edi. Hoqonlik tez orada kuchaya borib dovrug'i ortib bordi. Ular Xitoyni ko'pgina hududlarini bosib oldi. Xitoy podshosi xoqonlikka har yili yo'z ming bo'lak ipak mato berib turishga majbur bo'lgan.

552 yili Buminxon vafot etgach, hokimiyatga uning o'g'li Mug'onxon (553-572) o'tiradi. U 558 yili Jo'janlarga so'nggi bor qaqqhatqich zarba berib, o'z hududini tinch okeanigacha bo'lган hududlarda mustahkamladi. Uning amakisi Istami (unga «yabg'u» - bahodir unvonini bergen edi) bo'lsa, bu davrda hoqonlik hududini g'arba tomon kengaytirib, Yettisuv, Qashqar, Ural, Volga bo'yłari va boshqa hududlarni egallaydi

563-567 yillarda Istami Yabg'u qo'shinlari eftalitlarga ketma-met zarbalar berib, uning hududlari bo'l mish O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha yerlarni egallahsga muvofiq bo'ldi.

Turk hoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, Eron chegaralariga tutashdi. Eron bilan turk hoqonligi o'rtasida bir necha bor urushlar kelibchiqdi va Eron shohi Xusrav I ni yengindi. Eron turk hoqonligiga 400 ming Vizantiya tillosi hajmida tovon to'lashga majbur bo'ldi. Muhonxon Qora dengizgacha bo'lган yerlarni egalladi.

Turk hoqonligi 568-569 yillarda o'sha davrning qudratli davlati – Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishga muhim hissa bo'ldi.

Turk hoqonligi boshqaruv tartiblari haqida shuni ta'kidlash kerakki, ular O'rta Osiyo hududlarida hukmronlik qilsada, biroq o'zлari bu hududlarga ko'chib kelmadilar. Ular Yettisuv va boshqa hududlardagi markaziy qarorgo'larni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulardan olinadigan soliq-o'lponlar, to'lovlar bilan kifoyalanganlar. Bundan tashqari ko'rindiki, Turk hoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat to`zilmalari, ularning boshqaruv to`zilmalari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatları davom etgan. Hoqonlik istisno hollardagina o'lkani ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralashardi. Bu narsa ko'proq tashqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalari gadaxl etardi. Manbalarda ta'kidlanishicha, Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mutaqil hokimlik-davlatlar Maymurg', Kesh, Naxshab, Kushon, Buxoro, Amul va Andixay shular jumlasidandir.

Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklari o'zlariga ancha mustaqil bo'lganlar. Biroq bu davlat hokimliklari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar avj olib, xalqni turmushini og'ir ahvolga olib kelishga sabab bo'lgan.

585-586 yillarda Buxoroda zodogon dexqon va boy savdogarlarga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarildi. Unga Obro'y boshchilik qildi. Hoqon qora cho'rin qo'shinlari qzo'zg'oloni bostirdi va qo'zg'olonchilarni qattiq jazolaydi.

Turk hoqonligining g'arbiy qismi bilan sharqiy qisimlari o'rtasida aloqalar o'zilib bordiki – Arslon Tuba hoqon davrida 581 yilda turk hoqonligi ikki qisimga – G'arb va Sharqiy Turk hoqonligiga bo'linib ketgan. G'arbiy xoqonlika – O'rta Osiyoning katta qismi, sharqiy qismi – Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Oltoy va hokozo.

Xitoyda Tan sulolasi (618-907 yil) hukumronligi davrida Turk hoqonligi Bilan Xitoy o'rtasida o'z aro aloqalar, hamkorlik keng yo'lga qo'yildi. Masalan, 627-644 yillarda O'rta Osiyordan Xitoya savokavolari 9 marta yuborilgan. VII-asrning 30 yillarida hoqonlik hududlarini kezgan sayoh Syuan Sin, Isiqko'l, Chu vodisi, Samarqand Buxoro kabi shaharlarni obod va aholi gavjum ekanligini qayd etgan. Tan sulolasi 659 yil Sharqiy Turk hoqonligini o'ziga bo'ysundiradi. Biroq 670 yilda tibetliklar bosh ko'tarishi bilan Sharqiy Turk hoqonligi o'zini tiklab oladi.

Bu davorda O'rta Osiyo hududlarida turk hoqonligi ta'siri tobora zaiflashib boradi. Bunga mahali hokimliklar o'rtasidagi ichki zidiatlarning avj olishi yer – mulk uchun o'zoro kurashlar sabab bo'ladi. Bu esa piravord oqibatda arablar istilosiga sabab bo'ldi.

Hoqonlik davrida Turon zaminda kechgan ijtimoiy – iqtisodiy hayotga nazar tashlar ekanmiz, shu narsa ayon bo'ladiki, Turk hoqonligining sharqiy yerlaridan farqli xolda, bu hududda aholining ijtimoiy – iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'gan. Gap shundaki, sharqiy 'udutlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi turklarda urug' – ko'chmanchilik munosabatlari hamon kuchli saqdangan. Aholining ko'pchiligi budun yoki xadra budunlardeb atalgan. Uruq – qabilalarning nomdor vakillari(beklar) deb yuritilgan. Jamoani hoqon va zodogonlar kengshashi «Qurultoy» boshqargan. Katta patriarchal oila xo'jaliklarining boshliqlari» Kadxudolar» deb atalgan.

Butun sultanat ustidan oliy hukumronlikni hoqon olib borgan. Bu lavozim meros bo'lgan. Biroq ota doimo o'z o'g'liga taxtni oqldira vermay, balki undan kattaroq turgan qarindoshlariga qoldirishi lozim bo'lgan.

Bundan tashqari, shunday hollar ham bo'ladiki, taxt sohibini «urug' oqsoqollari» tayinlagan. Xonni taxtga o'tkazishda katta marosim orqali amalga oshiriladi. Bo'lajak xonni oq kigizga o'tkazib, quyosh yurishi bo'ylab 9 marotaba aylantirganlar. So'ng otga mingazib, bo'yniga ipak mato osganlar.

Hoqondan keyingi shaxs – Yabg'u-bahodir bosh vazir vazifisida bo'lgan. Taxt merosxo'ri – Tegin sha'zoda deb yuritilgan. Shod unvoni viloyat va tuman shahzodalariga berilgan. Tudun unvoni hukmdorning joylardagi nazoratchisi (noiblariga) berilgan. Kambag'al chorvador va dehqonlarni bo'dun yoki qora bo'dun deb ataganlar. So'g'd hukmdori – Ixshid unvoniga, Kesh hukmdori – Ixrid unvoniga (tobe hokimliklar degan ma'noni anglatadi).

O'rta Osiyo yerlarida bu davrda dehqonchilik va o'zumchilik sohalari yuksak rivojlangan. O'lkanning Farg'ona, Xorazm, Zarafshon vohalarida ko'plab suv inshootlari bunyod etilgan. Farg'ona va So'g'dda aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan shug'ullangan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishslash yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Hoqonlik davrida shaharlar hayoti ancha rivoj topgan. Shaharlarda hunarmandchilikning keng tarmog'i gurkirab rivoj topgan. Buyuk ipak yo'li bu shaharlarni xalqaro savdoda faol ishtirok etishini ta'minlagan.

O'rta Osiyolik qo'li gul hunarmandlar, to'quvchilar, ko'pincha qurolozlar, ishlab chiqargan nafis xaridorgir buyumlar, asbob-anjomlar dunyoning turli nuqtalariga yuborilgan. Bu davrning o'ziga xos muhim o'zgarishlardan yana biri – O'rta Osiyo kulolchilik hunarining yuksak san'at darajasida rivojlanganligidir.

Bu davrda o'lkamizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi betimsol namunalari yaratildi. Turli olimlar, mutaxassislar ba'siga sabab bo'lgan turk-run, O'rxun-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga hoqon yodnomasi kabi noyob topilmalar turk yozma madaniyatining qadimiyligi va rang-barangligiga guvo'lik beradi. Turkiy yozuvning tarixi mil. avv. II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi.

7-mavzu. Toxiriylar va Safforiylar davlatchiligi.

Reja

1. Arab halifaligi tomonidan O'rta Osiyoning bosib olinishi
2. Toxiriylar davlatining tashkil topishi
3. Safforiylar davlatchiligi.

Tayanch so'z va iboralar. “Daryoning ortidagi erlar”, Qutayba ibn Muslim, Tarxun, Gurak, Divashtich, Ali avlodlari, Devon ad-dar, qavonin, maqosima, misoxa, xiroj, jizya, Tohiriyalar, Safforiylar, mahalliy zodagonlarning kuchayuvi, Muqanna qo'zg'aloni, Abbosiylar, islomlashtirish siyosati, islam ruhoniyatlari

VII asrning o'rtalarida arablarning mamlakatimizga tahdidi jiddiy tus oldi. Sosoniylardan bo'l mish Yazdigar 3 ni quvib kelgan arablar 651-yili marvni egalladilar. Shundan keyingi 60 yildan ortiq vaqt mobaynida ular mintaqaning boshqa yirik markazlarini ham bosib olishga harakat qildilar. Faqat VIII asrning boshlariga kelibgina arablar birin ketin Xorazm, Buxoro, Samarcand, Shosh va Farg'ona kabi yerlarni bo'y sundira oldilar. Albatta Arablar yurishi asrlar osha yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni yo'qotish, aholi maskanlarini vayrona qilish, qarshilik ko'rsatganlarni qirish evaziga hokimiyatni egallagan edi. Shu tariqa o'l kamiz milodiy 1-mingyillikda ilk bor tashqi tajavvuskor domiga tushib, arab xalifaligiga qaram bo'lib qoldi. Demak siyosiy mustaqillik, o'z yurtiga davlatni boshqarish erki yo'qoldi.

O'rta Osiyo yerlarini bosib olish ikki bosqichda amalga oshirildi.

Uning birinchi bosqichi VII asrning 2-yarmiga to'g'ri kelib, bu davrda arab lashkarboshilari qo'shini amudaryo atrofidagi hududlarga bir necha bor hujumlar uyushtirib, bu yerlarning boyliklarini talab, ma'lum o'ljalarni qo'lga kiritib, ortga qaytganlarini ko'zatish mumkin. Bundan ko'zlangna maqsad, yaqin kelajakja bosib olishga tayyorgarlik ko'rish bo'lgan. Masalan, arab lashkarboshisi Ziyob ibn So'fiyonning 666 yilla Marvga yurishi, 670 yilda uning o'g'li ubaydullo ibn Ziyodning Poykand, Romiton, Buxoro yurishlari o'z foydasiga sulh to'zishi, 675-676 yilda Said ibn Usmonning yangidan Buxoro va Samarcand tomon qo'shin tortib kelishi va katta o'lja bilan qaytib kelishi, O'rta Osiyo hududlarini borasidagi dastlabki urunishlar edi.

O'l kamizni bosib olishning ikkinchi bosqisi VIII asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi.

704 yilda Qutayba ibn Muslimni Xuroson noibi etib tayinlanishi bilan uning zimmasiga butun O'rta Osipyoni bosib olish vazifasi yuklatilgan edi. 711-715 yillarda Toshkent, Xo'jand, Sharqiy Turkiston yerlarini bosib oldi. Shunday qilib, Movarounnahr deb nom bergen O'rta Osiyo hududlari VIII asrning dastlabki o'n yilliklari davomida bo'siob olindi. Arablar bosib olgandan so'ng, islom dini ta'limotini singdirish, arablashtirish va xalqni yetishtirgan daromadini 50 % ni tortib olgandi.

Xalifalikka faqat xurij solig'i hisobiga So'g'd viloyati 32, 6 ming, Farg'ona viloyati 2,80 ming, Shosh viloyati 607 ming, Ustrushona 50 ming dirham to'lagan. Bunday azob uqubatlarga bardosh berolmagan mahalliy halq qo'zg'olonlari ko'chayib bordi. 720-722 yillarda So'g'dda yo'z bergen Gurak (Samarcand hg'kmdori) va Divashtich (Panjikent hokim) boshchiligidagi qo'zg'olonlar, shuningdek Shosh, Buxoro 736-737 yillardagi Toxariston qo'zg'oloni, Muqanna qo'zg'oloni kabi xalq xarakatlari IX asrning boshlariga kelib, yurtimiz ustidan xalifalik hukmronligining o'zil-kesil ag'darilishi va bir qator mustaqil milliy davlatlarning yo'zaga kelishida to'la namoyon bo'ldi. Biroq islom dinini mahalliy aholiga singdirilishi mahalliy xalqlarning ma'naviy ongini o'stirdi. Zero, o'lkaning ma'naviy yuksalishini ta'minlash, odamlarning bir-biriga qarindoshligi hamjihatligini jipslashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Islomiy iml-fan, ta'limot bugungi kunda ham komil insonlarni tarbiyalashga juda katta o'rinn tutmoqda.

Xorun ar-Rashid xalifalik siyosatini qo'llab-quvvatlovchilarni ko'paytirish maqsadida musulmon dindorlarining mavqeini ko'tarib yubordi. YA'ni, musulmon dindorlariga katta miqdordagi erlarni bo'lib berdi. Ayni vaqtida mahalliy zodagonlarni xalifa tomonga og'dirish siyosati olib borildi. Ammo, bunday harakatlar xalifalik uchun ijobiy natijalar bermadi. Ayniqsa, 809 yilda Xorun ar-Rashid vafot etganidan so'ng taxt uchun bo'lgan kurashlarda yana bir yangi xonardon vakillari tarix sahnasida paydo bo'ldi. Bu Tohiriyalar sulolasi edi

Bu sulolaning ilk vakili Roziq ibn Sayqal Horun ar-Rashid davrida Seyiston hokimi Abumuhammad Talx ibn Abdulloh qo'lida xizmat qilgan. Uning Mus'ab, Xusayn va Toxir degan o'g'illari bo'lib, keyinroq Toxir Hirotdagi Bo'shang shahrining hokimi bo'ladi. Ma'lumki, Xorun ar-Rashid vafotidan so'ng uning katta o'g'li Amin xalifa bo'ladi. Ammo Xorun ar-Rashidning kichik o'g'li Ma'mun (Ma'mun-laqabi, asli ismi Abdulla) ham taxtga da'vogar edi. SHu bois 811 yildan boshlab aka-ukalar o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlandi. Ushbu kurashda Tohir ibn Husayn Ma'mun qo'shinlariga boshchilik qilib 813 yilda Bag'dod shahrini egallaydi va Ma'mun xalifalik taxtiga o'tiradi. Ma'mun xalifa bo'lib olgach (813-833yy) Tohir ibn Husayn tez orada xalifalikning eng nufuzli kishilaridan biriga aylanadi va 815 yildan boshlab xalifalik qo'shinlarining bosh sarkardasi lavozimida ishlaydi.

821 yilda xalifa Ma'mun Toxir ibn Husaynni Xuroson viloyatiga noib etib tayinlaydi. Toxir Xuroson noibligining poytaxti qilib Nishopur shahrini tanladi. U Huroson va O'rta Osiyo viloyatlarini (Tabariston, Jurjon, Ray, Kirmon, Xuroson, Seyiston, Movarounnahrning janubi) mustaqil hokim sifatida boshqarib, 822 yilda xalifa nomini xutba namoziga qo'shib o'qishni ta'qiladi. Bu esa ochiqdan-ochiq xalifadan o'zini mustaqil deb e'lon qilish edi. Lekin Toxir ibn Husayinning bu rejasи amalga oshmadi. U to'satdan vafot etdi. Taxmin qilishlaricha, bu holat xalifaning o'z noiblari ustidan siyosiy hukmronligini mustahkam tutishga intilishidan dalolat beradi.

YUqoridagi voqeadan qat'iy nazar, xalifa Ma'mun Toxirning o'g'li Talxa ibn Toxirni Xuroson noibi etib tiyinlaydi. Zamonaviy adabiyotlarda berilishicha, mahalliy sulola vakillarini noib bo'lib qolganligining sababi, xalifalikning aynan mahalliy hukmdorlarning kuchidan arablarga qarshi qo'zg'olonlarni bostirishida foydalanishi edi. SHuningdek, Xuroson noibining muhim vazifalaridan yana biri o'ziga qarashli hududlarda ayrim viloyat hokimlarini saylash bo'lган. Jumladan, Toxir ibn Husaynning o'zi Somoniylarni Samarqand, Farg'ona va SHoshga hokim bo'lishlarini rasman tasdiqlagan. O'sha davrda Xuroson noibligiga quyidagi viloyatlar kirgan edi: Movarounnahr, Xorazm, Seyiston, Ko'histon, Kermon, Ko'mis, Tabariston va Jurjon. Ular hajmiga ko'ra katta va kichik tumanlardan iborat bo'lган.

50 yildan ziyodroq hukmronlik qilgan Tohiriyalar sulolasining vakillari qo'yidagilar edi.:

- Toxir ibn Husayn (821-822yy);
- Talxa ibn Toxir (822-828yy);
- Abdulloh ibn Tohir (828-844yy);
- Tohir II ibn Abdulloh (844-862yy)

Muhammad ibn Tohir (862-873);

Tohiriyalar mustahkam hokimiyat yaratish va qishloq xo‘jaligini tartibga solish borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Ular yangi kanallar buniyod etib suvdan foydalanishni yaxshilash choralarini ko‘rdilar. Abdulloh ibn Toxirning buyrug‘i bilan o‘lkadagi yirik qonunshunoslar sug‘orish uchun foydalaniladigan suv taqsimoti qonunlari to‘plami – **Kitob al-kuniyni** to‘zdilar. Ushbu qonunlar yuzlab yillar mobaynida Movarounnahrda suvdan foydalanishdagi bahs-munozaralarni hal etishda asos bo‘lib xizmat qilgan.

Tohiriyalar shunday ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritganlarki, bu siyosat asosan aholining hukmron tabaqalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Misol uchun, bizga qadar saqlangan Toxir ibn Husaynning o‘g‘li Abdullohga yozgan xatida shunday deyiladi: «SHuni bilginki, boylik ko‘payib xazina to‘lib toshganda ham u daromad keltirmaydi. U fuqaro zarurati, ular haq-huquqlarini ado etishga, ularni tashvish va qarzlardan ozod etish uchun sarflangan taqdirdagina ko‘payadi, ortib boradi; bu bilan xalq ommasining e’tibori qozoniladi; shu bilan xalq farovonligi ta’minlansa, bu hokimlarga zeb beradi, davronning emin-erkinligi shu bo‘ladi, shuhrat va qudrat bag‘ishlaydi; shu bilan birga agar shunday ish yuritsang, er solig‘ini katta miqdorda undirish imoniyatiga ega bo‘lasan va boyliging oshadi. Bu bilan sen xalq ommasiga saxovat qo‘lini ochsang, boyliging ortadi, kuch-qudrat egasi bo‘lasan, qo‘shin saqlaysan va hammani o‘zingga maftun etasan». Tohir o‘z o‘g‘lini mana shunday «mohirona» siyosat yurgizishga chaqiradi hamda Abdulloh ibn Tohir qaysidir ma’noda otasining maslahatlariga amal qilgan edi.

O‘z davrida Abdulloh yirik er egalari va davlat amaldorlari tomonidan ayrim erlardagi dehqonlarga nisbatan bo‘layotgan nohaqliklarni imkoniyat darajasida cheklashga harakat qildi. U dehqonlarning ahvolini birmuncha tartibga soluvchi maxsus farmon e’lon qildi. Manbalarning guvohlik berishicha, bu farmonda jumladan shunday deyiladi: «Olloh bizni ularning (dehqonlarning – E.B.) qo‘li bilan boqadi, bizni ularni og‘zi bilan olqishlaydi va ularga ozor berishni ta’qiqlaydi». Albatta, bu bilan Abdulloh butunlay ziroatkor-dehqonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi hukmdor bo‘lgan, deb bo‘lmaydi. U «dehqonlarga ozor bermaslikni» talab qilishiga sabab, busiz davlat xazinasiga etarli soliqlar kelib tushmas edi.

Ahvolni yaxshilash uchun ayrim harakatlar qilingan bo‘lishiga qaramay, Tohiriyalar davrida aholi ko‘pgina qatlamlarining ayniqsa, ziroatkor-dehqonlarning ahvoli og‘ir bo‘lib qolaverdi. Misol uchun, 844 yilda Abdulloh ibn Tohir ziroatkor-dehqonlardan olingan xirojdan 48 mln. dirham to‘plagan edi. Soliqlarning ko‘pligi dehqonlarning qo‘zg‘olon ko‘tarishiga olib kelgan. Tohiriyalar bu qo‘zg‘olonlarni shafqatsizlarcha bostirib turganlar. Bu hol ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar bir qadar saqlanib qolganligini ko‘rsatadi.

Manbalarda Tohiriyalarning islomlashtirish siyosatida mustahkam turganliklari qayd etiladi. Ular huquqiy munosabatlarni islom peshvolariga tayangan holda rivojlantirganlar. SHuning uchun ham Tohiriyalar islom dinini xalq orasida keng yoyish siyosatini davom ettirib, islom ruhoniylarini asosiy tayanch deb bilganlar. Talxa ibn Toxir davrida zardo‘shtiylik dini saqlanib qolgan Ustrushonada ham islom dini qabul qildirilgan.

O‘z hukmronlik erlarida mustahkam tartib saqlanishini xohlagan Abdulloh ibn Tohir o‘ziga qarshi har qanday harakat yoki qo‘zg‘olonning oldini olishning eng muhim usuli – soliq yig‘uvchilarning suiste’molliklariga yo‘l qo‘ymaslikda deb hisoblar edi. U turli soliqlarning miqdonini kamaytirmagan bo‘lsa-da, soliqlar yig‘ishda turli jinoiy ishga qo‘l urganlarni jazolar edi. Amal va mansab egalarining o‘zboshimchaligini oldini olish va davlat xazinasiga ziyon etkazmaslik maqsadida Adbulloh o‘z qo‘l ostidagi o‘ziga sodiq kishilar orasidan ayg‘oqchilar tanlab, ularning xizmatidan foydalanar edi. Bunday maxfiy shaxslar joylarda hukmdorlarning yurish-turishi, har bir mansabdorning Abdulloh oldidagi majburiyatlarini qay darajada bajarishlari xususida noibga xabar etkazib turishgan. Demak, amaldor xoh viloyat hokimi bo‘lsin, xoh yirik dehqon bo‘lsin, Abdullohning nazorati ostida bo‘lgan.

Tohiriyalar davlati ko‘p sonli bilimdon amaldorlarga muhtoj edi. SHu bois Abdulloh ibn Tohir aholining barcha qatlamlari ma’lumot olishini ta’minalashga harakat qildi. Manbalarning ma’lumot berishicha, Abdulloh otasi Tohir singari shoir bo‘lgan. Abdullohning Marv, Amul va Xorazmni boshqarib turgan jiyani Mansur o‘zining falsafiy asarlari bilan mashhur bo‘lgan. Abdullohning o‘g‘li Toxir II ham otasidan o‘rnak olishga harakat qilgan.

Umuman, Abdulloh va Toxir II hukmronliklari davri mahalliy madaniyatning qayta tiklanish davri bo‘ldi. Ammo, bu o‘ta murakkab va qiyin jarayon edi. Gap shundaki, Toxiriylar sulolasiga vakillarining o‘zlarini, xususan, Abdulloh ibn Toxir o‘zining arab madaniyatiga xayrixoxligini ta’kidlar edi. SHunga qaramasdan bizga qadar etib kelgan ayrim yozma manbalar va moddiy ashyolar mahalliy madaniyat rivojidan dalolat beradi.

Safforiylar davlati. IX-X asrning boshlariga kelib ilgarigi davrlarda bo‘lgani kabi, O‘rta Osiyo dehqonchilik voholaridagi davlat hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri-ko‘chmanchilar hujumlaridan himoyalanish edi. Aynan mana shu maqsadlarda bu davrda qurolli ko‘ngillilarning maxsus guruhlari, din uchun kurashuvchilar-g‘oziyalar guruhlari tuziladi. G‘oziyalar guruhlarining asosiy qismini kasodga uchragan dehqonlar va hunarmandlar tashkil etar edi.

Mahalliy hukmdorlar dehqonchilik vohalari chegaralarini dasht chegaralaridan himoya qilish uchun g‘oziyalar guruhlaridan foydalana boshlaydilar. Arab mualliflarining ma’lumot berishlaricha, g‘oziyalar «mahalliy hukmdorlar uchun bir vaqtning o‘zida ham tayanch, han notinchlik sababi» ga aylana boshlaydilar. CHunki bir tomondan ular ko‘chmanchilarning hujumlariga qarshi turib, dehqonchilik vohalarini ularning hujumlaridan saqlab tursa, ikkinchi tomondan, ko‘p hollarda mahalliy zodagonlarga qarshi halq harakatlarining faol ishtirokchilari edilar.

IX asrning 70-yillarida g‘oziyalarning qurollangan guruhlari O‘rta Osiyo va Eron chegaralaridagi xalq harakatining asosini tashkil etardi. Bu xalq harakatlaridan hunarmand misgar (saffor) aka-uka Yoqub va Amr ibn Layslar (Safforiylar) o‘z niyatlarini amalga oshirish uchun foydalandilar. Avval boshda Safforiylar kichik bir qaroqchilar guruhini to‘zadilar va keyinroq, Seyistondagi g‘oziyalar guruhlariga qo‘shiladilar. Qat’iyatlilik hamda lashkarboshilik qobiliyatiga ega bo‘lgan YOqub ibn Lays tez orada g‘oziyalar guruhlarining boshlig‘iga aylanadi. YOqub

boshchiligidagi g‘oziyalar guruhi Seyistonning siyosiy hayotga faol aralasha boshlaydi va xalq harakatlaridan foydalanib 861 yilda Seyistonning markazi Zaranj shahrini egallaydi hamda bu erdan Toxiriylar noiblarini haydab yuboradi.

SHu tariqa YOqub Seyistonning hokimi bo‘lib oladi hamda 10 yil davomida Toxiriylarning so‘nggi hukmdori Muxammad ibn Toxir egallab turgan xalifalikning sharqiy viloyatlarini ulardan tortib oladi. 873 yilda YOqub Toxiriylar qo‘shinlarini tor-mor etib Xurosonning poytaxti Nishopur shahrini egallaydi va shu bilan Mavorounnahr va Xurosondagи Tohiriylar hukmronligiga barham beradi.

Bag‘doddagi xalifalik hokimiyati YOqubning muvaffaqiyatlaridan anchagina xavotirga tushib, unga qarshi bir qancha choralar ko‘rgan bo‘lsada, bu harakatlar besamar tugadi. 784 yilda xalifa bo‘lib o‘tgan voqealarni tan olib YOqubni Xuroson va Mavorounnahrga noib etib tayinlashga majbur bo‘ladi.

Manbalarning ma’lumot berishicha, YOqub ibn Lays izzat-ikromni, xushomadgo‘ylikni, tantanalarni yoqtirmaydigan, oddiy aholi qatori yashagan hukmdor bo‘lgan. Ammo, uning harbiy lashkarboshlik qobiliyati kuchli edi. YOqub to‘zgan qo‘shinda qat’iy tartib-intizom o‘rnatilgan bo‘lib, u o‘zi jasorat ko‘rsatgan holda, askarlari, ularning boshliqlari va suvoriylardan ham jasorat talab qilgan. YOqub qo‘shinlarining asosiy qismi **al-mutataavviya** (ko‘ngillilar, ularni «ayyorlar» ham deb ataganlar) tashkil etgan bo‘lib, bu qism doimiy ravishda ersiz dehqonlar va ishsiz hunarmandlar hisobiga to‘lib turgan. Ayyorlar orasidan janglarda jasorat ko‘rsatganlar harbiy boshliq – sarhang lavozimiga ko‘tarilgan. Qo‘shinda ayyorlardan tashqari ozodagon-erkin jangchilar va g‘ulom-qo‘llar guruhlari ham bo‘lgan. Qo‘shinga har uch oyda bir marta maosh berilgan. Qo‘shinlar vaqtı-vaqtı bilan harbiy ko‘rikdan o‘tkazilib turilgan.

876 yilda YOqub ibn Lays xalifa hokimiyatini egallah maqsadida Bag‘dodga qo‘shin tortadi. Bag‘doddan 100 km uzoqlikdagi Dar al-Akul degan joyda YOqub va xalifa qo‘shinlari to‘qnashib YOqub mag‘lubiyatga uchraydi. Ushbu muvaffaqiyatsiz yurishdan so‘ng uch yil o‘tgach YOqub ibn Lays vafot etadi va uning o‘rnini ukasi Amr ibn Lays egallaydi. Amr ibn Lays xalifaga o‘z vassalligini bildirganidan so‘ng Mavorounnahr va Xurosonni boshqarish huquqini beruvchi yorliq oladi. Ammo, Toxiriylarda bo‘lgani kabi Safforiylar ham amalda xalifalikdan mustaqil siyosat olib borganlar. Manbalarning ma’lumot berishicha, Amr ibn Lays mohir siyosatchi va tashkilotchi, harbiy ishni puxta bilgan shaxs bo‘lgan.

Safforiylar hukmronligi davrida xalqning ahvoli sezilarni darajada yaxshilanmadı. Vaholanki, ular xalq harakati natijasida hokimiyat tepasiga kelgan edilar. Safforiylar asosan mayda va o‘rta hol er egalariga suyangan holda davlatni idora qildilar. Ular xalqdan olinadigan soliq miqdorini o‘zgartirmadilar. SHuning uchun ham keng xalq ommasi ularni qo‘llab quvvatlamadi. IX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Somoniylar sulolasi tarix sahnasida paydo bo‘ldi. 900 yilda Buxoro ostonasida Amr ibn Lays qo‘shinlari Somoniylardan mag‘lubiyatga uchradi va Safforiylar hukmronligi tugatildi.

8-mavzu. Somoniylar va Qoraxoniylar davlati va uning boshqaruvi tartiblari. **Reja**

1. Somoniylar davlatining tashkil topishi va boshqaruv tartibi

2. Qorahoniylar davlat boshqaruv tartibi

Tayanch so‘z va iboralar. Somoniylar, Somonxudot, mahalliy zodagonlar, turk g‘ulomlari, Karmatlar harakati, dargoh, devonlar, harbiy-ma‘muriy amaldorlar, hanifiylik, diniy me’morchilik, Qoraxoniylar, chig‘illar, yag‘molar, ug‘o‘zlar, Hasaniylar sulolasasi, Tamg‘achxon, Qoraxitoylar, elekxonlar

Arablarning O’rta Osiyo hududlaridagi 150 yillik hukmronligi davri IX asr boshlariga kelib, Arab xalifaligada yo‘zaga kelgan bo‘xronli vaziyat, siyosiy tanglik, 806-813 yillarda yo‘z bergen Rofe ibn Lays qo‘zg’oloni Xuroson va Mavarounnahr xalqlari uchun xalifalik tobelligidan qutilish va yurt mustaqilligini qo‘lga kiritish yo‘lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirdi.

Xurosonda Tohir ibn Husayn va uning avlodlari, Mavarounnahrda esa Somonxudot va uning vorislari tomonidan siyosiy xokimiyatni qo‘lga kiritdilar.

Tohiriylar sulolasining assoschisi e’tiboran Xuroson noibligini qo‘lga kiritadi. Mavarounnahrda somoniylar sulolasasi hukmronligining vujudga kelishi jarayoni 1X asr boshlariga to‘g’ri keladi.

Halifa Ma’mun o‘ziga sodiq xizmat qilgan mahalliy hukmdorlardan Somonxudod (u Somon qishlog‘i oqsoqoli. Manbalarda bu qishloq Balx Samarqand yoki Termiz atrofida joylashgan degan ma‘lumotlar bor. U qaysi etnosga mansubligi ham aniq emas) avlodlariga, Mavarounnahr hududlarini boshqarish huquqini topshiradi. Chunonchi, Asad ibn Somon o‘g‘illaridan –Nuh Samarqandga, Ahmad Farg‘onaga, Yahyo Shosh va Ustrushonaga, Ilyos Chog‘oniyon va Xurosonga xokimlik qiladilar. Biroq aka-uka o‘rtasida o‘zoq davom etgan kurashlarda (888-892 yillar) Ismoil Somoniy Mavarounnahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shu tariqa, o‘zbek davlatchiligi qayta tiklandi va rivojlanib bordi. Mamlakat aholisining ko‘philigi turkiy qavmlardan iborat bo‘lib, davlat ishlarini yuritishda turkiy qo‘sishinlar va lashkar boshilarining mavqeい yuqori bo‘lgan. Ismoil Somoniy va Xurosonni o‘rtasidagi urushda (900 yil) Xuroson yerlari Somoniylar qo‘l ostiga o‘tdi.

Ismoil Somoniy o‘zoq yillik davlatchiligidan tajribasiga tayanib ish tutdi. U eng avvalo, mamlakat siyosiy birligini ta‘minlash ishiga bel bog‘lab, Farg‘ona, Isfijob (Sayram) Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chog‘aniyon, Xuttalon, Kesh (Shahrisabz), Xuroson, Seyiston, G‘azna kabi qator viloyatlarni o‘z hujumi ostida birlashtirdi. Demak, Ismoil markazlashgan davlatchilik asoslarini qaytadan tiklashga muvoffaq bo‘ldi. So‘ng bu davlatni boshqaruv tizimini joriy etishga kirishadi. Chunki, endigina mustaqillikni qayta tiklagan davlat uchun qat‘iy tartib doirasida faoliyat ko‘rsatuvchi idorachilik zarur edi. Ismoil bu vazifani ham hal etdi.

U o‘z davri uchun ilg‘or hisoblanmish markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etishga muvaffaq bo‘ldi. Bu tizim asosini Oliy hukmdor dargohi (saroyi) va devonalar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Shuning uchun manbalarda Amir Ismoil, Amir Ahmad kabi ta‘kidlarni uchratish mumkin.

Oliy hukmdor hukmronligining ijrosi Horas amiriga yuklatilgan. Dargoh hamda boshqa qator muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va uning xodimlari olib borganlar.

Dargohning xo'jalik yumushlari bilan bog'liq faoliyat vakil tomonidan boshqarilgan. Dargohda dasturxonchi, eshik og'asi, sharbatdor xizmatlari ham bo'lган.

Devonlar boshqaruvgiga ko'ra, ularning umumiyligi soni 10 ta bo'lib, poytaxt Buxoroda har biri uchun alohida binolar quribberilgandi.

Devonlar haqidagi bat afsil ma'lumotlar.

1) Bosh vazir devoni – bu devonlar orasida alohida o'rinni tutgan. Butun ijroiya hokimiyyati hamda qolgan to'qqiz devonustidan ra'barlik va nazorat xuddi shu vazirlilik tomonidan amalga oshiriladi. Somoniylar davrida Ushbu lavozimga atoqli xonadonlari namoyondalari tayinlangan. Chunonchi, bosh vazirlilik jayxoniylar, bal'amiylar, utbiylar (ya'ni eng obro'li shaxslar) sulolalari orasidan chiqqan shaxslarga nasibetgan. «Xo'ja bo'zurg» devoni hamma ma'muriy, siyosiy va xo'jalik ma'kamalarini idora qilgan.

2) moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni. Davlatning moliyaviy ishlari, sarf-xarajatlariga oid hisob-kitob ishlari bilan shug'ullanigan.

3) Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni. Bu maxsus devon hisoblanib, uning xizmatchilari davlat hokimiyyatiga molik barcha hujjatlarni tayyorlab bergenlar, shuningdek diplomatiyaga tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish kabi vazifa ham yuklatilgan.

4) Soqchilar boshlig'i devoni. Ushbu muassasa maxsus saralangan qismlarga boshchilik qilib, ularning tayyorgarligi, tartib intizomi, oziq-ovqati, umuman, xo'jalik ta'minoti, maoshi masalalari bilan shug'ullanib kelgan. Bir yilda to'rt marta maosh to'laganlar.

5) Xat-xabarlar mutasaddisi devoni-dargoh, hukmat, mahalliy hokimiyyat bilan bog'liq xabardorlik ishlari bilan mashhul bo'lib, poytaxtda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar va boshqa rasmiy ko'rsatmalarni, viloyatlar, shaharlarga yetkazib beri shva joylardagi ma'lumotlarni markazga yetkazib berish kabi tadbirlar bilan band bo'lgan. Shu tariqa oliy hukmdor joylardagi bor a'voldan xabardor bo'lib turgan, tegishli choralar ko'rgan.

6) Saroy ish boshqaruvchisi devoni, dargoh ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlar ustidan nazorat olib borish shu devonga yuklatilgan.

7) Davlat mulklari devoni. Hukmdor sulolasiga tegishli mol-mulk boshqaruv, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullanigan.

8) Muhtasib devoni davlat va jamiyat hayotida muhim o'rinni egallab kelgan xizmatlar sirasiga kirgan. Ularning asosiy ishlari shahar va qishloqlarda ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni ta'minlash, savdo-sotiq ishlari xaridorlarga xiyonat qilmaslik, go'sht, non kabi inson ehtiyojiga kerakli mahsulotlarni narxini oshib ketmasligini nazorat qilish. Bu ishga halol hammaga birday munosabatda bo'ladigan kishilar tayinlangan.

9) Vaqflar devoni, ya'ni turli yo'llar Bilan diniy muassasalar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, yer-suv ishlari bilan shug'ullanuvchi vazirlik ma'lumki,

somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarning ta'siri nihoyatda kuchli bo'lib, ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Ruh oniylarning boshlig'i «ustod», keyinchalik, «Shayx ul-isлом» deb atalgan. Undan so'ng bu lavozim bo'yicha ruhoniylar orasida «Xatib» turgan. U jome' masjidlarida juma nomozida xutba o'qish huquqiga ega bo'lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi isлом olimlarining eng nufo`zli markazlaridan biriga aylandi. Movarounnahrdagi dastlabki madrasaning shu yerda barpo etilishi bejiz emas.

10) Qozilik ishlari devoniga qozilarning faoliyatini nazorat qilish yuklatilgan. Qozilarni tayinlashda yoki yuqori lavozimda ishlaganlarni qoziga ishi tushsa, ularni ishlarini yuqori hukmdorni o'zi yoki uning ishonchli odamlari amalgamoshirgan. Bundan maqsad yuqori lavozimdagilarni qozilarga ta'ziq o'tkazmasliklari uchun shunday qilingan. Yuqoridagi devonlar (vazirlar) ning joylarda bo'limlari faoliyat olib borgan.

Viloyat boshlig'i xokim, shahar boshlig'i esa rais deb atalgan. Xokimni oliv hukmdor, raisni esa hokim tomonidan tayinlagan.

Davlat ishlariga qabul qilishda ma'lum bir talablar silsilasi mavjud edi. Masalan, davlat tilini mukammal bilish, zamon huquq me'yorlaridan to'liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan baxabardorlik hisob-kitob ishlaridan bilimdonlik talab etilardi.

Somoniylar davrida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan:

- 1) Mulki sultoniy –shaxsan amirlarga tegishli yer-suv, tegirmon, do'konlar. Bu mulkni qishloq chorikorlari ijaraga olganlar.
- 2) Yer egaligining to'hma (umrbod) berilgan yer.
- 3) Iqto (merosiy) yerlar.
- 4) Xususiy shohlarga tegishli mulk hukmdor tabaqa xonadoni, badavlat savdogarlarga tegishli mukllar.
- 5) Vaqf mulklari: diniy muassasalar va madrasalarga tegishli mulk.
- 6) Jamoa mulklari: yaylov, tog' yon bag'irlaridagi lalmi yerlar.

Lashkarlar ikki toifaga bo'lingan; 1) Domiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi saralangan qismlar(gvardiya). 2) Zarur hollarda viloyatlardan yig'iladigan qismlar. Saralangan qismlarda kamida sakkiz bosqichdan iborat bo'lib, oddiy piyoda askarlikdan, to'rt kishidan iborat bo'lgan. Guruhga boshliq darajasigacha yo'lni bosib o'tadi.

Ismoil Somoni (892-907 yillar), uning avlodlari Nosir II davrida qudratli markazlashgan davlatning vujudga kelishi natijasida, Movarounnahr va Xurosonda ma'lum barqarorlik qaror topdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik vaa savdo tez sur'atlar bilan rivojlanib bordi.

O'sha davrda bu o'lklalar Sharqning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lkalardan hisoblangan. Mutaxasislar, o'sha davrda bu hududlaroni yeri juda serhosil, tabiiy boyliklarga boy, ko'plab qishloq va shaharlar borligi, aholi uchun hamma narsa mavjudligi extiros bilan tilga olinadi. Bu o'lkalarda ko'plab sun'iy sug'orish ishlari rivojlangan bo'lib, soylar kanallar mavjud bo'lib, dehqonchilik avj olgan.

O'lkada bug'doy, arpa, sholi va boshqa boshoqli ekinlar ekilgan. Paxta tishtirishga alohida e'tibor berilgan.

Bog'dorchilik yaxshi rivojlangan. Olma, shaftoli, nok, behi, anor, anjur, yeryong'oq, o'rik, o'zum kabi mevalar yetishtirilgan. Ko'plab quritilgan mevalar boshqa mamlakatlarga yuborilgan.

Movarounnahr va Xurosonda ko'plab yer osti boyliklariga ega bo'lib, xilma-xil hunarmandchilik tarmoqlari rivojlangan. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan birga sanoat, kon ishlari rivojlanganligi tufayli jahonning xilma-xil mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini keng yo'lga qo'yish imkoniyatlari yo`zaga kelgan. Savdo-sotiq ishlarida oltin va kumush tangalar keng muomalada bo'lgan.

Manbalarda ta'kidlanishicha, Movarounnahrni eng asosiy bozori Samarqand bo'lib, dunyoning ko'p mamlakatlaridan savdogarlar oqib keladi deydi.

Masalan, Xitoya shishasozlik buyumlari, oyna, otlar, ba'zi bir oziq-ovqat mahsulotlari jo'natilgan. U yerdan esa ipak, Yevropaga, ip, jun, ipak matolar, quritilgan mevalar, kumush buyumlari, tangalar olib ketilgan. Yevropadan esa, asosan mo'yna, charm va boshqa mahsulotlar olib kelingan.

Yevropaliklar o'lkamizda ishlab chiqarilgan kumush buyumlari, tangalarga ishqiboz bo'lганлар, sababi bu vaqtida Yevropada kumush konlari to'g'risida xayol ham qilmaganlar.

Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari ko'proq bizning ota-bobolarimiz ishlab chiqargan qurol-aslahalarga, temirchilik mahsulotlariga o'ch bo'lganlar.

Kulolchilik ham Somoniylar davrida o'z taraqqiyotining eng yuqori bosqichlariga ko'tarilgan bo'lib, xilma-xil buyumlarga ishlov berishda, bezaklar solishda, sirlash ishlarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganlar.

Bu davrda O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan. Qog'oz ishlab chiqarish bo'yicha eng yirik markaz Samarqand bo'lib o'ni dovrug'i butun dunyoda mashhur bo'lgan.

Somoniylar davrida shahar va qishloqlarda katta-kichik bozorlar bo'lib, dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan savdogarlar kelib o'z mollarini sotgan va kerakli mahsulotni olib ketgan. O'rta Osiyolik savdogarlar o'z mollarini Kavkazga, Hazar, Bulg'oriyaga, Xitoy, O'rta yer dengizi mamlakatlariga, Bog'dod, Kesh, Shosh kabi mamlakatlarga olib borganlar. Bu esa mamlakatni iqtisodiy madaniy rivojlanishiga ijobjiy ta'sir qilmay qolmadi.

Bu esa somoniylar davlatida fan va maorifni rivojlanishiga olib keldi.

Bu o'lkalarda (1X-X) iml-fanning xilma-xil tarmoqlari bilan shug'ullangan, nomlari jahonga tarqalgan va o'z ishlari bilan Dunyo ilm-fanini rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Bular Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobi, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabilarni keltirish mumkin.

Biroq, Somoniylar sulolasining vakillari o'rtasidagi nizolar, o'zaro kurashlar bu sulolaning inqiroziga olib keldi. Ularning avlodlari 100 yil davomida hukmronlik qildilar.

X asr mamlakatdagi boshboshdoqlik avjiga chiqib, markaziy hokimyat mavqeiga putur yetdi.

Bu esa mamlakatni Yettisuv va Qoshg'ar qismida boshqa bir siyosiy sulola, Qoraxoniylarning kuchayitshi bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. X asr oxirida Yettisuv, Qoshg'ar, Movarounnahr ular qo'liga o'tdi.

Ko'p o'tmay Qoraxoniylar xoni Nosir Iloqxon Buxoroni zabit etdi. Amir xonadaoni (Abdumalik 11 ibn Nuh 999 y) asirga olindi. Somoniylar davlatiga barham berildi.

Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixida muhim o'ren tutgan va o'zoq davr surgan (X-XII asrlar) Qoraxoniylar sulolasi, hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasining Yettisuv va Qoshg'ar qismida yangi bir siyosiy sulola kuchayib bordi. Bular turkiy qabilalar orasidan yetishib chiqqan Qoraxoniylardir.

«Qora» «buyuk», «ulug'», ya'ni «Buyukxon», «Ulug'xon» degan ma'noni anglatadi. (turkcha)

Bu davlatning qudrati yuksalib, u tez orada katta hududlarni o'z qo'li ostiga kiritib boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog'un shahri bo'lган.

Abdulkarim Bug'roxon vafotidan keyin (955 y.) uning vorislari davrida Markaziy Tyonshan va Yettisuv o'lklarini egalladi. Bu davrda Somoniylar sulolasi chuqur ichki ziddiyatlar girdobiga tushib qolganligi hamda mahalliy hukmdorlar va oliy ruh oniy tabaqasi orasidan ham Somoniylar siyosatidagi noroziliklardan foydalangan. Qoraxoniylar sulolasi hukmdorlari—Hasan va Nosir Bug'roxonlar yetakchiligidagi qo'shin somoniylarni (992-999 yillarda) ikki bor qarshiligini yengib, poytaxt Buxoroni egallaydi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari Qoraxoniylar tasarufiga o'tdi. Bu voqeя X1 asr boshlarda yo'z berdi.

Bu jarayonni halq hokimiysi tepasiga bir sulola o'rniga ikkinchi bir sulolaning kelishi qabilida e'tirof etdi.

Shu tariqa, 1041 yilga kelib, Qoraxoniylar hokimiysi ikkiga: Markazi Buxoro bo'lган g'arbiy hoqonlikka va markazi Bolosog'un bo'lган sharqiy hoqonlikka bo'linib ketdi. Bu hoqonlik tarkibiga Talos, Isfijob, (Sayram), Shosh, Sharqiy Farg'ona, Yettisuv, Qoshg'ar yerlari kirgan. So'ng Qoraxoniylar janub, g'arb yo'naliшlarida o'z hukmronlik ishlarini doiralarini kengaytirib Buxoro, Samarqand, Xorazmgacha bo'lган hududni boshqarganlar.

Siyosiy markaz sifatida Bolosog'un va Qashg'arni tanlaganlar. Demak, Farg'ona, Samarqand, Buxoro va boshqalar tabiiy ravishda yangi siyosiy markazga nisbatan viloyat (mulk) o'rnida bo'lган.

Qoraxoniylar davrida, Somoniylar davrida mavjud bo'lган boshqaruv tizimining asosiy mazmuni saqlanib qolgan. Chunki, avvaldan shakllanib kelgan va obektiv taraqqiyot natijasi o'laroq yo'zaga kelgan boshqaruv an'analaridan qoraxoniylar yo'z o'gira olmadilar.

Markazdagi boshqaruv tizimi ikki idora: dargoh va devonlardan iborat bo'lган. Oliy hukmdor o'ziga tobe bo'lган viloyat va shaharlarga hukmdor sulolola namoyondalarini tayinlab, bu bilan tabiiy ravishda, butun mamlakatda o'z siyosatini yurgizishni maqsad qilib qo'ygan.

Qoraxoniylarda ulug'xon poytaxtdagi qarorgo'da faoliyat ko'rsatgan. Ulug'hoqon yoki ulug'xon ul-xoqon degan nomda yuritiladi. Bu arab manbalarida mazkur unvon Sulton ul Salotin, forschada Shahonshohga muvofiq keladi. Aynan yuqoridagi unvon qorahoniylar kitoblarida tamg'achxon deb ham yuritiladi.

Qoraxoniylar davlati boshlig'i lavozimi, hoqonning taxti merosiy sanalgan. Ma'muriy idoralar ikkiga bo'lingan. 1) Dargoh; 2) Devonga.

Hoqonning ulug' hojibi hoqon bilan fuqaro o'rtasida vositachilik qilgan. Hoqon saroyida quyidagi amaldorlar bo'lган: 1) og'ichi – shoyi kiyimlar xazinachisi; 2) biruk – me'monlarni qabul qilish bo'yicha mutasaddi; 3) oshchi – xoqon oshxonasi boshlig'i (bog'archi); 4) bitikchi – munshiy; 5) kotib – mirzo; 6) qushchi – xoqon ovining tashkilotchisi; 7) xoqon harbiy qo'shinlari cherik deyilgan; 8) unga suvboshi yoki sipohsolarlar qo'mondonlik qilgan; 9) kichik zabit – chovush, sipo'iylar to'dasi qo'mondoni 'ayilboshi deyilgan; 10) qo'shin o'nlik, yo'zlik, mingliklarga bo'lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo'shini harbiy lager Xonto'y deyilgan; 11) xoqonlikda elchini – yalafor deb atalgan.

Xoqonlik hududlari el, viloyatlarga bo'lingan. XI asrning uchinchi choragida qoraxoniylar siyosiy birligi ikkiga: g'arbiy va sharqiyo xoqonliklarga bo'linib ketgan.

Movarounnahrda hukmronlik qilgan qoraxoniylar namoyondalari bundan buyon markazga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgiza boshlaganlar. Markaz ularni bo'ysundirishga ojizlik qilgan. Biroq ham g'arb, ham sharq bir siyosiy xonadonining turli namoyondalari orqali boshqarib borilgan.

G'arbiy xoqonlikda (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chog'oniyon) somoniylar davrida mavjud bo'lган boshqaruv tizimi saqlanib qolingan. Masalan: bosh vazir, moliya vaziri, soqchilar vaziri va hokazolar.

Oliy hukmdorning xavfsizligini saqlash uning siyosati yo'lida adolatli xizmat qiluvchi harbiy qism (gvardiya) ham dargoh boshqaruv to`zumiga kirgan.

Qoraxoniylar davrida mamlakatni tashqi siyosati va diplomatiya masalalariga alohida ahamiyat berilgan. O'sha davrning ulug' allomalaridan biri (1020 yilda tug'ilgan) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida keltirilgan fikrlar asos qilib olingan. Ya'ni tashqi siyosat bilan shug'ullanuvchi mansabdorlarga, xususan elchilar olidag juda katta talablar qo'yilgan, ya'ni ular bilimli, o'quvli, yetuk, sheryurak, ko'zi to'q, «uyat-andishali» bo'lishlari kerak. Ular astronomiya, matematika, geodeziya ilmlarini mukammal bilishlari kerak.

Qoraxoniylar davridagi davlatni boshqarish masalalarini chuqur tahlil qilgan ulug' zot Yusuf Xos Hojibni yuqoridagi asarida: davlatni boshqarish usuli, qonun-qoidalari, siyosati, mafkurasi, ijtimoiy guruhlararo munosabatlar, odob-axloq masalalariga oid o'z ahamiyatini yo'qotmagan fikrlar olg'a surilgan. Chunonchi, jamiyatni to'rt ustunini quyidagicha belgilab bergen. Adolat, Davlat, Aqli-zakovat, Qanoat. Uning fikricha, vazirlar oqil, ilmli, dovyurak, imonli, nomusli bo'lishlari kerak. Hokimlar esa bilimli, yetuk, narzi to'q, xalq haqqiga xiyonat qilmaydigan vijdonli odam bo'lishlari kerak deydi.

1211 yili kuchsizlanib qolgan qoraxoniylarni Xorazmshoh tomonidan tamoman tugatiladi.

9-mavzu. G`aznaviylar va Saljuqiylar davlatchilgi. Reja

- 1. G`aznaviylar davlatining tashkil topishi va boshqaruv tartibi**
- 2. Saljuqiylar davlatchilgi**

Tayanch so‘z va iboralar. G‘aznaviylar, tuxsi qabilasi, Sayf ud-davla, qiniq urug‘i, Saljuqiylar

G‘aznaviylar – G‘azna shahrining Xurosonning siyosiy markazga aylanishi X asrning II yarmiga to‘g’ri keladi. G‘aznaviylar davlatining hududi Shimoliy Hindiston sar’adlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg‘oqlarigacha cho‘zilgan hamda hozirgi Afg‘oniston va shimoliy sharqiy Eronni o‘z ichiga olgan edi.

G‘aznaviylar davlatining asoschisi Sобуqtegin bo‘lib, bu davlat uning o‘g‘lm Ma‘mud G‘aznaviy davrida musulmon olamining eng kuchli davlatiga aylandi.

O‘z davrining iqtidorli sarkardasi va qattiqqa‘l hukmdor bo‘lgan Ma‘mud G‘aznaviy 1030 yilda vafot etadi. So‘ng taxtga uning o‘g‘li Ma‘sud (1030-1041y) egallaydi. U qo‘shnisi bo‘lgan saljuqiylar va boshqa davlat bilan ko‘p bor janglar olib bordi. 1040 yilda Dandikon degan joyda Saljuqiylar bilan G‘aznaviy Mas‘ud o‘rtasidagi jangda yengildi va vafot etdi. Uning vorislari esa G‘aznaviylar davlatini avvalgi qudratini tiklay olmadilar.

1059 yilda G‘aznaviylar uchun muhim strategik ahamiyatga molik –Balx shahrining Saljuqiylar qo‘liga o‘tishi G‘aznaviylar davlatini tugatilishiga olib keldi.

G‘aznaviylar davri boshqaruvi tizimi o‘zining murakkabligi bilan diqqatni jalb etadi. U ko‘p jihatdan Somoniylar, Qoraxoniylar zamonidagi davlat boshgqaruvi tizimlariga yaqin va o‘xshash.

1) Boshqaruvi tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliliklar) turgan. Dargoh-oliy hukmdor (g‘aznaviy hukmdorlar «amir » unvoniga ega bo‘lganlar) hayoti va faoliyati bilan aloqador xizmatlar, amallar kirgan.

2) Ular orasida «hojiblik» xizmati alohida e’tiborga loyiq.

Manbalarda, hojiblarning quyidagi shakllari keltiriladi: 1) Ulug‘ hojib, 2) Saroy hojibi; 3) Hojib jamoalar.

Ulug‘ hojib, nafaqat boshqa hojiblar orasida, balki umuman mamlakat va davlat hayotida alohida mavqega ega bo‘lgan. Bordiyu hukmdor vafot etsa, ulug‘ hojib boshqaruvni o‘z qo‘liga olish huquqiga ega bo‘lgan. Mamlakat taqdiri hal bo‘layotgan janglarda ulug‘ hojibga qo‘shtining eng salioqli va mas‘ulyatli qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, oliy hukmdor markazni boshqarsa, sipo’solor o‘ng qanotga, ulug‘ hojib esa chap qanotga qo‘mondonlik qilgan.O‘ta jiddiy harbiy yurishlar maxsus saralangan qismlarni tekshirish, ta’mintonini joyiga qo‘yish tadbirlarida ham faol bo‘lgan.

Hojiblar odatda qora chakmon va ikki uchli kulo‘ kiyib yurganlar.

3) Dargoh faoliyatida sipo‘lar (Saroy xizmatchisi)

4) Da‘vatdor (oliy hukmdor shaxsiy xujjatlari, yozuv chizuv ishlari bilan bog‘lib ishlarga bosh-qosh xizmatchi).

5) Pardador (ma‘ram, sir saqlovchi pinhona vazifalarini bajaruvchi).

6) Martabador (saroydagi o‘rta darajadagi amaldor).

7) Farrosh (saroydagi kichik xizmatchilardan).

8) Xazinachi, jamxona (kiyim-kechak saqlovchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatchilarning ham o'z o'rni bo'lgan.

Devonlar (vazirliklar) ijroiya idoralari bo'lganligi manbalarda ko'rsatilgan bo'lib, bunday devonlardan beshtasini nomi tilga olinadi. 1) Vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni; 2) Harbiy ishlar devoni; 3) Diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar; 4) Xujjatlarni rasmiylashtirish, to`zish devoni; 5) Hisob-kitob ya'ni moliya devoni; 6) Pochta xabar devonlari.

Viloyat boshlig'ini voliy deganlar va uni oliv hukmdor tayinlagan. Viloyat ijroiya boshqaruvi ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig'ini rais deb ataganlar. Shahar miqyosida shihna, qutvol (qal'a nazoratchisi), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat ko'rsatganlar.

Oliy qo'mondonlik hukmdorning o'z ixtiyorida bo'lgan. Bosh qo'mondonlikka (sipohsolor) esa sulolaning eng ishonchli, asosan shu xonodon namoyondasi tayinlangan. Mahmud bunday mansabga Muhammad Yusufni loyiq topgan.

Yuqori darajadagi harbiy lashkarboshilar solor, o'rtalari darajadagilar sar'ang deyilib, oxirgilari xayllarga (bir necha o'n oqliqlarga) boshchilik qilganlar. G'aznaviyalar tashqi aloqalari masalasida ikki narsaga e'tibor berish lozim. 1) Ularning mintaqasi hududidagi munosabatlari, 2) Mintaqadan tashqaridagi xalqaro aloqalardan iborat.

Ma'mud G'aznaviy ko'proq o'zoqni ko'zlab ish qiladigan mintaqadagi umumiy siyosiy vaziyatni yaxshi biladigan siyosatchi edi. Ham hududiy, ham siyosiy-harbiy, iqtisodiy jihatlardan qudratga ega bo'lgan. Qoraxoniylardan har tomonlama ustunlikka ega edi.

G'aznaviylarning mintaqadan tashqaridagi ham usta siyosatchi sifatida ish tutdi. Masalan, arab xalifaligi o'sha davrga kelib o'z qudratini yo'qotgan bo'lsada, xalifalikni joyiga qo'yishga harakat qilganlar va o'ziga raqib orttirishni ortiqcha deb bilar edi.

G'aznaviylarning mintaqasi hayotida tutgan o'rni benihoya katta bo'lib, X1 asr fan va madaniyat shu darajada rivojlandiki, u musulmon dunyosida ko'zga ko'ringan va tanilgan Mahmud G'aznaviy turk, fors, arab, pahlaviy tillarida she'r bitgan. Shuningdek, 400 dan ortiq olim fo'zalolar g'aznaviyalar davrida ijodi qilib, jahonga dovrug' taratganlar. Buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy ham g'aznaviyalar saroyida ilm bilan shug'ullanib o'zining («Hindiston», «Geodeziya», «Xorazmning mashhur kishilari», «Mas'ud qonun», «Minerologiya», «Saydana») asarlarini G'aznada yozgan.

Abulqosim Firdavsiy fors adabiyotining da'o shoirlaridan bo'lgan. G'aznaviy saroyida faoliyat ko'rsatgan. Farruhiy, Unsuriy, Utbiy, Gardiziyy, Bay'aqiy, Nosir Xusrav Dehlaviy kabi mashhur shoirlar tarixchilar, olimlar ijod qilganlar. U davrda qurilish ishlariavj olgan, madrasalar, karvonsaroylar qurilgan. Ilm fan rivojlangan.

O'z davlatini barpo etgan ko'chmanchi xalqlar davlatchiligi tarixida Saljuqiyalar davlati muhim ahamiyatga egadir. Saljuqiyalar sulolasiga turkiy o'g'o'z qavmining **qiniq urug'i** yoki qabilasidan chiqqan bo'lib, hozirgi Janubiy Qozog'iston hududlariga to'g'ri keluvchi Sirdaryoning o'rtalari oqimidan Talas vodiysigacha, Sirdaryoning qo'yi oqimlarida ko'chib yuruvchi etnik guruhlar bo'lgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, bu sulolaning paydo bo'lishi qiniq

qabilasi vakili bo‘lgan Saljuq nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u X asrning o‘rtalarida o‘g‘o‘zlar YAbg‘usining xizmatida bo‘lib, yirik harbiy unvon – «So‘boshi» unvoniga sazovor bo‘ladi. Bu haqda Mahmud Qoshg‘ariy «Saljuq So‘-boshi» deya ma’lumot beradi.

X asrning 61-62-yillarida o‘g‘o‘zlar YAbg‘usi bilan kelisholmaslik tufayli (musulmon dinini qabul qilish va qilmaslik masalasida) qiniq qabilasi ajralib ketib, ularning bir qismi Sirdaryoning quyi oqimlariga ko‘chib ketadilar. Ikkinchi, katta qismi esa Samarqand va Buxoro o‘rtasidagi cho‘llarda, Nurota tog‘lariga kelib o‘rnashadilar. XI asrning boshlaridan boshlab qiniq qabilalarining o‘troqlashuv jarayonlari kuchayib boradi.

XI asrning 40-yillaridan boshlab Saljuqiylar Xuroson, Gurgon, Dehiston va Xorazmni butunlay qo‘lga kiritib, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Kavkazorti va Kichik Osiyoga harbiy yurishlar uyushtirdilar. Ayniqsa, Sulton Alp Arslon (1063-1072 yy) va Sulton Malikshoh (1072-1092 yy) hukmronligi davrida Saljuqiylar davlatining hududlari yanada kengayib, mamlakatning yuksalgan davri bo‘ldi. Sulton Malikshoh davrida Samarqand, Buxoro va markazi O‘zgand bo‘lgan Farg‘ona ham Saljuqiylar davlatiga buysunadi. 1092 yilda Sulton Malikshoh vafot etgach uning vorislari o‘rtasida toj-taxt uchun kurash avj olib ketdi. Bir necha yillik kurashlardan so‘ng 1118 yilda Malikshohning o‘g‘li Sulton Sanjar (1118-1157 yy) taxtni egallahsga muvaffaq bo‘ldi.

Buyuk Saljuqiylar sulolasining so‘nggi yirik vakili bo‘lgan Sulton Sanjar davrida davlatning poytaxti Marv shahriga ko‘chirildi. Sulton Sanjar Movarounnahrdagi Qoraxitoylarning ichki ishlariga, siyosatiga katta ta’sir o‘tkaza olishga erishgan Saljuqiylardan edi. U hokimiyatni qo‘lga olishi bilanoq harbiy yurishlarni kuchaytiradi. Natijada bir qancha viloyatlar, xusan, Mozandaron, Xorazm, Seyiston, G‘azna va Movarounnahr Saljuqiylar davlatiga buysundiriladi. Manbalarning ma’lumot berishicha, Sulton Sanjar «Ulug‘ sulton», «Sultonlarning sultonisi», «SHahanshoh» kabi unvonlar bilan ulug‘langan.

Ta’kidlash lozimki, Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o‘z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. SHuning uchun ham markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola, vakillarining toj-taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o‘lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo‘lgan edi. Natijada Sulton Sanjar davriga kelib Saljuqiylar davlatining g‘arbiy Iroq qismida uning ta’siri pasayib qoladi. Mamlakatning sharqiy qismi – Eron, Afg‘oniston, Xorazm va Movarounnahrdagi Sultonning ta’siri birmuncha kuchli edi. Ammo, 1141 yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, Qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo‘sishlari bilan qoraxitoylar o‘rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho‘lidagi jangda Sulton Sanjar qo‘sishlari mag‘lubiyatga uchraydi. Natijada Movarounnahr qo‘ldan ketib, sultonning mavqeい ancha pasayib ketdi.

Saljuqiylarning mag‘lubiyatidan Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalaniib, 1141 yilning qishida Saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi va 1142 yilda Nishopurga yurish qildi. Lekin, Sulton Sanjar Xorazm qo‘sishlarini Xurosondan quvib chiqardi va Otsizni yana o‘ziga bo‘ysundirishga

erishdi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramay, Saljuqiyalar davlati o‘zining avvalgi qudratini yo‘qota boshlagan edi. Saljuqiylargacha qiluvchi zarbani Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi **G‘o‘z** qabilalari berdi. 1153 yilda ular Sulton Sanjar qo‘shinlarini tor-mor etib, uning o‘zini asir oldilar. G‘o‘zlar himoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-taroj qilib, o‘t qo‘ydilar. Sulton Sanjar 1156 yilda asirlikdan qochishga muvaffaq bo‘lsa ham, lekin Saljuqiyalar davlatini tiklay olmadi va bir yildan keyin vafot etdi.

A. Ziyo tadqiqotlariga ko‘ra, Saljuqiylar davlat boshqaruvi o‘ziga xos edi. Davlat boshlig‘i, oliv hukmdor Saljuqiylar xonadoni vakili bo‘lib **Sulton ul-a’zam** unvoniga ega bo‘lgan. Ilgarigi sulolalarda bo‘lgan kabi, Sulton nomiga xutba o‘qilib, tangalar zarb etilgan. Mol-mulk, er-suv taqsimlash davlat va boshqaruv mansablariga tayinlash, davlat kirim-chiqimlarini nazorat qilib turish, amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilish, yangi qal’alar, shaharlar, hashamatli inshootlar qurishga boshchilik qilish kabilari sultonning zimmasida bo‘lgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega bo‘lgan. Manbalarda **bosh vazir-rais ur-ruaso** (raislarning boshlig‘i), **sa’id ur-ruaso** (boshliqlarning kattasi) deb atalib, u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish muassasalari ishlarini nazorat qilgan.

Saljuqiyalar boshqaruv tizimi **dargoh** va **devonga** bo‘lingan bo‘lib dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilar edi:

Ulug‘ hojib – oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o‘rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushturuvchi amaldor;

Amiri horis – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug‘ullanuvchi amaldor;

Salohdor – saroydagи qurol-asлаha, ayniqa оliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug‘ullanuvchi amaldor;

Xos vakil – dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor;

Jangdor – sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor. Undan tashqari oliy hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta'minlashda jomador, sharobdor, choshnigir (sultonning ovqatlanishiga mas'ul), sarhang, miroxo'r, tashtdor kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruvidagi devonlar sulolaviy va rasmiy devonlarga bo‘lingan. **Sulolaviy devonlar** oliy hukmdor xonadoni faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu xonadonga tegishli bo‘lgan mol-mulk, er-suv, xazina kabilarning boshqaruvi va hisob-kitobi bilan shug‘ullangan. **Rasmiy devonlar** qo‘yidagilar bo‘lgan:

Devoni tug‘ro – bu devon oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirishga taqdim etgan. Joylarga rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjatlar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta’minlash ham shu devonning vazifasi edi:

Devoni istifo (moliya devoni) – davlat kirim-chiqimlarini, soliqlar, boj va boshqa molivayiv daromadlar, ularni alohida ro‘yxatga olish bilan shug‘ullangan.

Bu devonning xizmatchilari dargoh kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, mavjud naqd pulning hisobi, davlat qaramog‘ida bo‘lganlarga ketadigan xarajat, maosh, nafaqa miqdori kabilarni ham nazorat qilganlar;

Devoni ishrof (davlat nazorati) – moliya-soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazorat olib borish, sulolaga tegishli er-suвлар, qimmatbaho moliya qog‘ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar, bozor mutasaddilari, soliqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borgan;

Devoni arz (harbiy vazirlik) – lashkarga mo‘ljallangan maosh va ta’minot, harbiylarning ro‘yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, ot-ulov, harbiy yurishlar paytidagi ta’minot, harbiylar ko‘rigini tashkil etish kabi vazifalarini bajargan.

Saljuqiylar hokimiyatida, ayniqsa Sulton Sanjar hukmronligi davrida hokimiyatda harbiy sarkardalar katta o‘rin egallaganlar. Harbiy boshliqlar va sarkardalarning ko‘pchiligi turli urug‘ va qabilalardan (o‘g‘o‘z, turkman, xalaj, chig‘il va boshq.) chiqqan kishilardan bo‘lgan. Harbiy sarkardalar tabaqasi o‘z ta’sirini Sulton Sanjar boshqarayotgan hokimiyatga o‘tqazib, ularning ixtiyori bilan ish tutishni talab qilganlar. Harbiy sarkardalarning mavqeいi Sulton Sanjarning Qatvan cho‘lidagi mag‘lubiyatidan so‘ng yanada kuchayib ketgan edi.

Saljuqiylar davri mahalliy boshqaruв tizimida viloyat boshliqlari (voliylar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lganlar. Voliylarni oliv hukmdor tayinlagan va mansabidan olgan. Voliylar butun viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalarga boshchilik qilganlar. Moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliylar nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Tumanlar va shaharlar miqyosidagi boshqaruв tizimi ham viloyatlarniki singari bo‘lgan.

10-mavzu. Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining tashkil topishi

Reja

- 1. Xorazmshoh-anushteginiylar sulalosining tashkil topishi**
- 2. Davlat boshqaruvi va siyosiy tizim**

Tayanch so‘z va iboralar. Xorazmshoh-anushteginiylar, Otsiz, Sulton Sanjar, Gurganj, Amiri-oxur (miroxo ‘r), Amiri-shikor, Tashtdar

Xorazm Somoniylar davrida ularga tobe viloyat hisoblanardi. X asr oxiri – XI asrning boshlariga kelib Xorazm hukmdori Ma’mun I va uning o‘g‘li Ali ibn Ma’mun Somoniylar davlati qo‘laganidan so‘ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko‘rdilar. Xususan, 996 yilda SHimoliy Xorazm hukmdori Ma’mun ibn Muhammad ikki qismga bo‘linib ketgan davlatni birlashtirib **xorazmshoh unvoni** oladi va Urganchni o‘z poytaxtiga aylantiradi. Ammo, Movarounnahrdagi Qoraxoniylar va Xurosondagi G‘aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo‘lib, ko‘p hollarda Mahmud G‘aznaviy va uning o‘g‘li Ma’sudga qaram

edi. Xorazmning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi Anushteginiy-Xorazmshohlar sulolasi davriga to‘g‘ri keladi.

Ushbu sulolaning asoschisi yoki birinchi vakili Anushtegin kelib chiqishi jihatidan o‘g‘o‘z turklaridan bo‘lib, yoshligida Garjiston (Gurjiston) da yashagan va yollanma jangchi (mamluk) bo‘lgan. Saljuq sultonni Malikshoh I davrida Anushtegin tashtdorlik mansabiga (sulton hovo‘zlari va hammomlari ashylari xazinachisi) ko‘tarilgan edi. Manbalarning ma’lumot berishicha, tashtdorlik mansabiga sulton o‘zining ishonchli odamlarini tayinlar edi va ko‘p o‘tmay Anushtegin sultonning yaqinlaridan biriga aylanadi. Natijada 1076 yilda Sulton Malikshoh Anushteginni Xorazm hokimi etib tayinlaydi. Anushtegin Saljuqiylargaga tobe bo‘lib hokimiyatni boshqaradi va 1097 yilda vafot etadi. O‘scha yili uning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad (1097-1128) Xorazm volysi qilib tayinlanadi.

Qutbiddin Muhammad otasi davrida o‘z davrining yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Marvda ilm olgan, xususan, din ilmlarini yaxshi o‘rgangan edi. U Xorazm volysi bo‘lgach qobiliyatli hukmdor sifatida ulamolarga va din arboblariga homiylik qiladi. Qutbiddin Muhammad Xorazmda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun anchagina kuch-g‘ayrat sarflagan bo‘lsada, rasman Saljuqiylargaga tobe bo‘lgani bois, Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qildi. U Saljuqiylarning oliy hokimiyat uchun o‘zaro kurashlarida ham faol ishtirot etganligi ma’lum. Tarixiy manbalarda Xorazmshohning unvoni **«Podshoh Qutbid-dunyo vad-din Abulfath Mu’in Amiral-mo‘minin»** (**«Dunyo va din qutbi, g‘alabalar otasi Mo‘minlar amiri-xalifaning yordamchisi»**) deb ulug‘lanishi Qutbiddin Muhammad Saljuqiylargaga tobe bo‘lsa-da, mavqeい ancha baland bo‘lganligidan dalolat beradi. SHu sababli bo‘lsa kerakki, 1128 yilda Qutbiddin vafot etgach Sulton Sanjar Xorazm taxtini uning o‘g‘li Aloviddin Otsizga (to‘liq nomi Al-Malik Abu Muzaffar Aloviddin Jaloliddin Otsiz; 1128-1156 yy) topshiradi.

O‘z davrining mohir sarkardasi va yaxshigina diplomati bo‘lgan Otsiz mustaqil tashqi siyosat olib borishga harakat qilib Saljuqiylarning har bir xatosidan ustalik bilan foydalandi. Otsiz birinchi marta Sulton Sanjarning itoatidan chiqib mustaqil harakat qildi va Saljuqiylargaga tegishli bo‘lgan Sirdaryoning quyi oqimidagi erlarni Jandgacha (Kaspiy dengizi bo‘ylarigacha) bosib olib, Mang‘ishloq viloyatini ham o‘ziga bo‘ysundirdi. Bundan g‘azablangan Sulton Sanjar Otsizga qarshi yurish qilishga qaror qildi. CHunki o‘scha davr siyosatini yaxshi tushungan Sanjar, agar Otsizni buysundirmasa o‘ziga tobe bo‘lgan Qoraxoniyalar va G‘aznaviyalar ham isyon ko‘tarishini bilardi. SHuningdek u, o‘zining harbiy qudrati g‘oyat kuchli ekanligini ham bilardi. Bularni hisobga olib Sulton Sanjar 1138 yilning oktyabrda Otsizga qarshi Xorazmga qo‘sish tortdi va Xazorasp qal’asini qamal qildi. Sulton Sanjar Xorazmga jiyani Sulaymonshohni voliy qilib tayinladi. Ammo, ko‘p o‘tmay, 1139 yil fevralda Sulton Sanjar Marvga qaytgach, Otsiz o‘z qo‘sishlari bilan Xorazmga kelib Sulaymonshohni haydab yuborib qayta taxtni egalladi.

1156 yilda Otsiz qoqshol kasaliga uchrab vafot etadi va taxtga uning o‘g‘li Elarslon (1156-1172 yy) taxtga o‘tiradi. Elarslon otasiga qaraganda ancha qo‘lay vaziyatda taxtni boshqardi. CHunki 1157 yilda Sulton Sanjar vafot etganidan so‘ng Saljuqiylar davlati mayda viloyatlarga bo‘linib ketdi va Xorazmni mustaqil siyosat

olib borishi chun keng yo‘l ochildi. Elarslon Xurosondagi Saljuqiyarlarning o‘zaro kurashlaridan foydalanib Kaspiy bo‘ylaridagi Dehistonni bosib oldi. SHuningdek u, otasi davrida Xorazmga bo‘ysundirilgan ko‘chmanchi turkman va qipchoq qabilalari yordamida Movarounnahrning ichki ishlariga ham tez-tez aralasha boshlaydi. 1158 yilda u katta qo‘sish bilan Movarounnahrga bostirib keldi. Bu vaqtida qoraxitoylarga vassal bo‘lgan qoraxoniylar ko‘chmanchi qarluq qabilalari bilan jang olib borayotgan edi. Elarslon qarluqlarga Buxoro va Samarqand uchun olib borilgan janglarida yordan beradi. Lekin qoraxitoylar qo‘sishlari yordamga etib kelishi bilan Elarslon Xorazmga qaytishga majbur bo‘ldi. U bir necha marotaba Xorazmga yurish qilgan bo‘lsa-da, muvaffaqiyatga erisha olmadi.

1171-1172 yillarda qoraxitoylarning katta qo‘sini Xorazmshohning o‘lponni o‘z vaqtida to‘lamayotganligini bahona qilib Xorazm ustiga yurish qiladi. Elarslonning buyrug‘i bilan Sirdaryodagi katta to‘g‘onlar ochtirilib, Xorazm poytaxti yaqinidagi yo‘llar suvga bostirildi. Bu qoraxoniylar qo‘sini yurishini qiyinlashtirdi va Xorazmning poytaxti Gurganj (Urganch) talon-taroj qilishdan saqlab qolindi. Ammo, qoraxitoylarning bu yurishi davrida Elarslon kasallikdan vafot etdi (1172 y). SHundan so‘ng uning o‘g‘illari Aloviddin Takash va Sultonshoh Mahmud o‘rtasida uzoq yillar toj-taxt uchun kurash bordir. Aloviddin Takash 1172 yilning dekabrida qoraxitoylar malikasi CHen Tiyon yordamida rasman taxtga o‘tirgan bo‘lsa-da, aka-ukalar o‘rtasida kurash davom etdi. CHunonchi, 1174 yilda Sultonshoh Mahmudning onasi Turkon xotun Nishopur hukmdori Oy-Aboga qimmatli sovg‘alar yuborib, Takashga qarshi ittifoq taklif qildi. O‘scha yili Gurganjdan 20 farsah uzoqlikdagi Subvurni shahri ostonasida Oy-Abo qo‘sishlari Alovuddin Takash qo‘sishlari bilan to‘qnashdi. Bu jangda Takashning qo‘li baland kelib, Oy-Abo asir olindi va qatl etildi. Turkon xotun va Sultonshoh Kaspiy dengizining sharqiy sohilidagi Dehistonga qochdilar.

Xorazmshoh Takash 1193 yilning dekabrida Marv shahrini fath etib, shahar va uning atroflariga katta o‘g‘li Nosiriddin Malikshohni voliy etib tayinladi. Bag‘dod xalifasi Nasr (1180-1225 yy) va G‘arbiy Saljuqiylar sultonasi Tog‘rul II o‘rtasidagi nizolardan foydalanib, Takash qo‘sishlari 1194 yilning mart oyida Tog‘rul II ga qarshi urush ochdi va uni mag‘lub etib Hamadon shahrini egalladi.

Xorazmshohning tobora kuchayib borayotganligidan xavfsiragan xalifa Nasr qo‘sishlari Takashga qarshi chiqdilar. 1196 yilning iyun oyida Takash qo‘sishlari xalifa qo‘sishlarini engdi. SHu tariqa Afg‘oniston va Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo‘liga o‘tdi va Xorazm davlati hududlari birdaniga ikki baravar kengaydi. Xorazm davlati endi Bag‘dod xalifasiga tegishli joylar va G‘uriylar bilan chegaradosh bo‘lib qoldi. Ammo, ko‘p o‘tmasdani xalifa Nasr bilan Takash munosabatlari yana yomonlashganligi tufayli Xorazmshoh Iroqi Arab va xalifalik poytaxti Bag‘dodni bosib olishga qaror qildi. Lekin bu yurish paytida Takash kasallanib, 1200 yil iyul oyida Xorazm bilan Nishopur orasidagi SHahriston shahrida vafot etdi.

1200 yilning avgust oyida Xorazmshohlar taxtiga Takashning o‘g‘li Qutbiddin Muhammad o‘tirdi (1200-1221 yy) va otasining Aloviddin laqabini qabul qildi. U taxtga o‘tirishi bilanoq ayrim muammolarga duch kelgan bo‘sa-da,

ularni zudlik bilan bartaraf etib, 1203 yilda qoraxitoylarning yordami bilan Xurosonni bosib oldi. Undan keyin esa Hirot va uning atroflarini egalladi.

Aloviddin Muhammad 1207 yilda Movarounnahrga yurish qilib, Buxorodagi Sanjar qo‘zg‘olonini bostirdi va Buxoroni egalladi. Xorazmshoh 1210 yilda qarluqlar bilan ittifoq to‘zib qoraxitoylar ustiga yurish qildi. Bu yurish Xorazmshohning g‘alabasi bilan tugadi va u qoraxitoylarning O‘zganddagi boy xazinasini qo‘lga kiritdi. Umuman, Aloviddin Muhammad 1210 va 1212 yillarda qoraxitoylarga ikki marta qaqshatqich zarba berib ularni butunlar tor-mor etdi. Buning natijasida uning obro‘yi oshib ketib ikkinchi Iskandar, ikkinchi Sulton Sanjar laqablarini olishga mo‘sharraf bo‘ldi. Aloviddin Muhammadning say‘i-harakatlari tufayli 1217 yilga kelib butun Movarounnahr, Ozarbayjon, Eron, Xurosondan Hindistongacha bo‘lgan erlarda Xorazmshohlar hukmronligi o‘rnatildi. Ammo, mamlakatning ichki siyosiy holati mustahkam emas edi. Bu holat mug‘ul bosqini paytida yaqqol nomoyon bo‘ldi.

Davlat boshqaruvi va siyosiy tizim. Harbiy boshqaruv. Xorazmshohlar davlatida markaziy boshqaruv idorası «**al-majlis ul oliv al faxri at-toji**» deb nomlangan bo‘lib, uni vazir boshqargan. **Vazir** – mamlakatda sultondan keyingi eng yuqori mansabdor shaxs bo‘lgan. Vazir sultonning bosh maslahatchisi bo‘lib, bevosita unga bo‘ysungan. Vazir rasmiy marosimlarda, davlatlararo aloqalarda, mustamlakalar bilan olib boriladigan mo‘zokaralarda xorazmshoh nomidan ishtirok etib, sulton va rayiat (fuqarolar) o‘rtasida vositachilik qigan. Barcha davlat amaldorlari, jumladan, amirlar, beklar va harbiy boshliqlar vazirga bo‘ysungan. Vazirning vazifalari qo‘yidagilardan iborat bo‘lgan:

- ashob ad-davanin yoki devonxonalar amaldorlarining boshlig‘i. YUqori mansabli amaldorlarini ishga tayinlagan yoki ishdan bo‘shatgan;
- davlat amaldorlariga nafaqalar (arzak) va moddiy yordam (mavajib) joriy etish ishlarini boshqargan;
- davlat amaldorlarini hayot uchun zaruriy ozuqa va ashyolar bilan ta’minlanishini belgilagan;
- bojxona va xazina faoliyatini nazorat qilgan;
- sultonga muntazam ravishda hamrohlik qilgan, ba’zi paytlarda qo‘shin jo‘natib ularga boshchilik qilgan.

Xorazmshohlar davlatida vazirlik lavozimi katta hurmatga ega bo‘lib, o‘rta asr manbalarining birida vazir haqida shunday ma’lumot beriladi (Z. Bunyodov bo‘yicha): «eng yuksak mahkama – vazorat (vazirlik) bo‘lib, barcha jamoat ishlari hamda odamlar hayotining to‘g‘ri yo‘ldan borishi u bilan aloqadordir, buning natijasida mamlakatning chiroyi va martabasi ortadi, davlatda tartib va qonunchilik o‘rnataladi... Vazir – idora qilish qonunlarini biladigan, davlat kelajagini biladigan, hayotiy tajribaga boy, yaxshi ishlarga undovchi, shon-shuhrat va yantuqlarga etaklovchi, fuqarolar ahvoldidan ro‘yi-rost xabardor qilib turadigan, ko‘rsatmalariga to‘la ravishda ishonish mumkin bo‘lgan kishi bo‘lishi lozim...»

Vazirlarga sadr, dastur, xojayı bo‘zruk kabi unvonlar berilgan. Vazir lavozimidagi shaxs o‘zining siyohdoni (dovot) va ma’lum xil movutdan o‘ralgan sallasi (dastor) bilan ajralib turgan. Ular asosan arab-fors mansabdorlari muhitiga mansub kishilar bo‘lib, arab hamda fors tili, ma’muriy ishdagi layoqati, saroy

tartib-qoidalarini bilishi shart bo‘gan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishapur, Isfaxon, Balx, Hirotdan chiqqan arboblar bo‘lgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma’muriy boshqaruvida ham vazirlar bo‘lgan. Ba’zan shaharlarga ham vazirlar tayinlangan bo‘lib, ular o’sha madaniy va iqtisodiy markazning yagona hokimi ham edilar. Xorazmshohlar davlatida vazir lavozimi dastlab Sulton Otsiz hukumatida paydo bo‘lgan.

O‘rta asrlar yozma manbalarida Xorazmshohlar davlat boshqaruvidagi ko‘pgina mansab va lavozimlar haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ularning asosiylari quyidlagilaridir:

Bosh hojib yoki ulug‘ hojib (hojibul-kabir) – oliv hukmdor shaxsi bilan bog‘liq masalalar, marosimlar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar bo‘lgan. Ular sultonning eng zarur topshiriqlarini bajarganlar hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kotiblar va amaldorlarning hatti-harakatini nazorat qilgan.

Ustozdor – xorazmshohlar saroyida xizmatkorlarga bosh bo‘lib, otxonalar, oshxonalar, novvoyxonalar, sharobxonalar xo‘jaligini boshqarar edi. Oliy hukmdorning birinchi chorlashidayoq ustozdor etib kelib, sulton topshiriqlarini boshqa xizmatkorlarga etkazar edi. Ustozdor saroyning barcha chiqimlarini amalga oshirgan. Saroy mansablarining barcha xarajatlari ham uning zimmasida bo‘lgan. Ustozdor xazinadan chiqadigan barcha sarf-xarajatlar uchun doimiy ravishda sultonga hisobot berib turgan.

Amiri-oxur (miroxo‘r) – sayischi, sulton otxonalari boshlig‘ining lavozimi. U sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan. Miroxo‘rlar harbiy yurishlarda ham faol ishtirok etganlar.

Amiri-shikor – sulton ovlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchisi lavozimi.

Tashtdor – sulton hammomlari va hovo‘zlarining boshlig‘i. Uning qo‘l ostida bir necha g‘ulom bo‘lgan. Tashtdorlar sultonga juda yaqin odamlar bo‘lgan. Ayrim sultonlar tashtdorlarga malik unvonini ham berishgan. Ayrim tashtdorlar hatto o’n ming askarlarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarga ishtirok etganlar, ba’zilari esa sultonning shaxsiy elchisi vazifasini ham bajargan.

SHarobdor – sulton sharobxonasining boshlig‘i. SHarobxonada turli sharoblar tayyorlash bilan birga shirin ichimliklar tayyorlash uchun shakar ham saqlangan. SHarobdorlar amirlar orasidan tayinlanib, uning qo‘l ostida bir nechta g‘ulomlar bo‘lgan.

Qissador – bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza va iltimosnomalarni yig‘ib payshanbadan jumaga o‘tar kechasi sultonga topshirgan. Juma kuni esa sultonning javobini ariza egalariga etkazgan. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro‘li mansablardan biri hisoblangan.

CHoshnigir (bakovul) – u dasturxon yozilganda sulton taomlaridan zaharlanmasligi uchun o‘zi birinchi bo‘lib tatib ko‘rar edi.

Davotdor – sultonning xos kotibi, farmonlarini yozuvchi.

Farrosh – sulton o‘rin-to‘shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig‘i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar, poyondozlar, ko‘rpa-to‘shaklar bo‘lgan. Farrosh va maxsus o‘rgatilgan g‘ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar.

Amirul-a'lam (a'lamdor yoki yalovbardor) – sulton bayroqdori yoki sulton tug‘ining sohibi.

Xorazmshohlarning davlat tizimi Saljuqiylardan deyarli farq qilmagan. Ilgari bo‘lgani kabi davlat boshqaruvi dargoh va devonlar majmuidan iborat bo‘lgan. Dargohda **hojib**, **ulug‘ hojib** Xorazmshohlar davrida ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Hojiblarga maxsus mo‘zokaralar olib borish, hatto vazirlar faoliyatini tekshirish kabi muhim vazifalar topshirilgan. Hojiblarning viloyat hukmdori bo‘lganliklari ham manbalardan ma’lum.

Xorazmshohlar davlati o‘zining paydo bo‘lgan davridan boshlab to inqiroziga qadar doimiy qo‘sishinlariga ega bo‘lgan. Manbalarning ma’lumot berishicha, Xorazmshohlar o‘z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta’lim tizimini joriy qilganlar. Davlatdagi qo‘sishinlar soni hukmdorlar harbiy yurishlarining ko‘lamiga qarab o‘zgarib turgan. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, 1218 yilda Muhammad xorazmshoh yalpi qo‘sishinlar ko‘rigi o‘tkazib, unda «150 mingga yaqin otliq, 100 ming piyoda askar qatnashdi».

Xorazmshohlar davlatining eng oliy harbiy boshqaruv idorasi **devon-al arz** (yoki **devon-al jaysh**) deb nomlangan bo‘lib, uning boshlig‘i **sohib devon-al arz** (yoki **sohibi devon-al jaysh**, yoki **ariz-al jaysh**) hisoblanar edi. Devon-al arz harbiylarga tegishli bo‘lgan er-suvlar, ularga beriladigan maosh va har xil to‘lovlar, shuningdek, askarlarni ro‘yxatga olish, ular va ular qo‘lidagi qurol-aslahalarni tekshirib kurish ishlari bilan shug‘ullanardi. Bu devon hamma harbiylarga belgilangan maoshlarini (mavajib, arzak) hamisha ma’lum vaqtida berib turar va harbiy boshliqlarning maoshini o‘z qo‘l ostidagilarga to‘g‘ri taqsimlanishini nazorat qilar edi.

Xorazmshohlar qo‘sishinlarining qo‘mondoniga **qo‘id** yoki **muqaddam** degan unvon tavsiya etilardi. Xorazmshohlar yangi zabit etilgan o‘lka yoki viloyat erlarini amirlarga iqto tariqasida taqsimlab berar, mahalliy amirlar orasidan eng qobiliyatlisini ularga boshliq qilib tayinlab unga **amir-al umaro** (amirlar amiri) nomini berardi.

Qo‘shindagi 10 ming kishilik suvoriylar guruhiga qo‘mondonlik qilgan kishilar **malik** unvoniga ega bo‘lar edi. Janglarda alohida mardlik ko‘rsatgan maliklarga esa **xon** unvoni berilgan. Qo‘shindagi choparlar **chovush**, ularning boshliqlari esa **muqaddam chovushiya** deb yuritilgan. Maxsus xufiya va ayg‘oqchilar bo‘linmali yoki **josusiya** deb atalgan.

Urush boshlanishidan avval yoki urush e’lon qilingan vaqtida Xorazmshohlar harbiy kengash chaqirishar va unda oldinda turgan urush bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinardi. Ushbu kengashga Xorazmshohning o‘zi boshchilik qilib, unga yirik harbiy arboblar, ulamolar, qonunshunoslar va munajjimlar taklif qilinar edi. Kengashda barcha takliflar ko‘rib chiqilib, so‘nggi qarorni shohning o‘zi qabul qilardi.

Xullas, XIII asrning birinchi choragida Xorazmshoh Muhammadning harbiy va siyosiy uquvsizligi tufayli Horazmshohlar davlati inqirozga uchradi. SHunga qaramasdan o‘zbek xalqi o‘rtalashtirish davlati davlatchiligi tarixida Xorazmshohlar davlati muhim o‘rin tutadi. O‘z davrida Xorazm davlati Movarounnahr, Xuroson, Mozandaron, Kirmon, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Sijiston, G‘azna va boshqa davlatlar

hamma viloyatlarni o‘z tarkibiga olgan edi. Xorazm sultanati XII asrning oxiri – XIII asrning boshlarida musulmon SHarqining eng yirik va qudratli davlati edi.

11-mavzu. Amir Temur davlatining tashkil topishi.

Reja

- 1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi**
- 2. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi**
- 3. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson**

Tayanch so‘z va iboralar. Siyosiy tarix, siyosiy tarqoqchilik, Hoji Barlos, Kesh viloyati, Tug‘luq Temur, Amir Husayn, “Loy jangi”, Sarbadorlar, Mavlonzoda, Konigil voqeasi, davlat boshqaruvi, qurultoy, qonuniy hukmdor, sufiylar, harbiy yurishlar, Anqara jangi, siyosiy boshqaruvi tajribalari, ma’muriy idora usuli, boshqaruvi tizimlari, yagona siyosiy tartib, Pirmuhammad, Halil Sulton, Jahongir Mirzo, Ulug‘bek, SHohrux Mirzo.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixining o‘rta asrlar davridagi yangi bosqichi buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir nomi bilan bog‘liqidir. Amir Temur 1336 yil 8 aprelda (hijriy 376yil, sha’bon oyining 25 kunida) Kesh tumaniga qarashli Xo‘ja Ilg‘or (hoz. Qashqadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani) qishlog‘ida barlos beklaridan biri Amir Tarag‘ay Bahodir ibn Barqal oilasida dunyoga keldi. Temurning bolaligi va o‘siprinlik yillari Kesh va uning atroflarida o‘tib, mahalliy amirlar, no‘yonlar va beklarning o‘zaro urushlari, nizolariga to‘g‘ri keldi.

Ma’lumki, XIV asrning 40-yillariga kelib CHig‘atoj davlati parchalanib, davlatning sharqiy qismi-SHraqiy Turkiston va Ettisuvni o‘z ichiga olgan Mug‘uliston davlati tashkil topadi. CHig‘atoj ulusida nisbatan barqarorlikni saqlay olgan Qozonxon (1336-1347yy.) o‘limidan keyin davlat hududlari parchalinish, iqtisodiy vayronlik sari yuz tutib, Amir Qozog‘on (1347-1357yy.) davrida bu jarayon yanada avj oladi. 1348 yilda CHig‘atoj avlodlaridan bo‘lgan Tug‘luq Temur Mug‘uliston taxtiga o‘tiradi. U CHig‘atoj ulusidagi siyosiy parokandalikka barham berish va Movarounnahrni bosib olish maqsadida bu hududlarga bir necha bor talonchilik urushlari olib boradi. Xususan Tug‘luq Temur 1360 yilda Kesh viloyatini bosib oladi. bu viloyatning hokimi bo‘lgan Temurning amakisi Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Manbalarning ma’lumot berishicha, Amir Temur Amudaryo bo‘yida amakisini kuzatar ekan amakisiga shunday murojaat qiladi: “Agar ikkovimiz ham vatanni tark etsak, merosiy yurtimiz shubhasiz begonalar qo‘liga o‘tib ketadi. Lozim topsangiz men podshoh (Tug‘luq Temurxon) xizmatiga borsam.”

Amir Temur merosiy yurtni qo‘ldan bermaslik maqsadida Tug‘luq Temur ishonchini qozonib (Amir Hoji Sayfiddin yordamida) uning xizmatiga o‘tadi va Kesh viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Ammo, Tug‘luq Temur o‘g‘li Ilyosxo‘jani Movarounnahrning hokimi etib tayinlangach Amir Temur unga xizmat qilishdan bosh tortib, Balx hokimi, Amir Qozog‘onning nabirasi Amir Husayn bilan ittifoq tuzadi. O‘sha davrdagi vaziyat taqozosi bilan Temur Movarounnahrni tark etishga majbur

bo‘lib, Husayn bilan ittifoq tuzgan edi. 1361-1370 yillar davomida Amir Temur va Amir Husayn dastlab do‘stona, keyin esa dushmanchilik munosabatda bo‘ldilar.

1363 yilda Mug‘uliston hokimi Tug‘luq Temur vafot etgach Ilyosxo‘ja Movarounnahrdan haydaladi. Ammo, ko‘p o‘tmasdan Movarounnahr ustiga yangidan yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi va 1365 yilda katta qo‘sish bilan Sirdaryo tomonga yo‘lga chiqadi. Bundan xabar topgan Husayn va Temur harbiy kuchlarini jangga tayyorlaydilar. Birlashgan kuchlar va Tug‘luq Temur qo‘sishlari o‘rtasidagi jang 1365 yil 22 mayda CHinoz va Toshkent oralig‘ida qattiq yog‘ingarchilik paytida bo‘ladi va tarixda “Loy jangi” (“Jangi loy”) nomini oladi. Bu jangda Temur va Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ularning birlashgan qo‘sini mag‘lubiyatga uchraydi. Ayrim manbalar bu mag‘lubiyatning sababini Amir Husaynning sust va mayoqsizlik bilan harakat qilishi deb izohlaydi. Temurning o‘zi esa bu kabi holatlarni Husaynning hasadgo‘yligida deb biladi. Xususan “Temur tuzuklari”da Amir Temur va Amir Husaynning do‘stona munosabatlarini buzilishiga Husaynning molparastligi va hasadchiligi sabab bo‘lganligi ta’kidlanadi. “Amir Husayn bilan murosayu-madora qilishga shunchalik intildimki, hatto uning amirlariga ham bu ta’sir etib, menga bo‘ysundilar.”

Sarbadarlar harakati XIV asrning 30-yillarida Xurosonda (Afg‘onistonning shimoli-g‘arbi, Marv vohasi va Eronning shimoli-sharqiy qismi) paydo bo‘lib, bu hududlardagi mug‘ullar hukmronligi barham beradilar va markazi Sabzavor shahri bo‘lgan Sarbadorlar davlatiga (1337-1381 yy.) asos soladilar Sarbadorlar harakati XIV asrning 50-60-yillarida ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida Movarounnahrga ham yoyiladi va uning markazi Samarqand edi. Sarbadorlarning harakatlantiruvchi kuchlari madrasa toliblari, shayxlar, umuman, oddiy aholidan iborat edi. Harakat qatnashchilarining asosiy maqsadi mug‘ul istilochilari va zulm o‘tzazuvchi mahalliy qatlamlarga qarshi kurash edi.

Bu paytda Keshda bo‘lgan Amir Temur Ilyosxo‘janing mag‘lubiyati haqidagi xabarni Amir Husaynga etkazadi va ular 1366 yilning bahorida Samarqandga etib keladilar. Samarqand atrofidagi Konigil mavzeida qo‘zg‘olon rahbarlari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tadi. Amir Husaynning buyrug‘i bilan bu erda sarbadorlarning boshliqlari va aftidan, faol ishtirokchilari qatl etiladi. Temurning aralashuvi bilan faqat Mavlonzoda omon qoldirilib, Xurosonga jo‘natiladi. Mu‘iniddin Natanziy ma’lumotlariga asoslangan A. Ziyoning fikricha, sarbadorlar g‘alabasidan so‘ng samarqandliklar Mavlonzoda itoatiga o‘tib “uni imom va amir (sifatida) qabul qilganlar”. YA’ni, Samarqandda ham diniy, ham siyosiy hokimiyat Mavlonzoda qo‘liga o‘tgan. Uning bu “imomligi va amirligi” Samarqandning o‘zida deyarli bir yil davom etgan. SHu bois ham Amir Husayn sarbadorlar harakatining boshliqlari va faollarini omon qoldirmasligi aniq edi. Amir Husayn uchun o‘z siyosiy raqiblarini zaiflashtirish va mavridi kelsa ulardan qutulish siyosati nechog‘lik muhim bo‘lganini Konigil voqeasidan so‘ng yuz bergen jarayon orqali ham bilib olish mumkin.

1366-1370 yillar Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchayib, bu kurash Husayinning o‘ldirilishi bilan yakun topdi. 1370 yil 9 aprel chorshanba kuni o‘z davrining nufuzli amirlaridan bo‘lgan SHayx Muxammad suldo‘z, Kayxisrov Xuttaloniy, O‘ljoytu apardi, Dovud dug‘lot, Sarbug‘o jaloyir, Joku barlos, Muayyad dug‘lot, Badaxshon hokimi SHayx Muxammad, Husayn bahodir, Sayyid Baraka,

termezlik aka-uka sayyidlar Abu Maoliy va Ali Akbar kabilar huzurida Amir Tumr hokimiyati tan olindi. Movarounnahrning amaldagi xonligi CHingizzon avlodiga mansub bo‘lgan Suyurg‘at mish qo‘liga o‘tdi. Davlat boshqaruv tizimi esa Movarounnahr amiri nomini olgan Amir Temur qo‘lida qoldi. Temur Kesh shahridan Samarqandga ko‘chib, uni o‘z davlatining poytaxtiga aylantirdi. Zero, “Boburnoma” da ma’lumot berilishicha, “Mug‘ul va turk ulusi uni Semizkand derlar. Temurbek poytaxt qilur edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilgan emastur”.

Temur davlatining barpo etilishi. Amir Tumur hokimiyat tepasiga kelgach, deyarli bir asrlik bosh boshdoqlik hukm surgan mamlakatga qonunlar joriy etib, tartib o‘rnatish oson emas edi. Uni faqatgina kuchli siyosat yurgizib, mamlakat qudratini mustahkamlab amalga oshirish mumkin edi. Temur o‘ziga mustahkam tayanch barpo etish maqsadida dastlab barlos qabilasidan maxsus gvardiya tashkil qiladi. CHunki bunday ishonchli gvardiya ayniqsa uning siyosiy va harbiy kurashlari uchun zarur edi.

SHuningdek, Amir Temur davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga olgan bo‘lsa-da, ammo mavjud shart-sharoitda amaliy qadamlar qo‘yib borish nihoyatda og‘ir edi. Zero, mamlakat yo biron-bir viloyat, yoki ijtimoiy tabaqa doirasida kattagina mavqega ega bo‘lgan amirlar avval boshda uning hukmronligini tan olgan bo‘lsalar-da, ular bilan Amir Temur o‘rtasidagi munosabat bundan buyon ularga va ularning namoyondasi bo‘lmish ijtimoiy muhitga nisbatan yurgiziladigan siyosat bilan ko‘p jihatdan bog‘liq edi. Aynan shuning uchun ham 1370 yilning o‘rtalarida Samarqandda o‘tkazilgan qurultoyda Amir Temur barcha viloyatlardan nufuzli amirlar, lashkarboshilarni yig‘ib, ularga har birining mavqeい va martabasiga qarab biron-bir mansab va mulk (viloyat, tuman, shahar) taqsimlab beradi, katta-katta sovg‘alar ulashadi. Bu haqda Sohibqironning “Tuzuklarida” shunday deyiladi: “Bulardan mol-dunyoga hirs qo‘yan ochqo‘z va ta’magirlariga mol-ashyo va’da qildim, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko‘z tikkan amalparastlarga qo‘lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan birining hokimligini berdim”.

Amir Temur Movarounnahrning qonuniy hukmdori sifatida mamlakat hududlarini birlashtirishga kirishar ekan, hududlar ustiga dabdurustdan harbiy yurishlar qilmasdan, kelishuvchilik siyosatini tutdi. SHu bois ham u Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi erlarni, Farg‘ona, SHosh viloyatlarini o‘z tasarrufiga kiritishda unchalik qiyalmadi. Ammo, Xorazmda ahvol boshqacha edi. Xorazmning o‘scha davrdagi hukmdorlari (Husayn So‘fi, YUsuf So‘fi) Oltin O‘rda ta’sirida bo‘lib, elchilar jo‘natilganligiga qaramay bir necha yil Amir Temur hokimiyatnini tan olmadilar. SHuning uchun ham Amir Temur Xorazm ustiga besh marotaba (1371, 1373, 1375, 1379, 1388 yillar) qo‘shin tortishga majbur bo‘ladi. 1388 yildan so‘ng Xorazm Amir Temur davlati tarkibiga kirgan.

Amir Temurning harbiy yurishlari 1386 yildan boshlab “uch yillik”, 1392 yildan “besh yillik”, 1399 yildan “etti yillik” urushlar nomini olagn. XIV asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib butun Xuroson Sohibqiron ixtiyoriga o‘tadi. “Uch yillik” urush davrida Amir Temur Ozarbayjon, Tabriz, Mozandaron, G‘ilonni bo‘ysundiradi. SHundan keiyn u Kavkazga yurish boshlab Tiflis, Arzirum va Van qal’asini egalladi.

1387-1388 yillarda Xorazmga davogar bo‘lgan Oltin O‘rda xoni To‘xtamish Amir Temurning yo‘qligidan foydalanib Movarounnahrga harbiy yurishlar uyushtiradi.

1388 yilning yanvarida Amir Temurning qaytishidan xabardor bo‘lgan dushmanlar chekina boshlaydilar. Amir Temurdan topshiriq olgan amirlar, Husayn, SHayx Ali Bahodir va boshqalar dushmanni Sirdaryo bo‘yidagi Sarisuv degan joyda quvib etib, unga katta talofat etkazdilar. 1388 yilning oxiridagi yana bir to‘qnashuv (Sagaron, Kattaqo‘rg‘on atroflarida) To‘xtamishning mag‘lubiyati va qochib ketishi bilan yakunlandi. 1395 yilning bahorida Kavkazdagagi Terek daryosi bo‘yida To‘xtamish va Amir Temur qo‘sishnlari yana to‘qnashdilar. Bu jangda To‘xtamish qattiq mag‘lubiyatga uchradi, poytaxt Saroy Berka ishg‘ol etildi va Oltin O‘rdanining qudratiga qattiq zarba berildi.

Ta’kidlash lozimki, Sohibqironning bir mamlakatga qilgan yurishlari uning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bilan ketma-ket borgan. Xorazm, Xuroson, Eron, Hindiston yurishlari bunga misol bo‘la oladi. Ma’lumki, Sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgan davrda Eron va Xurosonda ham bir nechta kichik davlatlar mavjud bo‘lib, oddiy xalq va savdogarlar ulardan ko‘p jabr ko‘rar edilar. Amir Temur 1380 yildan boshlab Xuroson yurishlarini boshlaydi. Tus, Nishapur, Sabzavor shaharlari unga jangsiz taslim bo‘ladilar.

Sohibqiron Ozaybarjonga bir necha bor hujum qilib 1387 yilda uni egallahga muvaffaq bo‘ladi. 1392 yilda Armaniston va Gruziya Amir Temur izmiga o‘tadi. SHimoliy Hindiston va Kashmir musulmonlari qaroqchilardan aziyat chekayotganligi bois Temur Hindistonga ham yurish qilib, 1399 yil martida bu hududlarni ham egallaydi. 1400 yilda Amir Temur qo‘sishnlari turk sultonii Boyazid I va Misr sultonii bilan kurash olib borib, o‘scha yili Misr sultonii Farajni tor-mor etdi. 1402 yilda Amir Temur Anqara yonida Boyazid bilan ikkinchi marta to‘qnashdi va uni tor-mor etdi. Temurning bu g‘alabasi ayniqsa evropaliklarda katta taasurot qoldirgan edi. Misol uchun, Boyazid ustidan qozonilgan buyuk g‘alaba munosabati bilan Fransiya qiroli Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV va Vizantiya imperatori Temurga o‘z tabriknomalarini yuborganliklari manbalarda ma’lum. CHunki, tadqiqotchilar tili bilan aytganda, Evropaga ulkan xavf solib turgan Boyazid boshchiligidagi usmoniyalar imperiyasiga berilgan zarba uchun endigina uyg‘onayotgan butun Evropa Amir Temurdan minnatdor edi.

1404 yilning may oyida Amir Temur Kichik Osiyodan Samarcandga qaytib keladi va Xitoyga bo‘ladigan yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshlaydi. 1404 yilda qahraton qishda Temurning 200 minglik qo‘sini Samarcandan Xitoy yurishiga chiqadi. O‘scha yili qish O‘rtta Osiyo tarixidagi eng qahraton qishlardan bo‘lgan edi. Sirdaryoning suvi bir metrga muzlagan, askarlardan ko‘pining qo‘l-oyoqlarini, quloqburunlarini sovuq olgan edi. Amir Temurning o‘zi ham ko‘p o‘tmay shamollab qoladi. 1405 yil yanvar oyining o‘rtalarida O‘trorga to‘xtashga qaror qilishadi va bu erda 18 fevral kuni buyuk jahongir Sohibqiron Amir Temur vafot etadi.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy yurishlar olib boradi. Ushbu yurishlar natijasida ulkan sultanat barpo etildiki, uning tarkibiga Movarounnahr va uning atrofidagi viloyatlar, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator davlatlari kirgan. Amir Temurning ulkan davlat barpo etishdagi faoliyati uning maqsad va rejalariga ko‘ra ikki bosqichga bo‘linadi. Birinchi bosqich 1360-1386 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Sohibqiron Movarounnahrda markazlashgan kuchli

davlat barpo etishga erishadi. Ikkinci bosvich 1387-1404 yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda Amir Temur mamlakat qudratini mustahkamlash payida bo‘ldi.

Sohibqiron Amir Temur vafotidan oldin o‘z taxtining vorisini tayinlab, avlodlariyu a’yonlarini unga sodiq hizmat qilishga chaqirgan edi. Bu haqda Sohibqiron tilidan manbada quyidagicha malumot beriladi: “... shu kundan e’tiboran farzandimiz Pir Muhammad (ibn) Jahongirni o‘zimizga valiahd va toju taxt vorisi etib tayinladikkim, Samarqand taxti uning amri farmonida bo‘lg‘ay, tamkinlik va istiqlol bilan mulku millat, lashkar va raiyyatning muhim yumushlari bilan mashg‘ul bo‘lsin, sizlar esa unga tobelik va bo‘ysunish marosimini o‘rniga qo‘yinglar, birgalikda uni qo‘llab-quvvatlanglar, toki olam buzilmasin...”

Ammo, amalda ahvol boshqacha edi. Amir Temur barpo etgan buyuk sultanat (jami o‘z ichiga 27ta davlat va viloyatlarni jam etgan) garchi u hayotlik paytida uning mahorati va kuch-qudrati bilan mustahkam turgan bo‘lsa-da, Temur vafot etishi bilanoq ichki jihatdan siyosiy zaif va umumiqtisodiy asoslarga ega emasligi sezilib qoldi. Bu holat, o‘g‘illar va nabiralarga mamlakatni qism-qismlarga bo‘lib berilganligi hamda suyurg‘ol tartibining mavjudligi davlat parokandaligini kuchaytirishi (ko‘plab o‘rtasida asrlar davlatlarda bo‘lgani kabi) bilan izohlanadi. CHunonchi, Temurning jasadi Samarqandda dafn etilishi va motam marosimlari tugamasdanoq, shahzodalar o‘rtasida toj-taxt uchun o‘zaro kurash boshlanib ketdi.

O‘sha vaqtdagi Qobul va SHimoliy Hind mulklarining hukmdori bo‘lgan Pirmuhammadni taxtga o‘tkazish tarafдорлари ko‘p bo‘lsa-da, Mironshoh Mirzoning o‘g‘li, Toshkent, Sayram, Turkiston erlarining hokimi Xalil Sulton 1405 yilning 18 martida o‘zining ming chog‘li askari bilan shoshilinch tarzda Samarqand taxtini egallaydi. Xalil Sulton boshqa bir temuriy shahzoda Muhammad Jahongir Mirzo (Temurning ikkinchi o‘g‘li bo‘lmish Jahongir Mirzoning o‘g‘li Muhammad Sulton Mirzoning o‘g‘li)ni xon deb ko‘taradi va uning nomidan xutba o‘qitib, tanga zarb ettiradi. Xalil Sulton vaqtincha Temurdan qolgan xazinalar evaziga Sohibqironning nufuzli a’yon va kiborlari, ayrim amirlarini ma’lum qmsmini o‘z tomoniga og‘dirib, Movarounnahr taxtini egallab olgan bo‘lishiga qaramay, ko‘p o‘tmasdan kuchli norozilik va isyonlarga duch keladi.

Avvalo, Temurning kenja o‘g‘li SHohruh Mirzo Hirotda o‘z nomiga xutba o‘qitib, tanga zarb etishni joriy qildi. SHundan so‘ng Turkiston hokimi SHayx Nuriddin va Farg‘ona hokimi Amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi isyon ko‘taradilar. Bu isyonga O‘tror hokimi Berdibek ham qo‘shiladi. Xalil Sultonning ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryo bo‘ylarida o‘z akasiga qarshi bosh ko‘taradi. Temur taxtining asosiy valiahdi bo‘lgan Pirmuhammad Amudaryodan kechib o‘tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga qo‘sish tortadi. Xalil Sultonni Iroq tomondan otasi Mironshoh Mirzo qo‘llab-quvvatlab turgan bo‘lishiga qaramay, unga qarshi nizolar kuchayib bordi. Natijada 1405 yilning oxirlariga kelib Xurosonda SHohruh Mirzo, Balx, G‘azna va Qandahorda Pirmuhammad Mirzo, G‘arbiy Eron va Ozarbayjonda Mironshoh Mirzoning o‘g‘illari Umar Mirzo bilan Abubakr Mirzolar hokimi mutlaq bo‘lib oladilar. Sirdaryodan shimolda joylashgan viloyatlar: Turkiston, Sarbon, O‘tror, Sayram Amir Berdibek tasarrufida qoladi. O‘ratepa bilan Farg‘onani Amir Xudoydod egallab oladi. Xorazmni esa Oltin O‘rdaning taniqli sarkardalaridan biri Amir Idiku O‘zbek ishg‘ol etadi.

Movarounnahr hokimi Xalil Sultonning o‘z holicha ish tutishi, temuriy zodagonlar va amirlarning kmsitilishi, musulmon ulamolari, jumladan naqshbandiya tariqatining taniqli shayxi Muhammad Porsoning tahqirlanishi natijasida Xalil Sultonga nisbatan noroziliklar kuchayib bordi. Undan tashqari, o‘zaro urush va fitnalar shahzodalarining halokati bilan yakun topa boshladi. Xususan, taxt vorisi Pirmuhammad 1407 yil 22 fevralda o‘zining vaziri Pir Ali Toz tomonidan suiqasd natijasida o‘ldiriladi (Pir Ali Toz keyinroq Hirotda SHohruh tomonidan qatl etiladi). 1408 yil 22 aprelda Qoraquyunli turkmanlarning qabila boshlig‘i Qorayusuf bilan bo‘lgan jangda Mironshoh o‘ldiriladi. Natijada Ozarbayjon va Iroq temuriylar tasarrufidan chiqadi.

1405-1408 yillarda SHohruh Mirzo Xalil Sultondan Samarcand taxtini tortib olishga harakat qilgan bo‘lsa-da, buning uddasidan chiqa olmadi. Balx, Seyiston, Xuroson va Ozarbayjonda temuriy shahzodalar va ayrim nufuzli amirlarning birin-kechin ko‘tarilib turgan g‘alayonlari bunga jiddiy to‘sinqlik qilar edi, 1409 yilning boshlarida Movarounnahrda ham siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Bu vaqtida Amir Xudoydod Xalil Sultonni Samarcand yaqinidagi SHeroz qishlog‘ida mag‘lubiyatga uchratib, uning o‘zini asirlikka oladi. Xuroson hokimi SHohruh esa Mozandaron, Mashhad, Seyiston va Kirmontagi g‘alayonlarni bostirib, bu viloyatlarda osoyishtalik o‘rnatadi. So‘ngra butun e’tiborini Movarounnahrga qaratadi va 1409 yil 25 aprelda Amudaryodan o‘tib, Samarcandga qo‘shin tortadi. Bu jangda Xalil Sultonni asir olgan Amir Sulton qo‘shinlari tor-mor etilib, Xalil Sulton asirlikdan ozod qilinadi hamda Ray viloyatining (Eronda) hokimligiga tayinlanib 1411 yilda vafot etadi.

1409 yilning oxiriga qadar Movarounnahrda tinchlik va isoyishtalik o‘rnatib, Xalil Sulton va boshqa temuriy shahzodalar tarafdarlariga keskin choralar ko‘radi, izdan chiqqan xo‘jalik hayotini, savdo-sotiqni tiklaydi, SHohruh Mirzo temuriylar davlatining oliy hukmdori sifatida e’tirof etilib, uning deyarli 40 yillik (1409-1447yy.) barqaror hukmronlik davri boshlanadi. Temur vafotidan so‘ng o‘tgan davr mobaynida davom etgan taxt va hududlar uchun o‘zaro urushlar hamda isyonlar mamlakat aholisining iqtisodiy ahvoliga keskin ta’sir qilib, xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo‘lgan edi. SHu bois, SHohruh Mirzo oddiy xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi tabiiy edi. Aynan shuning uchun ham SHohruh Amir Temur hukmronligi ostida bo‘lgan hududlarda o‘z hokimiyatini o‘rnatishga hamda mamlakatda doimiy tinchlik va osoyishtalik o‘rnatishga jiddiy harakat qiladi.

SHohruh Mirzo Temurdan so‘ng tiklagan davlatda Movarounnahr mulkclarining alohida o‘rni bor edi. Davlatning markaziy poytaxti Hirotda shahri hisoblansa. Movarounnahrning markazi Temurning poytaxti qadimiy Samarcand shahri edi. 1409 yil Movarounnahr Xalil Sultondan olinganidan so‘ng SHohruh o‘g‘li Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek Mirzoni (1394-1447yy) Movarounnahr hukmdori etib tayinlaydi. Bu paytda 15 yoshda bo‘lgan Ulug‘bek davlat boshqaruvi ishlari uchun yosh ekanligi hisobga olinib, taniqli amir Muboriziddin SHohmalik unga otaliq etib tayinlanib, boshqaruvi ishlari amalda otaliqning qo‘lida mujassamlashadi. 1411 yilda SHohmalik SHohruh bilan Hirotda ketgach, Ulug‘bek Mirzo Movarounnahrning “yagona va qonuniy sulton” sifatida taxtni boshqara boshlaydi.

Xurosonda SHohruh Mirzo, Movarounnahrda Ulug‘bek Mirzo o‘z siyosatlarining ustuvor yo‘nalishlari etib, avvalo mamlakat hududlarini kengaytirish hamda markaziy

hokimiyatni mustahkamlash deb bildilar va shunga mos siyosat olib bordilar. Avvalo, Mirzo Ulug‘bek haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, u o‘z hokimiyati sarhadlarini kengaytirish maqsadida, 1414-1415 yillarda Farg‘ona hududlarini amakivachchasi Amirak Ahmaddan tortib oladi. 1416 yilda Qashg‘ar hokimi SHayx Ali To‘g‘ay Ulug‘bek hokimiyatini tan oladi. SHimoldagi chegaralar daxlsizligini ta‘minlash maqsadida Ulug‘bek 1424 yil kech ko‘zida Mug‘ulistonga qo‘sishin tortadi va 1425 yil erta bahorda CHu daryosidan o‘tib Issiqko‘l yaqinida mug‘ullarni tor-mor keltiradi. 1427 yilning boshida Ulug‘bek Dashti Qipchoqqa harbiy yurish qiladi va mag‘lubiyatga uchraydi. SHundan so‘ng u yigirma yil mobaynida o‘zi bosh bo‘lib harbiy yurishlarni amalga oshirmadi. Otasining vafotiga qadar (1447y.) Mirzo Ulug‘bek hukmdor sifatidagi faoliyatini mamlakatning iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayotiga qaratdi. U Movarounnahrni musulmon olamining ilmiy markaziga aylantirishga harakat qildi. CHunki u, islom olamida ilk bora hukmdorlik va olimlikni birgalikda olib borgan edi. Uning davrida Samarqand, Buxoro, Kesh (SHahrisabz) ilm-fan va madaniyat markaziga aylandi.

Xuroson hukmdori SHohruh Mirzo 1413 yil Eroni o‘z qo‘l ostiga olib, o‘sha yili Xorazmni Oltin O‘rda xonlari ixtiyoridan tortib oladi. Ammo, SHohruh hukmronlik qilgan hududlarda toj-taxt uchun nizolar zimdan bo‘lib turar edi va SHohruh keksayishi bilan bu nizolar yanada faollasha boshlaydi. Misol uchun, SHohruhning xotini Gavharshodbegim nevarasi Alouddavlanı taxt vorisi bo‘lishi tarafdori bo‘lsa, SHohruhning yana bir o‘g‘li Muhammad Jo‘ki (1402-1444 yy.) ham taxtga da’vogar edi. Undan tashqari, Fors va Iroqi Ajamda SHohruhning nabirasi Sulton Muhammad 1446 yilda bobosiga qarshi isyon ko‘tarib Hamadon va Isfahonni bosib oladi. SHohruh bu isyonni bostirgan bo‘lsa-da, 1447 yil 12 martda xastalanib Ray shahrida vafot etadi. Otasidan so‘ng Turkiston, Xuroson va Eronni bir markaz qilib birlashtirishga harakat qilgan Mirzo Ulug‘bek buning uddasidan chiqa olmadi. CHunki mamlakat toj - taxt uchun o‘zaro urushlar domiga tortilgan edi.

Avvalo, Boysunqur Mirzoning o‘g‘illari Alouddavla va Abdulqosim Bobur Ulug‘bekka qarshi haraktni boshlab, Xuroson Alouddavla, Mozandaron va Jurjon Abulqosim Bobur qo‘liga o‘tadi. Sultan Muhammad esa G‘arbiy Eron va Forsda o‘zini mustaqil hukmdor deb e’lon qiladi. Muhammad Jo‘king o‘g‘li Abu Bakr esa Balx, SHibirg‘on, Qunduz, Bag‘lonni bosib oladi. Ulug‘bekning ushbu muammolarni tinch yo‘l bilan echishdagi haraktlari zoe ketadi. 1448 yil bahorida Ulug‘bek va o‘sha paytdagi Balx hokimi, uning o‘g‘li Abdulatifning 90.000 kishilik birlashgan qo‘sini Hirot yaqinidagi Tarnob degan joyda Alouddavla qo‘sishlarini tor-mor keltiradi. Bu jang g‘alaba bilan yakunlanishiga qaramasdan, ota-bola o‘rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqardi va bu ziddiyat Abdulatifning o‘z otasi Mirzo Ulug‘bekni qatl ettirishi (1449 yil, 27 oktyabr) bilan yakunlanadi.

Abdulatif ham taxtga uzoq o‘tira olmadi. 1450 yil 8 mayda Samarqand yaqinida unga qarshi suiqasd uyushtirilib, u o‘ldiriladi. Samarqand taxti Ulug‘bekning jiyani va kuyovi Mirzo Abdullo, Buxoro taxti esa Mironshohning nabirasi Sulton Abu Said qo‘liga o‘tadi. Sulton Abu Said Dashti Qipchoq o‘zbeklari xoni Abulkayrxon yordamida 1451 yil yozida Samarqand yaqinidagi SHeroz qishlog‘i yonida Mirzo Abdullo qo‘sishlarini tor-mor etib, uni o‘ldiradi. SHundan so‘ng Movarounnahrda Sulton Abu Said (1451-1469 yy.), Xurosonda esa Abulqosim Bobur (1452-1457 yy.)

hukmronligi boshlanadi. 1457 yilda Abulqosim Bobur vafot etganidan so‘ng Abu Said Xurosonga yurish qilib Hirotni egallaydi va temuriylar davlatini ikkala qismini birlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. O‘z hukmronligi davrida Abu Said doimiy ravishda hokimiyatni mustahkamlashga asosiy e’tibor qaratib, birmuncha iqtisodiy va madaniy tadbirlar o‘tkazishga ham harakat qildi. Biroq, uning hokimiyati ham mustahkam emas edi. Abu Said Xuroson, Eron va Xorazmdagi siyosiy tarqoqliklarga barham bera olmadi. CHunonchi, Abulqosim Bobur vafotidan so‘ng yosh temuriy shahzodalardan biri (Umarshayxning evarasi) Sulton Husayn (Boyqaro) Xuroson mulki uchun harakatlarni boshlab yuborib, 1461-1464 yillarda Hirotni, Obivard, Niso, Mashhad va Xorazmda hokimiyat uchun goh muvaffaqiyatlari, goh muvaffaqiyatsiz urushlar olib bordi.

Sulton Abu Said Mirzo 1469 yil erta bahorda G‘arbiy Eron erlari uchun Oqquyunli turkmanlariga qarshi jangga kirib ularning hukmdori o‘zun Hasan tomonidan Ozarbayjonning Mug‘on dashtida o‘ldiriladi. Sulton Husayn Boyqaro (1438-1506 yy.) esa o‘sha yili Hirotni egallab, o‘zini Xuroson hokimi deb e’lon viladi. Husayn Boyqaro davlati tarkibiga Xorazm, Xuroson va Eronning bir qismi kirar edi. U temuriylar davri davlatchiligi tarixida oxirgi yirik davlat arbobi bo‘lib, deyarli 40 yil hukmronlik qildi. Husayn Boyqaro davri o‘zaro kurashlardan xoli bo‘lmasa-da, lekin mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot yuqori darajada saqlanib qoldi.

Movarounnahr esa ketma-ket Abu Saidning o‘g‘illari Sulton Ahmad (1469-1494 yy.), Sulton Mahmud (1494-1496 yy.) hamda Mahmudning o‘g‘li Sulton Ali Mirzo (1496-1501 yy.)lar tomonidan boshqarildi. Ammo, Sulton Ahmadning davlat boshqaruvidagi kaltabinligi va sustkashligi, Sulton Mahmud va Sulton Ali Mirzolarning davlat ishlarini o‘z holiga tashlab qo‘yishi natijasida bu hukmdorlar davrida o‘zaro siyosiy tarqoqlik yanada kuchayadi. O‘z davrining ko‘zga ko‘ringan diniy arbobi Xo‘ja Ahror Valli siyosiy hayotga aralashib, mamlakat tinchligini saqlashga harakat qilgan bo‘lsa-da, uning harakatlari vaqtinchalik bo‘lib chiqadi. Xullas, Dashti Qipchoqda kuchuyib kelayotgan shayboniylarning Movarounnahrga yurishi arafasida temuriylar davlati ichki kurashlar oqibatida g‘oyatda zaiflashib qolgan bo‘lib, shayboniylar bu holatdan ustalik bilan foydalandilar.

12-mavzu. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvi tizimi.

Reja

- 1. Amir Temur davlatida boshqaruv asoslarining shakllanishi**
- 2. Mansab va unvonlar**
- 3. Harbiy tizim va huquqiy munosabatlar.**

Tayanch so‘z va iboralar. Dargoh, devon, beklar begi, katta kengash, kichik kengash, vazirlar, tumanboshi, yuzboshi, mingboshi, arzbegi, tavochi, hojij, xazinador, jivochi, qushchi, bakovulboshi, kotib, bitikchi, mirza, tabib, raiyyat, sipohsolor, devonbegi, suyurg‘ol, tarxon, mulkchilik, dorug‘a, qutvol, hirovul, javong‘or, “Temur Tuzuklari”, ichki va tashqi siyosat, diplomatiya, madaniy aloqalar, savdo yo‘llari, shariat qonun qoidalari, shayxulislom, harbiy boshqaruv.

Ko‘plab yozma manbalarning ma’lumot berishicha, o‘z davrining yirik harbiy va davlat boshlig‘i bo‘lgan Amir Temur siyosiy, huquqiy asoslarga ega bo‘lgan ulkan davlat barpo etgan edi. O‘zbekiston davlatchiligi tarixining o‘rtasidagi davrida Sohibqiron Amir Temur avvalo, adolatli va qonunchilikka tayangan davlatchilik asoslarini barpo etish bilan birga davlat yaxlitligi va kuch-qudratini mustahkamlashning asosiyligi omili bo‘lgan kuchli mudofaa tizimi yaratdi hamda temuriylarga meros qilib qoldirdi. Amir Temur o‘z sultanating boshqaruv tizimini yaratishda o‘sha davrning yirik va ko‘zga ko‘ringan harbiylari, amirlar va beklar, fozillar, olimu-ulamolar, o‘z pirlarining o‘gitlari hamda maslahatlariga tayangan edi. Misol uchun, “Tuzuklar”da keltirilishicha Amir Temurga piri Abu Bakr Zayniddin Toyobodiy shunday o‘git beradi: “Agar har narsani va har kimni o‘z martabasida saqlay olmasang, sultanatingga bundan ko‘p xalal va ziyon etgay. Demak, har kimning qadr-qiyomatini, tutgan mavqeini va har narsaning o‘lchovini belgilab olishing va shunga muvoffiq ish tutishing kerak.”

SHuningdek, “Tuzuklar”da yana shunday ma’lumot beriladi: “O‘zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g‘anim lashkarni sindirish, dushmani tuzoqqa tushirish, muxoliflarni ko‘nglini topib do‘stga aylantirish, do‘st-dushman orasidagi muomala, murosayu-madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo‘lladim. Pirim Abu Bakr Toyobodiy menga yozmishlarkim: Abdulmansur (zafarmand) Temur sultanat yumushlarida to‘rt ishni qo‘llasin, ya’ni, 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik; 4) ehtiyotkorlik. CHunki kengash va mashvaratsiz sultanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato bo‘lgan johil odamga qiyoslash mumkin: uning so‘zлари po‘shaymonlik va nadomat keltirgay. SHunday ekan, sultanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgin, toki oqibatda nadomat chekib, po‘shaymon bo‘limgaysan.”

Amir Temur va temuriylar davrida fuqarolarda davlat tomonidan o‘rnatalgan qonunlarni hurmat qilish, ularga ma’suliyatli yondashish tushunchalari shakllangan. Bu esa davlat tomonidan ilgari surilgan maqsad va g‘oyalarni amalga oshirishdagi kafolatlardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Air Temur davlati markazlashgan davlat bo‘lib, butun hokimiyat davlat boshlig‘ining ixtiyorida bo‘lgan. Tadqiqotchilarining fikricha, Amir Temur davlatining boshqaruv asoslari shakllanishi rivojida **kengashlar** muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Vaqt-vaqt bilan muhim ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va siyosiy masalalarni hal qilishda katta va kichik kengashlar chaqirilib turilgan. **Katta kengashlar** tinchlik vaqtlarida Samarqanddagi hukmdor saroyida chaqirilgan. Unda oliy hukmdorning qarindosh urug‘lari, yuqori martaba va mavqega ega bo‘lgan ruhoniylar tabaqasining vakillari, bosh amirlar, beklarbegi, ulus, tuman hokimlari, mingboshilar, yuzboshilar, o‘nboshilar, bahodir unvoniga ega bo‘lgan harbiylar kabilar ishtirot etganlar. Ushbu kengashda mamlakat hayoti bilan bog‘liq masalalar muhokama qilingan. **Kichik kengashda** Amir Temur, uning o‘g‘illari, qarindoshlari, qo‘shin boshliqlari ishtirot etganlar. Unda uzoq mamlakatlarga harbiy yurishlar bilan bog‘liq masalalar hal qilingan.

Amir Temur davrida markazda hamda tobe hududlarda xon boshchiligidagi mukammal va puxta davlat boshqaruv apparati shakllangan. “Tuzuklar”da mukammal davlat boshqaruvini tashkil etish quyidagicha ifodalanadi:

- davlat daxlsizligini va mustahkamligini har tomonlama muhokama qilish;
- olivy hukmdor hokimiyatining cheklanmaganligi hamda mustaqil siyosat yurgizishi;
- vazirlarga yuklatilgan majburiyatlar va ular bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar;
- markazga tobe bo‘lgan mulk(ulus)lar amirlari hamda tuman hokimlarining vazifalari;
- olivy davlat kengashi;
- davlat xavfsizligi va mustahkamligi, joylardagi jamoat tartibi hamda mamlakat tinchligi, osoyishtaligini saqlash;
- muntazam qo‘sish tashkil etib, qo‘sish qo‘mondonlarini tayinlash, lavozimlarga ko‘tarish, rag‘batlantirish va ularga maosh to‘lash;
- aholidan olinadigan turli soliqlar(zakot, xiroj va boshq.) miqdorini aniqlash;
- harbiy yurishlarda jasorat namunalarini ko‘rsatganlarni(noiblar, amirlar , sipohiylar va boshq.) rag‘batlantirish;
- Harbiy yurishlar va janglar paytida qo‘shtinning joylashuvi va ularni ajratib turuvchi belgilar.

Zamonaviy adabiyotlarda keltirilishicha, Amir Temur o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning quyidagi sakkizta asosiga amal qildi:

- davlat o‘z vazifasini bajarmog‘i uchun, eng avvalo, siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishi;
- davlat va jamiyatning yaxlitligi buzilmasligi;
- davlat va jamiyat muayyan bir qonunlar, trribalar va mafkura asosida boshqarilmog‘i;
- boshqaruvning turli tabaqalari, yo‘nalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi ma’lum bir tizim shakllangan bo‘lishi;
- jamiyatdagи ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining ahvoli davlat e’tiborida bo‘lishi;
- fan va madaniyatning ravnaqi to‘g‘risida doimiy qayg‘urishiga davlat ahamiyatiga molik qat’iy siyosat sifatida qarash;
- har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko‘ra, davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
- davlat tepasidagi kuchlar o‘tmish, zamona va kelajakni teran tafakkur, mustahkam iymon, g‘oyat yuksak ma’naviyat va millatparavchilik ila anglamog‘i.

SHu bilan birga Amir Temur yuqoridagi sakkizta asosni yana bir to‘qqizinchasi asos bilan boyitdi. U ham bo‘lsa, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va manfaatlarini ta’minlashdan iboratdir. Amir Temur bo‘yicha bunday tabaqalar o‘n ikkita bo‘lib, ularda jamiyatning barcha tarkibiy qismlari o‘rin olgan. Bu tabaqalar quyidagilar edi:

- 1.Sayyidlar, olimlar va shayxlar.
- 2.Katta tajribaga ega ilmli kishilar.
- 3.Duo qiluvchi taqvodorlar.

- 4.Lashkarning sipohlari, sarhang va amirlar.
- 5.Askar va xalq ommasi.
- 6.Davlat boshqaruv ishlarini ipidan ignasigacha biladigan maslahatgo‘y, dono va aqlii kishilar.
- 7.Vazirlar, kotiblar, devon boshlig‘i.
- 8.Tibbiyot ahli, munajjim va muhandislar.
- 9.Muhaddislar va muarrixlar.
- 10.Tasavvuf vakillari va oriflar.
- 11.Hunarmandlar va san’atkorlar.
- 12.Ajnabiy sayyoohlar va savdogarlar.

YUqoridagi ijtimoiy qatlamlar Amir Temur davri davlatchiligin ma’muriy-boshqaruv tizimidagi tartiblr bilan aloqador holda uning harbiy-siyosiy xususiyatga ega bo‘lganligidan ham dalolat beradi.

Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan davlat boshqaruv asoslari qonunlar ustivor bo‘lgan va fuqarolarning himoyasi, tinchligi va barqarorligi ta’minlangan jamiyat asoslarining yuzaga kelishiga katta imkoniyatlar yaratgan. Qonun ustivorligiga,adolat tamoyillariga sultanatda va tashqi munosabatlarda qat’iy amal qilingan. Amir Temur va temuriylarning boshqaruvida maslahatu mashvaratga tayanish davlatning bexato siyosat yuritishga olib boruvchi omillardan biri hisoblangan.

Amir Temurning kuchli markazlashgan davlat barpo etishi natijasida Movarounnahrda o‘zaro urush va nizolarga barham berilib, uning barcha hududlarida tinchlik va osoyishtalik o‘rnatildi. Fan, madaniyat, hunarmandchilik, dehqonchilik, savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon yaratildi. Amir Temur vafot etgach bu an’analar buzilgan bo‘lsa-da, SHohruh va Ulug‘bek Sohibqiron davridagi tartib-qoidalani tiklash borasida say’i-harakatlar olib bordilar.

Bizga manbalardan ma’lumki, Amir Temur hokimi mutlaq bo‘lib, uning farmolari so‘zsiz ijro etilgan. Ammo, o‘rta asrlar davlatchilik an’analariga ko‘ra, nasl-nasabi xon avlodiga mansub bo‘lmagan shaxs taxtni boshqara olmas edi. SHuning uchun ham, o‘z davrida Amir Qozog‘on tomonidan belgilangan an’anaga ko‘ra, Amir Temur avval CHingizzon avlodidan bo‘lgan Suyurg‘at mishni (1370-1388 yy.) keyin esa uning o‘g‘li Sulton Mahmudxonni (1388-1402yy.) o‘z huzurida “xon” qilib ko‘taradi. Ularning nomidan yorliqlar chiqarilib, tanga pullar zarb qilingan bo‘lsa-da, Sohibqiron ularni davlat ishlariga umuman aralashtirmagan. Sohibqiron “amir” unvonida bo‘lib, 1370yilda Qozonxonning qizi Saroymulkxonimga uylanganidan so‘ng “Qo‘ragon” (“Xon kuyovi”) unvonini oladi. Bu holat, ya’ni, xon avlodiga kuyov, qarindosh bo‘lishi ham uning siyosiy mavqeini rasman bo‘lsa ham mustahkamlashga xizmat qilgan.

Amir Temur o‘zi barpo etgan ulkan sultanatni o‘g‘illari, nabiralari va nufuzli amirlariga suyurg‘ol tarzida in’om qilib, ular orqali boshqardi. Movarounnahrni esa poytaxt Samarqand bilan o‘zida qoldirdi. Suyurg‘ol tariqasida berilgan uluslar markaziy hukumatga itoat etsalarda, ammo ular ma’lum mustaqillikka ega edilar. Ulus hukmdorlarining alohida devonxonasi bo‘lib, ularning markaziy hukumatga tobelligi xirojning bir qismini Samarqandga jo‘natish va oliy hukmdorning harbiy yurishlarida o‘z qo‘shini bilan qatnashish yoki talab qilingan askarni yuborib turishdan iborat edi.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchiligidagi markazda va joylarda xon boshchiligidagi mukammal va puxta davlat boshqaruv apparati, boshqaruvdagi ikki muhim, hamda assosiy idora- **dargoh va devonlar (vazirliklar)** mavud edi.

Dargoh- eng oliy davlat idorasi bo‘lib, oliy hukmdor Amir Temur, yuqorida eslatganimizdek, Suyurg‘at mishni “xon” deb e’lon qilgan bo‘lsa-da, hokimiyat batamom Sohibqiron ihtiyyorida bo‘lgan. “Soxta xon” e’lon qilinishi holati o’sha davr vaziyati va voqeylegidan kelib chiqib, Amir Temur hokimiyatini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilgan edi. “Tuzuklar”da keltirilishicha, dargohda vaqt-vaqt bilan xos majlislar o’tkazilib turilgan. Bunday majlislarda davlat va mamlakat idorasi, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga munosabat, mansab va vazifalarga tayinlash masalasi ko‘rib chiqilgan. Bunday tadbirlarni tor doirada o’tkazilishiga sabab, davlat ahamiyatiga molik masalalarni chetga ayon bo‘lishidan saqlanish edi.

Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar va joylardagi mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog‘lanib turish ishlari **Oliy devon** zimmasida bo‘lgan. Dargoh tizimidagi bu devonga **devonbegi** boshchilik qilgan. O’sha davrda oliy devonning ahamiyati va mavqeい shu qadar baland bo‘lganki, ayrim manbalar (Ali YAzdiy) uni dargoh bilan bir ma’noda ta’riflagan.

Dargoh faoliyati boshqaruvida quyidagi mansab va vazifalar mavjud edi.:

- **arzbegi** – dargohdagi muhim vazifalardan biri bo‘lib, uning xizmati dargohga arz-dod, shikoyat bilan kelganlarni hamda mamlakatda sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabatlarini bildiruvchilarni qabul qilishi uyushtirib turish edi. Undan tashqari, tushgan arzlar, shikoyatlar va takliflarni oliy hukmdorga etkazib turish ham arzbegining vazifasi bo‘lgan;

- **adolat amiri** – bu mansabdagi shaxs turli o‘lka, viloyat va shaharlarda “sipoh va raiyyat orasida urf-odatlarga oid janjalli ishlar haqida” oliy hukmdorga hisobot va ma’lumot etkazib turgan. Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, joylardagi ahvoldan boxabar bo‘lib turishning ikki yo‘lidan foydalanilgan: biri pastdan yuqoriga, ya’ni, arzchilar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri dargohga murojaat qilish imkoniga ega bo‘lganlar, ikkinchisi esa, maxsus xizmat orqali joylardagi vaziyat davlat tomonidan, aniqrog‘i, oliy hukmdor dargohi orqali tekshirib borilgan. Mavjud holatlar aniqlanib, shunga yarasha chora-tadbirlar ko‘rilgan;

- **aminlar** – tushgan ma’lumotlarni joylarga topshirib,adolatsizlik, tartibsizlik, davlat va jamiyat manfaatiga zid ishlar haqida yozma ma’lumot berib turadigan maxsus ishonchli vakillar hisoblanib, ularning vazifasiga bundan tashqari tobe erlar to‘lovlarining yig‘ib kelish ham kirgan;

- **tavochi** – muhim lavozimlardan biri bo‘lib, oliy farmonga ko‘ra, joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to‘plash bilan shug‘illangan. Tavochilar avval boshdan belgilangan lashkar sonining taxt bo‘lishi, tayyorgarlik darajasi, ta’minti ko‘ngildagidek talabga javob berishi, ko‘rsatilgan joyga muayyan yo‘l bilan o‘z vaqtida etib borishi kabi g‘oyatda ma’suliyatni tadbirlarga javobgar bo‘lganlar. Ularning boshlig‘i **bosh tavochi** deb atalib, ular tumanot (o‘n minglik), hazorajot (minglik), sadajot (yuzlik), etakchilaridan, viloyat hokimlaridan qo‘sinni o‘z vaqtida, belgilangan son va sifat, ta’minlanganlikda etkazish berish to‘g‘risida tilxat olganlar.

SHuningdek dargohda **bosh hojib, hojiblar** (rasmiy tadbirlar boshqaruvchisi va tashkilotchilari), **xazinador, xonsolar** (dasturxon tuzatishga bosh-qosh bo‘luvchi),

jibachi (qurol-aslaha saqlovchi), **qushchi** (podshohona ovlar uyushtirilganda maxsus o'rgatilgan ov qushlarini olib yuruvchi va parvarish qiluvchi) va mana shu xizmatni boshqaruvchi **qushbegi**, **bakovulboshi** (saroy oshpazlarining boshlig'i), **kotiblar**, **bitikchilar**, **tabiblar**, **sozandalar**, **g'azalxonlar**, **farroshlar** kabilalar mavjud bo'lgan.

Mamlakatdagi ijroya tizimi markazdagi vazirliklar faoliyatida mujassamlashgan. Amir Temur somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, anushteginlar davrlaridagi ijroya hokimiyatining vazirliklar tizimini o'z davriga moslab, yangi asoslarda qaytadan yo'lga qo'ydi. Davlat boshqaruvida quyidagi vazirliklar mavjud edi:

1. Mamlakat va raiyyat vaziri – bosh vazir hisoblanib u mamlakatning muhim ishlari, kundalik muammolar, xalq ahvoli, viloyatlarda olinadigan hosil, soliqlar va ularni taqsimlash, kirim-chiqimlar, obodonchilik ishlari, aholi farovonligi, xazinaning ahvoli kabilarga mas'ul bo'lgan hamda mazkur masalalar bo'yicha hukmdorga tegishli ma'lumot va hisoblar berib turgan.

2. Harbiy ishlar vaziri – harbiylarning maoshi, alohida xizmatlari uchun ularga tuhfa qilingan er-suвлar boshqaruvi, quroл-aslaha ta'minoti, harbiy ko'riklarni tayyorlash, janglarda yarador bo'lib xizmatga yaroqsiz bo'lganlarga nafaqa tayinlash, iste'foga iqqan harbiylar to'g'risida qayg'urish kabi masalalar bilan mashg'ul bo'lgan

3. Mulkchilik va soliq ishlari vaziri – turli sabablarga ko'ra egasiz va qarovsiz qolgan mol-mulklarni nazoratga olish va qo'riqlash, savdogarlardan zakot va boj undirib olish, mamlakat chorvalari, o'tloq-yaylovlarni boshqarish, er solig'i, chorva solig'i, zakotlarni o'z vaqtida yig'ilishi va o'z vaqtida davlat xazinasiga tushishini nazorat qilish, mulkchilikdagi merosxo'rlik tartiblarini amalga oshirish kabi vazifalarni bajargan.

4. Moliya vaziri – butun sultanat idoralarinig kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilinayotgan barcha xarajatlar hisobini olib borish vazifasini bajargan.

5. Davlat korxonalari vaziri – uning ihtiiyorida bir qancha ustaxonalar bo'lib, ular doimiy ravishda harbiylar uchunsovut, dubulg'a, kamon, o'q-yoylar tayyorlaganlar. SHuningdek, bu vazir bevosita Amir Temurning buyrug'i bilan yirik inshootlar (saroylar, machitlar, madrasalar, timlar va boshq.) qurilishiga rahbarlik qilgan.

6. Devonbegi (devon boshlig'i) – davlat mablag'lari devonbegi ihtiiyorida bo'lgan hamda u davlat xazinasidagi mablag'larning vazirlar tomonidan to'g'ri va maqsadga muvofiq saqlanishini nazorat qilgan.

7. Adliya vaziri (devoni mazolim) – bu vazir to'g'ridan-to'g'ri fuqarolar va dunyoviy ishlar bilan shug'illangan. Harbiy sud (lashkar qozisi) esa alohida ravishda faoliyat ko'rsatgan. SHariat tartiblari bilan islom qozisi shug'ullangan.

8. Harbiy sud vaziri – bu vazir alohida faoliyat ko'rsatib, sipohiylar (harbiylar) ishlarini ko'rib chiqib, muhokama qilgan.

9. Vaqf ishlari vaziri – bu vazirlikka sadr us-sudur (sadrlar boshlig'i, sadrlar sadri) boshchilik qilgan bo'lib, u vaqf mulklari bilan bog'liq masalalarga mutasaddi bo'lgan.

10. Habar va aloqa vaziri – bu vazir zimmasiga mamlakatning turli burchaklarida sodir bo'layotgan voqealardan hukmdorni ogoh qilib turish, markazdan joylarga buyruq, farmon va ko'rsatmalarni jo'natish, markazga turli hujjat, hisobot

kabilarni etkazishi, tashqi siyosiy-diplomatik munosabatlarni amalga oshirish hamda davlat yuklarini o‘z manzillariga etkazish yuklatilgan. Vazirlikning o‘zi **devoni rasoil, devoni insho** deb atalgan.

Mamlakatda ichki va tashqi favqulodda voqealardan voqif etib turuvchi ming nafar piyoda, ming nafar tuya mingan, ming nafar ot mingan choparlar bo‘lgan. Butun sultanat bo‘ylab bir kunlik yo‘l oralig‘ida yomxonalar tashkil etilgan bo‘lib, har bir yomda ellik boshdan ikki yuz boshgacha ot-ulov saqlangan. Tadqiqotlardan ma’lumki, Amir Temur va temuriylar davlatni ulus, viloyat va tumanlarga bo‘lib boshqarganlar. Temur davrida sultanat **to‘rt ulusga** bo‘linib, ularga o‘g‘il va nabiralarni hukmdor etib tayinlagan. SHuningdek, viloyat va tumanlarni ham asosan temuriy shahzodalar va harbiylar boshqarganlar. Ali YAzdiy ma’lumotlariga ko‘ra, Amir Temur janglarda, davlat ishlarida toblangan sadoqatli tadbirkor, oqil va bilimdon shaxslarni o‘g‘illari va nabiralar yoniga maslahatchi qilib tayinlagan hamda ularga yirik viloyat va hududlarni ishonib topshirgan. Amir Temur mahalliy hokimliklarni o‘ziga itoat etuvchi davlat maslahatchilari orqali ham muvofiqlashtirib turgan hamda mahalliy va markaziy hokimiyat aloqadorligini shu mansab orqali ushlab turishga harakat qilgan.

Mansablarga asoslangan zamonaviy tadqiqotlarda Amir Temur va temuriylar davri mansab va unvanlari haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjudki, ular quyidagilardir: amin, arzbegi, bakovul, bakovulboshi, bovarchi, baxshiylar, bitikchi, vazir, daftardor, devonbegi, dorug‘a, dodxoh, jarchi, juybon, zabit, ixtisobchi, zinbardor, inoq, ichkilar, iqto, yasag‘lik, ko‘kaldosh, kulu, kalontar, kutvol, ko‘ragon, mavkab, mahdi ulyo (mahdi oliya), majlisnavis, miroxo‘r, mirob, muxtasib, oqo (og‘o), otaliq, parvonachi, pos (posbon), sadr, sadri a’zam, sohibi devon, tavochi, tarxon, uyo‘g‘lon, farrosh, xazinador (xozin), xattot, chuhra, shayxulislom, chuhraboshi, shiqovul, shixna, shuqurchi, yurtchi, yasovul, qozilar, qo‘rboshi, qushchi (qushbegi), qorovul, qopuchi, hojiblar.

Amir Temur manbalarda o‘z zamonasining mashhur sarkardasi va yirik lashkarboshi sifatida tilga olinadi. Uning harbiy iste’dodi hamda sarkardalik mahorati qo‘sinchilarning tuzilishida, harbiy strategiya hamda taktikalarda namoyon bo‘lgan.

Qo‘sining yuragini va qo‘mondonlik o‘zagini barlos urug‘i vakillari tashkil etgan. O’sha davr voqealarining shohidi bo‘lganlarning guvohlik berishicha, barloslar harbiy qo‘nimsizlikka nihoyatda chidamli, kamondan o‘q o‘zishga juda usta, o‘z hukmdorlariga sodiq va sabr-toqatli bo‘lganlar.

Sohibqiron qo‘sini o‘nlik birikmalar asosida tuzilgan bo‘lib, lashkar **tuman (o‘n minglik), hazora (minglik), xushun (yuzlik) va ayl (o‘nlik)** qismlarga bo‘lingan. O‘n minglik lashkarni boshqarish uchun **mirixazora**, yuzliklar uchun **xo‘shunboshi** o‘nliklar uchun esa **aylboshi** kabi harbiy mansablar joriy etilgan. Qo‘sindagi bo‘linma boshliqlari – amirlar Sohibqironga tobe bo‘lgan qirq aymoq (urug‘)dan o‘n ikkitasi: barlos, arg‘in, jaloyir, tulkichi, dulboy, mug‘ul, suldo‘z, to‘g‘oy, qipchoq, arlot, totor va taxxonlar orasidan saylab olingan.

XV asr muallifi Abdurazzoq Samarcandiyning ma’lumot berishicha, harbiy safarda har bir jangchi o‘zi bilan bir yilga etadigan oziq-ovqat, kamoni bilan o‘ttiz o‘qli sadoq (o‘qdon),sovut, nayza va qalqon olgan. Har ikki suvoriyda bitta zahira chopqir ot, o‘rdagohdagi har bir o‘nlik qismida bittadan chodir, qozon, ketmon, o‘roq, bolta, bigiz, ikkita belkurak, yuzta igna, arqon, bitta oshlangan pishiq teri

bo‘lishi shart edi. Harbiy safarbarlik paytida har bir viloyat oldindan belgilab qo‘yilgan asosiy (asl) hamda zahira (izofa) qismlarni to‘plab bergan. Viloyatlar toshotar (sangandoz), devor buzuvchi (manjaniq), o‘t otuvchi (ra’dandoz va naftandoz) kabi moslamalarni ishlatishni biladigan jangchilarni tayyorlab bergan. Viloyatlardagi askariy qismlarni to‘plash hamda markazga yoki tayinlangan manzilga jo‘natish bilan tavochi lavozimidagi amaldor shug‘ullangan.

Qo‘shindagi har bir harbiy – hoh amir, hoh oddiy sipohiy bo‘lsin belgilangan nizomni qat’iy bajarishga majbur bo‘lib, jangda ayovsiz va dovyurak bo‘lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala qilishi hamdaadolatli bo‘lishi lozim hisoblangan.

Harbiy safarlar paytida har bir qo‘shin qismlarining eng oldida dovyurak va botir askarlardan tanlab olingan **xabarchi** (**xabargir**) deb yuritilgan ayg‘oqchi-kuzatuvchilar bo‘linmasi yurgan. Ularning orqasidan soqchilar bo‘linmasi – **yasovul** borgan. Undan keyin qo‘shinning avangard qismi **manglay** harakatda bo‘lgan. Manglaydan keyin qo‘mondonning o‘rdagohi, uning yon tomonlarida **izofa** (zahira) qismlar joylashgan. Qo‘shinning asosiy jangovar qismi – **markaz** hamda **o‘ng qanot (barong‘or)** va **chap qanot (javong‘or)**lardan iborat bo‘lgan. Har bir qanotning oldida qo‘riqchi manglay – avangard, yon tomonlarida ham qo‘riqchi askariy bo‘linmalar - **kanbullar** joylashtirilgan. SHu zaylda qo‘shin etti qism - **qo‘llardan** iborat bo‘lib, ulardan uchtasi – markaz, barang‘or va javong‘orlar mustaqil; to‘rttasi – ikki manglay va ikki kanbullar tobe qismlar bo‘lgan.

Sohibqiron birinchi marta jang usulida qo‘shinni etti qismga bo‘lishni joriy etgan edi. SHarofiddin Ali YAzdiy bu haqda shunday ma’lumot beradi: “... hazrat cherik (qo‘shin)ni etti qo‘l tartib ettikim, hech podshoh andoq qilmaydur erdi va eshitmaydur erdi. Va bu etti adadida xosiyat ko‘b turur va ko‘b sir yanda bor erdi...”

Amir Temur davlatida maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan minglab kishilar mamlakatning bosh ma’muriy binosini, o‘rduni chegaralarni, davlatni qo‘riqlaganlar. Favqulodda holatlarda, mamlakat uchun katta xavf tug‘ilganda armiyani safarbar etish, zudlik bilan qo‘shin to‘plash qoidalari ham ishlab chiqilgan. SHuningdek, temuriylar davrida ham, ayniqsa, SHohruh Mirzo, Mirzo Ulug‘bek, amirzoda Umar, Husayn Boyqaro davrlarida ham davlat himoyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ammo, hokimiyat uchun bo‘lib turgan o‘zaro kurashlar bu jarayonning zaiflashuviga olib kelgan edi.

Ta’kidlash lozimki, Sohibqironning qat’iy va mustahkam harbiy tizimni shakllantirishdan asosiy maqsadi, eng avvalo, mamlakatni ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilish, tobe hududlardagi tartibsizliklarni oldini olish,adolat, tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish, mazlumlarni zolimlardan himoya etish, insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalariga amal qilish hamda keng tarqatish, qonun ustivorligiga erishish, mamlakatlarni taraqqiyot yo‘liga solish, islom dini va baynalminal kelishuvchilikni ta‘minlash, zo‘ravon davlatlar va guruhlarning g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaslik edi. Amir Temur harbiy yurishlaridan ko‘zlagan maqsadi haqida “Tuzuklar”da shunday bayon qilinadi: “Biron mamlakatda jabr-zulm va fisqu-fasod ko‘payib ketar ekan, asl podshohlar

adolat o‘rnatish, fisq-fasodni, zulmni yo‘qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim.”

SHuningdek, “Tuzuklar”da keltirilishicha, Amir Temur qo‘shiniga asli toza, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldi va ketini o‘ylab ish tutadigan, jang sir-asrorlarini biladigan uch yuz o‘n uch amirlar rahbarlik qilib, ularning kichigi kattarog‘iga bo‘ysungan. Bu amirlardan yuz nafari o‘nboshi, yuz nafari yuzboshi va yuz nafari mingboshi bo‘lgan. Jang paytida amir ul-umaro amirlarga, amirlar mingboshilarga, mingboshilar yuzboshilarga, yuzboshilar o‘nboshilarga boshchilik qilgan hamda buyruqlar so‘zsiz bajarilgan.

“Tuzuklar”ga ko‘ra, har bir harbiy mansabdorning aniq vazifasi belgilangan. Birorta oddiy navkar qilich chopib bahodirlik ko‘rsatsa, unga in’om tariqasida qimmatbaho toshlar qadalgan o‘tog‘a, kamar, turna bellik qilich va bir ot berilgan hamda o‘nboshilik martabasiga ko‘tarilgan. Agar birorta amir biron mamlakatni fath etsa, yoki g‘anim lashkarini engsa, u uch narsa: faholi xitob (faxriy yorliq), tug‘, nog‘ora bilan taqdirlangan. O‘zining nog‘orasiga, tug‘iga ega bo‘lgan amir majlislarda hurmat-izzatga ega bo‘lib, xos kishilardan hisoblangan.

13-mavzu. Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.

Reja

- 1. Shayboniylar davlatining tashkil topishi va siyosiy hayoti.**
- 2. Ashtarxoniyalar davlatining vujudga kelishi**
- 3. Buxoro xonlida davlat boshqaruv tuzimi**

Tayanch so‘z va iboralar. Dashti Qipchoq, Shayboniylar, Ashtarxoniyalar, shariat qonun qoidalari, shayxulislom, harbiy boshqaruv

XVI asr boshlarida Temuriylar davlatining tarqoqligi kuchaygan bir davrda shimolda – Dashti Qipchoqda o‘zbeklar davlati tashkil topdi. Qipchoqlar nomi bilan atalgan Dasht (cho‘l) g‘arbda Dnepr daryosi va Qora dengiz shimoliy sharqda Irtish daryosi va Balkash ko‘ligacha Janubda esa Xorazm va Sirdaryo oqimlari oralig‘ida joylashgandir.

Chingizzonning katta o‘g‘li Jo‘ji ulusiga tekkan mintaqada, uning o‘limidan so‘ng, Sharqiylar qismidagi Oq O‘rda davlati ikkiga bo‘linib, Itil (Volga) bilan Yoyiq (O‘rol) daryolari o‘rtasida No‘-oy (mang‘it) davlati to‘zildi. Yoyiqdan to Irtish va Chu daryolari, Xorazm va Sirdaryo quyi oqimlari o‘rtasida Dashti Qipchoq degan nom Bilan ko‘chmankchi o‘zbeklar davlati tashkil topdi. Bu yerdagi Qipchoqlar, qo‘ng‘irot, nayman, uyjun, va boshqa qabilalar o‘zbeklar tarkibiga kirgan.

1405 yil oxirida ko‘chmanchi o‘beklarning Xorazmni bosib olgandan keyin butun XV asr mobaynida Dashti Qipchoq o‘zbeklari bilan Termuiylar o‘rtasida to‘xtovsiz kurash oqibatida XVI asr boshlarida kurash Temuriylar davlatining yengilishi bilan tugadi.

Dashti qipchoqdagi ko‘chmanchilar davlatining asoschisi Abulxayrxon 1420-1468 yilgacha (48 yil) hukmronlik qildi.

Temuriylar davlatini parchalanib, turkmanlar o'zlarini alohida davlatini, Farg'ona vodiysi ham mustaqil davlatni tashkil qildi, forsiy aholi Xisor va Badaxshon mustaqil davlatga aylandi. Movarounnahrda Abulxayrxonning nabirasi Shayboniyxon asos solgan o'zbeklar davlati egalladi.

Muhammad Shoxbaxt Shayboniy 1451 yili tug'ilgan. U bobosi Abulxayrxonning harakatlarini davom ettirib, 1487-88 yillarda shimoldagi mo'g'ullarga qarashli O'tror, Sayram, Yassi (Turkiston), Sig'noq shaharlarini bosib olib, 1490 yilda Movarounnahrga jiddiy harbiy harakatlarni boshladi.

Shayboynixon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yil Xisor viloyatini, 1504-1505 yillarida Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot, hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashhad va Nishapur shaharlarini zabit etdi. Toshkent, Farg'ona va Sirdaryo yerlari ham Shayboniyxonga qaram bo'lib qoldi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasiga hukmronligi qaror topdi.

Shayboniyxon janubda Eron shohi Ismoilshoh bilan to'qnashib, u 1510 yili Marv yaqinidagi jangda yengildi va o'zi halok bo'ldi.

Taxtga uning avlodlaridan biri Kuchkunjxon (1510-1530) chiqdi. So'ng Ubaydullaxon (1533-1539) davrida hamda Abdullaxon II (1557-1598) davrida Shayboniyxon egallagan hududlarni qayta tikladi. Biroq. 1548 yil Abdullaxon II vafot etganidan so'ng uni o'g'li Abdulmo'min hokimiyatni o'zoq vaqt salab qola olmadidi. Otasi o'limidan so'ng olti oy o'tgach, u ham o'ldirildi va hokimiyat boshqa sulola qo'liga o'tdi.

Shunday qilib, Movarounnahrda 100 yil davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmasdi. Qirg'inbarot urushlar o'zaro ichki kurashlar davom etdi. hatto shaharlar hukmdrolari o'rtasida ham o'zaro urushlar avj olishi natijasida Shayboniylar sulolasida bo'hronlar yo'z berib o'zlarini qayta tiklay olmadilar.

II masala: shaybonilar davrida davlatni ma'muriy to'zilishi ham o'ziga xos bo'lib, 1) hokimiyat tepasida Xon turgan. Xon taxtga taklif qilinganda u oq kigizga o'tirgizilib, to'rt tomondan eng mo'tabar zodagonlar ko'tarib boradi. An'anaga ko'ra, katta hayotiy tajribasiga ega va obro'li amirlar otaliq, unvonini olib, ular voyaga yetmagan shahzodalarni tarbiyalashardi. 2) Davlat bin necha viloyatlarga bo'lingan bo'lib, ularga sultonlar boshchilik qilgan. 3) saroydag'i devonlarga davlat mahkamasi va moliya ishlarining boshlig'i devonbegi rahbarlik qilgan.

Shuningdek, Shayboniylar davrida quyidagi eng oliy martabali davlat lavozimlari mavjud edi. 4) Ko'kaldosh (bir onadan sut emgan ma'nosida) muassasalarini boshqarar hamda butun mamlakatdan xonning do'stlari va dushmanlari haqida ma'lumotlar to'plovchi shaxs. 5) Mushrif xon ma'lum shaxslarga in'om etadigan ashyolarni ro'yxatga olib boruvchi hamda soliqlar yi-ilishini boshqaruvchi shaxs. 6 Qushbegi xonlar va sultonlar (ovga) safarga chiqqan paytda ov anjomlarini nazorat qiluvchi shaxs. 7) munshiy (mirzo) xonning farmonini yozuvchi shaxs. 8) mirshab, dodhox aholidan shikoyat tinglovchi shaxs. 9) miroxo'r (otxona boshlig'i). 10) parvonachi (yorliq topshiruvchi shaxs.) kabi lavozimlar bor edi. 11) davlatda amaldorlardan tashqari, ruhoniy feodallar ham hukmron sinf toifasiga kirardi.

XVI asrning o'rtalariga kelib, ularning obro'lari nihoyat darajada oshib ketdi, hatto kimning xon bo'lishi ham bog'liq edi.

Shayx va yirik ulamolar, din peshvolari barcha soliqlardan ozod qilingan. 12) harbiy ma'muriy boshqaruv tizimidagi amaldorlar umaro, olim va shoirlar fo'zalo deb atalganlar. 13) Shayboniyalar davlati ma'muriy jihatdan viloyatlarga bo'lingan bo'lib, boshqaruv tizimi markaziy va mahalliy amaldorlar qo'lida bo'lga. Mahalliy boshqaruv hokim va beklar qo'lida bo'lib, bu jarayonda qozi, muftiy, raislar muhim rol o'ynaganlar. 14) shayx ul-islom, qozi kalon, a'lam, imom, sard, muftiy, raislar diniy ishlarni nazorat qilganlar. 15) Shayboniyxonning markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun amalga oshirgan ba'zi tadbir choralari beklarni kuchayishi va o'zaro kurashlarga sabab bo'ldi. Masalan, davlat boshqaurv sohasida suyur-ol tizimining joriy etilib, bosib olingan hududlarda boshqaruv ishi, farzandlari, qarindosh-urug'lari, qabila boshliqlariga topshirilishi uning vafotidan keyin markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilish ishlarini kuchaytirdi.

III masala: XV asrning oxiri XVI asr Dashti Qipchoq, Movaraunnah rva Xurosonda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, iqtisodiy madaniy ahvol to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlar anchagini. Bular ichida Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) «Boburnoma»si shoir va tarixchi olimlardan Kamoliddin Binoiy (1453-1512) va Muhammad Solih (1453-1535) larning forsiy va o'zbek tilida bitilgan «Shayboniynoma» asarlari, Xondamirning «Habib us suyar», Fazlulloh ibn Ro'zbehxonning (1457-1530) «Tarixi Rashidiy», Qulibek Balxiyning (1547-1604) «Sharafnomai shoxiy»(Abdullanoma nomi bilan mashhur), asarlari alohida ahamiyatga ega.

Shayboniyalar davrida iqtisodiyotni tartibga solish, savdo sotiqni jonlantirish maqsadida 1507 yilda pul isloholi o'tkazilib, markaziy shaharlarga vazni bir xil bo'lga (5,2 g) kumu shva miss chaqa pullar zarb qilindi. Bu tadbir markaziy hokimiyatni mustahkamlashni nazarda tutgan bo'lib, uning vafotidan so'ng kuchayib ketgan. O'zaro urushlar natijasida yaxshi natija bermadi.

Ammo Abdullaxon II davridagi pul islohoti savdo-sotiqni jonlantirdi, xazinaga pul mablag'lari tusha boshladи.

Xonlik iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qishloq xo'jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik bo'lib, yer asosiy boylik hisoblangan. Shayboniyalar temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni qabul qildilar, hamda unga moslashdilar.

Yer egaligining mulki sultoniy (davlat yerkari), mulki xolis(xususiy yerlar), vaqf(diniy mahkamalarga qarashli yerlar) va qishloq jamoalari egalik qiladigan yerlar turlari bo'lib, harbiy-ma'muriy amaldorlarga va yirik din arboblariga beriladigan yerkarda yersiz dehqonlar ishlaganlar. Bu davrda chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda sotilgan.

Shayboniyalar davrida 40 dan ortiq soliq va jarimalar bo'lib, xiroj va zakotdan tashqari, tagjoy, jo'z'ya, tog'or, ulufa, begar, madadi lashkar, boj, tuhfa soliqlari bo'lga.

Soliq to'lovchi fuqaro (raiyan) deb atalgan. Shayboniyalar davlatida xo'jalikning asosi dehqonchilik bo'lib, dehqonlar asosiy ishlab chiqaruvchi kuch edi. Bu davrdagi tinimsiz urushlar mamlakat iqtisodiyotini inqiroga, dehqonlarni esa qashshoqlanishiga olib keldi. shuni hisobga olib, Shayboniyalar sulolalari soliqlarni

ma'lum darajada kamaytirdi. Sug'orish ishlarini shakllantirishga kirishdilar. Suv manbalari bo'lgan – Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh, Murg'ob daryolaridan to'g'onlar, suv omborlari, kanallar qurishga kirishdilar. Masalan, Shayboniyxon 1502 yilida Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayrilish joyida ko'prik – suv ayr-ichini bino qildirgan. U Kesh atroflarini su-orish uchun 10 dan ortiq kanallar qurdirgan. 1583 yilda Abdullaxon II rahbarligida Nurota tog'larida qurilgan Oktob suv ombori, Murg'ob vohasida qurilgan Hovo'zxon suv ombori, o'nlab kanallar qurilishi, mamlakatdagi cho'l va dasht yerlaridan mo'l-xosil olishga imkoniyat yaratildi, bu esa mamlakatni iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir qilmay qolmadi. Bu g'allachilik, paxtachilik, polizchilikni, bo-dorchilikni rivojlanishiga yo'l ochib berdi.

Shayboniylar davrida hunarmadchilik, kulolchilik temirchilik, qurolozozlik, zargarlik, qog'ozsozlik kabi mahsulotlari ichki va tashqi bozorni ta'minladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar: ipak, jun, pila, gilam, quruq meva, qora ko'l, zargarlik buyumlari bilan savdogarlar Eron, Hindiston, Arab o'lkalari, Xitoy, No'g'ay, Qozon va Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar avj oldi.

Shu davrda me'morchilik, qurilish ishlarida ham anchagina ishlar qilindi. Shayboniy tomonidan Samarcandda Xoniya, Abu Said, Qulbobo, Ko'koldosh madrasalar, Abdullaxon I-II lar tomonidan qurdirgan; Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon, Govkushon, Jo'ybor (Buxoroda) madrasalari va o'nlab boidalardan iborat.

Bu davrda fan va madaniyatning rivojlanishida bu sulolaning tutgan o'rni va roli benihoya kattadir. Ular Shayboniyxon. Ko'chkinchixon, Ubaydillaxon. Rustam Sulton, Abdulazizzon kabi shayboniy sulolari o'qimishli madrasalarda o'qiganlar, turkiy va forsiy tillarda she'r bitganlar.

U davrda tarix ilmi rivojlangan. XVI asr tarixini yoritib bergan. «Tavorixi go'zida», (Nusratnama), Mo'lla Shodining «Fathnama», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Hofiz Buxoriyning «Abdullaxona» kabi asarlar fikrimizni dililidur.

XVI asrda mamlakatni turli mintaqalaridan yo`zlab olimlar, shoirlar, tarixchilar, rassomlar, faoliyat ko'rsatganlar. Masalan, qomusiy olim—Mushfiqiy (1538-1588) falsafa, astronomiya, fizika, musiqa sohalarida ham yetuk sanalgan. Olim Sulton Ali, tabib Muhammad Yo'sudo, Shoh Ali, Ubaydulloh Kahhol kabi tabiblar mavjud edilar.

Shayboniylar davrida tahlim sohasida ham islohatlar o'tkazilib, unga ko'ra bola 6 yoshdan maktabga benrilgan va ikki yil o'tgach, madrasaga o'tkazilgan. Madrasa uch bosqichdan iborat bo'lib, har bosqichda 8 yildan o'qitilgan. Bu davrda ilohiyot, hisob-kitob, matematika, she'r san'ati kabi fanlar o'qitilgan.

Tarixdan ma'lumki, Shayboniyning o'g'li Abdulmo'minni halokatidan so'ng taxtga chiqqan Pirmuhammad (1599-1601) hukmronligi o`zoqqa bormaydi.

1601 yildan boshlab, Buxoro xonligida xokimiyat Ashtarxoniyalar (Joniyalar) qo'liga o'tadi. 150 yilgcha hukmronlik qilgan (1601-1753y.) hukmronlik qilgan Ashtarxoniyalar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik osoyishtalik bo'lmasdi.

Ashtarxoniyalar haqida ikki og'iz so'zlash mumkin? Ma'lumki, Oltin O'rda (Jo'ji ulusi) zaiflashib borar ekan, uni bir qancha mayda xonliklarga bo'linib ketdi. XV

asnning o'rtalariga kelib, Volga bo'yи yerlarida Ashtarxon xonligi, No'g'ay xonligi, Qrim xonliklarga ajralib ketdi.

«Astraxan Ashtarxonni ruscha nomidir. Ashtarxon esa, aslida, «Hojitarxon» so'zidan olingandir. Tarxon –turkiy tili xalqlar hayotida imtiyozli unvonlardan hisoblangan. Rus knyazliklari tomonidan 1552 yilda Qozon xonligi bosib olgandan so'ng, 1556 yilda Astraxani bosib oladi.

Ashtarxoniylar XIV asnning 80 yillaridan boshlab Xojiratxon Ashtarxon atroflarida hukmronlik qilganlar. Xonlikni bu vatqda boshqarib turgan mang'it sulolası nomoyondalari kuchlarini ruslar tomonidan yengadi. Ashtarxoniylar hududlarini Rossiya imperiyasi yerlari deb e'lon qilgan.

Rossiya hukumati dastidan qochib, Yormuhammad butun oila a'zolari (o'g'illari) Jonimuhamed, Sulton, Abbas sulton, Tursunmuhammad sulton, Pirmuhammad sulton ahli ayonlari bilan Movarounnahrga keladilar.

Buxoroda Yormuhammadxonga katta xurmat bilan qaraydi. Chunki, Yormuhammaddan Abdullaxon II ning otasi Iskandarxon bilan yaqin munosabatda bo'lганlar.

Iskandarxon –Yormuhammadning katta o'g'li Jonimuhamed sultonga qizi Zuhrabonuni beradi, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlaydi. Bu nikohdan uchta o'g'il bo'lган: Dinmuhammad, Boqimuhammad, Valimuhammadlardir. Shunday qilib, Yormuhammad va uning avlodlari Shayboniylar honadonining eng yaqin va tayanchlariga aylanadi va Oliy hukmdorga xizmat qiladilar. Borib-borib mamlakatda xurmatli ko'zga ko'ringan shaxslarga aylanib boradi va Boqimuhammad oliy taxtni Shayboniyardan qaytarib olishga erishdilar. Ashtarxoniylar sulolası shu tariqa boshlanadi. Ammo, viloyatlardagi beklarni o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyatdagi o'zaro janjallar mamlakatda chuqur bo'xronli holatlarni keltirib chiqaradi va sulolari barham topishiga olib keldi.

2 masala: Siyosiy hayotda Shayboniylar davridagi davlat to`zumi asosan o'zgarmagan bo'lsa ham, boshqaruvida otaliqlar va dindorlarning mavqeい oshib, mamlakat siyosiy hayotini hal qilish ularni qo'liga o'tgan edi. Bu ijtimoiy to`zumga ta'sir qilib, xon va uning amaldorlari harbiy ma'muriy amaldorlar, urug' boshliqlari, yirik sulolalar fikri bilan hisoblashga majbur bo'lgan.

XVII-XVIII asnning birinchi yarmi davlat boshqaruvida bir narsa yaqqol ko'zga tashlandi. Xokimiyat markazda ham, viloyatlarda ham, bir idora darxogda mujassamlashib borgan. Aniq ravishdag'i dargox va ijroiya (devonlar) taxsimotini biz bu zamonda ko'rmaymiz.

Ashtarxoniylar hukmronligi yillarida ham naqib, otaliq, parvonachi, dodxox, devonbegi, qo'shbegi, chahraboshi, miroxo'r, yasovl, inoq, harbiy qozi, bosh qozi, shayxul islom, alham, Rais, bosh muftiy, harbiy muftiy, eshikog'aboshi, mirzaboshi, munshi, Saroy kutubxonasi boshlig'i, dasturxonchi kabi lavozimlar mavjud bo'lgan.

Shu bilan birga ularning vazifalarida sifat o'zgarish yo'z bergenligini ta'kidlab o'tish kerak. Chunonchi, otaliqning vazifasi, XVI asrda asosan joylardagi boshqaruva tizimi bilan bog'liq bo'lsa, Ashtarxoniylar zamonida otaliqning markazdagi mavqeい kuchayib bordi. Masalan, Abdulazizzon (1645-1681y)Buxoro taxti chiqqach, poytaxtdagi otaliq vazifachini Yalangto'shibiyya ya'ni o'sha paytdagi eng zabardast amirga taklif qilgan.

Otaliqning mavqeい Subqonqilixon (1681-1702y) davrida ham baland bo'lib, hatto u yoki bu mamlakatlarga harbiy yurish qilish, harbiy tahdidni oldini olishlar otaliqqa yuklatilgan. Demak, otaliq o'sha davrda mamalakatdagi amirlar sinfining yetakchisi, ularning ishonchini qozonganidir. Ubaydulloxon Abulfayzxon davrida qushbegini mavqeい o'zganligini ko'ramiz. Ular amirlarning eng ulug'i hisoblangan.

Ashtarkoniylar davridagi dargoh xizmatlaridan yana biri –saroy qutvoli mamlakatda davlat xazinasi hisobiga amalga oshiriladigan qurilish, obodonchilik ishlariga javobgar bo'lган. Har qanday qurilishni, sarf xarajatini xoni xazinasidan sarflangan.

Ma'muriyat tizimidagi amaldorlar faqat o'z vazifasini bajarib qolmay, siyosiy, harbiy harakatlarda ham faol ishtirot etgan.

3 masala: Ashtarkoniylar davrida ichki va tashqi savdoda ham ba'zi bir jonlanishlarni ko'rishimiz mumkin.

Bu davrdagi tinimsiz olib borilgan qir-inborot urushlar, obod shahar va qishloqlarni barbod qildi, xalq ommasini qashshoqlashishi avj oldi. Shunga qaramay xalq o'z hunari va imkoniyatlarni saqlab qoldi. hunarmandchilik orqali ishlab chiqariladigan mAhsulotlarni bir qismi ichki ehtiyojlarni qondirsa, qolgan qimsi yirik savdogarlar orqali qo'shni mamlakatlarga olib ketilardi.

Buxoro va Samarcand bozorlarida paxta, ipak, jun matolar tayyor kiyimlar, zargarlik buyumlari, bo'yoqlar, g'alla, mevalar, chorva mollari bozorlari keng yo'lga qo'yilgan.

Harbiy qurollari ishlab chiqilar va chet ellargi mahsulot olib ketishga alohida e'tibor qataldi.

Masalan, rus davlati Markaziy Osiyo davlati uchun savdoni yo'lga qo'yganidan manfaatdor edi.

Markaziy Osiyo savdogarları uchun eng qulay sharoitlar yaratilgan bo'lib, asosan Sibir orqali amalga oshirilardi. Orenburg orqali Rossiyaga tovarlar olib borish yo'lga qo'yildi. Mahalliy savdogarlardan soliq olishni Rossiya bekor qilgan edi.

Mahalliy savdogarlardan Rossiyaga, paxta matolari, teri, jun, gilam Rossiyadan esa xilma-xil tovarlar keltirilar edi.

Markaziy Osiyolik savdogarlar Hindiston, Eron, Afg'oniston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan savdo ishlarini keng yo'lga qo'ydilar. Biroq, o'zaro urushlar bu sohadagi ko'p imkoniyatlarini ishga solishga halaqit berardi.

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy boyoliklari jihatidan muhim maqeiga ega edi.

XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining yer maydoni qaryib, 200 ming kv. kmni tashkil etdi. Shu davrda uning aholisi soni 2 mln edi.

Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqeい ham, siyosati ham iqtisodiy jihatdan ham kuchaydi va Movaraunnaharning siyosiy –ma'muriy markazga aylantirildi. Abdullaxon II davrida (1557-1561) yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliv hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda hukmdor Abdullaxon II edi.

1557 yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo'lib qoldi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo'lib kirdi.

Buxoro xonligida kata obro'ga ega bo'lgan mang'it urug'inining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda mayishatbozlikka berilib ketgan Abudfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) e'lon qilingan uning o'g'llari: Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, xokimyatni o'z qo'liga oladi.

Muhammad Raxim 1753 yilda o'zini buxoro amiri deb e'lon qildi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshladi. Masaladan bir oz chekingan xolda ikki og'izXon va Amir so'zlarini kelib chiqishga izoh berib o'tishni lozim topdik.

Xon – so'zi turkiy xalqlar vam ulug'hukmdorlarini unvoni. Dastlab qabg'ilal boshlig'i, keyinchalik oliy hukmdorni anglatgan. Saljuqiylar, Xorazmshohlar davrida viloyat yoki shahar xokimi, mug'ul feodal imperiyasi inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlarda Oliy hukmdor xo, podsholik qilmagan. Chingiziylar esa sulton deb yuritilgan Buxoro, Xiva, Qo'qon hukmdorlarini xon deb ataganlar.

Amir deb—bu arabcha so'z bo'lib, islom dini qabul qilingunga qadar arablarda amir so'zi qabila boshlig'i, harbiy boshliq degan ma'nolarni bildirgan. Arablarda yirik qo'shin qo'mondoni va yirik lashkarboshilarni amir deb atashgan.

Oltin O'rta, O'rta Osiyo va Eronda mo'g'ul –turk qabilalari birlashmasi—ulus boshlig'inining unvoni ham amir deb atalgan. Amir Temur, Buxoro amiri va boshqalar.

XIX asr boshlariga kelganda Buxoro amirligida davlat boshqaruvida xizmatkor amaldorlar tarkibi kengaydi.

Faqat amir saroyining o'zida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Ular davlat hazinasidan maosh olar edila rva amirga batamom qaram bo'lib, ularni ishga amirning o'zi tayinlar va ishdan olar edi. Shunday qilib, amaldorlarning taqdiri to'laligicha yuqori amaldorlar qo'lida edi.

1). Amirlikda eng katta davlat lavozimi—qushbegi—dargoh vaziri, ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etardi. Barcha ijroiyo hokimiyat qo'shbegining qo'lida edi.

2). Devonbegi-- xonlikning moliya-vziri ishlarini boshqargan. Soliq va jarimalarni undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegi amalga oshirgan.

3) Ko'kaldosh—(xon bilan bir onadan emgan kishi) butun amirlik hududida amirga va amirlikka nisbatan do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumotlarni to'plab hukmdorlarga yetkazib turgan.

4). Mushrif —lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in'om etilgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olish bilan ham maxsus daftarga yozib borgan.

5) Mirshab—bu tungi qorovullar boshlig'i vazifasini bajargan.

6). Dodxoh--fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi mansabdor bo'lgan, bularni kerak bo'llsa xon yoki qushbegiga yetkazib turgan.

7). Inoq —bu lavozimda ishlagan amaldorlarning vazifikasi amir farmoyishlarini bek vaa boshqa tabaqadagi mahalliy mansabdorlarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

8) Miroxo'r—amirning ovchi qo'shlarini tasarruf qiluvchilar ustidan turgan, xon ovlarini uyushtirish ishiga mutasaddi bo'lgan.

9) Dasturxonchi—amir ho'zurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amalodor.

10). Kitobdor—amir kutubxonasi boshlig'i;

- 11) To'qsobo—amirning tungi sohibi bo'lgan. xarbiy mansabdar.
- 12). Parvonachi—biror shaxsning biror lavozimiga tayinlanganligi haqidagi yorliqni, o'sha shaxsga yetkazuvchi amaldor.
- 13). Sadirlar—vaqf mulklarni boshqaruvchi mansabdorlar. Vaqf muassasining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysinganlar. Sadrlarning vazifasi va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayt etib qo'yilgan. Sadrlar vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini oladilar.
- 14). Shayxul islom—musulmon jamoasi boshlig'i. qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etishini ta'minlovchi amaldor. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo'lib ham o'tgan.
- 15) Katta qozi—(qozi kalon)—davlatning oliy qozisi (sudg'yasi). Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga Rah-barlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozi —kalon «shariat pannoh» deb atalardi. Qozi kalon ho'zurida a'lam va 12 muftiydan iborat devon to'zilgan. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko'rib chiqishdan iborat.

16). Muftiy —Qozi kalon murakkab deb hisoblangan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha, shariat qonunlariga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muxri bilan tasdiqlangach, qozigacha berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqarardi.

Amaldorlarga amir noziriga tushgan xizmatlari uchun, otaliq, eshik o-asi kabi e'tiborli unvonlar berilgan.

Buxoro amirligi 15 beklikdan iborat edi. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yilgan hokimlar-beklar idora qilardi. Xokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi. Ular mahalliy olinadigan soliqlar hisobidan berilar edi.

14-mavzu. Xiva xonligi: hududi, ma'muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari

Reja

- 1. Xiva xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi.**
- 2. Xiva qo'ng'irotlari sulolasи hukmronligining o'rnatilishi**
- 3. Xiva xonligining xududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi**
- 4. Xiva xonligida davlat tizimi. Mansablar va unvonlar.**

Tayanch so'z va iboralar. Dashti Qipchoq, Vazir, Urganch, Xiva, Xazorasp, Shayboniyalar, Berka sulton, Elbarsxon, Muhammad Amin inoq, naqib, shayx ul-islom, mutavvalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo'r, inoq

1510 yilda SHayboniyxon vafotidan so'ng Xorazm hududi Eron shohi Ismoil tomonidan bo'ysundirildi. 1510-1512 yillarda Xorazmni Eron shohining noiblari idora qildilar. Ammo, 1512 yilda Xorazm hududlarida eroniylarga qarshi halq xarakatlari boshlandi. Ushbu harakatga Vazir shahrining (Ustyurtda, Ko'xna

Urganchdan 60 km uzoqlikda joylashgan bu shaharni XVasrda o'zbek xonlardan bo'lган Mustafoxon barpo etgan) qozisi Umar SHayx boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Xorazmning Vazir, Urganch, Xiva, Xazorasp shaharlaridagi eroniyoiblar va ularning qo'shinlarini qirib tashladilar. 1512 yilada Xorazmning obro'li shayxlaridan bo'lган SHayx Ota avlodlari ko'chmanchi o'zbeklarning Berka sulton avlodidan bo'lган Elbarsxonga maktub yo'llab, uni Xorazm taxtiga taklif qildilar. Elbarsxon taxtga o'tirgach, eroniylarni mamlakat hududidlaridan butunlay haydab chiqarib, amalda mustaqil xonlikka asos soldi. U mamlakat hududlarini hozirgi Turkmanistonning janubiy qismi, Eronning shimolidagi Seraxs viloyati, Mang'ishloq, Abulxon, Durun hisobiga ancha kengaytirdi. Ammo, o'zbek sultonlari va shahzodalar o'rtasida siyosiy birlik yo'q edi. Tez orada ular o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar avj olib ketdi. Ushbu kurashlardan foydalangan Buxoro hukumdori shayboniy Ubaydullaxon 1537 – 1538 yillarda, qisqa muddat Xorazmni egallahsha muvaffaq bo'ldi. Mag'lubiyatga uchragan Avanishxon oilasi bilan shayboniylar tomonidan qatl etildi.

Ubaydullaxonning hukumronligi uzoqqa cho'zilmadi. Ubaydullaxon zulmiga chiday olmagan xorazmliklar Anushaxonning vorislari boshchiligidida buxoroliklarga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Ubaydullaxon 1538 yilda yana Xorazmga qo'shin tortdi. Xazorasp bilan Xiva shaharlari oralig'idagi Kardaronxos degan joyda Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. SHayboniylardan ozod bo'lган Xorazmda endi ichki kurashlar avj olib ketdi. SHuningdek, Urganch, Kat, YAngi shahar, Xiva, Xazorasp kabi shaharlari va viloyatlar hukmdorlarining markazdan qochuvchi harakatlari kuchayib, ular amalda o'zlarini mustaqil hisoblar edilar. Ayrim shaharlari bir vaqtning o'zida ikkta hukmdor tomonidan (mas., Xivada Po'lat Sulton va Temir Sulton) boshqarildi. O'zaro kurashlar ayniqsa Elbarsxon va Anushaxon avlodlari o'rtasida kuchayib ketdi. XVI asrda Abdulg'oziy ma'lumotlariga ko'ra, bunday kurashlar natijasida qisqa muddatga hokimiyatdan o'nlab xonlar almashganlar. Natijada markaziy hokimiyat deyarli inqirozga uchragan edi. O'zaro kurashlar va siyosiy tanglik, o'z navbatida iqtisodiy hayotning ham izdan chiqishiga sabab bo'lgan edi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Xojimxon (Xoji Muhammadxon, 1558-1593, 1598-1602 yy.) hukmronligi davrida Xorazmdagi o'zaro urushlarga biroz barham berilib tinchlik va osoyishtalik o'rnatildi. Sug'orish va dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sodiq ishlariga jiddiy e'tibor qaratilib, tashqi savdo hamda munosabatlar rivoj topdi. Xojimxon hukmronligi davrida poytaxt Urganchdan Xivaga ko'chiriladi (ayrim manbalarda XVI asrning 70-yillarida, ayrimlarda esa 90-yillarda). Bunga asosiy sabab Amudaryo o'zanining o'zgarib Kasbiy dengizga oqmay qo'yishi natijasida Urganch va uning atroflaridagi suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchidan, Xivaning bu davrda siyosiy va iqtisodiy mavqeい ancha kuchayib, asosiy savdo markaziga aylanishi yana bir sabab edi. Poytaxt Xivaga ko'chirilganidan so'ng davlat ham Xiva xonligi deb atala boshlandi.

Arab Muhammadxonning dastlabki hukmronligi yillarida toju-taxt uchun kurashlar davom etdi. Xususan, 1605 yilda nayman urug'i vakillari Elbarsxon avlodiga mansub Xusrav Sultonni taxtga o'tkazishni rejalashtiradilar. Ammo, bu

fitna oshkor bo‘lib, Xusrav Sulton qatl ettiriladi. Oradan ikki yil o‘tgach, uyg‘ur oqsoqollarining maslahati bilan Solih Sulton degan kimsa taxtga davogar bo‘ladi, bu isyon ham bostirilib, Solih Sulton o‘ldirildi.

1616 yilga kelib taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o‘g‘illari ham qo‘shildilar. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abdulg‘ozzi, SHarif Muxammad, Xorazmshoh va AFg‘on Sulton ismli 7 nafar o‘g‘li bor edi. Isfandiyor Hazoraspda, Abdulg‘oziy Sulton Katda, Habash bilan Elbasr sultonlar Vazir va Urganch hokimlari etib tayinlangan edilar. Xon farzandlarining har biri taxtga davogar edi. Ayniqsa Habash sulton bilan Elbars sultonlarning harakatlari keskin edi. Ota – bolalar o‘rtasidagi ziddiyatlar kuchayib ohir - oqibatda qonli urushga aylandi. 1621 yilda Toshli YOrilish arig‘i (Xiva yaqinida) yonida Arab Muhammadxon va uning o‘g‘illari Habash hamda Elbars sulton qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘ldi. Isfandiyor va Abdulg‘oziy sultonlar otasi tomondan turib kurashgan bo‘lsalarda, bu jangda Arab Muhammadxon engildi. Arab Muhammadxon avval ko‘zları ko‘r qilinib Xivaga jo‘natildi. 1623 yilda esa Qum qa’lesi yaqinida Arab Muxammadxon xotinlari, yosh o‘g‘illari va ikkita nabirasi bilan o‘g‘illari Xabash va Elbars sulton tomonidan o‘ldirildi. Isfandiyor Eronga (garchi unga Makkaga borishga ruhsat bergen bo‘lsada), Abdulg‘oziy esa Buxoroga qochib, jon saqladilar.

623 yilda otasining qatl etirilganligini eshitgan Isfandiyorxon Durun shahri, Abdulkxon tog‘laridan, turkmanlarning taka, yovmut, sariq urug‘laridan qo‘shin to‘plab Urganchga yurish boshladı. Urganch yaqinida Isfandiyorxon va Habash – Elbars qo‘shinlari o‘rtasida 23 kun davom etgan jangda birlashgan aka – ukalar qo‘shinlari Isfandiyor qo‘shini tomonidan tor – mor etildi. Elbars qo‘lga olinib qatl etildi. Habash Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlardan najot so‘radi. Ammo, u bu erdan boshipana topolmadi va navkarlari bilan qo‘lga olinib, Isfandiyorxoniga topshirildi hamda ularning barchasi qatl etildi.

Xonlikdagi barcha lavozimlarga o‘zbek urg‘ularining boshliqlari qo‘yildi. Xiva tarixchisi Munisning ma’lumot berishicha, Abulg‘ozixon ma’muriy islohot o‘tkazib, xonlikning boshqaruvi tizimini batamom yangitdan tashkil etdi. Xonlikning boshqaruvi tizimida o‘zbek urug‘larining mavqeい ortib bordi hamda ularning 360 nafar vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko‘tarildi. Xon yangi amaldorlar orasidan eng obro‘li 32 nafarini o‘z yoniga oldi. Munis ta’biri bilan aytganda, “andoqkim ikki shayx ul-islom, ikki qozi, bir rais Said ota avlodidan, bir mutavalli, bir naqib, to‘rt otaliq, to‘rt inoq, to‘rt mirob, to‘rt parvonachi, ikki oqo, ikki arbob, to‘rt chig‘atoyi inoqi va bir vazirkim, holo mehtar derlar va bir qushbegi, bu ikkovi o‘rinsiz xon huzurida oyoq ustida turadilar”.

Abulg‘ozixon o‘zbek qabilalarini o‘troqlashtirish siyosatini olib borish bilan birga, ularni to‘rta guruhga bo‘lib, Buxoro bilan chegaradosh bo‘lgan Doyaxotun (Darg‘onota yaqinida) dan tortib, to Orolgacha bo‘lgan hududlarga joylashtirdi. SHuningdek, Abulg‘ozixon 1645-1650 yillarda Xuroson, Janubiy Turkmaniston, Tajan, Murg‘ob, Artek, Gurlan, Abulxon va Mang‘ishloq atrofidagi turkmanlar ustiga yurishlar uyushtirdi. Xonlik sarhadlarini kengaytirishga harakat qildi. Xonning topshirig‘i bilan Vazir qal’asi aholisi Gurlan qal’asi yaqinida tiklangan Kichik Vazir qishlog‘iga ko‘chirildi. 1646 yilda Abulg‘ozixonning buyrug‘iga

binoan Urgancharna arig‘i qaziladi va uning yaqinida yangi qal‘a bunyod etilib, bu qal‘aga YAngi Urganch deb nom beriladi. Bu erga Ko‘hna Urganch aholisining bir qismi ko‘chirib keltiriladi. 1648 yilda G‘ozibod kanali qazilib, uning yaqinda chegara istehkomi quriladi.

Davlat boshqaruvi va bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullangan Abulg‘ozixon tarixchi tabib sifatida ham bebaho meros qoldirgan. Taxminan 1657 yilda Abdulg‘izi tabobatga oid “Manafi’ ul-inson” (“Insonga foydali narsalar”) nomli asarini yozgan bo‘lsa, 1658-1664 yillarda “SHajarai turk” nomli tarixiy asarlarini yaratdi.

Abulg‘ozixon hali o‘zi hayotlik davrida Xiva xonligi taxtini o‘g‘li Anushaxon (1663-1687yy)ga topshirdi va oradan olti oy o‘tib vafot etdi. Anushaxon Xiva xonligi mavqeい va qudratini oshirish maqsadida otasining ishlarini davom ettirdi. U Buxoro, Samarqand va Xurosonga bir necha marta harbiy yurishlar uyuşhtirib xonlik chegaralarini mustahkamlash hamda kengaytirish harakatida bo‘ldi. Anushaxonning harbiy yurishlarida jasorat ko‘rsatgan turkmanlarga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi hamda uning atroflariga ko‘chib kelishiga ruhsat berdi.

1687 yilda saroy a‘yonlari tomonidan fitna uyuşhtirilib, Anushaxon o‘ldiriladi. Taxtga esa uning o‘g‘li Xudoydod (1687-1688yy) o‘tkaziladi. Afsuski yangi hukumdorning xonlik faoliyati uzoq davom etmadni. Ogahiy habarlariga ko‘ra, siyosatda bilimdon va xalqa adolatli xon sifatida obro‘ orttira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon shahid edi. Ammo, Arangxonning (1689-1690yy.) hukmronligi uzoq davom etmadni. 1690 yilda u Orol o‘zbeklari bilan bo‘lgan janga halok bo‘ldi.

Arangxon vafotidan so‘ng Buxoro xoni Subhonqulixon Xiva taxtiga o‘z odami SHohniyozni (1690-1707yy.) o‘tkazib, amalda Xiva xonligini Buxoroga vassal davlatga aylantirdi. SHuning uchun ham SHohniyoz garchi o‘zini xon deb e’lon qilgan bo‘lsada, o‘z faoliyati davomida Buxoro ta’siridan qutula olmadi. XVII asrning oxiri - XVIII asrning boshlariga kelib, Xiva xonligida siyosiy tarqoqlik, taxt uchun kurashlar va mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilish harakatlari avj olib ketadi. Viloyatlar hokimlari xonga itoat etmay qo‘yanliklari bois Xiva xoni saroy amaldorlari va mahalliy hukmdorlar qo‘lidagi qo‘g‘irchoqqa aylanib qolgan edi. SHuning uchun ham XVIII asrga oid ayrim yozma manbalarda Xiva xonligi “Besh qal‘a” deb atalgan bo‘lsa kerak. Uning tarkibidagi Xazorasp, Xonqa, Urganch, Kat va SHovot qal‘alarining markaziy hokimiyatga tobelligi yuzaki xususiyatga ega edi.

SHohniyoz Buxoro ta’siridan qutulish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida 1703 yilda Rossiya hukumdori Pyotr I ga maktub yo‘llaydi. Bu maktubda Xiva xonligini Rossiyaga qo‘sib olish so‘ralgan edi. Pyotr I ning Xivani Rossiya tarkibiga qo‘silganligi haqidagi yorlig‘i 1707 yilda Xivaning yangi hukmdori Arab Muhammadga (1707-1715yy.) topshiriladi. Ammo, Xivada siyosiy kurashlar avj olib turgan sharoitda ushbu yorliq hech kimning e’tiborini tortmadni. Umuman, Ogahiy ma’lumotlariga ko‘ra, Arangxon davridan to SHerg‘ozixon davriga qadar Xivada o‘nlab hukmdorlar almashganlar.

SHerg'ozixon (1715-1728yy)ning hukumronligi davri siyosiy voqealarga boy bo'ldi. Uning hukmronligi davri o'zbek, turkman, qoraqalpoq zodagonlarining o'zboshimchilik harakatlariga qarshi kurash bilan o'tdi. Bu paytga kelib, Orol bo'yi o'zbeklari orasida ham siyosiy vaziyat keskinlashib ketgan edi. Buning asosiy sababi – Orol bo'yida yashayotgan o'zbeklarning Qo'ng'iroq, Mang'it, Xo'jayli va Qipchoq urug'iga mansub aholisining mustaqillik uchun kurashlari edi. Bu kurashlarga boshchilik qilgan, Mang'it biylaridan bo'lган SHeralibiy Xiva xonligiga itoat etishdan bosh tortib, Orol bo'yini mustaqil hokimlik deb e'lon qildi. SHerg'ozixon bu erdag'i harakatlarni bostirishga harakat qilgan bo'lsa-da, bu ishning butunlay uddasidan chiqa olmadи.

XVIII asrning boshlariga kelib Rossiya hukumatining Xiva xonligining ichki ishlariga aralashuvni kuchaydi. Rossiya hukumron doiralari O'rta Osiyo, jumladan Xiva xonligini ham bosib olishni rejalashtira boshlagan edilar. Rossiya hukumdori Pyotr I ning 1717 yilda Xivaga uyushtirgan Bekovich-CHerkasskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu maqsadda tashkil etilgan edi. Ammo, SHerg'ozixonning hiyla ishlatishi natijasida 6 ming kishidan iborat bu ekspeditsiya bir kechada qirib tashlandi. SHunga qaramasdan to O'rta Osiyo bosib olinmagunicha CHor Rossiyasi hukumatining bunday harakatlari davom etdi.

1741 yilda Nodirshoh o'g'li Nasrullo boshchiligidagi yana Xivaga yurish qilib Nuralixon va uning tarafdarlarini Xivadan haydab yubordi. Taxtga esa Elbarsxonning o'g'li Abdulg'izi II xon qilib o'tqazildi. Ammo, uning hukumronligi ham uzoq cho'zilmadi. 1746 yida Xivada Mang'it inoqlari tomonidan uyutirilgan fitnada Abdulg'izi II o'ldirildi. SHundan so'ng Nodirshohning roziliqi bilan 1747 yilda qozoq sultoni Abdulkayrning ukasi Taibxon (Kaipxon) (1747-1757yy) taxtga o'tqazildi. Manbalarda Taibxonning nihoyatda zolim hukmdor bo'lganligi eslatiladi. U Xiva taxtiga o'tirgach avvalo, hokimiyatini inoqlar ta'siridan xalos qilish maqsadida Mang'it inoqlaridan bo'lган Huzurbekni tarafdarları bilan qatl ettirdi. Davlatdagi yirik mansablar esa qozoq beklariga bo'lib berildi. Taibxon aholiga nisbatan jabr-zulmini kuchaytirib, 1756 yilda Xiva aholisidan 40 ming tanga qo'shimcha soliq yig'ib oldi. Bu esa Xivada xalq qo'zg'oloniga sabab bo'ldi. Taibxon taxtni tashlab qozoq dashtlarga qochib ketdi. Hokimiyatni esa qisqa muddat uning ukasi Abdullaxon egalladi.

Xivadagi ichki nizolardan foydalangan Buxoro hukumdori Muhammad Rahimbiy Xivani o'z ta'siriga o'tkazish harakatini boshladi. SHu maqsadda o'z odami Temur G'ozixon (1757-1763yy)ni Xiva taxtiga o'tqazdi. Temur G'ozixon ham Xivada etarli darajada siyosiy barqarorlik o'rnata olmagan bo'lsada, uning hukmronligi davridan boshlab xonlikda o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lган inoqlarning mavqeい ortib bordi. Temur G'ozixon bir necha yil hukmronlik qilib, saroy fitnasi natijasida o'ldirildi. Uning o'limidan so'ng Xiva hokimiyati qozoq sultoni Tavkaxon (1463y.) qo'liga o'tdi. Biroq, oradan ko'p o'tmasdan u ham taxtdan mahrum bo'ldi. 1763 yilda inoq Muhammad Amin amalda Xivadagi oliy darajadagi hukumdorga aylandi.

1763 yildan boshlab Xivada amalda qo'ng'iroq urug'i inoqlari hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsa-da, 1804 yilgacha Xiva xonlari hukmdor sifatida boshqa shahsni xon qilib e'lon qilganlar. Qo'ng'iroqlar sulolasini hukmdorlaridan

Muhammad Amin inoq (1763-1790yy.) Xivada hokimiyatni qo‘lga olgach saroydagi bir qancha lavozim va amallarga o‘ziga sodiq va ishonchli odamlarni tayinladi. YAngi xon shu yo‘l bilan xonlikdagi muhim siyosiy-ma’muriy, moliyaviy va harbiy hokimiyatni o‘z qo‘liga olib, ayrim mustaqil beklarni o‘ziga itoat ettirdi.

Manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, shaharlik savdogarlar, hunarmandlar va din peshvolari yordamida o‘z hokimiyatini ancha mustahkmlagan Muhammad Amin inoq 1770 yilda turkmanlar hujumini, 1782 yilda Buxoroliklar tajovuzini muvaffaqiyatli qaytardi. Uning hukumronligi davrida Xiva xonligida dehqonchilik, savdo – sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida ma’lum chora – tadbirlar amalga oshirildi. Mahalliy hukumdorlarning o‘zaro nizomlari va kurashlariga chek qo‘yilishi natijasida xonlikdagi iqtisodiy hayot yaxshilanib bordi.

Muhammad Aminning o‘g‘li Avaz inoq (1790-1804 yy.) otasining ishlarini davom ettirgan bo‘lsa, Avazning o‘g‘li Elto‘zar inoq 1804 yilda Xiva taxtiga o‘tirib, sohta xon Abdulg‘ozzi V ni haydab yubordi va o‘zini rasmiy xon (1804-1806 yy.) deb e’lon qildi. SHu tariqa Xivada qo‘ng‘irotlar sulolasiga hukumronligi rasmiy qaror topdi. Eltuzarxon xonlikdagi mustaqil hokimlarni birlashtirish siyosatini davom ettirdi. Ammo, uning hukumronligi uzoq davom etmadidi. 1806 yilda Eltuzarxon buxoroliklar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. Taxtga uning ukasi Muhammad Rahimxon I o‘tirdi.

Muhammad Rahimxon I (1806-1825 yy.) markazlashtirish siyosatiga katta e’tibor berib, Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga etkazdi. Xiva tarixchilarining ma’lumotlariga ko‘ra, Muhammad Rahimxon I xonlikdagi vaziyatni to‘g‘ri tushunib, shunga yarasha davlat siyosati ishlab chiqdi va ushbu siyosatni qat’iyatlik bilan amalga oshirdi. Xususan, uning bevosita tashabbusi bilan xonlikda ma’muriy – siyosiy, iqtisodiy va harbiy islohotlar o‘tkazildi.

Dushmanlariga, markazdan qochuvchi kuchlarga nihoyatda beshafqat bo‘lgan Muhammad Rahimxon I o‘z atrofiga o‘zbek, turkman, qozoq va qoraqalpoqlarning nufuzli vakillarini to‘plab, ularga amallar va unvonlar berdi. Xon saroyi qoshida doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi Kengash (Devon) ta’sis etildi. Ruhoniylarga ham alohida e’tibor berilib, SHayxulislom Kengashning a’zosi va xonning eng yaqin masahatchisiga aylandi. Muhammad Rahimxon I ning musulmon ruhoniylarining halq orasidagi mavqeini hisobga olib sayidlardan bo‘lgan Sayid Pirmuhammad Xo‘janing qiziga uylangani ham ma’lum.

Bu xon davrida mamlakatning iqtisodiy hayoti jonlanganligi haqida ham ma’lumotlar talaygina. Uning davrida mahsus islohotlar o‘tkazilib, soliqlar tarkibiga solindi. Bojxona tashkil etilib, ichki va tashqi savdodan keladigan daromadlar ko‘payib bordi.

Muhammad Rahimxon I mamlakat sarhadlarini kengaytirish hamda bo‘ysunmas qabilalarni itoat ettirish maqsadida qator harakatlar olib bordi. Juda qiyinchilik bilan bo‘lsa-da, 1811 yilda Orol-Qo‘ng‘irot tobe ettirildi. 1812-1813 yillarda Sirdaryo bo‘yidagi qozoq va qoraqalpoq ovullariga ketma-ket qo‘shin yuborilib, ular Xiva xoniga bo‘ysundirildi. SHundan so‘ng xonlik hududlarini Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlari hisobiga kengaytirish

harakati boshlandi. Ammo, bu masalada Xiva bilan Buxoro o'rtasida kurash boshlanib ketdi. 1817 yilgi CHorjuy qal'asi yaqinidagi birinchi to'qnashuvda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. SHunga qaramasdan Muhammad Rahimxon I Buxoro hududlariga 1820, 1823, 1824 yillarda talonchilik urushlari qilib turdi.

Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlariga harbiy yurishlar Muhammadrahimxonidan keyin taxtga o'tirgan o'g'li Olloqulixon (1825-1842 yy.) va nabirasi Rahimqulixon (1842-1845 yy.) davrida ham davom etdi. Olloqulixon Janubiy Turkmaniston va Xuroson viloyatlarida o'z hukmronligini mustahkamlash uchun ular ustiga besh marotaba yurish qildi. 1826 yilda Xiva qo'shinlari SHimoliy Xurosondagi Oqdarband qal'asini zabit etdilar. 1828-1829 yillarda bu hududdagi Jalqon qal'asi egallandi. Olloqulixon zamonida Buxoro va Xiva o'rtasida Marv viloyati uchun to'qnashuvlar bo'lib turdi.

Olloqulixon 1842 yilda vafot etgach taxtga uning o'g'li Rahmonqulixon (1842-1845 yy.) o'tirdi. Taxtni egallagan yangi xon ham Janubiy Turkmaniston erlariga hujum boshladi. Bu yurishlarga hujum qilib, Xazoraspni qamal qildi. Ammo, mag'lubiyatga uchrab orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Bu orada Rahmonqulixon CHorjo'yni qamal qilib, uning atrofidagi qishloqlarni taladi. Rahimqulixon Xuroson uchun bo'lgan janglarning birida halok bo'lgach taxtga uning ukasi Muhammad Aminxon (1845-1855 yy.) o'tirdi.

Muhammad Aminxon hukmronligi davrida ham Janubiy Turkmaniston va Xurosonda tinchlik hukm surmay, xonga qarshi isyonlar davom etdi. Ayniqsa, Marv va Seraxs shaharlarida ko'tarilgan qo'zg'olonlar hokimiyatni larzaga keltirdi. Qo'zg'olonchilar Xiva xoniga bo'ysunishdan bosh tortib, xon amaldorlari va soliq yig'uvchilarni tutib qatl qildilar. Ogahiy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Aminxon Marv va Seraxs uchun o'n marotaba yurish qilgan, faqatgina 1854 yilda Marv qo'zg'oloni qiyinchilik bilan bostiriladi. 1855 yil Seraxs ostonasida turkmanlar bilan Xiva lashkarlari o'rtasida bo'lgan jangda Xiva qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Muhammad Aminxon, uning o'n to'rt nafar shahzodalari va saroy amaldorlari fojeali halok bo'ldilar.

1855 yil Said Abdullaxon (besh yarim oy – 1855 yil 20 mart – 27 avgust) Xiva taxtiga o'tirdi. Ammo, bir guruh saroy amaldorlari Said Abdullaxonni tan olmasdan unga qarshi fitna uyuştirib, yovmut turkmanlari bilan aloqa o'rnatdilar hamda ularni isyonga chorladilar. YOvmutlar isyon ko'tarib G'ozovot va Ilonli atroflarida qishloqlarni talay boshladilar. Said Abdullaxon Xivadagi fitnachilarni fosh qilib, uning ishtiroqchilarini qatl ettirgach, isyonchilarga qarshi kurash boshladi. Dastavval, Xiva qo'shinlari bilan bo'lgan jangda yovmutlar mag'lubiyatga uchrab dasht ichkarisiga chekingan bo'lsalar-da, avgustning oxirida yovmutlar Xiva navkarlari qarorgohiga (Ilonli yaqinida) to'satdan tunda hujum qildilar. Bu hujumda Xiva navkarlari mag'lubiyatga uchrab, Said Abdullaxon o'ldirildi.

Bu voqeadan keyin saroydagisi vazir Muhammad YOqub mehtar boshchiligidagi bir guruh amaldorlar Sayid Abdullaxonning o'n etti yashar ukasi Qutlug' Murodni xon qilib ko'tardilar, YOqub mehtar va Ibrohim qo'shbegi davlat boshqaruvida xonning eng yaqin kishilari edilar. Bu orada xonlikdagi siyosiy vaziyat yana keskinlashib ketdi. Qutlug' Murodxonga bo'ysunmagan turkman

yovmutlari Ota Murodni, qozoq va qoraqalpoqlar Jorliq To‘rani o‘zlariga xon deb e’lon qildilar. Qutlug‘ Murodxon ularning isyonlarini qiyinchilik bilan bostirdi. Ammo, uning hukmronligi ham uzoq cho‘zilmadi (to‘rt yarim oy). Qutlug‘ Murodxon o‘z ukasi Niyozbek Muhammad tomonidan hiyla ishlatalib uyushtirilgan fitna (yovmut turkmanlari yordamida) natijasida o‘ldirildi.

Qutlug‘ Murodxon o‘limidan so‘ng Xiva taxtiga Sayid Muhammadxon (1856-1864 yy.) xon qilib ko‘tarildi. U hokimiyatga kelgan paytda xonlikda siyosiy vaziyat keskinlashgan, iqtisodiy ahvol nihoyatda og‘ir bo‘lib, ko‘pchilik viloyatlarda ocharchilik hukm surgan, yuqumli kasalliklar tarqalgan edi. Vaziyatni to‘g‘ri baholay olgan Sayid Muhammadxon yuz berayotgan isyonlarni tinch yo‘l bilan hal qilish, tinchlikni qaror toptirish, iqtisodiyotni tiklash choralarini ko‘rdi. U avvalambor Buxoro va Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshiladi. Dehqonchilik, obodonlashtirish va qurilish ishlarida qator tadbirlar o‘tkazildi. Ammo, xonlikdagi ichki notinchlik to‘xtamadi. Xonlikda faqat o‘zbek urug‘larigina emas balki, yarim ko‘chmanchi va chorvador aholi bo‘lgan turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlar og‘ir soliqlar va turli to‘lov hamda majburiyatlarga tortilganligi bois xonlikning turli shahar va viloyatlarida noroziliklar, isyonlar bo‘lib turdi.

Sayid Muhammadxon 1864 yil 10 sentyabrda kasallanib vafot etgach taxtga uning o‘g‘li Sayid Muhammadxon Rahimxon II (1864-1910 yy.) o‘tirdi. Soniy va Feruz nomlari bilan ham ma’lum bo‘lgan bu hukmdor Xiva xonlari orasida eng adolatparvar va ma’rifatparvar hukmdor bo‘lganligi bois ham 47 yil davomida mamlakatni idora qilgan.

Uning zamondoshlari bo‘lgan Ogahiy va Bayoniylar asarlarida Sayid Muhammadxon Rahimxon II (Feruz) faoliyatida adolatparvarlik va haqgo‘ylik, qattiqqo‘llik va talabchanlik bilan, ma’rifatparvarlik esa tashabbuskorlik bilan uyg‘unlashib ketganligi haqida ma’lumotlar beradilar. Bu xon o‘zining butun hukmronligi davrida el-yurt farovonligi, tinchlik-osiysishtaligi uchun kurashdi. Xonlikda dehqonchilik, sug‘orish ishlari, savdo-sotiq va hunarmandchilik taraqqiy etdi. Bu davrda Xorazmda ayniqsa ilm-fan, adabiyot va san’at, me’morchilik yuksaldi. Xonning o‘zi “Feruz” taxallusi bilan ijod qilib o‘zbek mumtoz adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shti.

Zamonaviy Xorazm tarixchilari Sayid Muhammadxon Rahimxon II hukmronligini ikki bosqichga ajratadilar. **Birinchi bosqich** – 1864 – 1873 yillar, xon hukmronligining dastlabki o‘n yilligi bo‘lib, bu davrda Muhammadxon Rahimxon II davlatni mustaqil boshqarib, mamlakatda tinchlik va farovonlikni qaror toptirish, qishloq xo‘jaligi, savdo-sotiq va hunarmandchilik, fan va madaniyatni yuksaltirish yo‘lida ulkan ishlarni amalga oshirdi. **Ikkinci bosqich** – 1873 yil avgustdan 1910 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. 1873 yilda Xiva general Kaufman boshchiligidagi rus qo‘sishlari tomonidan bosib olingach, tuzilgan sulhga binoan Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylandi. Bu davrda Muhammadxon Rahimxon II ning faoliyati Rossiya hukumati tomonidan qat’iy cheklandi va nazorat ostiga olindi. SHunga qaramasdan xon o‘zining adolatparvarlik va bunyodkorlik faoliyatini davom ettirdi.

Muhammadxon Rahimxon II vafotidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Sayid Isfandiyor (1910-1918 yy.) o‘tirdi. Isfandiyorxon xonlik davrini yangiliklardan

boshladi. Uning farmoni bilan xonlik aholisi qadimdan to'lab kelayotgan soliqlarning bir necha turi qisqartirildi. General-mayor unvoniga ega bo'lgan Isfandiyorxon ham otasi kabi rus hukumatiga tobe edi. Uning davrida xonlikda bir qancha qo'zg'olon bo'lib o'tdi. Xon bu qo'zg'olonlarni ruslar yordamida bostirdi. 1918 yil 1 oktyabrdan turkman Qurbon Muhammad Sardor (Junaidxon)ning buyrug'i bilan Isfandiyorxon o'ldirildi. Hokimiyatni Junaidxon o'z qo'liga oldi. Ammo, u Xiva taxtiga o'tira olmas edi. SHu bois ham Isfandiyorxonning ukasi Said Abdullaxon (1918-1920 yy.) nomigagina xon qilib ko'tarildi. 1920 yil 2 fevralda Xivaga kirib kelgan qizil armiya qo'shinlari Junaidxon lashkarlarini tormor etib, hokimiyatni sovetlarga topshirdi.

Xiva xonligining xududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi. Xonlikning aniq chegaralari haqida ma'lumotlar saqlanmagan. Chunki xonlik paydo bo'lgan dastlabki davrlardan boshlab siyosiy vaziyat va harbiy harakatlarga qarab davlat chegaralari doimiy ravishda o'zgarib turgan. XIX asrga kelib xonlik tarkibiga turkman, qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlarning qo'shilishi natijasida davlat sarhadlari ancha kengaydi. Manbalarga ko'ra, Eltuzarxon (1804-1806 yy.) davrida xonlikning xududi uncha katta bo'lmasdan, shimoliy chegarasi Orol-Qo'ng'irot hokimligi, janubiy chegarasi esa Darg'onota bilan chegaradosh bo'lgan. XIX asr o'rtalariga oid rus manbalarida xonlikning g'arbiy chegarasi Kaspiv dengizigacha, janubda esa Marv vodiysi orqali Eronga tutashib ketganligi, shimolda esa Ural daryosigacha cho'zilganligi qayd etilgan.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI-XVIII asrlarda **viloyatlarga** bo'lingan bo'lsa, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlaridan boshlab davlatdagi asosiy ma'muriy hududlar **beklik** deb atalgan. Manbalarga ko'ra, bu davrda xonlikda 16ta beklik va 2ta noiblik mavjud edi. Ular Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Kuhna Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, Qiyot, SHobboz (SHohabboz), SHovot, Toshhovuz, Ambarmanak, Urganch, Xo'jayli, SHumanay va Qo'ng'irot bekliklari hamda Beshariq va Qiyot-Qo'ng'irot noibliklaridir. Ularni xon tomonidan tayinlangan **beklar** va **noiblar** boshqarganlar. Xiva shahri boshqaruvi xon va bosh vazir ixtiyorida bo'lgan. Xonlikning poytaxti turli davrlarda Vazir, Kat, Ko'hna Urganch, Xiva shaharlari bo'lgan.

Muhammadxon Rahimxon I (1806-1825 yy.) xonlikning ma'muriy boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Bekliklarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmasligini hisobga olib, Muhammadxon Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va manbalarga ko'ra, xonlikda avval 15ta hamda keyinroq yana 11ta **hokimlik** tashkil etdi. Bular quyidagilar edi: Xazorasp, Ostona, Urganch, Kat, Toshhovuz, Qo'shko'prik, Oqdarband, Gurlan, Ko'k qashqa, Qo'ng'irot, Ko'hna Urganch, Ilonli, Taxta, Xonqa, SHobboz, Manoq, G'ozibod, SHayx, Mang'it, Xo'jayli, SHumanay, To'rchi, Oqtepa, Qorag'on, Xitoy. Hokimliklar o'z navbatida **masjid-qavmlarga** bo'lingan. Manbalar xonlikda jami 1537ta masjid-qavmlar bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Viloyat hokimlari xon tomonidan, masjid-qavmlarning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan.

SHunday qilib, Xiva xonligi ma'muriy jihatdan hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston va Turkmaniston Respublikalarining bir qismini o'z ichiga olgan davlat edi.

Xiva xonligining o'troq dehqonchilik vohalarida asosan o'zbeklar yashab, ular davlatdagi aholining katta ko'pchiligini tashkil etganlar. Xonlikda shuningdek, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, kam miqdorda tojiklar, yahudiylar, hindlar, eroniylar, ruslar, armanlar, nemislar ham yashaganlar. Xiva xonligidagi aholining umumiy soni haqida ma'lumotlar deyarli yo'q. Arxiv hujjatlari va rus sayyoohlarning ma'lumotlari bu masalaga qisman aniqlik kiritadi. Xususan, XIX asrning birinchi choragiga oid ma'lumotlarda xonlik aholisi 300 ming, shu asrning 40-yillariga oid ma'lumotlarda 300 mingga yaqin, so'nggi choragiga oid manbalarda 700 mingga yaqin deb berilsa, arxiv manbalarini chuqur o'rgangan olim M. Yo'ldoshev XIX asr o'rtalarida xonlikda 800 mingga yaqin odam istoqomat qilganligi qilganligi haqida ma'lumot beradi.

XIX asrning o'rtalariga kelib xonlikda shahar hayotining rivojlanishi natijasida shahar aholisining soni ko'payib bordi. Xiva, Xazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'ng'iroq, Ko'hna Urganch kabi shaharlarda rus sayyoohlari bergen ma'lumotlarga ko'ra, 2 mingdan 5 minggacha xonadon yashagan. Xonlik poytaxti Xiva shahrida 21 mingdan ortiq aholi yashagan.

Davlat tizimi. Mansablar va unvonlar. XVII asrda Xivada muayyan bir sulola hukmdor emas edi. CHingiziylar sulolasiga mansub ba'zi shaxslar Xivaga chaqirilib xonlik taxtiga ko'tarilgan bo'lsa-da, amalda hokimiyat qo'ng'iroq sulolasidan bo'lган **inoq** qo'lida bo'lган. 1804 yildan boshlab faqat Qo'ng'irotlar sulolasi vakillari Xivada xon bo'lганlar.

Xiva xonligida unvon va mansablarni saroy, harbiy va diniy unvon hamda va amallarga bo'lish mumkin. Tadqiqotchilarining fikricha (SH. Vohidov) bu tasnif sof nazariy bo'lib, aslida xonlik davrida muayyan unvon va mansablar sohalar bo'yicha berilmagan. O'sha vaqtida amaldor va unvon egasi ko'pincha xonga nisbatan shaxsiy sadoqati, qavmi yaqinligidan bir mansabdan boshqa mansabga o'tib, unvonlar sohibiga aylangan. Xonlikda eng oliv unvon **xon** bo'lib, u ma'muriy, siyosiy va harbiy vakolatlarga ega bo'lган.

Xiva xonligi davlat tizimida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli o'laroq, xon huzurida Oliy Kengash amal qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu Oliy Kengashni Muhammad Rahimxon I "o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun ilgari inoq va otaliqlar boshliq bo'lган urug' oqsoqollari kengashi o'rniga ta'sis etgan edi. Bu Oliy Kengashga turli da'vo va jinoiy ishlarni ko'rish va qaror chiqarish huquqini berdi." Bu Kengashning vakolati chegaralangan bo'lib, maslahat beruvchi organga o'xshar, uning a'zolari eng yuqori mansab va unvondagi amaldorlar bo'lган. Kengash majlisida boshqa amaldorlarga qaraganda qo'proq inoq, shayx ul-islom, devonbegi va yasuvulboshi hal etuvchi ovozga ega bo'lганlar. Kengash majlislari masalaning muhimligiga qarab, xon tomonidan chaqirilar edi. Oliy Kengash oqsoqollardan, ya'ni, ma'lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi, naqib, shayx ul-islom, mutavvalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, shig'ovul, dasturxonchi, arbob, miroxo'r kabilardan iborat edi. SHuningdek, xonning qarindosh urug'laridan bo'lган beklar, otaliq, inoq va biylar ham bu kengashga kirganlar.

Bu tor doiradagi Kengash garchi davlat tashkiloti sifatida rasmiylashtirilmagan bo'lsa-da, uning qarori xonning qaroridek ko'rsatilsa-da,

amalda yuqori qonun chiqaruvchi ma'muriy va sud hokimiyati edi. Kengash xonlikning ichki ishlariga doir hamma masalalar bo'yicha qaror qabul qilar va xonlikning boshqa davlatlar bilan bo'lgan tashqi munosabalariga doir muammolarni hal etar edi. Garchi Kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsa-da, muhokama qilingan masalalar bo'yicha qaror chiqarish avvalo xonning xohish – irodasiga bog'liq bo'lgan.

Xon saroyidagi unvon va mansablar. Unvonlar orasida eng kattasi **inoq** edi. Odatda inoqlar eng qudratli o'zbek urug'laridan tayinlangan hamda hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo'lgan. Inoqlar yirik amaldor, ya'ni urug' boshlig'i hisoblangan. Abulg'ozixon tantanali marosimlarda o'tirish uchun inoqlarga o'z yonidan to'rtta joy ajratgan. Inoqlar biy, sulton, mingboshi kabi unvonlarni ham olganlar. XX asr boshlariga kelib inoqlar **bek** martabasiga tushib, oliy saroy amaldorlaridan ma'muriy mansab egalariga aylanadilar.

Otaliq – urug' oqsoqoli. Inoq boshliq to'pa (guruh) ga birlashgan urug' boshlig'i. Xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan.

Biy – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keyingi martaba. Biy qabila va urug'ning boshlig'i hisoblanib, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan o'zbeklarning urug' oqsoqollariga beriladigan unvon edi. XVII-XIX asrlarda biylar yirik o'zbek qabila va urug'lariga boshchilik qilib, faqat markaziy hokimiyatga itoat etganlar. Biy unvoni avloddan avlodga meros qilib qoldirilgan.

Amir ul-umaro – Amirlarning amiri, Xiva xonligida XIX asrning o'rtalarida ta'sis etilgan. Sayid Muhammadxon bu unvoni birinchi marta o'zining akasi Sayid Mahmud to'raga bergen edi. Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida amir ul-umaro uning akasi Fozilbiy edi. O'shandan keyin amir ul-umaro unvoni hech kimga berilmagan.

Qo'shbegi – Xiva xonligida saroyning oliy mansablaridan biri bo'lib, moliya va soliq yig'ish ishlarini bajargan. Qo'shbegining maxsus devoni hamda unga tobe etuvchi amaldorlari bo'lgan.

Mehtar – katta, ulug' degan ma'noni beradi. Mehtar saroy xizmatkorlarining boshlig'i vazifasini bajarib, xonga yaqin kishilardan va xon urug'iga mansub a'yonlardan tayinlangan. Mehtarning ham o'z devoni bo'lib, er solig'i "solg'u" toplash ham uning xizmatiga kirgan.

Beklarbegi – Qoraqalpoq va ko'chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Beklarbegining vazifasi ularning o'z urug'laridan yig'iladigan xarajatlarning to'g'riliqini tekshirib turish va ularni to'la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdan iborat bo'lgan. Bu lavozimga amaldorlar odatda xonning qarindosh-urug'laridan tayinlangan.

Bek - XIX asrda Xiva xonligining ijtimoiy-siyosiy hayotida beklar ancha katta rol o'ynaganlar. Bek – xon va davlat arboblarining qarindoshlariga, farzandlariga beriladigan faxriy unvondir.

Parvonachi – xon saroyidagi oliy vazirlardan biri. Parvonachi saroyning ichki va tashqi ishlarida ham faol qatnashishi mumkin bo'lgan. U arzu-

shikoyatlarni xonning huzuriga olib kirib, javobini qaytargan. SHuningdek, parvonachi xonning formonlarini saroy a'yonlariga etkazib turgan.

Eshikoqosi – saroy darvozalarini qo'riqlash ishlarini boshqargan. Oybolta uning mansab alomati bo'lgan. Hukmdor saroyda bo'lган vaqtida eshikoqosi uni qo'riqlash bilan shug'ullangan. Eshikoqosi arzgo'ylarning nima xususda kelganlarini surishtirib, ularni saroydagi tegishli amaldorlar tomoniga jo'natar edi. Faqat juda muhim xabarlar bilan kelgan kishilarga xon huzuriga kiritilgan.

Saroyda darvoza ortida turadigan qorovullar va maxsus darvoza qo'riqchilaridan tashqari xonni qo'riqlaydigan **tunqator** yoki **tunotarlar**, ya'ni, kechasi bilan xonni qo'riqlab chiqadigan xizmatchilar ham bo'lgan.

Mahram – ishonchli xizmatkor, sidqidildan xizmat qiluvchi saroy ichkarisidagi xodim ma'nolarini anglatadi. Mahramlar xonga yaqin kishilar hisoblangan. Davlat boshqaruvida ular bevosita xonning maslahatchilari bo'lishgan. Mahramlar xonning oromxonasiga kirish huquqiga ega bo'lganlar.

Xiva xoni saroyida yana quyidagi unvon, mansab va vazifalar mavjud bo'lgan: oftobachi, buxchabardor, soatbardor, kitobdor, mo'zabardor (xon poyabzalini beruvchi), sharbatdor, mahram boshi (yuqori lavozim hisoblangan), to'shakchi, karnaychi, surnaychi, jarchi, oshmehtar (xon va saroy oshxonasi boshlig'i), sorbon (tuyachilar), kamon xalfa (ovchi, qushchi), merganlar, sayis (ot boquvchi), ko'mirchi, kuchanchi (egar-jabduqchi), tamakisoz, loykash, kulol, xodimchi, ro'molchi, selobchi (jom ushlab turuvchi), poyaki (chilimchi), aravachi, noschi, qilichkor (qilich va shamshir yasovchi), oshpaz, tovoqchi, darakchi (otchopar), jirchi (ashulachi), yo'nuvchi (duradgor), devon (mirza), mushrif (ozuqa yig'uvchi), bojbon (zakotchi) va boshq. Ularning barchasi saroy xazinasidan maosh olganliklari haqida ma'lumotlar bor. Saroydagi umumiy tartibni **arbob** nazorat qilgan.

15-mavzu. Qo'qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma'muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.

Reja

- 1. Qo'qon xonligining tashkil topishi va siyosiy tarixi.**
- 2. Qo'qon xonligining xududi, ma'muriy tuzilishi va aholisi**
- 3. Qo'qon xonligida davlat tizimi. Mansablar va unvonlar.**

Tayanch so'z va iboralar. Farg'ona vodiysi, Qo'qon, ming urug'i, otaliq, beklarbegi, biy, devonbegi, parvonachi, dodxoh, oftobachi, sarkor, qushbegi

XVIII asrning boshlarida Farg'ona vodiysida shakllangan yangi davlat – Qo'qon xonligiga mahalliy aholi vakillari bo'lgan **ming urug'i** asos soldi. CHunonchi, XVII asrning oxiri – XVIII asr boshlarida ashtarxoniyarlarning siyosiy va ijtimoiy hayotida yuz bergen tushkunlik, Farg'ona vodiysi iqtisodiy mustaqilligining o'sishi hamda 1704 yilda CHodak xo'jalarining isyon ko'tarib,

Farg‘onaning bir qismini egallashi bunga shart-sharoit yaratib berdi. Ammo, Farg‘onaning shimoli va shimoli – g‘arbidagi Koson, Asht, CHodak hududlari xo‘jalar qo‘l ostida bo‘lsa – da, ular mustaqil davlatga asos sola olmadilar.

SHohruhbiyning o‘g‘li va vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733 yy.) taxtga o‘tirganidan so‘ng minglar tasarrufidagi erlar yana kengaya boshladi. Abdurahimbiy 1724 yilda Andijonni, 1725 yilda Xo‘jandni, 1726 yilda O‘ratepani bosib olib, xonlik hududlariga qo‘sib oldi. U qisqa muddat bo‘lsa-da Buxoroga qarashli Samarqand va Kattaqo‘rg‘onni egallab, SHahrисabzga ham tahdid solgan. Abdurahimbiy Qo‘qon (Xo‘qand) qishlog‘i o‘rni va atrofida yangi shaharga (dastlab Qal’ai Rahimbiy deb nomlangan, keyin esa Qo‘qon) asos soladi va bu shahar xonlikning poytaxtiga aylanadi.

1733-1750 yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Abdulkarimbiy ibn SHohruhbiy asosiy etiborini mudofaa ishlariga qaratdi. U xonlikning poytaxti Qo‘qonda Isfara, Qatag‘on, Marg‘ilon, Haydarbek nomli darvozalar qurdirib, shahar atrofini mustahkam devor bilan o‘ratib oldi. SHu bilan birga u 1741-1745 yillardagi qalmoqlar (jung‘orlar) ning Farg‘onaga qilgan hujumlariga zarba berdi. Abdulkarimbiy qalmoqlarga qarshi kurashda qirg‘iz-qipchoqlar va O‘ratepa hokimi Fozilbiy yuz yordamiga tayandi hamda xonlik mustaqilligini saqlab qoldi.

Abdulkarimbiy 1750 yilda vafot etganidan so‘ng xonlik taxtiga uning o‘g‘li Abdurahmon o‘tirdi. Ammo, u taxtga to‘qqiz oy o‘tirib, so‘ng Marg‘ilonga hokim etib jo‘natildi hamda taxtga Abdurahimbiyning ikkinchi o‘g‘li Erdonabiy o‘tirdi. 1753 yilda qalmoqlarning tazyiqi va talabi bilan ularning qo‘lida garov sifatida o‘shalab turilgan Bobobek xonlik taxtiga ko‘tarildi. Lekin, oradan bir yil ham o‘tmay O‘ratepa yurishi vaqtida Bobobek Beshariqda o‘ldirildi hamda Erdonabiy (1755-1769 yy.) qayta Qo‘qon taxtini egalladi. Xitoylik geograflarning ma‘lumotlariga ko‘ra, uning hukmronligi davrida, 1759-1760 yillarda Farg‘ona to‘rtta mulk: Andijon, Namangan, Marg‘ilon va Qo‘qonga bo‘lingan bo‘lib, ular ichida Qo‘qon etakchilik qilgan. Erdonabiydan so‘ng taxtga SHohruhbiyning uchinchi o‘g‘li SHodibekning farzandi Sulaymonbek o‘tiradi. Uning taxni egallahida urug‘ oqsoqollarining ko‘magi katta bo‘lgan bo‘lsada u atigi 6 oy hukmdorlik qildi.

1770 yilda Qo‘qon taxtiga Abdurahmonbiyning o‘g‘li Norbo‘tabiy (1770-1801 yy.) o‘tiradi. Norbutabiy Markaziy hikimiyatni mustahkamlashda, bo‘ysunmas hokimlar qarshilagini bostirishda nisbatan muvaffaqiyat qozonadi. U CHust va Namangandagi g‘alayonlarni bostirganidan so‘ng, bu shaharlarga o‘z odamlarini hokim etib tayinlaydi. Norbutabiy bir qancha urinishlardan so‘ng Andijon, O‘sh, Xo‘jand va yaqin atrofdagi qo‘sni hududlarni bosib oladi. U 1799 yilda Toshkentni ham bosib olishga harakat qildi, ammo, uning yuborgan qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi.

Norbutabiydan so‘ng uning o‘g‘li Olimxon (1801-1810 yy.) taxtga o‘tirib, Qo‘qon xonligining siyosiy qudratini mustahkamlash, mamlakat hududlarini kengaytirishga alohida e’tibor berdi. Natijada Qo‘qon xonligining siyosiy mavqeい oshib bordi. Olimxon davriga kelib Qo‘qon xonligidagi davlat boshqaruvi oldingi davlatlar boshqaruv tizimidan deyarli farq qilmas edi. Uning davrida Qo‘qon davlati kuchayib borishi bilan davlatning siyosiy maqomi ham o‘zgaradi. Agar

Qo‘qonning dastlabki hukmdorlari “biy” va “bek” unvoni bilan mamlakatni idora qilgan bo‘lsalar, Olimxon davridan boshlab (1805 yil) hukmdorlar rasman “xon” deb yuritila boshlandi.

O‘z davrida Olimxon harbiy yurishlar qilib o‘ziga yangi viloyatlarni , jumladan Ohangaron vohasi, Toshkent, CHimkent, Turkistonni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. Qisqa muddat O‘ratepani ham egalladi, Jizzax va Zominga yurishlar qildi. Harbiy islohatlar o‘tkazib, markazlashgan va kuchli davlat tuzish uchun harakat qilayotgan Olimxonning siyosatidan norozi bo‘lgan ayrim zodagonlar guruhi unga qarshi fitna tayyorlay boshladilar. Olimxon o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida ukasi Rustambekni, bir nechta sarkardalarni, din peshvolarini o‘ldirtirib yuboradi. Manbalarning ma’lumot berishicha, bu voqealardan so‘ng kuchayib ketgan fitnachilarga Olimxonning ukasi Umarbek boshchilik qilgan. Natijada, 1810 yilda Olimxon Toshkentdan Qo‘qonga qaytayotganda, Oltiqush mavzesida o‘g‘li SHohruhbek bilan birga Qambar Mirza tomonidan otib o‘ldiriladi.

Manbalarga ko‘ra, Umarxon (1810-1822 yy.) hukmdorligi davrida yirik er egalari, harbiy sarkardalar va ruhoniylarning mavqeい yanada oshadi. U davlat boshqaruvi ishlarida izchil tartib, qonun – qoidalar o‘rnatdi va diniy ishlarni tartibga soldi. Natijada, 1818 yilda Umarxon ruhoniylarning roziligi bilan “amir al-muslimin” unvonini olib ham diniy, ham dunyoviy hokimiyatga ega bo‘ladi.

Muhammad Hakimxon ma’lumotlariga ko‘ra, Umarxon davrida Amir Temur va Sulton Husayn Boyqaro zamонига taqlidan unvon va lavozimlar joriy etilib, ularga hokimiyatga yaqin shaxslar tayinlanadi. SHuningdek, Olimxon zulmidan qochib ketgan ayrim amaldorlar Umarxon xizmatiga qaytib kelib, lavozimlarni egallaydilar.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Qo‘qon xonligining O‘rta Osiyo mintaqasidagi siyosiy jarayonlar va o‘zaro munosabatlarga faol aralashuvi ham Umarxon davridan boshlanadi. O‘z darvida Umarxonning elchilari Xiva, Xitoy va Turkiya davlatlariga jo‘natilganligi ma’lum.

1822 yilda Umarxon kasallanib vafot etganidan so‘ng taxtga uning o‘g‘li Muhammadalixon (Madalixon) (1822-1842 yy.) o‘tiradi. Uning hukmronligi davrida Qo‘qon honligining hududi yanada kengayib, qirg‘izlarning ba’zi tumanlari xonlikka qo‘sib olinadi hamda Ko‘lob, Hisor, Badaxshon, Darvoz, Maschoh kabi viloyatlar Muhammadalixon hukmronligini tan oladilar.

Manbalarga ko‘ra, Muhammadalixon hukmronligining dastlabki yillari yaxshi va odilona kechgan. U 1826-1831 yillar davomida Qashg‘arga yurishlar qilib, bu erdagи musulmonlarni xitoyliklar zulmidan ozod qildi hamda 70 ming uyg‘ur musulmonlarini Andijon viloyatiga ko‘chirib keltirdi. Natijada din peshvorlari Muhammadalixonga “G‘oziy” (“din homiysi”, “din yo‘lida kurashuvchi”) unvonini berdilar.

1840 yilda Muhammadalixonning bosh maslahatchisi, davlatni boshqaruв ishlarida katta tajribaga ega bo‘lgan Haqquli mingboshining tuhmatga uchrab xon tomonidan qatl etilishi shusiz ham qaltis bo‘lib turgan vaziyatni yanada keskinlashtirib yubordi. Undan tashqari xon davlat ishlariga loqayd bo‘lib, asosiy vaqtini haramida o‘tkaza boshladi. Natijada davlatni boshqaruв ishlarida

suiste'molliklardan umumiy noroziliklar boshlanib, xonni ag'darish uchun fitna tayyorlana boshladi.

Lekin o'z kuchlari bilan fitnani amalga oshirishga ko'zi etmagan bir guruh Qo'qon amaldorlari boshqa xon saylash maqsadida Buxoro amiri Nasrulloha noma yozib, undan yordam so'rashdi. Qo'qon yurishi uchun bahona topolmay turgan Amir Nasrullo bu taklifni tezda qabul qilib, 1842 yil aprelda Qo'qonni bosib oldi. Qo'qondan oilasi bilan Namangan tomonga qochgan Muhammadalixon tutib keltirilib, oilasining bir qismi bilan qatl ettirildi.

Amir Nasrullo Qo'qon xonligining Buxoroga qo'shib olinganligini e'lon qilib, Qo'qonda o'z noibi Ibrohim dodhoh Mang'itni qoldiradi. Ammo, Ibroxim dodhohning Qo'qon halqiga o'tkazgan jabr-zulmi, soliqlarning haddan tashqari oshib ketishi natijasida aholi qo'zg'olon ko'tarib, Buxoro hukmronligidan ozod qilish uchun qipchoqlarni yordamga taklif etadilar. Qipchoqlar Muhammadalixonning qarindoshi SHerali boshchiligidagi Qo'qonga kelib, buxoroliklarni tor-mor etdilar hamda SHeralixon (1842-1845 yy.) taxtni egalladi. Qipchoqlar esa shu vaqtdan boshlab uzoq vaqt xonlikda etakchi mavqega ega bo'ldilar.

Qo'qonda bo'lган voqealardan xabar topgan amir Nasrullo 1842 yilning kuzida yana Qo'qonga yurish qildi, ammo bu safar unga omad kulib boqmadi. Muhammadalixon davrida yuzboshi bo'lган Musulmonqli qipchoq Nasrulloning ishonchiga kirib Qo'qonga keladi va qo'qonliklarni taslim bo'lishga ko'ndirish o'rniga bir tan - bir jon bo'lib amir Nasrulloha qarshi kurashga chorlaydi. Uning maslahatiga ko'ra Qo'qonda himoya vositalari kuchaytirildi. Bir oydan ziyodroq Qo'qonni qamal qilgan amir Nasrullo o'ziga qarshi suiqasd uyuştirilayotligi hamda xivaliklar chegaraga joylashgan Buxoro qishloqlariga hujum qilayotganligi haqidagi xabarni olib Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi.

Buxoroliklarning ketishi bilan Qo'qon xonligida bir muddat tinchlik va osoyishtalik hukm surdi. SHeralixon keksa odam bo'lib oqko'ngil va muloyim inson edi. Uning davrida barcha davlat lavozimlarini qipchoqlar egallab, davlat boshqaruvini o'z qo'llariga oldilar. Ammo, 1845 yilda Buxoroda bo'lган Olimxonning o'g'li Murodxon (Qo'qonda 11 kun xon bo'lган) amir Nasrulloning yordami bilan Qo'qonga kelib SHeralixonni qatl etadi va taxtni egallaydi. Bu paytda Namanganda bo'lган mingboshi Musulmonqli bu voqeadan xabardor bo'lgach SHeralixonning besh o'g'lidan biri Xudoyorxonni olib Qo'qonga keladi hamda uni xonlik taxtiga o'tqazadi (1845-1853, 1863, 1865-1875 yy.). 16 yoshga kirgan Xudoyorxonning yoshligidan foydalangan Musulmonqli mamlakatni deyarli o'zi boshqardi. Xudoyorxonning birinchi xonligi davrida ikkita kuch - o'troq aholi va ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasida hokimiyat uchun kurash xonlikning asosiy muammosiga aylandi.

Umuman olgan, XIX asrning o'rtalariga kelib Qo'qon xonligidagi siyosiy jarayonlar hamda ichki ahvol yanada og'irlashgan edi. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, buning sababi **birinchidan**, o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lган qipchoqlar hokimiyatni tan olmaganlar. Xonlik hududlaridagi ba'zi viloyat hukmdorlari Musulmonqo'lga qarshi chiqdilar. **Ikkinchidan**, hokimiyatda yuqori mavqeni egallash hamda xonga ta'sir o'tkazish uchun qipchoqlar orasida ham

o‘zaro kurashlar borardi. Bu kurashlarda qipchoqlarning qulon urug‘idan bo‘lgan Musulmonquli ham faol ishtirok etgan. **Uchinchi** sabab esa, qipchoqlarning o‘troq aholiga nisbatan yuritgan siyosati edi. Qipchoqlar o‘troq aholiga nisbatan bepisandlik nazari bilan qarab, boshqa elat va etnik guruhlarni kamsitganlar. **To‘rtinchidan** esa, tashqi omil – Rossiya imperiyasining asta-sekinlik bilan xonlik hududlariga bostirib kirishi siyosiy jarayonlarning yanada keskinlashuviga sabab bo‘lgan edi.

1852 yilga kelib, Musulmonquli va qipchoqlarga qarshi kurash uchun o‘troq mulkdorlar va toshkentlik zodagonlar Xudoyorxon atrofida birlashdilar. Bu kuchlar yordamida Xudoyorxon Musulmonqulini 1853 yilda qatl etib, uning tarafdarlarini yo‘q qilgani bilan taxt uchun kurashlarga barham bera olmadi. Bunday vaziyatda xonlikning ichki ahvoli og‘irlashib, u faol tashqi siyosatdan ham ancha orqada qoldi. 1858 yilda SHeralixonning ikkinchi xotinidan bo‘lgan o‘g‘li Mallaxon Xudoyorxonni taxtdan ag‘darib, o‘zini xon deb e’lon qildi. Mallaxon va Aliquli qirg‘iz boshchiligidagi yangidan tiklangan ko‘chmanchilar guruhi uzoq hukm surmadi. Aynan shu guruh a’zolari Mallaxonga qarshi til biriktirib, 1863 yil 25 fevralda uni o‘ldirdilar. Taxtga esa Xudoyorxonning akasi Sarimsoqbekning o‘g‘li SHohmurod o‘tzazildi. Lekin, qo‘shin boshliqlari va saroydagisi ko‘pchilik amaldorlar unga qarshi fitna uyuştirib, Xudoyorxoniga yana taxtga o‘tirishni taklif etib, odam yuboradilar.

Bu payda Mallaxon o‘limini eshitgan Xudoyorxon Amir Muzaffarning ruxsati bilan Buxorodan Jizzaxga kelgan edi. Turkiston hokimi Qanoatshoh yordamida qo‘shin yig‘ib, 1863 yilning mart oyida Jizzaxdan Toshkentga kelgan Xudoyorxon Qo‘qonga qarshi yurish uchun Toshkent qo‘shini bilan Xo‘jandga keladi. Bu orada amir Muzaffar ham Buxoro lashkari bilan Xo‘jandga keladi. Xudoyorxon Qo‘qonga hujum qilishni rejalashtirayotga paytda, ya’ni, 1863 yilning 5 mayida shahar aholisi unga shimoliy darvozalarni ochib berdilar. Natijada Qo‘qonda qirg‘in boshlanib, SHohmurodxon o‘z tarafdarlari bilan Marg‘ilonga qochdi. Xudoyorxon ikkinchi marta (1863 y.) taxtni qo‘lga kiritdi.

Ammo, xonlikdagi qirg‘iz-qipchoqlar Koson va CHust atroflarida qo‘zg‘olon ko‘tardilar va To‘raqo‘rg‘onga hujum qildilar. Ular, hatto Toshkent atroflaridagi qabila boshliqlariga noma yuborib madad berishni so‘radilar. Oqibatda Toshkent atrofida qozoqlar qo‘zg‘olon ko‘tarib, Toshkentni qamal qildilar. Xudoyorxon tomonidan yuborilgan qo‘shinlar bu isyonlarni bostirishga muvaffaq bo‘ldilar. Ammo, mag‘lubiyatga uchragan qirg‘iz-qipchoq boshliqlari taxt uchun kurashni davom ettirdilar. Xususan, SHodmonxo‘ja, Said Mahmudxon tomonidan kelib Andijonni bosib oldilar va uning atroflaridagi Baliqchi, Quva, Asaka, SHahrixon, O‘sh, Poytug‘ mavzelerini talon-taroj qildilar. 1863 yil 26 aprelda Sulton Saidxonning qo‘shini Mingtutga kelib, Qo‘qoni qamal qildi. Amir Muzaffarning Xudoyorxoniga yordami tufayli qirg‘iz-qipchoq lashkari Asaka tomonga ketib, Qo‘rag‘ulcha darasida himoyaga o‘tdi. Qattiq kurashlardan so‘ng 1863 yilning 24 iyulida Sulton Saidxon Qo‘qon taxtini (1863-1865 yy.) egalladi. Xudoyorxon esa yana Buxoroga qochdi.

Xonlikdagi ichki nizolar tashqi dushmanlarga nihoyatda qo‘l kelgan edi. Bunday vaziyatdan unumli foydalangan chor Rossiyasi qo‘shinlari 1864 yilda

Turkiston va CHimkentni bosib oldi. 1865 yil bahorida ular Toshkentga yaqinlashib, Niyozbek qal'asini egalladilar. Uzoq qamaldan so'ng 17 iyunda Toshkent egallandi.

Qo'qondagi sarosimaliklardan foydalangan Xudoyorxon 1865 yilning yozida amir qo'shinlari yordamida so'ngi marta Qo'qon taxtini qo'lga kiritdi. SHundan so'ng u amirning talablariga boshqa itoat etmay qo'ydi. Xudoyorxon 1867 yil yanvar oyida Rossiya bilan savdo bitimini, 1868 yil 13 fevralda Qo'qon va Rossiya shartnomasini imzoladi. Xudoyorxon 1868-1873 yillar oralig'ida Rossiya bilan munosabatlarini yaxshilash maqsadida Toshkentga ko'plab sovg'a- salomlar yubordi. SHuningdek, Rossiya savdogarlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berdi. Natijada Qo'qon xonligi amalda Rossiyaning vassaliga aylanib qoldi.

Xonlik hududida hukm surgan nisbiy osoyishtalik 1873 yilgacha davom etgan bo'lsa ham, hukmdor, uning yaqinlari va mahalliy hokimlarning jabr-zulmi hamda qirg'iz-qipqoqlarning qayta bosh ko'tarishi natijasida bu erlarda o'zaro nizolar, xalq chiqishlari boshlandi. Hususan, 1873 yilda Po'latxon (asli ismi Mulla Ishoq Hasan o'g'li) qirg'izlar tomonidan xon qilib ko'tarilib, u boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarildi. Saroydagagi nufuzli amaldorlardan biri Abdurahmon oftobachi Xudoyorxonni taxtdan ag'darish va uning o'g'li Sayid Nasriddinbekni xon taxtiga o'tqazish maqsadida Po'latxon bilan til biriktirdi va O'rdada isyon ko'tardi. Sayid Nasriddinbek Abdurahmon oftobachi ko'magida xon deb (1875-1876yy.) e'lon qilindi. Xudoyorxon Nasriddinbek foydasiga taxtdan voz kechib, avval, Xo'jandga, undan Toshkentga ochdi.

Ma'muriy–hududiy tuzilishi va aholisi. XVIII asr oxirlarida xonlikning hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lib, bu davrda Norbo'tabiy vodiydag'i barcha beklik va viloyatlarni o'z itoatiga kirgizib, ularni Qo'qonga bo'ysundirdi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydag'i eng katta mulklar edi. Olimxon davrida xonlik hududlari Toshkent va uning atrofidagi erlar hisobidan ancha kengaydi. Tarixiy manbalarda Toshkent mulki - viloyat, shahar, Toshkent va Dashti Qipchoq viloyati nomlari bilan tilga olinadi. Uning hududlariga Ohangaron, CHinoz, Toshkent atrofi, Sirdaryo bo'ylaridagi Turkiston shahri va uning atroflari kirgan. Bu mulkning hokimlari manba va hujjatlarda hokim, hukmdor, voliy, noib atamalari bilan tilga olinadi. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratega va Jizzax atrofidagi erlarga ham ketma-ket yurishlar qilinib, 1817 yilda O'ratega bosib olinadi.

Muhammadalixon davrida xonlikning hududlari yanada kengayadi. Bu davrda xonlik shimolda Rossiyaga qarashli Tashqi Sibir okrugi bilan, g'arbda Xiva va Buxoro amirligi bilan, janubda Qorategin, Darvoz va undan uzoqroqdagi erlar – SHug'non, Ro'shon va Vaxon (bu hudud Qo'qonga nomigagiga qaram bo'lган) Ko'lob bilan, sharqda Qashg'ar bilan chegaralangan. Xonlik erlariga Sirdaryo bilan Qorategin O'rtasida joylashgan Farg'ona hududlari, Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Namangan, Xo'jand va boshqa shaharlar, Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida joylashgan Qurama viloyati, Turkiston, Sirdaryoning quyi oqimidagi to Balxash ko'ligacha bo'lган qirg'izlar yashaydigan erlar, ko'chmanchi qirg'izlar yashaydigan Billur tog'ining sharqiy etaklari, 1830 yildan boshlab g'arbiy etaklari ham kirgan.

XIX asr manbalarida Qo‘qon xonligi **beklik**, ba’zan **viloyat va sarkorlik** sifatida tilga olingan ma’muriy – hududiy qismlarga bo‘lingan hamda ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbalar (A. Kun) Qo‘qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiradi. Bular: Qo‘qon va uning atrofi, Marg‘ilon, SHahrixon, Andijon, Namangan, So‘x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, CHortoq, Navkat, Koson, CHust va Bobo darhon. “Turkestanskie vedomosti” (1876, №13) to‘plamida esa Asaka, Marg‘ilon, Baliqchi O‘sh, So‘x, Koson va O‘zgan sarkorlik sifatida ham tilga olinadi.

Hokimlar va hududiy bo‘linma boshliqlari xon oilasi a’zolari, unga yaqin guruuhlar, yuqori tabaqa vakillari hamda etakchi qabilalar sardorlari orasidan tayinlangan. Misol uchun, Xudoyorxon davrida ettita beklik xonning o‘g‘illari va yaqin qarishdoshlari tomonidan boshqarilgan. O‘z navbatida hokimlar viloyat hududlarini o‘zlarining farzandlari va qarindoshlariga bo‘lib bergenlar. Qo‘qon xonligining ma’muriy-hududiy boshqaruv tizimida **bek (hokim, voliy)** va uning o‘rdasi alohida o‘rin egallagan. Xon tomonidan tayinlangan **hokim** va **qozi** ko‘plab vakolatlarga ega bo‘lgan.

Bek o‘rdasida ham xon saroyidagidek yuzlab amal va unvonlar joriy etilgan bo‘lib, ular mahalliy aholidan yig‘iladigan soliq hamda to‘lovlar hisobidan kun kechirishgan. Beklar xonning itoatkor vassallari bo‘lib, mamlakatni idora etishida uni qo‘llab-quvvatlashlari, zarur bo‘lganda unga yordam berishlari, uning hurmatizzatini joyiga qo‘yishlari, kerakli vaqtida o‘z qo‘shinlari bilan harbiy yurishlarda ishtiroq etishlari va sovg‘a-salomlar yuborib turishlari lozim bo‘lgan.

Qo‘qon honligida Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan, Marg‘ilon, CHimkent, Jizzax, O‘sh, Xo‘jand, O‘ratepa kabi aholisining soni jihatidan katta, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘nlab shaharlar mavjud bo‘lgan. Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri bo‘lib, u mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazi edi.

XIX asrda xonlikning chegara hududlarini bir necha qal’a va istehkomlar muhofaza qilgan. Ular jumlasiga Oqmasjid, Avliyoota, Pishpak, To‘qmoq, Qurtka, Niyozbek, Mahram kabilarni kiritish mumkin. CHu vodiysi bo‘ylab bunyod etilgan istehkomlar esa nafaqat chegara muhofazasi uchun, balki ularning atrofidagi shahar va qishloqlarni itoatda ushlab turish uchun ham hizmat qilgan. Ushbu shahar va qal’alarda harbiy qism hamda ularga boshliq bo‘lgan botirboshilar bo‘lgan. Mudofaa maqsadlari uchun qurol va aslahalar saqlangan.

Xonlik tarkibiga kiruvchi hududlar aholisining joylashuvi va turmush tarzi bir – biridan farq qilgan. Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysining sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan qismi aholi joylashuvi jihatidan zich bo‘lib, ular o‘troq hayot kechirganlar. Sahro, tog‘ va tog‘ oldi tekisliklaridan iborat hududlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi aholi yashagan.

Xonlikdagi aholi soni haqida manbalar turli ma’lumotlar beradilar. Bu ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asrning boshlarida xonlikda (Toshkent va Turkistonni ham qo‘sib hisoblaganda) aholi soni 1 million, XIX asrning o‘rtalarida 1,5-2 million, XIX asrning ikkinchi yarmida 3 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, Rossiya imperiyasi tomonidan ko‘plab hududlarning bosib olinishi hamda ularning

bosqinchilar ma'muriyati tarkibiga kirishi natijasida xonlik tasarrufidagi Farg'ona vodiysida 2 millionga yaqin aholi qolgani taxmin qilinadi.

Aholi tarkibida o'troq aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholiga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. XIX asr boshlarida aholining 40 foizdan ortig'i ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lsa, shu asrning oxiriga kelib ular 15 foizni tashkil etgan. Xo'jalik mashg'ulotlariga ko'ra, o'troq aholining asosiy qismi dehqonchilik, hunarmandchilik, kosiblik hamda savdo-sotiq bilan band bo'lsa, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi chorvachilik bilan shug'ullangan.

Davlat boshqaruvi. Mansablar va unvonlar. O'zbeklarning ming qabilasi (urug'i) boshliqlaridan biri SHohruhbiy asos solgan Qo'qon xonligidagi davlat boshqaruv tizimi o'rta asrlarda Movarounnahrda hukm surgan musulmon davlatlari boshqaruv tizimidan farq qilmas edi. Xonlikda Buxoro amirligida bo'lgani kabi Amir Temur davrida shakllangan hamda SHayboniyalar davrida qisman islohot qilgan davlat boshqaruvi va tizimi mavjud bo'lgan. Xonlikda eng oliy va markaziy unvon **xon** unvoni bo'lib, uning hukumati cheklanmagan. Farmon berish va uning bajarilishini nazorat etish salohiyatlari xonning qo'lida bo'lgan.

Xonlikning ming qabilasidan bo'lgan hokimlar turli yillarda SHahrisabz, Urgut, Mog'yon, Urmitan viloyatlari va bekliklarida ham hukm surganlar. Olimxon davrigacha (1798y.) ming urug'i boshliqlari XIX asrning boshlarida **biy** unvoni bilan hokimiyatni boshqarganlar. Olimxon 1805 yilda o'zini rasman xon deb e'lon qildi. Xon unvoni bilan hokimiyatni boshqargan Umarxon (1810-1822yy.) 1818 yilda o'zini "**amir ul-muslimin**" deb e'lon qildi. 1822 yilda Muhammad Alixon ham hon unvoni bilan taxga o'tirgan.

Xon avlodlari **xonzoda, amirzoda, mirzoda, shahzoda, to'ra** deb atalganlar. Xonlikdagi davlat nizomi mutlaq yakka hokimlik bo'lib, xonning o'zi cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lsa-da, ma'lum tarixiy davrlarda uning salohiyati va hokimiyati cheklanib, saroy amaldorlari hamda qo'shin boshliqlarining xonga ta'siri kuchli bo'lgan. Bunga Musulmonqulining mingboshi va otaliq bo'lgan davrini (Xudoyorxon davrida, 1844-1852yy.) yoki Aliqulining amirlashkarlik va vazirlik davrini (Sulton Sayidxon, 1863-1865 yy.) misol qilib keltirish mumkin. Bu holat xonning siyosiy kuch qudrati ma'lum iqtisodiy asoslarga hamda ma'lum ijtimoiy guruhlар faoliyatiga bog'liq bo'lgan deyishga asos bo'ladi.

Mamlakatda xon eng katta va yirik mulkdor bo'lib, xonlik hududidagi barcha boyliklarga, er, suv, qo'riq erlar, ko'lu anhorlarga egalik qilgan. Ulardan keladigan zakot, xiroj, tanobona va boshqa soliqlar shaklidagi daromadlar xon xazinasini muntazam ravishda to'ldirib turgan. Xon va uning qarindoshlari, saroy ahli va ma'muriyat, qo'shinlar va qo'shin boshliqlari asosan soliqlar hisobidan rag'batlantirilgan.

Manbalar ma'lumotlariga ko'ra, xon saroyida **mingboshi** boshchilik qiladigan **Kengash** tuzilgan bo'lib, bu kengash saroydagi davlat ahamiyatiga molik muhim ishlarni ko'rib chiqqan. Dasturxonchi, risolachi va boshqa muhim amaldorlar a'zo bo'lgan ushbu kengash davlat boshqaruvida muhim ahamiyatga ega edi.

Qo'qon xonligida asosan Olimxon, Umarxon va Muhammad Alixonlar davrida (1798-1842 yy.) davlat boshqaruvi va davlatchilik ichki va tashqi siyosat ancha

barqaror hamda nisbatan tinch rivojlangan. Ammo XIX asrning o‘rtalariga kelib Qo‘qon xonligi inqirozga uchray boshlaydi. Tadqiqotchilar ushbu inqirozning asosiy sabablari sifatida o‘troq xalq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasidagi qaramaqarshiliklarni, o‘zaro nizo va urushlarni, xon taxti uchun olib borilgan kurashlarni, Buxoro amiri bilan bo‘lgan nizolar va dushmanliklar, saroy amaldorlarining xoinliklari kabilarni ko‘rsatadilar. Bularning natijasida iqtisodiy hayotda taraqqiyot pasayib, ijtimoiy tarqoqlik kuchayib bordi va davlat inqirozga yuz tutdi.

Qo‘qon xonligida unvonlar va mansablar ular ijrochilarining vazifalari hamda martabalariga qarab **harbiy, harbiy-ma’muriy, saroy unvon va mansablari hamda ma’muriy vazifalari, diniy mansab va unvonlar hamda diniy qozixona** amallariga bo‘linar edi. Xon saroyida quyidagi harbiy mansab va unvonlar joriy etilgan:

- **Amir ul-umaro** – amirlar amiri. Xon tomonidan keng vakolatlar berilgan (davlatdagi muhim ishlar, amaldorlarni amalga qo‘yish va olish, davlatdagi ichki tartibni saqlash, saroydagi tartib – intizom kabilar) shaxs bo‘lib, xondan keyingi eng yuqori mansab hisoblangan;
- **Amirlashkar** – amir ul-umarodan keyingi mansab. Qo‘qon xonligida mingboshi harbiy unvonining vazifalari, darajasi amirlashkarlikka teng bo‘lgan;
- **Mingboshi** – ma’mur sifatida ming nafar otliq askar beradigan mulkning hokimi. Bu unvondagi shaxs harbiy yurishlar vaqtida qo‘sinni boshqarib, lashkarboshi unvonini olgan. Bu unvonning egasi vazirlikka ham da’vogar bo‘lgan. Bu unvon SHeralixon davrida (1842-1844 yy.) yuqori darajadagi vazifaga aylanib ketgan;
- **Botirboshi** – botir bahodirlar boshlig‘i. Besh yuz kishidan ko‘p lashkarga boshchilik qilgan. Viloyatlarda botirboshi harbiy va qo‘sish ishlariga mas’ul edi. Botirboshi ba’zan qurilish hamda sug‘orish ishlariga ham boshchilik qilgan. (Ulug‘ nahr arig‘i, Otabek botirboshi).
- **Qo‘shebegi** – harbiy qo‘sinning boshlig‘i. Bu mansab yurish va jang vaqtlarida berilib, uning egasi mingboshi unvonini olishga da’vogarlik qilgan hamda alohida viloyatga ham hokim bo‘lishi mumkin edi.
- **Voli yoki voliy (noib, muovin)** – tobe etilgan viloyat va tumanlarda xonning o‘rinbosari. Viloyatlarda lashkar unga itoat etgan hamda u viloyatning harbiy ma’muriy ishlariga boshchilik qilgan.
- **Qal’abon yoki kutvol** – Qo‘qon xonligining chegeralarida joylashgan qal’a va istehkomlarining hokimi bo‘lib, shu hududlarning harbiy-ma’muriy, xiroj va boj olish ishlariga javobgar bo‘lgan. Harbiy maqsadga ko‘ra, qal’abon vazifasiga dodxohdan qushbegigacha bo‘lgan shaxslar tayinlangan.
- **Qo‘rboshi** – qo‘rxona ya’ni aslahaxona boshlig‘i. Bu mansab egasi xon va mingboshiga itoat etgan. Qo‘rboshi qo‘rxona, miltiqxona, to‘pxonalarga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib to tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayoniga javobgar bo‘lgan.

- **YOfar** – soqchilar boshlig‘i. Bu mansab egasining guruhi yuz nafar askardan iborat bo‘lgan. YOfar o‘z guruhining hisob-kitobi, yillik xarajatini askarlari uchun xazinadan olib bergan. Manbalarda yofarlar g‘allagir (g‘alla oluvchi), javgir (bug‘doy oluvchi) va sarpo oluvchi sifatida ham qayd etilgan.
- **To‘pchiboshi** – to‘pchilar, zambarakchilar guruhi boshlig‘i.
- **To‘qsabo** – o‘zlarining tug‘iga ega bo‘lgan harbiy guruhning boshlig‘i.
- **Ponsadboshi** – besh yuz nafar askardan iborat guruh rahbari.
- **YUzboshi** – yuz kishilik harbiy dasta boshlig‘i.
- **Panjohboshi** – ellikboshi, ellik nafarli harbiy guruh boshlig‘i.
- **Dahboshi** – o‘n kishilik harbiy guruh boshlig‘i.
- **Qorovulbegi** – soqchilar va qorovullar boshlig‘i.

Harbiylar qatoriga askar, sarboz, nukar, sipohi, mergan, mahram, botur, to‘pchi, zanbarchi, qo‘rchi, qorovul kabilar ham kirib, qo‘sishin safida, nog‘orachi, surnaychi, to‘g‘chi (bayroqdar) kabilar ham xizmat qilganlar. Bu harbiy unvonlar orasida mingboshidan ponsadboshigacha bo‘lganlari oliy unvonlar, qo‘rboshidan qorovulboshigacha bo‘lganlar o‘rtalagi unvonli mansablar, qolganlari esa past unvonlar hisoblangan. Elikboshidan mingboshigacha bo‘lgan harbiy lavozimdagiligi amaldorlar o‘z xizmatlariga mulozimlar olganlar. Ponsadboshidan yuqori mansabdagi harbiylarga yana mirzolar va munshiylar ham hizmat qilgan. Manbalarda harbiylarga saroydan yiliga turli hajmdagi maosh berilganligi qayd etilgan.

Qo‘qon xoligidagi saroy unvon va mansablari quyidagilar edi:

- **Otaliq** – xon yoki xonzodaning murabbiysi, ularning homiyllari. Ular tarbiyalagan xonzoda taxtga o‘tirganidan so‘ng, otaliqlar ham yuqori mansab va unvonlarni egallaganlar.
- **Beklarbegi** – beklarning begi. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba’zi viloyatlarning hokimiga berilgan.
- **Biy** – turkiy qabilalarning boshliqlari.
- **Devonbegi** – xon devonining boshlig‘i, Qo‘qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi mansabi bo‘lgan.
- **Xazinachi** – davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Xazinachilar viloyat markazlarida ham faoliyat yuritgan.
- **Inoq** – xonning xos va sirdosh mulozimi.
- **Eshikog‘asi yoki chehraog‘asi** – eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlari va soqchi-mulozimlarining boshlig‘i. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo‘ymaslikka javobgar shaxs.
- **Parvonachi** – bu unvon egasi xon nomiga kelgan xat va arizalarni saroya olib kirib, javobini olib chiqqan. Bu unvon boshqa unvon sohiblariga ham berilgan.
- **Dodxoh** – xon oldiga fuqarolarning xohish-istak hamda maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab, saroy unvoni.
- **Dasturxonchi** – xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar saroy mansabi.

- **Saroy qorovulbegisi** – xon o‘rdasining soqchilariga boshliq bo‘lgan saroy amaldori.
- **Tunqator** – tun bo‘yi uyg‘oq bo‘ladigan soqchi. Xonning dam olishi va yurishlari vaqtida qo‘riqchilik qilib, xonning yaqin kishilaridan tayinlanadigan amaldor.
- **Oftobachi** – xonning xos mulozimlaridan bo‘lib, uning yuvinishi va tahirati vaqtida xizmat qiladigan amaldor.
- **SHarbatdor** – eng oliy va faxriy unionlardan bo‘lib, xonning xos majlislari va safarlarida hizmatda bo‘lgan.
- **Hidoyatchi** – xon saroyiga yuborilgan tortiq va sovg‘alarni qabul qilib olib, xon nazaridan o‘tkazuvchi amaldor.
- **SHig‘ovul** – saroyga tashrif buyurgan elchilar va choprarlarni xon huzuriga boshlab kiruvchi amaldor. Manbalarga ko‘ra, bu mansabdagi amaldorning vazifalari keng bo‘lgan.
- **Sarkor** – saroydagi xon amaldorlarining boshlig‘i. Bu mansabdagi shaxs xonga tegishli shifoxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga ham boshchilik qilgan.
- **Qushbegi (mirishkor)** – ov paytida xonga hamrohlik qiladigan mansab egasi. Qushbegining ovchi itlari, lochin va burgutlari bo‘lib, ov paytidagi xonning dam olish jarayonlariga ham bu shaxs javobgar bo‘lgan.
- **Salomog‘asi** – xon nomidan xalqqa salom beruvchi.
- **Kitobdor** – saroy kitobxonasi uchun javob beradigan amaldor.
- **Risolachi** – elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berish uchun mas’ul bo‘lgan saroy amaldori.
- **Jam’og‘a** – xonning suhbati, qabuli hamda bazmlariga ishtirok etuvchilarga xabar berib, chaqirib keladigan saroy amaldori.
- **Jarchi** – xalq yig‘iladigan ommaviy joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib (baland ovoz bilan) e’lon qiladigan shaxs.
- **CHopquchi** – pichoq yasovchi, xon saroyidagilar uchun qurollar (pichoq, xanjar qilich) yasab, qo‘rchi vazifasini ham bajargan.
- **SHotir** – xon rikobi oldida yuradigan hizmatchi, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta’zimga chorlab turgan.
- **Udaychi** - xon rikobi oldida yurib, uning sha’niga baland ovoz bilan maqtovli so‘zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi hizmatchi.

YUqoridagi amal va mansab egalari o‘z hizmatlari evaziga yillik maosh (pul, ot, qo‘y, g‘alla ko‘rinishida) olganlar. Bundan tashqari, ularga tegishli er-mulklar ham berilgan.

Butun o‘rta asrlar musulmon davlatlarida bo‘lgani kabi Qo‘qon xonligidagi musulmon ruhoniylari ham alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan ijtimoiy tabaqa hisoblangan. Xonlikdagi davlat boshqaruvida, ta’lim – tarbiyada, sud ishlarida hamda jamiyat hayotining turli sohalarida ularning fikri katta ahamiyat kasb etgan. Qo‘qon xonligida qo‘yidagi diniy va qozixona mansab, unvon hamda amallari mavjud bo‘lgan:

- **SHayx ul-islom** – dindorlarning eng oliy unvoni bo‘lib, 1818 yilda Umarxon tomonidan joriy etilgan.

- **Xoja kalon** – fikh olimi (huquqshunos) ning faxriy unvoni.
- **Xalifa** – o‘rribosar. Qo‘qondagi naqshbandiya, qalandariya, yassaviya taraqqiyotlarining rahbarlari.
- **A’lam** – faqih, olim hamda shariat qonun – qoidalarning bilimdoni.
- **Oxund** – bilimli va madrasada o‘qiydigan kishi.
- **Sudur** – vaqf mulklerining daromadlari hamda hisob – kitobiga javobgar mansabdar.
- **O‘roq** – vaqf erlarining xiroj va soliqlariga mas’ul shaxs, O‘roq shaklidagi nishonni sallasiga taqib yurgan.
- **Mudarris** – madrasada ta’lim beruvchi ustoz.
- **Imom va imom xatib** – masjid imomi hamda juma nomozlarida xutba o‘qib xizmat qiladigan imom.
- **Muazzin** – musulmonlarni namozga chaqiruvchi, azon aytuvchi.
- **Qozi ul – qo‘zzot** – qozilar qozisi (adliya vaziri).
- **Qozi kalon** – xonlik poytaxti hamda viloyatlar markazlaridagi qozilar va qozixonalar ustida nazorat qiluvchi amaldor.
- **Qozii askar** – qo‘sish qozisi.
- **Tarakachi** – meros qolgan mol-mulkarni merosxo‘rlarga taqsimlab (taraka) beruvchi shaxs.

Xonlikdagi diniy va qozilik lavozimida bo‘lganlar davlat tomonidan belgilangan maosh hamda turli ehsonlar hisobidan kun ko‘rganlar. Madrasa, masjid, mozorlar o‘zlarining vaqf mulkleriga ega bo‘lib, shu mulk daromadidan o‘z xizmatchilariga maosh bergenlar. Vaqf mulkleriga muttavali mutasaddi – boshliq edi.

16-mavzu. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzuminnng qaror topishi.

Reja

1. **O’rta Osiyo Rossiya imperiyasi davrida . Turkiston o’lkasida davlat boshqaruv tizimining o’zia xos hususiyatlari .**
2. **O’lkaning uezdlarga bo’linishi. 1886 yilgi “Turkiston o’lkasining boshqarish haqida nizom” va boshqaruvning kuchayishi.**

Tayanch so‘z va iboralar. Mustamlaka boshqaruv usuli, Bekovich-CHerkasskiy ekspeditsiyasi, Angliya raqobati, ingliz josuslari, Zirabuloq jangi, Gandimiyon shartnomasi, Turkiston general-gubernatorligi, “Muvaqqat Nizom”, harbiy va fuqarolik hokimiyyati, harbiy komendant, biy, oqsoqol, rais, qozi, boshqaruvchi, “Turkiston o’lkasini boshqarish to‘g‘risidagi nizom”, ma’muriy-hududiy bo‘linish, markaziy boshqaruv, viloyatlar, uezd (tumanlar) lar, uchastka (volost) lar, shahar, qishloq, ovul boshqaruvi, viloyat boshqarmasi.

Turkistonni bosib olish masalasi rus podsholari va imperatorlarini doimo diqqat markazida bo'lgan. turkistonni Rusiyaga qaram qilish uchun to'g'ridan to'g'ri amaliy ochiq harakat Petr I davridan boshlandi.

U o'zining sharqqa nisbatan tajavo'zkorlik siyosatini, Markaziy Osiyo va Hindiston yerlariga suqlanib qarayotganligini yashirib ham o'tirmadi.

«Sharq bilan aloqada Qирг'изистон tasarrufi kalit va darvoza hisoblanadi. Shuning uchun, millionlab so'm sarflansa ham Qирг'изистонни bo'ysundirish yoki hech bo'lmasa, u yerda Rusiya ta'sirini o'rgatish zarurdir.» (o'sha kitob 12-bet.)

Petr I o'z fikrlarini amalga oshirish uchun amaliy tadbirlarni ishlab chiqdi. O'zining tajaovo'zkorlik siyosatini amalga oshirish maqsadida 1717 yilda knyaz Bekovich-Cherkaskiyni katta qo'shin bilan yuboradi. Biroq bu harakatga Xiva xoni Sherg'ozixon o'zil kesil chek qo'yadi. Ammo Rusiya hukmdrolari o'z niyatlarini amalga oshirish maqsadida, 1717 yilda Omsk, 1718 yilda Semipalatinsk, 1720 yili Ust-Kominagorsk, 1720 yilda Orenburg harbiy qal'alari qurildi.

XVIII asrning o'zida chor ma'murlari yovo'z niyatlarini amalga oshirish uchun hozirgi Qozog'iiston hududlarida 46 ta katta, 96 ta kichik harbiy qal'alar qurbanlar.

Shunday qilib, 1839-1840 yillarda podsho Nikolay I ning buyrug'i bilan Orenburg harbiy gubernatori A. Perovskiy katta qo'shin bilan Xivaga qarab yo'lga chiqdi. Ammo u orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Turkiston yerlarini bosib olishning yangi to'lqini 1847 yilda boshlandi. Shu yili sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi Qo'qon xoniga qarshi Raim harbiy qal'a egallandi va ruslar o'zini Orol harbiy qal'asi barpo qilindi

1852 yili rus qo'shnulari Oq machitni (Qizil o'rda) egallandi-jang 22 kun davom etdi.

Turkistonni bosib olish masalasi podshoh Aleksandr II –tomonidan 1859-1861 yillarda o'tkazilgan saroy kengashida muhokam qilindi va birinchi navbatda Qo'qon xonligini bir yoqli qilish va unga qarshi harbiy harakatlarni boshlashga qaror qilindi. Shu tariqa, 1864 yildan g'arbdan Veryovkin, sharq tomonidan Chernyaev qo'shnulari urush harakatlarini boshlab yubordilar.

Shu tariqa Toshkentni 1865 yil 15 iyunda zabit, 1865 yil 17 iyunda Toshkent Rossiya imperisiyaning tarkibiy qismiga aylanganligini haqidagi bitimga imzo chekildi.

1868 yil 22 iyunda Kaufman bilan amir Mo'zaffar o'rtasida sulh bitimi imzolandi.

1873 yil 12 avgustda Xiva xoni Muhammad Rahimxon bilan Kaufman o'rtasida Gandimiyon qishlog'ida sharnoma imzolandi va Xiva xonligi Rossiyani vassaliga aylantirildi.

1876 yil Po'latxon boshchiligidagi qo'zg'olon bostirildi (1873-1876 y.) va Rossiya imperatori Aleksandr II farmoni bilan, Qo'qon xonligi tugatilib, Farg'ona viloyati to'zilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritildi. Viloyatga esa, Skobelev xarbiy gubernator etib tayinlandi.

1877-1885 yillar davomida Oloy vodiysida, Qizil Arovat, Ashxabod, Marv bosib olindi va 1895 yilda Pomirdagi chegaralar belgilangan. Angliya, Afgoniston hukumatlari bilan shartnomalar to'zildi va O'rta Osiyo Rossiyaning to'la mustamlakasiga aylandi.

O'rta Osiyoniy bosib olgan Rossiya oldida, bu o'lkani boshqarish, idora qilish usulini ham ishlab chiqishdek tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi.

Rossiya harbiy vaziri D. Milyubid va podsho maslahatchisi, V. Girs 1867 yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi » haqida qonun loyihasini to'zdilar, u Vazirlar Kengashi tomonidan tasdiqlandi va Amaliy kuchga kirdi. Turkiston gerneral-gubernatorligi tashkil etilib, o'lkada mutloq hokimiyat uning qo'liga o'tdi. General gubernotorlik kengashi va To'rtko'l bo'limidan iborat mahkama to'zildi.

1-bo'lim. Ma'muriy va nazorat,

2-bo'lim. Moliyaviy va xo'jalik,

3-bo'lim. soliqlar va shaharlar mablag'lari ishlarini boshqargan,

4-bo'lim. Maxsus bo'lim deb atalgan.

General gubernator bir vaqtida podshoh noibi, harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni, bosh mirshab, bosh prokuror bo'lgan. u Buxoro amiri faoliyatini Rossiya imperatori agentligi orqali, Xiva xoini esa Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali nazorat qilib turgan. Turkiston general gubernatorligi viloyatlarga, viloyat uezdlarga, uezdlar uchastkalarga bo'lingan.

Viloat harbiy gubernatorligiga, general darajasidagi, uezd boshlig'iga kapitan darajasidagi zabitlar tayinlangan. Mazkur to`zilmaning negizi-o'zagi uezd bo'lib, uning boshlig'i general –gubernator tomonidan tasdiqlangan va katta vakolatga ega bo'lgan. Uezd boshlig'i ma'muriy, politsiya, harbiy hokimiyatni o'zida birlashtirgan. Odamlarga jarima solish, 7 kunga hibsda saqlash mumkin bo'lgan, shu boisdan uni «xokim to'ra» deb ham atashgan.

Qishloqlarni boshqarish uchun uchastka boshlig'iga bo'yinuvchi bo'lis (volost) va ovul, ma'muriy boshqaruvi joriy etildi. 1-2 ming xonodon yashovchi bo'lus, 1X2 yo'z o'tovli hudud ovul deb atalardi. Tub yerli aholi orasidan bo'lus boshqaruvchisi (oqsoqol yoki mingboshi) qishloq oqsoqollari—(yo'z boshi, elliy boshi, o'n boshi) hamda ovul oqsoqollari, ularning o'rinnbosarlari saylanadigan bo'ldi. Ammo, bu mahalliy aholi vakillari ularning qo'lida qo'g'irchoq bo'lganlar.

Toshkent shahrini boshqarish Nizomi ishlab chiqildi va u 1877 yili Sank – Peterburgda maqullangach, kuchga kirdi.

Nizomga ko'ra—shahar dumasi va boshqarma saylandi. 3000, 1000, 500 so'mlik mulkka ega bo'lganlargina saylov huquqiga ega bo'ladilar xolos. Ushbu mablag'i bo'limganlar saylov huquqidan mahrum edilar.

Duma – farmoyish beruvchi organ bo'lib, uning Rossiyaliklardan saylangan oqsoqollar boshqargan.

Hokim – noiblardan saylanuvchi shahar boshqarmasi tashkil etadi, ijro etuvchi hokimiyat organ vazifasini bajaradi.

O'lkada tashkil etilgan politsiya va sud idoralari ham mustamlakachilik tartibini mustahkamlashga, mahalliy aholini har qanday norozilik harakatini bo'g'ish va bostirishga qaratilgan edi.

Chorizmning ma'muriy idora usuli o'lkani iqtisodiy o'zlashtirish, aholini ma'naviy jihatdan tobelikda saqlash, ruslashtirish siyosati bilan uyg'unlashtirilgan edi.

Xulosa shuki: Rossianing mustmalakachilik siyosati; 1) Markaziy Osiyo xalqlarining milliy davlatchiligidan mahrum qildi; 2) ularni taraqqiyotning

ummusivilizatsiya jarayonlarida mustaqil ishtirok etish yo'llarini kesib qo'ydi; 3) jamiyatning ijtimoiy jarayonlariga jiddiy zarar yetkazdi.

II masala. 1917 yilning 15-22 noyabrida Turkiston o'lkasi ishchi, Askar va dehqon deputatlari sho'rosining III s'ezdida Turkistonni boshqaradigan bolg'sheviklardan iborat hukumat idoralari tashkil topdi. Ya'ni o'lka hokimiyatining siyosiy xarakteri va strukturasi turdi. Ushbu qurultoy qarorlari to'la to'kis shovinistik va millatchilik ruhi bilan bitilgan qarorlar qabul qildi.

Avvalo, Turkiston o'lka Xalq Komissarlar sho'rosi raisi etib, shovinist F. I. Kolesov, uning o'rribosari qilib Zeleski saylandi.

Qurultoyda Komissarlik (vazirlikka to'g'ri keladi) lavozimlari ham quyidagicha taqsimlandi. hammasi bo'lib 14 komissarlikni tashkil qiladi.

- 1) temir yo'llar Pochta va telegraf komissari – Kolesov
- 2) Xalq maorifi komissari – Permezskiy
- 3) Oziq-ovqat ishlari komissari – Domogatskiy
- 4) Tashqi ishlar komissari – Perefilov
- 5) Mehnat komissari – Poltaratskiy
- 6) Savdo vasanoat komissari – Lyapin
- 7) Dehqonchilik komissari – Chegodaev va hakozo

Ushbu hukumat tarkibiga birorta mahalliy millat vakillaridan kiritilmadi. Ular mahalliy xalqning na tilini, na dinini, na madaniyatini, na milliy urf-odatlarini, bu yerda asrlar osha tarkib topgan tarixiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini bilmas edilar. Ayniqsa, bu o'lkada jahonga tanilgan Fan va diniy ta'lim maskani bo'lib aniq va dunyoviy fanlar yo`zasidan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan allomalarini eshitmaganlar. Bu hol keyinchalik o'lkada Sho'rolar hokimiysi «tartib qoidalarini» o'rnatish chog'ida o'zining eng yaramas va jirkanch qiyofasini ko'rsatdi. Chunki bu Yevropadan yuborilgan tasodifiy rahbar unsurlar mahalliy shart sharoitlar bilan hisoblashmadilar. Turkistonda ulug' rus shovinistik siyosatini zo'rlik yo'li bilan davom ettirdilar.

Zo'rlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet rejimi o'zining ilk davridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiyasini mustamlakachilik tizimi sobiq sovet Rossiysi davrida yanada takomillashtirildi.

Turkiston xalqini istak va xohishlarini ro'yobga chiqargan, Turkiston muxtor hukumatining xalq o'rtasidagi obro'-e'tibori va nufo`zi boshlg'sheviklarni tashvishga solib qo'ydi. Nihoyat, Turkiston muhtoriyati hukumati bolsheviklarning qonli hujumi oqibatida ag'darib tashlandi.

Turkiston muhtoriyati hukumati atigi 72 kun umr ko'rgan bo'lsa, ham u erksevar xalqimizni milliy mustaqillik va istiqlol uchun kurashga da'vat etdi. Rossiya va Turkistondagi yo`z berayotgan siyosiy bo'hronlarni oldini olish maqsadida RSFSR ning bolg'sheviklar rahbarlari oldida Milliy davlatchilik qurilishning sovetcha amaliyotiga muhim o'zgartirishlar va to`zatishlar kiritish zarurligini hisobga olib, shoshilinch ravishda chaqirilgan sovetlarning III Umumrossiya sg'ezdida (1918 yil 10-12 yanvarg') «Rossiya sovet respublikasining Sovet milliy respublikalarining federasiyasi sifatida ta'sis etiladi» deb e'lon qilindi. Bunda Turkistonga ham

prinsipial ahamiyat berildi. RSFSR milliy ishlar xalq komissarligi ho`zurida alohida musulmonlar ishlari bo'yicha komissariat to`zuldi.

O'lkada «sovet avtonomiysi» ni bevosita tashkil etishni RKP(b) MK va RSFSR XKM Turkistonning favqulodda vakolati berilgan P. A. Kobozev zimmasiga yuklandi. V. I. Leninning vakili Toshkentga 1918 yil aprel oyining boshida yetib keldi. 20 aprelda Turkiston sovetlarining V s'ezdi ish boshladi. U respublikaning rasmiy maqomini tasdiqlash lozim edi. 1918 yil 20 aprel kuni tegishli sinfiy mezonlar asosida saylangan s'ezd delegatlari «Rossiya sovet federasiyasining Turkiston sovet Respublikasi haqida Nizom»ni qabul qildilar.

Unda o'lqadagi sotsialistik davlatchilik to`zilishining asoslari belgilab berilgan edi. Ushbu hujjatga muvofiq Turkiston o'lkasining butun hududi uning geografik chegaralarida, Buxoro va Xivani istisno qilgan holda, «Rossiya federasiyasining Turkiston respublikasi» deb e'lon qilindi va u «avtonom» tarzda boshqarilib, RSFSR Markaziy hukumatini tan oladi hamda o'z faoliyatini markaziy hukumat bilan muvofiqlashtiradi, deb belgilab qo'yildi.

Nizom markaziy va mahalliy davlat organlarining mavjud to`zilmasi va funksiyalarini mustahkamlab qo'ydi: 1) ishchi soldat, dehqon deputatlari Sovetlari s'ezdi Turkiston Respublikasining oliy qonun chiqaruvchi organi, 2) markaziy ijroiya qo'mita doimiy oliy qonun chiqaruvchi organ, 3) Xalq komissarlari sovet ijroiya organi, 4) sovetlar va ularning ijroiya qo'mitalari – joylardagi hokimiyat deb e'lon qilindi.

Shunday qilib, Turkiston muxtoriyatida mujassam bo'lgan o'ziga xos milliy davlatchilikni siqib chiqarish g'oyasining lenincha strategiyasidan kelib chiqqan holda, «sovetlar asosidagi avtonomiya», «milliy o'z taqdirini o'zi belgilash»ning sovet varianti deb e'lon qilindi.

Amalda u tub joy aholiga amaldagi suverenitetni bermadi, o'lkaning «sotsialistik markazga qaramligiga yo'naltirilgan edi.»

Buni «Rossiya sotsialistik sovet federasiyasining Turkiston Respublikasi Konstitutsiyasi» tasdiqlar edi.

Unga muvofiq mudofaa, tashqi aloqalar, pochta telegraf, dengiz ishlari, temir yo'llar, bojxona, savdo-sanoat va moliya sohalari, federal hukumati qo'lida bo'lishi alohida aytib o'tilgan.

Mahalliy aholining rasmiy e'lon qilingan «avtonom huquqlari» faqat tashviqot maqsadini ko'zlar edi. Mahalliy millat vakillaridan chiqqan davlat arboblari – Turkiston ASSR XK Kengashi raisi K. Otabaev, TKP MQ kotibi N. To'raqulov, TASSR MIK raisi – Rahimboboev, F. Xo'jaev, A. Ikromovlar Turkistonda yo'z berayotgan siyosiy xatoliklarni ro'yrost tanqid qildilar. Biroq ularni barchasini repressiya qilindi. Shunday qilib, oktyabr' to'ntarashidan keyingi dastlabki yillar, sotsializm to'la va o'zil kesil g'alabasiga, rivojlangan sotsializm deb atalgan yillarda ham sovet sotsialistik davlatchiligining faol tarzda zo'r lab tiqishtirilishi davri bo'ldi. Milliy davlat o'z taqdirini o'zi hal etishdan iborat qonuniy huquqidan mahrum qilinganligi O'zbekiston jamiyati turli qatlamlarining kuchli ijtimoiy va davlat to`zumini joriy etishga muvofiq bo'ldi.

Sovet davrining tajribasi shuni yaqqol ko'rsatdiki, komunistik to`zumning totalitar mustamlakachilik tabiatи sovet tarixining barcha bosqichlardia ham uni

modifikatsiya qilishga bo'lgan barcha urinishlarga qaramay o'z tamoyiliga ko'ra o'zgarmasdan qolaverdi. Bunday ahvol sobiq ittifoq tarkibidagi, jumladan O'zbekistonda ham o'rnatilgan sovet davlatchiligining mafkurasi va tabiat bilan bevosita bog'liq edi. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov sovet sotsialistik davlatchiligi tarixiga baho berar ekan, buni bizning xalqimizga zo'r lab tiqishtirganligini ta'kidlab o'tib, u xalqimizning tub ma'naviy, axloqiy, diniy qadriyatlariga mos kelmas edi. Markazdan turib boshqariladigan, idora qildinadigan davlat mao'inasini qandaydir bir manqurtga, o'z urug'-avlodini ham o'z xalqini tarixini ham bilmaydigan kishilarga mo'ljallangan edi, - deganlarida haq gapni aytgan edilar.(Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 2.t. 1996 y. 6 bet)

Imperiya markazining siyosati Turkistonda yoqqol ko'zga tashlanuvchi qiyofa kasb etdi.og'izda mahalliy xalqlarni o'ziga xos rivojlanish mumkinligini e'lon qilib, yangi hokimiyat amalda mazkur jarayonlarning namoyon bo'lishiga to'siqlik qiladi, tub joy aholini davlat boshqaruviga jalb etishi ochiqdan-ochiq qarshilik ko'rsatdi.

Bol'sheviklarning hatti harakatlari mahalliy halqlarning sovetlarga qarshi kayfiyatini kuchaytirdi. E'lon qilingan milliy davlatchilik –Turkiston muxtoriyati zo'rlik bilan ag'darildi. Unga qarshi istiqlolchilik kurashi kelib chiqdi. 1918-1922 yil dekabrigacha bol'sheviklar Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm xalq respublikalari markazga qaram bo'lgan hududlar sifatida xilma-xil nayranglarni amalga oshirdi.

Partiyaning yuqori doiralarida milliy masala bo'yicha o'tkir munozara avj olib ketdi. (1921-1922 y). 1922 yilning dekabr' oyida SSSR tashkil topganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu sotsialistik davlatchilikning o`zil-kesil tugallangan shaklini mujassam etivchi Sovet Ittifoqi avvalboshdanoq, milliy respublikalarning yo'lboshchilari umid qilganlaridek suveren davlatlar hamdo'stligi sifatida emas, balki rasmiy federasiyaning sub'ektlari mustaqillikni barcha tashqi ramzlariga (o'z konstitutsiyasiga, bayrog'i va madhiyasi)ga ega bo'lgani holda amaldagi suveren huquqlardan mahrum va uning tarkibidan chiqa olmaydigan qudratli davlat sifatida dunyoga keldi.

Ittifoqda respublikalar xususan O'zbekistonning sovet davri tarixi juda o'xshash bo'lib, salbiy, fojiaviy voqealarga ham, shuningdek, ijobiy rivojlanish faktlariga ham boydir.

Oktyabrdan so'ngi dastlabki yillar sovet sotsialistik davlatchiligining faol tarzda zo'r lab tiqishtirishi davri bo'ldi. Milliy davlat o'z taqdirini o'zi hal etishdan iborat qonuniy huquqidan mahrum qilinganligi Turkiston jamiyatni turli qatlamlarini noroziligiga sabab bo'ldi.

Xalqimizning mustaqil davlatchiligi mustaqillikni qo'lga kiritish orqali vujudga keldi

17-mavzu. Turkiston Muxtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi.

Reja

- 1. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi.**
- 2. Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi**

3. Turkiston Muxtoriyatining bolsheviklar tomonidan tugatilishi

Tayanch so‘z va iboralar. SHo‘roi Islomiya, SHo‘roi Ulamo, Muvaqqat hukumat, Turkiston komiteti, qurultoy, Xalq Komissarlari Soveti, markaziy hokimiyat, Turkiston muxtoriyati, Milliy majlis, Turkiston o‘lka musulmonlar sho‘rosi

1917 yil 27 fevralda Petrogradda demokratik inqilob g‘alaba qozonib, Rossiya imperatori Nikolay II taxtdan ag‘darib tashlandi. Bu inqilob Turkiston o‘lkasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Xususan, Turkiston jadidlari, ziyyolilari va islom ulamolarining tashabbuslari bilan 1917 yil martida “SHo‘roi Islomiya”, 1917 yil iyunida “ SHo‘roi Ulamo”, 1917 yil iyulida “Turk Adami Markaziyati” (“Turk federalistlari partiyasi”), 1917 yil sentyabrdagi “Ittifoqi muslimin” kabi siyosiy partiyalar tuzildi.

1917 yil 7 aprelda Petrograddagi Muvaqqat hukumat qarori bilan N.N. SHchepkin raisligida Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti tuzildi. Ammo, 1917 yilning aprel va sentyabr oyalarida bo‘lib o‘tgan Butunturkiston musulmonlarining I va II qurultoylari Turkiston Muxtoriyati tashkil etish g‘oyasini ilgari surib, hokimiyatni ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlariga berishga qarshi chiqdi. 1917 yil 20 sentyabrida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston va Qozog‘iston musulmonlarining qurultoyidagi asosiy masala Turkiston o‘lkasining siyosiy tuzumini belgilash edi. O‘scha davrdagi manba tili bilan aytganda “Qurultoy... Turkiston Muxtoriyatini tayin etishga jazm qildi”. Qurultoy muxtoriyatga “Turkiston Federativ Respublikasi” degan nomni quyib, parlament respublikasi asosida tuzilajak bo‘lg‘usi davlat tuzumining bosh tamoyil va me’yorlarini belgilab berdi. Afsuski, bu rejalar amalga oshmadidi.

1917 yil 25 oktyabrdagi (yangi sana bilan 7 noyabrdagi) V.I.Lenin boshchiligidagi bolsheviklar (kommunistlar) Petrogradda Muvaqqat hukumatni ag‘darib tashlab, hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egalladilar. Toshkent shahrida 28 oktyabrdagi bosholangan qurolli to‘qnashuvlar 1 noyabrdagi Muvaqqat hukumatning Turkiston qo‘mitasini qamoqqa olish bilan yakunlandi. Turkiston bolsheviklari o‘lkadagi butun hokimiyatni qo‘lga olish uchun shafqatsiz kurashga kirishdilar. Demokratik kuchlar esa bu holga qat’iy norozilik bildirdilar.

1917 yil 13-17noyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan shahar o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlarining Turkiston o‘lka s’ezdi qatnashchilari hokimiyatni to‘laligicha bolsheviklar qo‘liga o‘tishiga keskin qarshilik ko‘rsatishdi. S’ezd hokimiyat masalasiga oid quyidagi rezolyusiyani qabul qildi: “ Turkistonda hokimiyatni ishchi, dehqon va soldat deputatlari qo‘liga o‘tishi bilan hokimiyat masalasidagi munozara shunday xulosaga keldi:

1.Rossiya inqilobi ko‘targan xalqning ozodligi, tengligi, do‘stligi shiorlari ostida Turkiston aholisining 98 foizini tashkil etuvchi, 10 mln. sonli musulmon aholisi milliy-madaniy o‘z-o‘zini boshqarishning barcha huquqlariga ega;

2.Musulmonlarining o‘z taqdirini o‘zi belgilash va umuminsoniy taraqqiyotiga bo‘lgan qiziqishi Qur‘on va SHariat qonunlaridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin emas. Musulmonlar inqilob natijasida qo‘lga kiritgan huquqlarni amalga

oshirar ekan Rossiyadagi siyosiy partiyalarning birontasi tarkibida faoliyat ko'rsatishi va ularning partiyaviy kurashlarida qatnashishi mumkin emas. Lekin, Rossiya fuqarolari bilan umumiy jamiyat manfaatlarini hisobga olib mamalakatni Ta'sis majlisiga olib boruvchi hokimiyatni qo'llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir;

3. Butun Rossiya doirasida hokimiyat qanday tuzilishidan qat'iy nazar musulmonlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqlarini mahalliy sharoitni yaxshi bilgan, musulmonlarning urf-odatlari va yashash sharoitlari bilan yaxshi tanish bo'lgan, xalqning hohish irodasiga ko'ra yangicha hayot tartiblarini joriy qila oladigan kishilardan iborat mahalliy hokimiyat orqali amalga oshirishlari mumkin. SHuning uchun mahalliy hokimiyat birinchi navbatda musulmon vakillaridan, ma'lum miqdorda boshqa siyosiy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatuvchi, lekin musulmonlarga xayrixoh bo'lgan vakillardan tashkil topishi kerak;

4. Hokimiyatni mahalliy aholi manfaatlari uchun tasodifiy va begona bo'lgan harbiylar, ishchilar va dehqon(krestyan)larning mayda guruhlari qo'lidagina to'planib qolishi demokratik prinsiplarga mos emas va mahalliy aholini o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi erkin harakatlariga kafolat bera olmayd.

1917 yil 15-22 oktyabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'lka ishchi, soldat va dehqon deputatlari Sovetlarining III s'ezdida 15 kishidan iborat hukumat-. **Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti** tuzildi. Unda 8 ta o'rin so'l eserlarga, 7 ta o'rin bolsheviklar bilan maksimalistlarga berilib, hukumat tarkibiga tub aholi vakillaridan bitta ham vakil kiritilmadi. XKS raisi lavozimini F.Kolesov egalladi.

Turkistonda hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tishi bilan o'lkada Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga avvalo jazo organlari va sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi.

Turkiston XKS 1917 yil 28 noyabrda o'lkada qizil gvardiya bo'linmalarini tuzish haqida qaror qabul qiladi. Bu bo'linmalar Sovet tuzumi va bolsheviklarga qarshi ko'tarilgan dastlabki ongli chiqishlarni bostirishda faol ishtirok etdi.

Turkiston XKS 1917 yil oxirlarida o'z qarori bilan "SHo'roi islomiya" va boshqa mahalliy demokratik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Bu tashkilotlarning rahbarlari keyinchalik Turkiston Muxtoriyati hukumatiga qo'shildilar, ayrimlari istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy rahnamolik qildilar. "SHo'roi Ulamo" tashkilotining Toshkent sho'basi faqat 1918 yil 13 mayda yopib qo'yildi.

Turkiston o'lkasi XKS o'zining tuzilishi va boshqaruv apparatlari jihatidan tubdan farqlanuvchi hukumat edi. Turkiston XKS tarkibiga kirgan 15 ta komissarlik o'lkadagi boshqaruv ishlarini butunlay qamrab olgan bo'lib, boshqaruv tizimining farqli tomoni shunda ediki, Turkiston XKS tashkil topgan paytdayoq Rossiyadagi Markaziy hukumatni tan oldi. CHunonchi, Turkiston XKS raisi F.Kolesov Petrograddagi XKS nomiga yuborgan telegrammada quyidagicha ta'kidlagan edi: "Komissarlar Soveti o'z oldiga sizning hamma dekretlaringizni amalga oshirish vazifasini qo'ydi... Bizning to'la-to'kis qo'llab quvvatlashimizni hisobga olishingizni so'raymiz".

Tadqiqotchilarning (Q.Rajabov, M. Haydarov) fikricha, Turkiston o'lkasi yangi hukumati o'sha kunning o'zida (1917y. 23 noyabr-E.B.) aholiga qilgan

murojaatida ham o‘zining asl maqsadlarini yashirib o‘tirmadi. Murojaatda ham teleogrammada bo‘lgani kabi quyidagilarga alohida urg‘u berilgan edi: “Xalq Komissarlari Soveti markaziy hokimiyatning barcha dekretlarini og‘ishmay amalga oshiradi va o‘z faoliyatida s’ezdning ...qarorlariga amal qiladi. Bu topshiriqlarni bajarish yo‘lidagi har qanday qarshilik sovetlar tomonidan keskin choralar ko‘rish bilan kutib olinadi”.

Tadqiqotchilar to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, Turkiston XKS o‘z faoliyatining birinchi kunlaridan boshlab sovet siyosatini amalga oshirishga, Turkiston o‘lkasida sovet hokimiyatini mustahkamlashga qattiq va astoydil kirishdi. Barcha mahalliy sovetlarga zudlik bilan qizil gvardiya tuzishga kirishish taklif qilindi. O‘lka komissarligi tarkibida bo‘lgan va boshqaruvda asosiy rol o‘ynaydigan harbiy, tashqi savdo, shuningdek, pochta, telegraf va temir yo‘llar boshqaruvi masalalari butunlay Rossiyyadagi tegishli idoralarga berib qo‘yilishi oqibatida Turkiston XKS ijrochi organga aylanib qoldi. Markazdan yuborilgan barcha mas’ul xodimlar, turli komissiya va tashkilotlar o‘z siyosatlarini qo‘g‘irchoq organga aylangan o‘lka XKS orqali yuritdilar.

1917 yil oktyabr-noyabr oylarida Toshkent va Qo‘qonda yuz bergen voqealar Turkistonda ijtimoiy-ciyoziy harakatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Qo‘qon shahrida 1917 yil 26-28 noyabr kunlari Turkiston o‘lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Demokratik musulmon ziyorolar talabi bilan Turkiston aholisining evropalik qismi vakillari ham qurultoyda teng huquqli bo‘lib ishtirok etdilar. Qurultoyning 27 noyabr kuni qabul qilingan qarorida shunday deyiladi: “Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da’vat etgan xalqlarning o‘z huquqlarini o‘zlarini belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni Federativ Rossiya Respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e’lon qiladi”.

28 noyabrda tashkil topayotgan davlatning nomi aniqlanib “ Turkiston Muxtoriyati” deb ataladigan bo‘ldi. Butunrossiya Ta’sis s’ezdi chaqirilgunga qadar hokimiyat to‘la ravishda Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo‘lida bo‘lishi haqida qaror qabul qilindi. Muvaqqat kengash a’zolaridan 12 kishilik hukumat tuziladigan bo‘ldi. Qurultoy jarayonida Turkiston Milliy Majlisi 32 kishidan iborat qilib saylandi. Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati tarkibiga muxtoriyatchilik harakatining faol ishtirokchilari, jumladan, quyidagilar xukumat a’zolari bo‘ldilar:

1.Muhammadjon Tinishboev –**Bosh vazir, ichki ishlar vaziri**, 2-chaqiriq Davlat Dumasining a’zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a’zosi, temir yo‘l muhandisi.

2.Islom Sulton SHoahmedov (SHagiaxmedov) –**Bosh vazir o‘ribbosari**, Butunrossiya Musulmonlari Kengashi Markaziy qo‘mitasining a’zosi, huquqshunos.

3.Mustafo CHo‘qay-tashqi ishlar vaziri, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a’zosi, Turkiston o‘lka Musulmonlar SHo‘rosining raisi, huquqshunos.

4.Ubaydulla Xo‘jaev (Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev) –**harbiy vazir**, Butunrossiya Musulmonlar kengashi Markaziy qo‘mitasining a’zosi, huquqshunos.

5.Hidoyatbek YUrg‘uli (YUrali) Agaev –er va suv boyliklari vaziri, agronom.

6.Obidjon Mahmudov –oziq-ovqat vaziri, Qo‘qon shahri dumasining rais o‘rbosari, jamoat arbobi

7.Abdurahmon O‘rozaev –ichki ishlar vazirining o‘rbosari, huquqshunos.

8.Solomon Abramovich Gersfeld –moliya vaziri, huquqshunos.

Muvaqqat hukumat tarkibiga kirishi lozim bo‘lgan qolgan 4 o‘rin evropalik aholi vakillari orasidan nomzodlar ko‘rsatilishi uchun ularga ajratildi.

Qurultoy tugagach, 1 dekabrda Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati a’zolari (barcha 8 kishi) imzolagan maxsus Murojaatnomalar e’lon qilindi. Ushbu Murojaatnomada Turkistondagi barcha aholi: irqi, millati, dini, jinsi, yoshi va siyosiy qarashlaridan qat’iy nazar, ular yakdillik va hamjihatlikka da’vat etilgan edi. SHuningdek, Turkiston Muxtoriyati hukumatining Milliy davlatchilikning qaror topishini jo‘shqin muborakbod etib, matbuotda taniqli ma’rifatparvarlar, diniy, jamoat va siyosat arboblari birin-ketin chiqishlar qilib, Muxtoriyatni tabrikladilar. O’sha paytda chop etiladigan “Ulug‘ Turkiston” gazetasi sahifalari Qo‘qon, Samarqand, Toshkent, Kaspiyorti viloyatidan Turkiston Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatlovchi xabarlar bilan to‘lib toshgan edi.

Yangi hukumat faoliyati faqat Qo‘qonda yoki Farg‘ona vodiysida emas, balki butun Turkiston mintaqasida yashayotgan tub er aholisi tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlanganligi bois, Turkiston Muxtoriyati hukumati qisqa muddat ichida xalq orasida katta e’tibor qozondi. SHuning uchun ham ma’rifatparvar Fitrat Muxtoriyat e’lon qilingan tunni “Milliy laylatulqadrimiz” deb atadi.

Xalq ommasining qizg‘in qo‘llab-quvvatlashidan ilhomlangan Muxtor hukumat vakillari jadal faoliyat boshladilar. Dastlabki kunlardan boshlab Millat majlisini tomonidan tasdiqlangan qonunlar e’lon qilinib, yangi hukumat davlat Konstitutsiyasini tayyorlash uchun taniqli huquqshunoslarni jalb etdi. Bir nechta hukumat gazetalari o‘zbek, qozoq va rus tillarida nashr etila boshlandi. SHuningdek, hukumat milliy qo‘sinni tashkil qilishga alohida e’tibor qaratdi. Harbiy vazir Ubaydulla Xo‘jaev ishtirokida o‘tkazilgan ko‘rik-parad vaqtida askarlar soni 2000 nafarga etgan. Bundan tashqari Qo‘qonda Ergash qo‘rboshi rahbarlik qilgan ikki mingga yaqin mirshablar ham bor edi.

Yangi hukumat iqtisodiy sohada 30 million so‘m miqdorida ichki zayom chiqarishni yo‘lga quydi. CHunki gazetalarni nashr qilish, muxtoriyat qo‘sinnarining ta’minati hamda hukumatning ichki harajatlari uchun mablag‘ zarur edi. SHuningdek, yangi hukumat a’zolari ochlik girdobida qolgan Turkiston aholisiga Orenburg orqali g‘alla keltirish muammosini hal qilish uchun ham amaliy qadamlar tashladi.

Ammo, umumxalq tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan ma’qullanmadidi. 1917 yil 13 dekabrda Toshkentning eski shahar aholisi “Muxtor Turkiston uchun” shiori ostida tinch namoyish o‘tkazdilar. Toshkent shahar sovetidagi bolsheviklar esa, shaharda qurolli kuch bilan tartib o‘rnatishga buyruq berdilar. Natijada tinch namoyish qatnashchilari o‘qqa tutilib, 16 kishi halok bo‘ldi.

SHunga qaramasdan, Muxtoriyat hukumatini qo'llab-quvvatlash davom etaverdi. Xususan, 1917 yil 26-30 dekabr kunlari Qo'qon shahrida bo'lib o'tgan musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari I favqulodda qurultoyining ham asosiy masalasi Turkiston muxtoriyatiga munosabat masalasi edi. Butun Turkiston o'lkasidan 200 yaqin vakillar qatnashgan ushbu qurultoy 30 dekabrda Turkiston muxtoriyati hukumatini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Turkiston o'lkasi Xalq komissarlari Sovetiga ishonchszilik bildirish haqida qabul qilgan deklaratsiyasida quyidagi fikrlar bor edi: "Turkiston o'lkasi Xalq Komissarlari Soveti barcha aholi ayniqsa, musulmonlar hohish-istiklarining ifodachisi emasligi; Turkiston o'lkasi xalqlari irodasi ikki qurultoyda muxtoriyat e'lon qilinganida ifodalanganligi; Turkistonda yagona hukumat organi butun musulmonlarning qurultoyida tashkil topgan va musulmon ishchi, askar va dehqonlarning qurultoyida to'ldirilgan Turkiston Muxtoriyati hukumati ekanligini e'tiborga olib, Musulmon ishchi, dehqon va askarlar qurultoyi Turkiston Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni darhol Turkiston Muxtoriyati hukumati va Millat Majlisiga topshirilsin deb istak bildiradi".

Ta'kidlash lozimki, yangi davlatchilik barcha milliy guruhlarning mutanosibligi prinsiplari, umumdemokratik va milliy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi asosida barpo etilgan edi. YUqorida qayd etilganidek, Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati aholini oziq-ovqat va kundalik ehtiyoj mahsulotlari bilan ta'minlash, o'z moliyaviy jamg'armasini yaratish, turli-tuman siyosiy partiyalar va harakatlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish vazifalarini hal qilish yuzasidan qizg'in harakatlarni amalga oshira boshlagan edi. Sovet hokimiyatidan farqli o'laroq, Turkiston Muxtoriyati hukumati qonuniy asosda tashkil etilgan edi. Turkiston Muxtoriyati hukumati keng musulmonlar ommasi va demokratik kayfiyatdagি evropalik aholining vakolatini olgan edi. SHuning uchun ham aytish mumkinki, Turkiston Muxtoriyati o'z taqdirini o'zi belgilagan xalq respublikasi edi.

Ammo, o'lka bolsheviklari Turkiston Muxtoriyati hukumatiga katta xavf deb qaradilar. 1918 yil 19-26 yanvar kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston o'lkasi ishchi, soldat va dehqon deputatlarining favqulodda IV s'ezdida Muxtoriyatga butunlay salbiy munosabat bildirildi. Ushbu s'ezd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a'zolarini qamoqqa olish haqida qaror chiqardi. S'ezd bolsheviklar fraksiyasining Turkiston Muxtoriyati to'g'risidagi rezolyusiyasini qabul qildi. Ushbu rezolyusiyada Turkiston qonuniy hukumati munofiqlarcha "qoraguruhchilar to'dasi" deb ataldi. Bu ham etmagandek, bu s'ezd bolsheviklarning tazyiqi ostida qonuniy kuchga ega bo'lgan, tub erli aholi manfaatlarining himoyachisi bo'lib maydonga chiqqan o'lkadagi ilk demokratik va xalqchil hukumat- Turkiston Muxtoriyati ustidan shafqatsiz hukm chiqardi.

1918 yil 30 yanvarda Turkiston XKS Muxtoriyat hukumatini tugatish uchun harbiy harakatlar boshladи. Turkiston bolsheviklari buning uchun qizil askarlardan tashqari armanlarning "Dashnoqsutyun" partiyasi a'zolaridan tuzilgan beshafqat qurolli drujinalaridan ham keng foydalandilar.

31 yanvar kunning ikkinchi yarmida boshlangan janglar bir necha kun davom etdi. Qon to'qilishini oldini olish maqsadida muzokaralar olib borish

harakatlari natija bermadi. 1918 yil 19 fevralda Qo‘qon shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan Turkiston Muxtoriyati hukumati bolsheviklaring qonli hujumlari natijasida ag‘darib tashlandi. Hukumat boshlig‘i Mustafo CHo‘qay shaharni tark etib, yashirinishga majbur bo‘ldi. Vazirlarning ayrimlari halok bo‘ldi, ayrimlari qo‘lga olindi. Dahshatli janglar va talon-tarojlar natijasida 10000 qo‘qonlik o‘ldirildi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining ag‘darilishi turkistonliklar tomonidan Rossiyaning Turkistonga nisbatan tajovuzkorona rejalarini mavjudligining yangi dalili sifatida qabul qilindi va ular qo‘llariga qurol olib o‘z Vatanlarini bosqinchilardan himoya qilishga otandilar. Bu bilan Turkistonda sovetlarga qarshi istiqlolchilik harakatiga asos solindi.

18-mavzu. Sovetlar andozasi asosida TASSR. XXSR va BXSR larning tashkil topishi.

Reja

- 1. Turkiston Avtonom Sovet Respublikasining tashkil topishi**
- 2.Xiva xonligining ag‘darilishi. Xorazm Xalq Sovet Respublikasining tashkil topishi**
- 3.Buxoro amirligining ag‘darilishi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi.**

Tayanch so‘z va iboralar. Turkiston Respublikasi, o‘lka konferensiyasi, Turkiston konstitutsiyasi, Milliy ishlar xalq komissarligi, “Sovet avtonomiysi”, Turkiston KP, Turkkomissiya, Turkiston Respublikasi to‘g‘risidagi nizom, Musbyuro, “Idorai mashrutiya”, Amudaryo bo‘limi, Favqulodda komissiya, Muvaqqat inqilobiy hukumat, XNK, Butunxorazm sovetlari, BXSR, “Yosh buxoroliklar”, demokratik kuchlar, Xalq Nozirlar SHO‘rosi, muvaqqat harbiy-siyosiy bitim, Buxoro Konstitutsiyasi, BSSR.

Turkistonda hokimiyatning faqat ishchilar va evropalik millat vakillari qo‘lida bo‘lib qolishi o‘lkadagi barcha demokratik kuchlarning hukumatga bo‘lgan ishonchszligini kuchaytirib yubordi. Bunga qarshi Markazdagiligi bolsheviklar hukumati chekka o‘lkalar, shu jumladan Turkistonda ham “sovetcha asosdagi avtonomiya” o‘rnatishga qattiq kirishdi. Bu vazifani amalga oshirish uchun Moskvadan ko‘plab partiya va sovet xodimlari Turkistonga jo‘natildi. Jumladan, P.A. Kobozev O‘rta Osiyoning favqulodda komissari qilib yuborildi.

1918 yil 20aprel-1may kunlari Toshkentda Turkiston o‘lkasi Sovetlarining V s’ezdi bo‘lib o‘tdi. Unda “proletar demokratiyasi”ga tegishli tamoyillari bo‘yicha tanlab olingan 251 deputat (shundan 120 tasi tub millat vakillari) ishtiroy etdi. S’ezd kun tartibidagi asosiy masala Turkistonda Sovet mafkurasiga asoslangan bolshevikcha avtonomiya yaratish bo‘ldi.

Sovetlarning V o‘lka s’ezdi o‘zining markaziy hokimiyatga tobelligini ochiq namoyon etib, Moskvaga sovet Rossiysi siyosiy rahbariyatining “barcha inqilobiy shiorlari hayotga qat’iy tadbiq etilishi” ta’kidlanib telegramma jo‘natdi. Bunga javoban V.I.Lenin va I.Stalin zudlik bilan javob telegrammasi yo‘lladilar. Unda

quyidagi so‘zlar bor edi: “...sovnarkom sizning sovetlar asosidagi o‘lkangiz avtonomiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Biz siz boshlagan ishlarni yoqlaymiz va butun o‘lkani sovetlar tarmog‘i bilan qoplaysiz, mavjud sovetlar bilan to‘liq aloqada bo‘lasiz deb to‘liq ishonamiz”.

S’ezd delegatlari Lenin va Stalining ko‘rsatmalari asosida 1918 yil 30 aprelda “Rossiya Sovet Federatsiyasi **Turkiston Sovet avtonom respublikasi**” haqida Nizomni qabul qildi. Ushbu Nizomda Turkistonda davlat qurilishi asoslari, uning hududi, oliv qonunchilik va ijroiya organlari, mahalliy organlar tuzilishi, vazifalari va ularning sovet Rossiyasi bilan o‘zaro munosabatlari belgilab berildi. Ushbu Nizom Turkistonda avtonom respublika tuzilganligini qayd etib, unga muvofiq, Buxoro va Xivadan tashqari, Turkiston o‘lkasining geografik chegaralaridagi butun hudud Rossiya sovet federatsiyasining **Turkiston Sovet Respublikasi** deb e’lon qilindi.

“Nizom”da Turkiston Respublikasi avtonom ravishda boshqarilib, “o‘z xatti-harakatlarini Rossiya Sovet Federatsiyasi markaziy hukumati bilan muvofiqlashtiradi”, deb qayd etildi. S’ezdda “markaziy hukumat bilan o‘zaro munosabatlarni belgilash uchun” besh kishidan iborat komissiya tashkil etish va Moskvaga yuborishga qaror qilindi.

S’ezd sovet Turkistonining qonun chiqaruvchi oliv organi - Markaziy Ijroiya Komiteti (Tur SIK)ni sayladi. 36 kishidan iborat bu komitetning yarmi bolsheviklar, yarmi so‘l eserlar (18 tadan) edi. Ushbu komitet sovetlar s’ezdlari oralig‘idagi davrda o‘lkada oliv hokimiyat vazifalarini bajaruvchi oliv qonunchilik organi bo‘ldi. Turkiston MIK raisi qilib Markazdan hukumatning favqulodda komissari P.A.Kobozev (hamrais qilib A.Salkin) saylandi. SHuningdek, Turkiston XKS tarkibiga 16 kishi (9 ta bolshevik va 7 ta so‘l eser) kiritildi. Mahalliy millat vakillaridan to‘rt kishi – S.Jo‘rboev, S.YUsupov, SH.Ostonboev va S.Azimboevlar Turkiston MIKga saylanib, S.Tursunxo‘jaev sog‘lijni saqlash xalq komissari sifatida hukumat tarkibiga kiritildilar.

1918 yil 17-25 iyunda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiston bolsheviklarining o‘lka konferensiyasi Turkiston communist-bolshevik-lar partiyasining I s’ezdi deb nomlandi. O‘lkadagi communistik guruhlar ushbu s’ezdda ilk marta tashkiliy jihatdan rasmiylashib, Rossiya KP (b) tarkibidagi Turkiston Kompartiyasiga asos soldilar. S’ezdda 7 kishidan iborat Markaziy komitet saylanib, uning tarkibiga mahalliy komunistlardan Nizomiddin Xo‘jaev ham kiritildi. “Temir qonun”, “po‘latdek kuchli intizom”, “diktatorlik vakolatlari” kabi sinfiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan Turkiston KP Rossiya KP (b)ga bo‘ysunar edi. Turkiston communistlari Markaz bergan har qanday topshiriqlarni so‘zsiz ijro etishlari natijasida Turkiston o‘lkasining Rossiyaga siyosiy va iqtisodiy qaramligi mustahkam asoslarda shakllandi.

Turkiston avtonom respublikasi sovetlarining VI favqolodda s’ezdi 1918 yil 5-14 oktyabrda g‘oyaviy kurashlar jarayonida kechgan bo‘lsa-da, unda Turkiston MIK maxsus komissiyasi tomonidan tuzilgan Turkiston avtnoom Respublikasining **konstitutsiyasi** muhokama etildi va tasdiqlandi. YAngi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan ushbu konstitutsiya Turkistondagi quyidagi Xalq komissarliklarini qonun kuchi bilan

mustahkamladi: tashqi ishlar, harbiy ishlar, ichki ishlar, adliya, mehnat va ijtimoiy ta'minot, maorif, pochta va telegraf, temir yo'l, dehqonchilik, oziq-avqat, davlat nazorati, millatlar ishlari, xalq xo'jaligi Markaziy kengashi.

Konstitutsiyaga ko'ra, ishchi, soldat va dehqon deputatlarning sovetlari Respublika mahalliy davlat hokimiyati organlari hisoblanib, Turkiston avtonom Respublikasining tarkibida 5 ta: Sirdaryo, Ettisuv, Farg'on, Kaspiy orti, Samarqand viloyatlari mavjud bo'lgan. S'ezdlar orasida viloyat (oblast)ijroya komiteti davlat hokimiyat organi bo'lib hisoblangan. Markazda va joylarda inqilobiy komitetlar (revkom) ham tuzilib, ular nazorat va reviziya (taftish) qilish, kengashlarni tarqatib yuborish kabi vakolatlarga ega bo'lganlar. Viloyat kengashlari va ijroiya komitetlari qoshida boshqaruvin, harbiy, adliya, mehnat va ijtimoiy ta'minot, xalq maorifi, moliya, pochta va telegraf, er-suv, oziq-ovqat, davlat nazorati, sog'liqni saqlash, kommunal sovet kabi bo'limlar ochilgan.

Konstitutsiyaga ko'ra, viloyatlar uezdlarga, volost, shahar, qishloq va ovullarga bo'lingan. Uezd, shahar sovetlari o'zlarining ijroiya komitetlari va bo'limlariga bo'lingan. Qishloq va ovul ijroiya komitetlari esa o'z bo'limlariga ega bo'lmagan.

Rossiyaning Turkistondagi siyosiy hukmronligi, birinchidan, o'lkada sovetcha asosdagagi avtonomiyaning o'rnatilishi bilan joriy etilgan bo'lsa, bu jarayonning ikkinchi bosqichi, davlat boshqaruvi asosiy vazifalarining markaziy federal hukumatga topshirilishini konstitutsiya yo'li bilan rasmiylashtirilishi bo'ldi. Zero, Turkiston Respublikasi Kosntitutsiya-sining 7-bob, 30-§ ilovasida yozilishicha, mudofaa, tashqi aloqalar, pochta-telegraf, dengiz ishlari, temir yo'llar, bojxona, savdo-sotiq, sanoat va moliya masalalari markaziy federal hukumat ixtiyorida qoldirilgan edi.

Achinarli tomoni shunda ediki, mahalliy aholining katta qismi o'lkanning davlat tuzilishini belgilab beruvchi asosiy hujjat bilan hech bo'lmaganda umumiy tarzda ham tanisha olmadi. Sababi, u mahalliy tillarda e'lon qilinmagan edi. Ushbu hujjatda sovetlarga xos "o'z taqdirini o'zi belgilash" Turkistondagi mahalliy aholining mustamlaka holatini o'zgartirmadi. Davlat hokimiyat organlarining tarkib topgan tuzilmasida, ularni shakllantirishning torsinfiy tomonli sharoitida ular har qanday avtonomiyaning asosiy negizi bo'lgan huquqdan-milliy-hududiy birlik aholisining davlat hokimiyatini mustaqil amalga oshirilishi huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega emas edilar. Tadqiqotchilarning fikricha, konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan "soviet avtonomiyasini" o'z mohiyatiga ko'ra milliy-hududiy birlik edi.

1919 yilning mart oyida Turkiston respublikasi sovetlarining Favqulodda VII s'ezdi bo'lib o'tdi. Unga qadar 1918 yil 10 avgustda (V o'lka s'ezdida) Milliy ishlar xalq komissarligi bo'yicha maxsus Nizom qabul qilingan edi. Ushbu Nizomga ko'ra, Milliy ishlar xalq komissarligida statistika, tashkiliy-tashviqot va madaniy oqartuv bo'limlari tashkil qilingan edi. Ammo, Turkiston hukumati a'zolaridan Kazakov, Uspenskiy, Salkin kabilalar Turkiston MIK qoshidagi milliy ishlar seksiyasini tarqatib yuborishni so'rab VII s'ezdga loyiha taqdim etdilar. Ular mazkur seksiyani "millatchilikning bir ko'rinishi" sifatida baholadilar.

SHunga qaramasdan, milliy masaladagi murakkab vaziyatni hisobga olgan RKP (b) MK 1919 yil 3 iyulda “Hokimiyatga mutanosib vakillik to‘g‘risida” degan qaror qabul qilishga majbur bo‘ldi. Ushbu qarorda Turkiston mahalliy aholisining partiyaga mansubligi shart qilib qo‘yilmasdan, ularni mutanosib ravishda davlat qurilishi ishlariga keng jalg qilish zarur deb ko‘rsatilib, mahalliy aholining mol-mulkini majburiy ravishda davlat ixtiyoriga olishni (rekvizitsiya) to‘xtatish vazifasi ham qo‘yilgan edi. Turkiston respublikasi hukumati bu qarorni yashirishga harakat qilgan bo‘lsa-da, shov-shuvlardan so‘ng uni e’lon qilishga majbur bo‘ldilar. Ammo, ushbu qaror bo‘yicha e’tiborga molik biror-bir amaliy ish qilinmadi.

Sovetlar tuzumi Turkistondagi boshqaruvni tashkil etishda katta byurokratik apparatning paydo bo‘lishiga zamin yaratgan edi. Biroq, tadqiqotchilarning fikricha, bolsheviklarning kadrlar masalasidagi siyosati nafaqat milliy sohada, balki uquvsizligi bilan ham ajralib turadi. Misol uchun, davlatning mas’ul lavozimlarida mutlaqo savodsiz odamlarning ishlashi tabiiy hol edi. Bu xodim bolsheviklar manfaatini himoya qilishi kifoya edi. Undan tashqari, Turkistondagi oliy hokimiyat – Turkiston MIK, hukumat – Turkiston XKS, g‘oyaviy rahnamo – Turkiston KP kabi o‘lka boshqaruvida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tashkilotlar mahalliy aholi ixtiyorida bo‘lмаган. Tadqiqotlarga ko‘ra, Turkiston XKS va Turkiston Iqtisodiy Kengashidek yuqori vakolatlari organlarda o‘zbeklar ishlamagan. O‘lka boshqaruvidagi barcha yirik tashkilotlar, komissarlik-larning milliy tarkibi umumiy ko‘rsatkichlarda quyidagicha edi¹:

Millati	Soni	Foiz hisobida
Ruslar	3,166	78,1
Boshqa evropalik aholi	623	15,5
O‘zbeklar	132	3,3
Qirg‘izlar	34	0,8
Turkmanlar	4	0,1

1919 yilning 8 oktyabrida V.Lenin Butunrossiya MIK va RSFSR XKSning Turkiston ishlari bo‘yicha komissiya (Turkkomissiya) tuzish to‘g‘risidagi qarorini imzoladi. Bu komissiya tarkibiga SH.Z.Eliava – rais, M.V.Frunze, V.V.Kuybishev, YA.Rudzutak, F.I.Golosheykin, T.I.Bokiylar kirdilar. Ushbu komissiya juda katta vakolatlarga ega bo‘lib, jumladan, Butunrossiya MIK va XKSning vakolatiga, Turkiston hududlarida va qo‘sni davlatlarda ularning nomidan ish ko‘rish huquqiga, RKP (b) MK nomidan respublikada oliy partiya nazorati va rahbarligini amalga oshirishga, o‘lka partiya tashkilotlarini tarqatib yuborish, favqulodda s‘ezdlar va konferensiyalar chaqirish hamda partiya MK qarorlarini qat’iy bajarishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni ko‘rish huquqlariga ega edi. Ushbu komissiyaning asosiy maqsadi – mahalliy aholi manfaatlari yo‘lida ishslash emas, balki Turkistonda sovet hokimiyatining mavqeini mustahkamlash, imperiyaviy markaz bilan leninchal-

¹ Ражабов К., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи..., 55-56 бб. Муаллиф томонидан жадваллаштирилди.

rahbariyatning go‘yo “strategik to‘g‘ri yo‘lini buzgan”, yangi hokimiyatning maqsad va mohiyatlarini “buzib” ko‘rsatgan mahalliy arboblar faoliyatini nazorat qilish hamda ular o‘rtasidagi masofani uzoqlashtirishdan iborat edi.

Turkiston komissiyasi amalda mintaqadagi barcha partiya, sovet, xo‘jalik va partiya tashkilotlariga rahbarlik qilib, Markazdagi bolshevikcha siyosatni qat’iy ravishda amalga oshirishga kirishdi. Turkkomissiya o‘lkadagi butun hokimiyatni to‘laligicha o‘z qo‘lida to‘plab, faqat markaz manfaatlarini amalga oshiruvchi “davlat ichidagi davlat” vazifasini bajardi.

Sovet hokimiyatining Turkiston respublikasida hayotga tatbiq etgan dekret va qarorlari mahalliy xalqlarni mustamlakachilik asoratida tutib turish uchun xizmat qilgan edi. Xususan, Butunrossiya MIKning 1920 yil 10 apreldagi “Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi to‘g‘risidagi” qarorida, 1921 yil 11 apreldagi “Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasini ta’sis etish to‘g‘risidagi” dekretda, RKP (b) MK 1920 yil 19 iyunda qabul qilgan “Turkiston Respublikasi to‘g‘risidagi” Nizomda, umuman, RKP (b) tomonidan e’lon qilingan ko‘plab dekretlar, chaqiriqlar, murojaatnomalarda ko‘zda tutilgan xalqlarga erkinlik berish, o‘z taqdirlarini o‘zлari belgilash, ajralib chiqib mustaqil davlat tuzish huquqi o‘rniga Turkiston o‘lkasiga yarim huquq va erkinliklar berish, uni Rossiya tarkibidagi avtonom respublika shaklida saqlash siyosati izchillik bilan amalga oshirildi. Turkiston o‘lkasi mustamlakachilikning yangi “soviet” shakliga aylandi.

Sovet hokimiyatining Turkistonda olib borgan mustamlaka boshqaruvi siyosati hamda markazlashtirish harakatlari TSR boshqaruvi organlarida faoliyat ko‘rsatayotgan milliy rahbar xodimlarning kuchli noroziliklariga sabab bo‘ldi. Milliy communistlar o‘lkadagi bolsheviklar siyosatiga ochiqdan ochiq qarshi chiqsa boshladilar. Milliy rahbar xodimlarning norozilik kayfiyatlarini yuzaga chiqishida 1919 yil martda tuzilgan o‘lka Musulmonlar byurosi (Musbyuro) muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. CHunonchi, Qayg‘usiz Otaboev, YUsuf Aliev, Abdulla Rahimboev, Sanjar Asfandiyorov, Nazir To‘raqulov, Inomjon Xidiraliев kabi ko‘plab milliy rahbar xodimlar Turor Risqulov raisligidagi Musbyuro atrofida birlashgan edilar.

1920 yil yanvar oxirlarida Musbyuroning III konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Ushbu konferensiyada Turkistondagi uchta partiyaviy tashkilot – TKP O‘lka komiteti, Musbyuro va ajnabiy communistlar partiyasi yagona kommunistik partiyaga birlashtirildi. Konferensiya qarorida “Turkiston turkiy xalqlarining kommunistik partiyasi” deb rasmiy nomlangan ushbu partiya keng mehnatkashlar ommasining partiyasi bo‘lishi, RKP (b) MKga nisbatan viloyat (o‘lka) komiteti huquqlaridan foydalanuvchi va unga bo‘ysunuvchi o‘z MK tomonidan boshqarilishi kerak edi. SHuningdek, konferensiyada T.Risqulov tomonidan Turkiston Sovet Respublikasi nomini o‘zgartirib, uni **Turkiston respublikasi** deb atash taklif qilinganda bu taklif konferensiya ishtirokchilari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Taklif etilgan Turk respublikasiga TSR dan tashqari qo‘sni milliy respublikalarda (hoz. Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston davlatlari) yashovchi turkiy xalqlar kirishi kerak edi. T.Risqulov o‘z ma’ruzasida Turkiston respublikasi Konstitutsiyasini qayta ko‘rib chiqish, musulmonlarning alohida

armiyasini tuzish hamda qizil armiyaning musulmon bo‘lмаган барча қисмларини Turkistondan olib chiqib ketish masalasini ham ko‘targan edi. T.Risqulovning ushbu g‘oyalari TKPning V o‘lka konferensiyasi (1920 yil yanvar) da ham ma’qullandi. Musbyuroning III konferensiyasi “Turkiston muxtoriyati va Konstitutsiyasi haqidagi rezolyusiya” qabul qildi. Ushbu hujjatda quyidagi takliflar bor edi¹:

1. Besh viloyat – Sirdaryo, Ettisuv, Farg‘ona, Samarqand, Kaspiyorti viloyatlaridan iborat Turkiston qirg‘iz, o‘zbek, qoraqalpoq, qipchoq, taranchi, tatar, dungan va boshqalardan iborat turkiy xalqlar (shuningdek, tojik, kelib chiqishi turk bo‘lмаган mahalliy yahudiylar hamda boshqa chetdan kelgan rus, armani, yahudiylar) mamlakatidir.
2. RSFSR Konstitutsiyasining 2-moddasiga muvofiq, Turkiston muxtor respublikasi milliy sovet respublikasi hisoblansin, unda o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi mahalliy xalq turkiy xalqlardir. SHu tufayli hududiy mazmun kasb etuvchi “RSFSR Turkiston Respublikasi” nomli “RSFSR Turk respublikasi” deb o‘zgartirilsin.
3. Sovet Turk respublikasi o‘z davlat faoliyati va Konstitutsiyasini mahalliy aholining tarixiy, iqtisodiy turmush talablariga javob bera oladigan asosda qurishi lozim.
4. Turkistonning besh viloyati o‘rtasidagi geografik chegaralar to‘siq hisoblanmasin.
5. Turkiston Respublikasi Sovetlarining VI s’ezdida tasdiqlangan Konsitutsiyasi qayta ko‘rib chiqilsin..., mahalliy hayotga muvofiq keladigan, RSFSR mehnatkashlari va ezilgan xalqlari huquqlari Deklaratsiyasi asosidagi yangi Kostitutsiya ishlab chiqilsin.
6. Ezilgan xalqlar mehnatkashlarini baynalmilal jipslashtirish manfaatlarini ko‘zlab, turkiy xalqlarni tatar, qirg‘iz, boshqird, o‘zbeklarga ajratib bo‘lib tashlash va alohida mayda respublikalar tuzish uchun intilishlarga kommunistik tashviqot yo‘li bilan barham berilsin...

T.Rizqulov Moskvaga, RKP (b) MK va V.Lenin nomiga bir necha marta radiogramma orqali xabar yuborib bu rezolyusiyani tasdiqlashni so‘radi. Ammo, ushbu rezolyusiya Turkkomissiya tomonidan keskin qoralanib, T.Rizqo‘lov va uning tarafдорлари “milliy og‘machilik”da ayblanib, ularga “panturkist” tamg‘asi bosildi. 1920 yil 8 martda RKP (b) ning maxsus qarori bilan “Turkiston turkiy xalqlarining kommunistik partiyasi va Turk respublikasi” tuzish haqidagi qaror noqonuniy ravishda rad qilindi. T.Rizqulovning Moskvaga, Lenin huzuriga shaxsan borib “Turkistonda davlat qurilishi to‘g‘risidagi Nizom” loyihasini taqdim etishi ham samarasiz tugadi.

1920 yilning iyun oyida Turkkomissiya tarkibidan RKP (b) Turkiston byurosi (Turkbyuro) ajralib chiqdi. Turkbyuro partiya tashkilotlari faoliyatini nazorat qilib, Turkkomissiyaning izdoshi sifatida mintaqada Markazning mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Turkbyuro faoliyatini 1921-1922 yillarda

¹ Ражабов К., Ҳайдаров М. Туркистон тарихи..., 69-70 бб.

YA.Rudzutak, A.Ioffe, S.Gusev boshqardilar. 1922 yil may oyida Turkbyuro RKP (b) tomonidan O‘rtta Osiyo byurosini qilib qayta tuzildi.

1920 yilning yozidan boshlab Turkiston respublikasida vaziyat keskin o‘zgardi. T.Rizqulov hamda uning tarafdorlari hukumatdagi mas’ul lavozimlaridan iste’foga chiqdilar. Hokimiyat tepasiga esa Turkkomissiya va Turkbyuronining xohishi bilan hisoblashadigan shaxslar keldilar. Faqat Markazning ko‘rsatmalari bilan ish olib boradigan Turkkomissiya Turkistondagi butun hokimiyat organlarini o‘z qo‘liga olib, respublikada yangi sovet mustamlakachilik tizimini o‘rnatishga harakat qildilar va afsuski bunga erishdilar. Natijada Turkiston ikkinchi marta Rossiyaning xom ashyo bazasiga aylandi.

Bolsheviklar o‘rnatgan sovet rejimi Turkiston xalqlariga nafaqat mustaqillik, hatto milliy mustaqillikni ham bermadi. Mustaqillik osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini anglab etgan milliy vatanparvarlar qo‘lga qurol olib bolsheviklar va bosqinchi qizil armiyaga qarshi istiqlolchilik harakatini boshlab yubordilar.

Turkiston Muxtoriyatining qonga botirilib tugatilishi istiqlolchilik harakatining butun Farg‘ona vodiysida boshlanishiga turtki bo‘ldi. Bu kurash 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi. SHu yilning mart oyiga kelib Farg‘ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ziyod qo‘rboshi dastalari faoliyat ko‘rsatgan. Mart oyining oxirlarida Farg‘onadagi Bachqir qishlog‘ida Farg‘onadagi butun qo‘rboshlarining birinchi Qurultoyi chaqirilib, unda Katta Ergash qo‘rboshi butun istiqlolchilik harakatining boshlig‘i qilib saylandi va unga “Amir al-muslimin” unvoni berildi. Uning o‘rinbosarlari qilib Madaminbek va SHermuhammadbeklar tayinlandi.

Bu harakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi-dehqonlar, chorikorlar, mardikorlar, hunarmandlar va kosiblar bo‘lgan. 1918 yilning o‘rtalariga kelib, Farg‘ona vodiysida taxminan yuzga yaqin qo‘rboshilar o‘z dastalari bilan qizil armiyaga qarshi kurash olib bordilar. Bu guruhlarda 15.000 yigit bor edi. 1919 yilning yozi va kuzida Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi.

Bu paytda istiqlolchilar safiga rus krestyanlari armiyasining K.Monstrov boshchiligidagi Jalolobodda turgan qo‘shinlari qo‘shildilar (2 sentyabr). Sentyabrning boshlarida istiqlolchilar Jalolobod va O‘sh shaharlarini egallab, Andijonni qamal qildilar. 1919 yil 22 oktyabrda Pomir etaklaridagi Ergashtom ovulida bo‘lgan istiqlolchilar anjumanida Madaminbek boshchiligidagi Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati tuzildi. Hukumat tarkibiga mahalliy aholidan 16 kishi, evropalik aholidan 8 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig‘i va Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining Oliy bosh qo‘mondoni etib saylandi.

1919 yilning kech kuziga kelib Madamindek qo‘l ostidagi 30.000 ga yaqin, SHermuhammadbek qo‘l ostidagi 20.000, Katta Ergash qo‘rboshining 8.000 ming yigitlari qizil armiyaga qarshi janglar olib bordi. Bu uchta lashkarboshi vodiydagি jangovar harakatlarni yo‘naltirib turdilar.

1920 yil 3 mayda Farg‘ona vodiysidagi butun qo‘rboshilar va tinch aholi vakillari Oltiariq tumaanidagi G‘oyibota qishlog‘ida o‘zlarining navbatdagi qurultoyini o‘tkazdilar. Bu qurultoyda SHermuhammadbek boshchiligidagi

Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyati yoki Turkiston muvaqqat hukumati tuzildi. Boymirza Hayitning yozishicha, hukumat tarkibiga 6 kishi kiritilgan bo‘lib, ular quyidagilar edi: SHermuhammadbek-hukumat raisi va Oliy bosh qo‘mondon; Mullajon Qori – xavfsizlik noziri; Akbarjon Eshon – SHayxulislom; Abdusalom Qori – hukumatning bosh kotibi; Nazirjon – moliya vaziri; Mulla Hoji Niyoziy-maxsus ishlar noziri. Undan tashqari, 14 kishidan iborat harbiy idora mahkamasi ham tuziladi.

1922 yilning 15-20 aprelida Samarqand shahrida, yashirin holatda Turkiston musulmonlarining 2-qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Kaspiyortidan nufuzli qo‘rboshilar ishtirot etgan ushbu qurultoyda Turkiston-turk mustaqil islom jumhuriyatining Muvaqqat Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Istiqlolchilik harakati 1920-1924 yillarda Buxoro va Xorazm respublikalarida ham avj oldi. Buxoroda Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor, Davlatmandbek, Anvar posho, Jabborbek kabi qo‘rboshi va yo‘lboshchilar, Xorazmda Qurbon Mamed Sardor Junaidxon, Madrayimboy, Sa’dulla bola, SHokir bola, Mavlonebek kabilar bu harakatga boshchilik qildilar.

1914 yil avgust oyida Xorazm jadidlari Polvonniyoz Hoji YUsupov boshchiligida “**YOsh xivaliklar**” partiyasini tuzdilar. Bu tashkilot dasturining asosini mavjud tuzum doirasida islohotlar o‘tkazish, mакtab-maorif ishini yaxshilash, xon hokimiyatini cheklash kabi masalalar tashkil etar edi. 1915-1916 yillarda Xiva xonligining istibdodiga qarshi Junaidxon boshchiligidagi turkmanlarning qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tdi.

Turkman, o‘zbek, qozoq aholisining mavjud tuzumga qarshi kurashini “**YOsh xivaliklar**” partiyasi rahbarlari faol qo‘llab-quvvatladilar.

1917 yil fevral inqilobidan so‘ng Xiva garnizonidagi soldatlar ham xuddi Rossiyadagi kabi o‘z sovetlarini tashkil etdilar. Bu hukumatga qasamyod qilish uchun Xiva shahrida rus askarlari to‘plandilar. Bu vaziyatdan foydalangan “**YOsh xivaliklar**” harbiy otryad boshlig‘i polkovnik Merzlyakovdan yordam so‘radilar. Merzlyakovning qo‘llab-quvvatlashi bilan “**YOsh xivaliklar**”ning katta guruhi Xiva xoni saroyi oldida to‘plandilar. Ular nomidan Polvonniyoz Hoji YUsupov va Nazir SHolikorovlar Asfandiyorxon huzuriga kirib xondan davlatni konstitutsiya asosida boshqarish, xonning ayrim mulozimlarini ular qo‘liga topshirilishini talab qildilar.

Rossiyadagi siyosiy voqealar, chor hukumatining ag‘darilishi va Xivada ro‘y berayotgan voqealardan xavfsiragan xon YOsh xivaliklar talablarini qabul qilishga majbur bo‘ldi hamda ular tomonidan tayyorlangan manifestga imzo chekdi. Etti punktdan iborat manifestning birinchi punktida shunday so‘zlar bor edi: “... men Xiva xoni Said Asfandiyor Bahodirxon... mening sodiq fuqarolarimga “**Idorai mashrutiya**” berdim, toki ular o‘zlari xoxlagancha mamlakatni shariatga muvofiq ham zamon taqozosiga muvofiq idora qilsinlar. CHunonchi, o‘zlari xoxlagancha fuqarolarning maslahati bilan saylov qilib, hukumat ishlariga o‘zlari xoxlagan odil odamlarni tayin qilsinlar”.

1917 yil 6 aprel kuni bu manifest Xivadagi ark maydonida ko‘p ming kishilik xalqqa o‘qib eshittirildi. Mamlakatni boshqarishda yangi tuzilgan idorasi

“Idorai mashrutiya”ga YOsh xivaliklardan Polvonniyoz Hoji YUsupov va Husainbek Muhammadmurodovlar saylandilar.

“Idorai mashrutiya” ni tashkil etishga erishgan YOsh xivaliklarning o‘z dasturi bo‘lib, o‘z davri talablariga javob beruvchi bu dastur xon istibdod tuzumini tugatish, Xiva viloyatini Turkiston bilan birlashtirish, xonlar, beklar, qozilar, shahzodalar qo‘lidagi ortiqcha boylikni xalq mulkiga aylantirish, yirik zamindorlar qo‘lidagi ortiqcha mulklarni kambag‘allarga bo‘lib berish, vaqf erlaridan tushadigan mablag‘lar hisobidan xalq maorifini rivojlantirish, bolalarni bepul o‘qitadigan maktablar ochish, kasalxonalar qurish, aholining kambag‘al qismiga xon tomonidan tortib olingan erlarni qaytarib berish, yo‘llar va ko‘priklar qurish, majburiy ishlarni bekor qilish kabi talablarni ilgari surgan.

Ammo, YOsh xivaliklar hukumati uzoq mavjud bo‘lmadi. Asfandayorxon Xiva garnizoni boshlig‘i general Mirabdalov, nufuzli ruhoniylar va Junaidxon yordamiga tayanib 1917 yil 23 mayda “Idorai mashrutiya” ni tarqatib yubordi. Tashkilotning Husaybek Matmurodov va bir qancha a’zolari zindonga tashlandi. Polvonniyoz Hoji YUsupov, Nazir SHolikorov, Bobo Oxun Salimov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobojon YAkubov va boshqalar To‘rtko‘l, CHorjo‘y, Toshkent kabi shaharlarga qochib ketdilar.

1918 yilning yanvarda polkovnik M.Zaysev boshchiligidagi rus qo‘shinlari Xivadan jo‘nab ketdilar. Bu vaziyatdan unumli foydalangan Junaidxon darhol o‘z qurolli kuchlari bilan Xivani egalladi. Amaldor-larning noroziligidan cho‘chigan Junaidxon Asfandiyorxonni taxtda qoldirdi. Ammo, hokimiyat butunlay Junaidxon qo‘liga o‘tdi. 1918 yil 30 sentyabrdan Junaidxon xon saroyida davlat to‘ntarishi uyushtirdi va Asfandiyorxon taxtdan ag‘darilib, 1 oktyabr kuni qatl ettirildi. 3 oktyabr kuni Asfandiyorxonning akasi Said Abdullaxon xonlik taxtiga o‘tirgan bo‘lsada, amaldagi boshqaruvi Junaidxon qo‘lida qoldi.

Junaidxon Xiva xonligi hududida bolsheviklardan mustaqil bo‘lgan davlatni saqlab qolishga harakat qildi. 1918 yil noyabr oyida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi erlarda tashkil etilgan sovet hukumatiga qarshi Junaidxon bir necha marta muvaffaqiyatsiz urushlar olib bordi. 1919 yil aprel oyida sovet hukumati bilan Junaidxon o‘rtasida Taxta shartnomasi tuzildi. Ammo, bu vaqtinchalik kelishuv bo‘lib, unga har ikkala tomon ham amal qilmadilar. Bu paytda To‘rtko‘lda Jumaniyoz Sultonmurodov rahbarligida YOsh xivaliklar partiyasining qo‘mitasi tuzilgan bo‘lib, ularning soni Xiva xonligi hududidan qochib o‘tganlar hisobiga kundan kun ko‘payayotgan edi.

1919 yilning yoziga kelib, Amudaryo bo‘limida siyosiy ahvol ancha keskinlashdi. Amudaryo bo‘limining shimoliy qismida, Zair degan aholi yashaydigan punktda qozoq atamani Filchev hamda yirik qoraqalpoq feodali Xon Maxsim boshchiligidida Sovet hukumatiga qarshi chiqishlar bo‘lib o‘tdi. Ataman Filchev otryadini quolsizlantirish hamda CHimboy sovetini mustahkamlash uchun yuborilgan A.Xristoforov boshchiligidagi 17 ta favqulodda komissiya va 80 kishilik qurolli askarlar 1919 yil 14 avgustda qirib tashlandi. Nukus, Zair, Mo‘ynoq orasidagi erlar egallanib, bu hududlarda ataman Filchev boshliq hukumat tuzildi. Junaidxon bu hukumatni darhol tan oldi.

Bu davrga kelib YOsh xivaliklar, turkman urug‘lari orasida Qo‘shmamedxon, G‘ulomalixon kabi urug‘ sardorlarining Junaidxon bilan ziddiyatlari keskinlashib ketgan edi. Sovet hukumati bu holatdan unumli foydalandi. 1919 yil 25 dekabr kuni Amudaryo bo‘limi qo‘shinlarining bolsheviklar boshchiligidagi janubiy otryadi Amudaryoning chap qirg‘og‘iga o‘tib, N.SHeydakov boshchiligida To‘rtko‘ldan Nukus yo‘nalishi tomon hujum boshlab 29 dekabrda Xo‘jaylini egalladilar. 1920 yil 7 yanvar kuni Ko‘hna Urganch bolsheviklar tomonidan egallandi. SHuningdek, qizil askar qo‘shinlari 14 yanvarda Pursi, 16 yanvarda Ilonli, 18 yanvarda Toshhovuz shaharlariда sovet hokimiyatini o‘rnatib, 1 fevral kuni Xiva shahriga kirib keldilar. Junaidxon qo‘shinlari ham tormor qilindi. Junaidxon qolgan-qutgan yigitlari bilan cho‘lga chekindi. 2 fevral kuni so‘nggi Xiva xoni Said Abdulkxon taxtdan voz kechdi.

Xiva xoni taxtdan tushirilgach, xonlikda butun hokimiyat besh kishidan iborat muvaqqat inqilobiy hukumat (revkom) qo‘liga o‘tdi. Hukumat raisi – Jumaniyoz Sultonmurodov, Bobo Oxun va Jalol Oxun Salimovlar – oliv ruhoniylar vakillari, Qo‘shmamadxon Sapaev va Mullao‘roz Hojimuhamedovlar – hukumat a’zosi qilib tayinlandilar. 1920 yil 9 aprelda muvaqqat inqilobiy hukumat tarkibiga tarmoqlar bilan shug‘ullanuvchi nozirliklar tashkil etildi. SHayxutdin Hasanov – **harbiy nozir**, Polvonniyoz Hoji YUsupov – **davlat nazorati noziri**, Eshchon qori Jabborqulov – **xalq xo‘jaligi noziri**, Mulla Bekjon Rahmonov – **xalq madaniyati va maorifi noziri**, Bobo Oxun Salimov – **adliya noziri** qilib tayinlandilar. SHuningdek, **davlatni boshqarish, sud va adliya ishlari** qayta ko‘rib chiqildi. Hukumatning maxsus qarori bilan Oliy inqilobiy sud va adliya nozirligi tashkil qilindi. Oliy inqilobiy sudga Olimjon Akchurin rais, Qo‘shmamadxon Sapaev va Bobo Oxun Salimovlar a’zolar etib tayinlandilar. Umumjinoiy va fuqarolik ishlarini ko‘rib chiqish va hal qilish uchun xalq sudi tashkil qilinib, unga Abdulvohid Qoriev rais bo‘ldi.

Xiva shahrida tashkil qilingan maxsus militsiya boshqarmasi tartib-intizomni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash ishlari bilan shug‘ullanib, unga Nazir SHolikorov raislik qildi. Muvaqqat inqilobiy hukumat farmoniga binoan, qyonoq, urib azoblash va o‘lim bilan bog‘liq barcha jazolar bekor qilindi.

1920 yil 26-30 aprel kunlari Xivada Butunxorazm xalq vakillarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda ishtirok etgan 200 ta vakilning 80 tasi turkman aholisi vakillari edi. Qurultoyda Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e’lon qilib, XXSR konstitutsiyasi, davlat gerbi va bayrog‘ini tasdiqladi.

XXSRning birinchi **Konstitutsiyasida** davlat tuzumi masalasiga alohida bo‘lim ajratildi. Unda davlat oliv hokimiyat va boshqaruv organlari, mahalliy organlarni tashkil etish tartibi, tuzilishi, ularning vakolatlari belgilab berildi. Respublikaning eng muhim ishlarini hal qilish oliv hokimiyat organi bo‘lgan Umumxorazm xalq vakillari qurultoyiga tegishli deb topildi. Respublikani boshqarish qurultoy tomonidan saylab qo‘yiladigan va uning oldida hisobot beradigan, 15 ta a’zodan iborat **Xalq Nozirlari kengashi** zimmasiga yuklandi.

SHuningdek, birinchi Konstitutsiyada XXSR ning mudofaasini tashkil etish, vaqf ishlari, xorijiy fuqarolarning huquqiy holati, aktiv va passiv saylov huquqlari,

saylov huquqidan mahrum qiladigan shaxslar, saylov tartibi, iqtisodiy siyosat to‘g‘risida, xon va xon avlodlarining mulki to‘g‘risida, respublikaning bayrog‘i va gerbi masalalari mustahkamlandi.

Konstitutsiya XXSR ning barcha fuqarolariga jinsi, kasbi va millatidan qat‘iy nazar so‘z, matbuot, majlis o‘tkazish, tashkilotlar tuzish huquqlari berilganligini e’lon qildi.

Qurultoyda yangi hukumat tarkibi quyidagicha saylandi:

1. Polvonniyoz Hoji YUsupov – XXSR XNKning raisi;
2. Jumaniyoz Sultonmurodov – XNK raisining birinchi muovini;
3. Qo‘shmamadxon Sapaev – XNK raisining ikkinchi muovini;
4. Bobo Oxun Salimov – adliya noziri;
5. Bekchon Rahmonov – maorif noziri;
6. Eshchon (qori) Jabborqulov – xalq xo‘jaligi noziri;
7. Matpanboy Madrahimov – moliya noziri;
8. Xudoybergan Devonov – davlat nazorati noziri;
9. Rizo SHokirov – harbiy nozir;
10. Nazir SHolikorov – ichki ishlar noziri;
11. SHomurod Baxshi – sog‘liqni saqlash noziri;
12. G‘ulomalixon Bahodir – ijtimoiy ta’midot noziri;
13. Hakim Bobojonov – ziroat (qishloq xo‘jaligi) noziri;
14. Abdulvohid Qoriev – adliya noziri muovini;
15. O‘roz Xo‘jamuhamedov – tashqi ishlar noziri.

XXSR rahbariyati o‘z konstitutsiyasiga binoan mustaqil davlat sifatida ish olib borishga harakat qildi. Konstitutsiyaga binoan yangi davlat quyidagi 22 ta tumanga bo‘lingan edi: Darg‘onota, Pitnak, Hazorasp, Beshariq, Xonqa, YAngi Urganch, Gurlan, Qipchoq, Mang‘it, Qilichboy, Monoq, Toshhovuz, Po‘rsi, Xo‘jayli, Ko‘hna Urganch, Qo‘ng‘iroq, Xiva, Ilonli, G‘azovot, SHovot, Xitoy, Qo‘shko‘pir.

1921 yil 15-23 may kunlari II Butunxorazm sovetlari vakillarining qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Qurultoyda XXSR MIK qoshida etti kishidan iborat maxsus turkman bo‘limi tashkil etildi. Unga Mulla O‘roz Xo‘jamuhammedov rahbar bo‘ldi. Ushbu bo‘limning asosiy vazifasi turkmanlar yashaydigan erlardagi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, milliy, madaniy masalalarni, urug‘lar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va uni yaxshilash, mehnatkash xalq faolligini oshirish, ular yashaydigan hududlarda dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish, hunarmandchilikni taraqqiy ettirish hamda ular madaniyatini oshirishdan iborat edi.

SHuningdek, qurultoyda XXSR Konstitutsiyasiga qo‘shimchalar va o‘zgartirishlar kiritildi. Oldingi Konstitutsiyadan farq qilgan holda ushbu Konstitutsiyada Qurultoy va Xorazm MIKning vakolatlari mustahkamlandi. **Umumxorazm qurultoyi va MIK vakolatlariga** – XXSR Konstitutsiyasini qabul qilish; chegaralarni o‘rganish, o‘zgartirish va XXSR ga tegishli hududlar doirasini tasdiqlash; XXSRda pul, og‘irlik o‘lchovlarini belgilash va o‘zgartirish; chet mamlakatlar bilan aloqalar olib borish; urush va tinchlik masalalarini hal qilish; qarz olish, bojxona, savdo va moliya shartnomalarini tuzish; XXSR hududida xalq xo‘jaligining umumiyligi rejalarini belgilash; davlat byudjetini o‘rnatish; umumdavlat

qonunchiligi, sud tuzilishi, fuqarolik, jinoiy sud yuritish va boshqa qonunchilikni amalga oshirish; umum davlat soliq va yig‘imlar o‘rnatish; XNK a’zolarini lavozimiga tayinlash va ozod qilish; XNK raisini tasdiqlash; Xorazm fuqaroligini olish va yo‘qotish; respublika hududida xorijiy fuqarolarning huquqlari to‘g‘risida qarorlar qabul qilish; har qanday masalani o‘zlarining xoxishlariga ko‘ra ko‘rib chiqish va hal qilish kiritilgan.

Xorazm respublikasi tuzilgan dastlabki oylardan boshlab undagi g‘oyaviy – siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. “YOsh xivaliklar” hukumati va demokratik kayfiyatdagi kuchlar mahalliy sharoitni tushungan holda aholining urf-odatlari hamda qadriyatlariga mos holda ish olib bordilar. Ammo, markazdan jo‘natilgan qizil armiya va uning boshliqlari, kommunist bolsheviklar XXSR dagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga mutlaqo salbiy ta’sir ko‘rsatdilar. Ular qonunga xilof ravishda respublikaning ichki ishlariga aralashdilar hamda mahalliy sharoit, xalq ommasining kayfiyati va xoxish irodasini umuman hisobga olmay inqilobiy chora-tadbirlarni, sovetlashtirish siyosatini amalga oshirdilar.

SHunga qaramasdan, respublikaning ko‘plab mahalliy rahbar kadrlari mustaqillik uchun, adolatsizlikka qarshi g‘oyaviy kurash olib bordilar. Misol uchun, 1923 yil bahorida XXSR savdo sanoat noziri K.Nurullaev Moskvada RSFSR bilan bo‘layotgan muzokaralarda XXSR foydasiga qat’iylik ko‘rsatgani uchun uchun Xorazmga chaqirilib, qamoqqa olindi. 1923 yilning yoz va kuzida Sovet Rossiyaning ko‘rsatmalari asosida Xorazm respublikasida tub islohotlar amalga oshirilib, oktyabr oyida XXSR Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirildi.

Ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida paydo bo‘lgan “**YOsh buxoroliklar**” partiyasi 1910 yildayoq o‘zlarini alohida tashkilot sifatida e’lon qilgan edilar. Buxorodagi jadidchilik harakatidan o‘sib chiqqan YOsh buxoroliklarning faoliyati 1917 yilga kelib ancha kuchaygan edi. SHu yilgi fevral inqilobi Buxoro amirligiga ham ta’sir etmasdan qolmadi. Mart oyining boshlarida YAngi Buxoro, Termiz, Chorjo‘y va Karkida ishchi, soldat va dehqon sovetlari tuzildi. Bunday sharoitda “YOsh buxoroliklar” mavjud monarxiya tuzumi doirasida demokratik islohotlar o‘tkazish, konstitutsion monarxiyani o‘rnatish orqali amirning mutlaq hokimiyatini cheklab qo‘yish tarafdiri bo‘ldilar.

Demokratik kuchlarga tayangan “YOsh buxoroliklar”ning qat’iy talablari asosida Buxoro amiri Sayyid Olimxon 1917 yil 7 aprelda mamlakatda islohotlar o‘tkazish to‘g‘risida farmon chiqardi. Ushbu islohotda amirlikdagi o‘rta asrlar boshqaruvi tizimiga o‘zgartirishlar kiritish, amaldorlarni saylab qo‘yish tizimiga o‘tish, amirlik poytaxtida amaldorlar, savdogarlar va dindorlar tarkibida shahar xo‘jaligi, xalq ta’limi va sog‘liqni saqlashni boshqarish uchun majlis tuzish, shariatniadolatni amalga oshiruvchi va soliqlarni muqobillashtirib turuvchi yagona huquq sifatida e’tirof etish, aniq davlat byudjeti o‘rnatish, savdo-sotiqni har tomonlama rivojlantirish, aniq fanlarni rivojlantirish kabilar ko‘zdautilgan edi. Ammo, bu islohot amalda joriy etilmadi.

1917 yil 9 aprelda jadidlar Buxoro shahrida islohotlarni hayotga tadbiq etishni talab qilib namoyish o‘tkazdilar. Ammo, namoyishchilar amir hukumati tomonidan tarqatib yuborildi va “YOsh buxorolik”larning ko‘pchiligi jazolanib,

ta'qib ostiga olindi. Bu voqealardan so'ng, 14 aprelda amir Olimxon islohotlar o'tkazishni rad etdi.

Oktyabr inqilobidan so'ng sovet Rossiysi bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib ketdi. Turkiston Respublikasining bolsheviklardan iborat rahbariyati Buxoro amirligining mustaqilligini rasman tan olishiga qaramay, amalda uning ichki ishlariga doimiy ravishda aralashib turdi. Bu paytga kelib "YOsh buxoroliklar" partiyasi ichida turli guruhlarning mavjudligi, qarashlarining xilma-xilligi tufayli partiyaning yagona dasturini tuzishga ehtiyoj paydo bo'ldi. "YOsh buxoroliklar" partiyasining markaziy komiteti bu vazifani 1917 yil noyabrida Fitratga topshirdi. Abdurauf Fitrat tomonidan tayyorlangan "YOsh buxoroliklar" partiyasining **Dasturi** 1918 yil yanvarida partiyaning markaziy komiteti tomonidan tasdiqlandi va islohot loyihasi sifatida e'lon qilindi.

Ushbu dasturda Buxoro amirligida konstitutsion monarxiya o'rnatish, Buxoroning iqtisodiy, siyosiy va harbiy mustaqilligini ta'minlash, madaniy taraqqiyotga erishish, dehqonchilik va soliq tizimiga alohida e'tibor qaratish, Buxoroda zamonaviy armiyani tashkil etish, ikki yillik majburiy harbiy xizmatni joriy etish, davlat hisobidan mакtablar va oliy o'quv yurtlari ochish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan edi. SHuningdek, ushbu loyihada Buxoroda 10 ta nozirlikdan iborat Nozirlar SHO'rosi tuzish taklif etildi.

1920 yil 13-14 iyunda "YOsh buxoroliklar" partiyasining Turkiston Markaziy byurosi birlashgan konferensiyasida Fayzulla Xo'jaev tuzgan **Dastur** qabul qilindi. Ushbu dasturda amirlikni kuch bilan ag'darib tashlash va Buxoroni Demokratik xalq respublikasi deb e'lon qilish talabi qo'yildi. "YOsh buxoroliklar" yirik boylar qo'lidagi erlarni musodara qilish, bepul boshlang'ich ta'lim joriy etish, qishloq xo'jaligi, hunarmandlar sanoati, ichki va tashqi savdoning ahvolini yaxshilash yo'llida amaliy chora tadbirlar ko'rish zarurligini ta'kidlangan edilar.

1920 yilning 2 sentyabrida M.Frunze boshchiligidagi qizil armiyaning shafqatsiz hujumlaridan so'ng amirlikning poytaxti Buxoro shahri bosib olindi va Amir Olimxon taxtdan ag'darildi. SHundan so'ng, qizil armiya amirlikning barcha bekliklarini birin-ketin egallab, amirlikka butunlay barham berdi.

1920 yil 14 sentyabrda Xalq Nozirlar SHO'rosi, Buxoro muvaqqat inqilobiy qo'mitasi va Buxoro Kompartiyasi MK ning umumiyligi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda 9 kishidan iborat Abduqodir Muhiddinov raisligida Butunbuxoro inqilobiy qo'mitasi va 11 kishidan iborat respublika hukumati – Fayzulla Xo'jaev raisligidagi **Xalq Nozirlar SHO'rosi** tuzildi. Buxoro Xalq Nozirlari SHO'rosining tarkibi quyidagicha edi:

Fayzulla Xo'jaev – rais, xorijiy – **tashqi ishlar noziri**;

Qori Yo'ldosh Po'latov – **maorif noziri**;

Muxtor Saidjonov – doxiliya – **ichki ishlar noziri**;

Usmonxo'ja Po'latxo'jaev – **moliya ishlari noziri**;

Najib Xusainov – **davlat nazorati noziri**;

YUsuf Ibrohimov – **favqulodda komissiya noziri**;

Mukammil Burxonov – **adliya noziri**;

Bahovuddin Shahobuddinov – **harbiy ishlar noziri**;

Abdulqodir Muhiddinov – **er-suv ishlari noziri**;

Mirzo Muhiddin Mansurov – **savdo va sanoat ishlari noziri**.

1920 yilning 6-8 oktyabr kunlari Buxorodagi Sitorai Mohi Xosada Butunbuxoro xalq vakillarining I qurultoyi chaqirilib, unda **Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)** tuzilganligi e'lon qilindi. Bu respublika davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik hokimiyati edi. Qurultoy davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi bo'lgan Buxoro inqilobiy qo'mitasi va dastlabki hukumat tarkibi bo'lgan Buxoro Xalq nozirlar SHO'rosini o'zil-kesil tasdiqladi. Ularning vakolat muddati II qurultoygacha o'zaytirildi.

1920 yil oktyabrdan BXSR bilan Rossiya o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy bitim tuzildi. 1921 yil 4 martda esa har ikkala davlat o'rtasida Ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar yosh Buxoro davlati arboblarining mustaqil siyosat yuritishga qaratilgan harakatlari faoliyatini ma'lum darajada cheklashga olib keldi. CHunki, ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shnulari saqlanishini qonuniy qilib asoslab berdi. Bu esa Rossiyaning BXSR ichki ishlariga harbiy jihatdan qurolli aralashuvi edi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi (1920-1924 yy.)

Nº	Viloyatlar	Tumanlar va kentlar
1	Boysun	Boysun, Darband, Qumqo'rg'on
2	Qarshi	Beshkent, Koson, CHim
3	Buxoro	Vobkent, Boyoviddin, G'ijduvon, Qorako'l
4	G'uzor	G'uzor, Tangatushar, YAngi, Qamashi
5	Karmana	Ziyoviddin, Karmana, Xatirchi
6	Nurota	Qo'shrabot, Nurota, Naymantopdi
7	Sariosiyo	Sariosiyo, YUrchi, Qoratog'
8	SHaxrisabz	Kitob, CHiroqchi, SHaxrisabz, YAkkabog'
9	SHerobod	Termiz, SHerobod, Kalif
10	Garm	Garm, Darvoz, Jirgitol, Xaid, Qal'ai Labiob
11	Dushanbe	Hisor, Dushanbe, Fayziobod, YAvan, YAngibozor
12	Ko'lob	Ko'lob, Mo'minobod, Xovalang
13	Qo'rg'ontepa	Kobadiyon, Qo'rg'ontepa, Saroy
14	Karki	Qiziloyoq, Karki, Xaloch, Xojamboz
15	CHorjo'y	Denov, CHorjo'y, Sayot, Farob

1920 yilning kuzida Buxoro Xalq Respublikasida dastlabki ma'muriy-hududiy bo'linish o'tkazilib, u viloyatlar, tumanlar, kentlar va qishloqlarga ajratildi. Respublikaning poytaxti Buxoro shahri muhim siyosiy-ma'muriy markaz bo'lib, bu erda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotini iqtisodiy va madaniy rivojlanishini boshqaruvchi barcha tashkilotlar to'plangan edi. Ta'kidlash joizki, Buxoro respublikasidagi ma'muriy-hududiy bo'linish ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatga qarab tez-tez o'zgarib turgan. Misol uchun, BXSR da 1922 yilda 7 ta, 1923 yilda 8 ta, 1924 yilda 15 ta viloyat mavjud edi.

1924 yil 1 oktyabrdan Butunbuxoro MIK qarori bilan Buxoro respublikasida ma'muriy-hududiy bo'linish qayta o'tkazilib viloyatlar o'rniga quyidagi 5 ta okruglar tuzildi:

1. Zarafshon okrugi – Buxoro, Karmana, Nurota viloyatlari;
2. Qashqadaryo okrugi – Qarshi va SHaxrisabz viloyatlari;
3. Surxondaryo okrugi – SHerobod, Termiz, Boysun, Qarluq, Qobadiyon, Qo'rg'ontepota tumanlari;
4. Turkman (Amudaryo) okrugi – Karki va CHorjo'y viloyatlari;
5. SHarqiy Buxoro okrugi – Ko'lob, Boysun, Sariosiyo, Garm, Dushanbe, Qo'rg'ontepota viloyatlari.

Buxoro respublikasi Afg'oniston davlati, Xorazm respublikasi va Turkiston ASR bilan chegaradosh bo'lib, unda mustaqil davlatchilikning Konstitutsiya, bayroq, gerb, poytaxt, milliy valyuta, qo'shin kabi belgilari mavjud edi. Respublikada 1921 yil 11 martda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilingan.

BXSR ning oliy organi Umumbuxoro qurultoyi hisoblangan. Umumiyy MIK oliy nazorat organi sifatida Buxoro Respublikasining hukumati Xalq Nozirlar SHo'rosi ustidan ham faoliyatni amalga oshirgan. Xalq Nozirlar SHo'rosi davlat boshqaruvining oliy organi bo'lib, ijro-farmoyish sohasida keng vakolatlarga ega bo'lган. Mahalliy hokimiyat organlari **viloyat, tuman, kent** xalq sho'rolarining kengashlari va ularning ijroya qo'mitalaridan tashkil topgan.

BXSRdagi qishloq, ovul doirasidagi mahalliy hokimiyat qishloq va ovul aholisining umumiyy yig'ilishi orqali amalga oshirilgan. U **oqsoqol** tomonidan chaqirilgan va oqsoqol **qishloq, ovul** aholisi umumiyy yig'ilishi tomonidan bir yil muddatga saylangan.

1921 yil 18-23 sentyabrdan Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyi bo'lib o'tdi va unda **BXSR Konstitutsiyasi** qabul qilindi.

Kirish, 16 ta bob, 5 ta bo'lim va 79 moddadan iborat ushbu konstitutsiya BXSR fuqarolarining huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustahkamladi. Unda davlatni idora etish uchun xalqning barcha vakillari ishtirok etishi alohida ta'kidlab qo'yildi, xususiy va savdo erkinliklari o'z ifodasini topdi.

Konstitutsiya BXSR hududida yashovchi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquqlar berdi. Konstitutsiyaga ko'ra, BXSRning oliy organi – Butunbuxoro xalq vakillari qurultoyi bo'lib, u har 2000 saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a'zodan iborat edi.

Qurultoy har yili bir marta chaqirilar, unda respublika konstitutsiyasini qabul qilish va unga o'zgartirishlar kiritish, hukumatning hisoboti va davlat byudjetini tasdiqlash kabi muhim masalalar ko'rilar edi. Konstitutsiyaga ko'ra, qurultoylar o'rtasida qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ Butunbuxoro MIK hisoblanib, Xalq Nozirlar SHo'rosi davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organ sifatida o'z vazifasini saqlab qoldi. Xalq Nozirlari SHo'rosi tarkibiga rais va xalq nozirlari kirgan. Xalq nozirliklari – adliya, ichki ishlari, harbiy ishlari, maorif, sog'liqni saqlash, mehnat va ijtimoiy ta'minot, savdo va sanoat, moliya, dehqonchilik, davlat nazorati tarkibida tashkil etilgan.

Q.Rajabov tadqiqotlariga ko'ra, BXSRning hududi 182,2 ming km² bo'lib, 1920 yilda aholisi qarib 3-3,5 mln., 1922 yilda 2,8 mln. kishi bo'lган. Buxoro

respublikasida asosan 65% o‘zbeklar, shuningdek, 14% tojiklar, 9% qozoqlar, 7% turkmanlar, 1,1% forslar va boshqa xalqlar yashaganlar.

BXSRda 1920 yil sentyabrida boshlab milliy valyuta muomalaga kiritilib, 1922 yil oxirida pul islohoti o‘tkazilgan bo‘lsa-da, 1923 yil yozidan boshlab milliy valyuta Rossiya rubliga almashtirildi.

BXSR hukumati jamiyatni demokratik tarzda yangilash uchun soliq tizimini isloh qildi. Amirlik davridagi turli soliq va o‘lponlar bekor qilindi. 1921 yil 26 noyabrdagi Butunbuxoro MIK “BXSRdagি davlat soliqlari to‘g‘risida qonun” qabul qilib, unga ko‘ra, 5 ta soliq turi – ushr (hosilning undan bir qismi), zakot (chorvaning qirqdan bir qismi), hunarmandchilik ustaxonalari uchun soliq, savdogarlardan bojxona solig‘i, turli hujjat va shartnomalar tuzilganda maxsus soliq olinadigan bo‘ldi.

Rossiyadagi bolshevistik hukumat BXSR hukumatiga doimiy ravishda tazyiq o‘tkazib keldi. 1923 yil 3 iyunda Moskvadan kelgan bir guruh komissiya BXSR hukumati ishlaridan qoniqmayotganligi hamda “sotsialistik o‘zgarishlarni” jadallashtirish lozimligini ta’kidladilar. Buxoro hukumatida communistlarning ta’siri tobora kuchayib borib, hukumat tarkibi “tajribali sovet xodimlari” bilan to‘ldirib borildi. Natijada 1924 yil 18-20 sentyabrdagi bo‘lib o‘tgan Butunbuxoro xalq vakillarining V Qurultoyida BXSR **Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga** aylantirildi. BSSRning tuzilishi komunistlar tomonidan sun’iy tarzda amalga oshirilgan hodisa bo‘ldi. Oqibatda taraqqiyotning demokratik yo‘li inkor etilib, “sotsialistik yo‘nalish” tanlandi. 1924 yil noyabrida BSSR tugatilib, uning hududlari O‘zSSR va TSSR tarkibiga kiritildi.

19-mavzu. O‘rta Osiyoda milliy-xududiy chegaralanishning o‘tkazilishi. O‘zbekiston SSR ning tashkil topishi.

Reja

- 1. Sovet hukumatining Turkistondagi milliy siyosati**
- 2. Milliy-hududiy chegaralash masalasining yuzaga kelishi**
- 3. O‘zbekiston SSR ning tashkil topishi**

Tayanch so‘z va iboralar. «Turkiston masalasi», Turkkomissiya, R.E.Rudzutak, Milliy-hududiy chegaralash masalasi, O‘zbekiston SSR

Bolsheviklar partiyasi bosh bo‘lgan sovet hokimiyyati Turkistonda uzoqqa mo‘jallangan O‘z makkorona rejalarini amalga oshirishga kirishdi. Shu maqsadni ko‘zlab u XX asrning 20 yilari boshlaridan bu zaminda mustamlakachilarga xos «orani buz hokimlik qil» qabilidagi O‘z milliy siyosatini hayotga izchil tadbiq etish yo‘lini tutdi. Aslida sovetlarning milliy siyosati chorizmning ko‘p zamonlar bu yurtda yuritib kelgan shovinistik ulu davlatchilik siyosatidan mhiyat e’tiborlaridan farq qilinadi. Faqat shakli shamoyili O‘zgardi, halos.

Turkiston xalqlari O‘z milliy davlatchiliginin tiklash va rivojlantirishga intildi. 1920 yil yanvarida bo‘lib O‘tgan Turkiston kompartiyasining V

O'lkakonferensiyasida Turkiston ASSR MIQ raisi T.Risqulov so'zga chiqib mushtarak Turkiston g'oyasini ilgari surdi, asosan Turkiya xalqlaridan iborat Turkiston Aftanom Respublikasini, Turkiston sovet respublikasini, Turkiston kompartiyasini Turkiy xalq kompartiyasi deb O'zgartirishni taklif qiladi. Bu takliflar O'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida, RKP (b) Markazkomi, uning siyosiy byurosi, sovet hokimiyati doiralarida turli baxslarga sabab bo'ldi. Shu bois «Turkiston masalasi» bir necha bor markazda 1920 yil mart-iyul oylaridagi majlislarida muhokama qilindi. Shu zayilda masalaning yechimi chO'zila bordi.

1920 yilning boshidayoq Turkkomissiya raisi R.E.Rudzutak tashabbusi bilan e'lon qilingan tezislarda Turkiston ASSRni milliy belgilarga qarab bo'lib tashlash va muhtor respublikalar tuzish taklif qilingan edi. Mazkur tezislardan shu yilning iyun oyida RKP (b) markaziy qO'mitaning partianing Turkistondgi vazifalari haqida deb nomlangan qarori loyihasiga kiritildi. V.I.Lenin 1920 yil 13 iyunda Turkkomissiya qarorini loyihasini shaxsan ko'rib chiqdi va O'sha paytdayoq Turkistonni «O'zbekiya», «Kirg'iziya», «Turkmeniya» va boshqa etnik guruhlarga bo'lib parchalab tashlashni, ularning haritasini tuzish zarurligini ko'rsatgan edi. U keyinchalik 1920 yil 22 iyunda ustamonalik bilan oqibatini O'ylab «Respublikni 3 qismga bo'lish oldidan xal qilinmasin» deb ogohlantirib ham qo'ydi.

1920 yil 13 iyunda T.Risqulov, N.Xo'jaevlardan iborat Turkiston delegatsiyasi O'z amaliy takliflari bilan bevosita sovet hukumati rahbari V.I.Lenin qabulida bo'ladi. Bu ular uchun so'nggi umid va najot ilinji edi. Oqibat natijada shunday bo'ldiki, na sovet hukumati rahbariyati va na bu masalani 1920 yil 29 iyunda ko'rgan RKP (b) Markazkomi Siyosiy byurosi Turkistonlik delegatsiya iltimosnomasi ijobiy baho bera oldi. Buning aksincha sovet hukumati va partiya rahbariyati O'lkadagi vaziyatni tezlikda bartaraf etish uchun shoshilinch tarzda «RKP (b) ning Turkistondagi asosiy vazifalar O'g'risida» degan nomda birlashtirilgan bir necha qarorlar qabul qildi. Jumladan «Turkistonda hokimiyatni tashkil etish to'g'risida» degan qarorda Turkistonda butun Rossiya Markaziy ijroya qo'mitasi, RSFSR, Xalq Komissarlari ShO'rosi va (RKP (b)) markaziy qo'mitasining doimiy vakolathonasi (amalda nazratchi) bo'lish zarurligi ko'rsatildi. Bu bilan hatto Turkiston qonfirqasi ShO'rolar O'lka Markaziy Ijroiya qo'mitasining harakat doirasi ham cheklanib nazoratga olindi.

Shunday qilib O'lka xalqlarining O'z taqdirini O'zi belgilash, O'z milliy davlatchilagini O'z hokimlariga huquqiy asosda tashkil qilish borasidagi yana bir urunishi barham toptirildi.

Turkiston komfirkasi va Turkiston ShO'rolar muassasalaridan T.Risqulov va uning tarafdarlari izini batamom quritish maqsadida kO'zlab Turkomissiya 1920 yi 19 iyunda O'lka qO'mitasining tarqatib yuborish va Turkiston komfirqasining muvaqqat Markaz qO'mi to'g'risida qaror qabul qildi.

Turkiston ASSR MIQ raisi T.Risqulov tez orada O'z lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi.

Ma'lumki, blsheviklar boshliq sovetlar hokimiyati barcha usullar va g'oyaviy ta'sir vositalarini ishga solib, mazlum millatlarni yagona bir qizil saltanat tarkibiga birlashtirish, shu asosda qudratli ittifoq davlatni barpo etishni O'z oldilariga bosh maqsad qiib qo'ydilar. Chorimning mustamlakachilik siyosatini

boshqacha shakl va ko‘rinishlarda ustamonalik bilan davom ettirgan makkor sovet rejimi sovet respublikalari ittifoqini tuzishga ularni RSFSR atrofiga jipslashtirishga asosiy e’tibor qaratdi.

Garchi bo‘lajak ittifoq sovet respublikalarining dO‘stlik va tenglikka asoslangan ixtiyoriy ittifoqi bo‘ladi deyilsa-da, biroq uzoqni ko‘ra biladigan respublikalarning bir qator rahbarlari bunga qarshi edilar. Masalan, Ukraina, Kompartiyasi Markaziy QO‘mitasi kotiblari X.G.Rokoviskiy va D.L.Pyatakov yagona ittofoq davlati g‘oyasiga qarshi chiqib, umumittifoq hokimiyat organlari bo‘lмаган «Konfederatsiya» tuzishni yoqlab chiqdilar.

Bir necha bor RKP (b) MK siyosiy byurosida. Partiyaning s’ezdlari va plenumlarida va sovet tashkilotlarida bu masala keng muhokama qilindi. Muhokamalarda sovet hukumati arboblaridan bir I.Stalin «avtanomlashtirish» g‘oyasini ilgari surdi. Unga ko‘ra sove respublikalari (avtanom) respublika maqomi bilan RSFR tarkibiga kirishlari degan g‘oya ilgri surilgan edi. Tabiiyki, bunday talifga milli respublika va xohish bidirmasliklari mumkin edi. Bu xavfni anglagan Lenin yangi ittifoq RSFRdan yuqori bo‘ladi va unga RSFR ham boshqa milliy respublikalar kabi teng maqom va hududlar bilan kiradi, degan fikrni bildirdi. Bu sovetlarning yana bir O‘ziga hom hiylasi edi.

Nihoyat RKP (b) rahbarigida joylarda uzoq vaqt olib borilgan tashviqot-targ‘ibot ishlari va ko‘rsatilgan ta’ziqlar O‘z natijasini berdi. Ukraina, Belarussiya, Zakavkaze, federatsiyasi kompartiyalari, bu respublikalarning sovetlar s’ezdlari RKP (b) MKning «SSSRni tuzish to‘g‘risida»gi takliflarini qo‘llashlarini bayon qildilar.

1922 yil 26 dekabrda sovetlarning butun Rossiya X s’ezdi sovet respublikalarini yagona sovet davlatiga birlashtirishni zarur deb topdi. S’ezd O‘i saylagan delegatsiyaga USSR, BSSR va ZSFSR delegatsiyalari bilan birgarlikda Sovet Sotsialistik Respublikalari ittifoqini tashkil etish to‘g‘risidagi Deklaratsiya lotsihasini ishlab chiqish va ittifoq shartnomasini tayyorlashni topshirdi.

1922 yil 30 dekabrda Moskvada Butun Itifoq sovetlarining I s’ezdi SSSRni tuzish to‘g‘risidagi deklaratsiya loyihasini ko‘rib chiqib, Deklaratsiya va Ittifoq shartnomasini tasdiqlaydi.

S’ezd yangi ittifoq-SSSRning yuqori hokimiyat organlari-markaziy ijroi qO‘mitasini va hukumatini tuzdi. SSSR Markaziy Ijroiya QO‘mitas Raislari etib, RSFRdan M.I.Kalinin, Ukrainadan G.I.Petrovskiy, Belarussiyadan A.G.Cherviyakov, ZSFSRdan N.N.Narimanovlar saylandi. V.I.Lenin SSSR xalq Komissarlari Soveti raisi etib tayinlandi.

Shunday qilib oktabr tO‘ntarilishidan 5 yil O‘tgandan keyin 1922 yil 30 dekabrda SSSR uzildi. Uning ta’sischilari RSFSR VSSR USSR ZSFSR hukumatlari bo‘ldilar. Keyinchalik uning tarkibi kengayib bordi. XX asrning 30-40 yillari boshlariga kelib bu ittifoq davlat tarkibi yangi respublikalar hisobiga kengayib u son jihatidan 15 taga yetkazildi.

Milliy respublikalarning rahbarlari orzu qilgan va blsheviklar «va’d» qilgan suveren davlatlar ittifoqi emas, balki qudratli unitor davlatlar tuzumidan iborat bo‘lgan buyuk davlatchilik strategiyasi tantana qildi. SSSRning tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan yalpi markazlashtirish, umumiylar birhillashtirish, milliy

madaniyatlarni «evropalashtirish» asosida rus anddozasiga moslashtirish jarayoni tezlashdi, milliy siyosatda esa qirg‘inliklar yuz berdi. Bularning hammasi O‘lkamiz xalqlari hayotiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatdi.

Mustabit sovet rejimi va bolsheviklar uchun esa Turkistonni bo‘lib tashlab, uni idora qilish qulay edi. Shuning uchun ham dastlab Turkiston O‘lkasiga sovetcha «avtonomiya» maqomi berildi (1918 yil 30 aprel) so‘ngra mintaqani parchalab tashlash uchun jiddiy tayyorgarlik ko‘rildi. Bu jarayon 7 yil davom etib, 1924 yilda O‘zining so‘nggi bosqichiga qadam qo‘ydi.

RKP (b) MK Tashkiliy byurosi O‘zining 1924 yil 31 yanvardagi majlisida boshqa masalalar bilan bir qatorda Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining milliy-hududiy chegaralanishi to‘g‘risidagi masalani ham ko‘rib chiqdi va Ya.E.Rudzutakga mazkur respublikalarning mas’ul hodimlari bilan birgalikda bu g‘oyani amalda qanday rO‘yobga chiqarish mumkinligini oldindan muhokama qilib ko‘rishni topshirdi. Bolsheviklar partiyasining markaziy organi O‘z qarori bilan chorizmning Turkiston mustamlakasini boshqarish sohasidagi imperiyacha siyosati prinsiplariga sodiqligini isbotladi, mazkur siyosat Turkiston O‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizomga (1891 yil) muofiq O‘tkazib kelinayotgan edi.

Bolsheviklar O‘rta Osiyo mintaqasi xalqlarining ozodlik harakatiga chorizmga nisbatan kam bo‘limgan izchillik va murosasizlik bilan munosabatda bo‘lib kelayotgan edilar. Ular imperiyachilik siyosatining chinakam vorislari sifatida Turkiston mustaqilligi uchun ko‘tarilgan har qanday harakatni panislomizm va panturkizmning hiyla-nayranglari deb baholadilar.

Mintaqadagi milliy ozodlik harakatining barcha oqimlari xalqlarni jipslashtirish mafkurasi sifatida turkizmning realligi va ta’sirchanligidan dalolat beradi.

Markazning yuqori siyosiy rahbariyati uchun Turkistonni bo‘lib yuborish. Uni yagona davlat tuzilmasi sifatida yo‘q qlish g‘oyasi ustuvor bo‘lib qoldi. U Turkistonni saqlab qolish O‘zining imperiyaga maqsadlariga havf tug‘diradi deb hisoblardi, chunki «Turkiston» unda yashovchi barcha xalqlar onidan ularning tarixiy vatani rmzi sifatida tushunilardi, uning mustaqilligi va ozodigi uchun kurashda doimiy birlashtiruvchi ta’sirchan omil bo‘lib kelgan edi. 1920 yil 20 iyunda RKP (b) MK Siyosiy byurosi majlisida Turkiston masalalari yuzasidan qabul qilingan 4 ta qaror keyinchalik «RKP (b)ning Turkistondagi asosiy vazifalari to‘g‘risida» degan umumiyl nom bilan mashhur bo‘lib alohida bandida Turk Markaziy Ijroiya QO‘mitasiga «Turkistonning ma’muriy okruglarini uning milliy tarkibiga muvofiq qayta taqsimlashga kirishish» topshirilgan edi. «Turkistonni milliy avtanom viloyatlarga, respublikalarga bo‘linishini darhol amalga oshirib bo‘lmaydi,-deb ta’kidlagan edi Turk komissiya a’zosi G.Safarov Markaziy qO‘mitaga yo‘llagan maktubida-biroq u yaqin organdagi davr uchun haqiqiy yo‘l-yO‘riq sifatida qabul qilinishi lozim».

1920 yil setyabrda Sovetlarning IX Umumturkiston s’ezdi TASSR Konstitutsiyasini tasdiqladi, uning loyihasini Turk komissiya tayyorlagan edi. Konstitutsiyaning aytilishicha, «Turkiston unda yashovchi asosiy xalqlar, ya’ni Turkmanlar, O‘zbeklar, va Qirg‘izlarning muxtor respublikasi deb e’tirof qilinib,

asosiy milliy guruhlar, iqtisodiy va maishiy ukladi bo‘yicha viloyatlarga bo‘linadi va RSFSRning Turkiston avtanom respublikasining degan nom bilan ataladi». Hullas, Turkiston aholisining bo‘linishi, uning etnik nomi bo‘yicha ma’muriy-hududiy, tuzilishi Konstitutsiya asosida mustahkamlandi, holbuki, O‘rta Osiyodan xalq uchun birlashtiruvchi omil u vaqtida diniy va hududiy mansublik edi.

Bolsheviklar O‘rta Osiyodagi xalqlarni milliy guruhlarga ajratish uchun uning etnik jihatdan O‘hshashlari birlashtirishni lozim ko‘rdi va bu maqsadda til vositasidan foydalandi. Bolsheviklarning bu sohadagi faoliyati aniq yO‘nalishga ega bo‘lib, turkiy tilning ayrim lajhalarini isloh qilish va ular negizida har bir milliy tuzilma (O‘zbek, Turkman va Qozoq va hokazo) mO‘ljallangan O‘z milliy tillarini yaratishdan iborat edi. 1922 yildayoq O‘zbek tili va grammatikasi bo‘yicha I-O‘lka s’ezdi O‘tkazildi, u O‘zbek tilini sun’iy ravishda «klassik yevropacha grammatika tizimi»ga keltirishga asos soldi.

Ayni vaqtida «yagona turkiy til O‘lganidek, yagona turkiy madaniyat ham bo‘lmaydi» degn shior ostida til islohoti O‘tkazilishi bilan bir qatorda O‘rta osiyo xalqlari madaniy merosining asosiy targ‘ibotchilari bo‘lgan islom va uning tashkilotlariga qarshi kompaniya avj oldirib yuborildi. 1923 yil martda Turkiston Kompartiyasi VII s’ezdida Turkistonning mahalliy xalqlari O‘rtasida dinga qarshi targ‘ibotni avj oldirish masalasini qo‘ydi.

Xorazm va Buxoro xalq respublikalarining mustaqilligi bu davr oxiriga kelib nihoyatda hayoliy hususiyatlarga ega edi. Haqiqatdan ular mustaqillikni qo‘ldan bergen edilar. 3 ta respublikaning iqtisodiy jihatdan birlashuvi va O‘rta osiyo iqtisodiy kengashining tuzilishi, Xorazm va Buxoro kommunistik partiyalarining RKP (b) tarkibiga kirishi va RKP (b) Markaziy QO‘mitasi O‘rta osiyo byurosining tashkio etilishi, Rossiya bilan Buxoro va Xorazm respublikalari O‘rtsida yangi iqtisodiy bitimlarning tuzulishi, pu muomalasining birxillashuvi unga Rossiya cherkovining asos qilib olinishi natijasida, bu davlatlarga sisiy, iqtisodiy, moliyaviy, jihatdann xukmronlik qilish butunlay Moskva ixtiyoriga O‘tdi.

Shu tariqa RSFSR tarkibiga kirgan Turkiston avtanom Respublikasini yangitdan chegaralash haqidagi bolsheviklar g‘oyasi 20 yillarning O‘rtalariga kelib ancha keng miqyos kasb etgan vazifa-chegaralanishga faqat Turkiston Respublikasigina emas, balki Buxoro va Xorazm xalq respublikalarining tortilishi masalasiga aylanib ketdi. Bu vaqtida Buxoro va Xorazm respublikalari huquqiy jihatdan xali mustaqil suveren davlatlar hisoblanardi. O‘rta Osiyoning milliy chegaralash masalasi Moskvada tO‘liq quvvatlandi. Chunki bu vaqtga kelib Markazning partiya rahbariyatida chegaralash masalasi aniq ifodalangan asosiy maqsadga aylanib qolgan edi.

Milliy chegaralanishni O‘tkazish to‘g‘risidagi masala Turkiston Kompartiyasi Markaziy qO‘mitasining 1924 yil 23-24 martda bo‘lib O‘tgan plenumida uzil kesil xal qilindi. Plenum milliy chegaralanish zarurligini e’tirof qilib, biroq uni faqat Turkiston Respublikasi doirasi bilan chekladi: uning hududida 3 ta milliy respublika-O‘zbekiston, Turkiston, Qozog‘iston respublikalarini tashkil etish mO‘ljallandi.

Shunday qilib 2 oy mobaynida RKP (b) Makarziy QO‘mita O‘rta Osiyo byurosi a’zolari Turkiston. Buxoro va Xorazm kompartiyalari rahbariyatini O‘rta

Osiyo milliy chegaralanishini to‘g‘risidagi g‘oyasini amalga oshirish zarurligiga kO‘ndirishga muvaffaq bo‘ldilar.

1924 yil 5 aprelda O‘rtalari osiyo byurosining a’zosi A.Rahimboev bu xaqda RKP (b) Markaziy QO‘mitasi Siyosiy byurosi Majlisida ma’ruza qildi. Shu tariqa A.Raximboevning «Turkiston, Buxoro, Xorazm xalqida (milliy respublika tuzilishi to‘risida)» degan ma’ruzasini RKP (b) Markaziy QO‘mitasi oldiga qo‘yish bilan gO‘yo chegaralanish to‘g‘risidagi g‘oyaning paydo bo‘lishida tashabbus respublikalarning O‘zidan kelib chiqdi, degan fikr tug‘dirildi.

1924 yil aprel-iyun oylarida markaziy organlar, mintaqa kommunistik tashkilotlari va RKP (b) Markaziy QO‘mitasi O‘rtalari osiyo byurosida milliy chegaralanishi masalalari yuzasidan zO‘r berib ish olib borishdi. Milliy chegaralanish masalalarini yanada batafsil va chuqurroq O‘rganish uchun Turkiston va buxoro Kommunistik partiyalari markaziy qO‘mitalari huzurida maxsus komissiyalar tuzildi. Bunday komissiya Markazning Turkistondagi vakolatli tashkiloti-O‘rtalari osiyo byurosi huzurida ham ish olib borardi. Shuningdek, bu komissiyalar huzurida kichik komissiyalar ham tashkil etilgan edi.

Kichik komissiyalarining ma’ruzalari RKP (b) Markaziy QO‘mitasi O‘rtalari osiyo (b) komissiyaning 1920 yil 10 may majlisida 11 mayda esa RKP (b) Markaziy QO‘mitasi O‘rtalari osiyo (b)ning maxsus majlisida tinglandi. O‘rtalari osiyo (b) maxsus komissiya va uning komissiyalari ish yakunlarini muhokama qilib, ular ishlab chiqarish O‘rtalari Osiyoning milliy, hududiy chegaralanishining aniq rejasini tasdiqladi. Qabul qilingan qarorlarda bunday deyilgan edi:

1. «Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarini milliy-hududiy belgilariga ko‘ra chegaralash zarur deb topilsin, yangi tashkil etilayotgan milliy-hududiy birlashmalardan federatsiya tashkil etilmasin.

2. O‘zbekiston va Turkiston respublikalari tashkil tilsin va ular mustaqil SSR huquqlariga ega bo‘lsin va bevosita SSSRga kirsin. O‘zbekiston Respublikasi doirasida Toshkent avtanom viloyati tashkil etilsin. Qirg‘iziston avtanom viloyati tashkil etilsin, uning qaysi respublika tarkibiga kirishi masalasi ochiq qoldirilsin.

3. Turkiston respublikasida yashaydigan Qozoqlar hozirgi vaqtida mavjud bo‘lib turgan Qozog‘iston respublikasiga kiritilsin».

1924 yil 12 iyunda RKP (b) Markaziy QO‘mitasining Siyosiy yurosi «O‘rtalari osiyo respublikalarini (Turkiston Buxro va Xorazm) milliy chegaralash to‘g‘risidagi» masala bo‘yicha qaror qabul qildi. Ularda quyidagilar kO‘zda tutildi:

a) Turkiston, Buxoro va Xorazmning turkmanlar yashaydigan qismlarida mustaqil Turkiston respublikasini tashkil etish;

b) Turkiston va Buxoroning O‘zbeklar yashaydigan qismida mustaqil O‘zbekiston Respublikasini tashkil etish;

v) Turkmanlarni ajratib olib, Xorazm respublikasini mavjud xolida qoldirish.

1923 yil oktabridan Xorazm komissiyasining mas‘ul kotibi lavozimida ishlagan Qalandar Odinaev milliy chegaralashga qo‘shmaslik g‘oyasini ma’qullagan edi. Ammo 1924 yil iyul oyida u markazning hatosi bilan ishdan oliib tashlangach, 26 iyulda Xorazm komissiyasi respublikasining milliy chegaralanishga qo‘shilishiga O‘z «roziligi»ni berdi.

15 iyulda RKP (b) Markaziy QO‘mitasi O‘rta Osiyo (b) yangi tashkil etiladigan milliy respublikalar va viloyatlarning muvaqqat (b) tashkil etdi. Rejalashtirilgan yangi milliy tuzilmalarni mazmunan tO‘ldirish, ularning hududlarini aniqlab chiqish, chegaralarini ajratish va belgilash lozim edi. Bu ishni birmuncha oldinroq RKP (b) Markaziy QO‘mitasi O‘rta Osiyo byurosi tashkil etgan. Hududiy komissiyada uning milliy kichik komissiyalarida va jandalli masalalarni hal qilish uchun tuzilgan maxsus komissiyalarda boshlangan edi. Hududiy komissiya tarkibiga F.Xo‘jaev, S.Xo‘jaev, A.Rahimboev, R.Islomov, Q.Otaboev, N.Aytoqov, Y.Abdurahmonov, I.Aydarbekov, M.Vareikis, D.Manjara, I.Mejaun, X.Saxot-Murodov va boshqa siyosiy arboblar kirgan edi.

Hududiy komissiya faoliyatining natijalari RKP (b0 Markaziy QO‘mitasi O‘rta Osiyo (b) va O‘rta Osiyo kommunistik tashkilotlari rahbar organlarida muhokama qilindi. 1924 yil 14 sentabrda Turkiston Kompartiya-TKP MK, Turkiston ASSR MIK va taftish komissiyasining qo‘shma plenumida Hududiy komissiyaning ishi to‘g‘risida komissiya raisi, TKP MK mas’ul kotibi I.Vreyks ma’ruza qildi.

1924 yil 16 sentabrda Turkiston MIKning navbatdan tashqari sessiyasi, 20 sentabrda Butun Buxoro xalq vakilarining V-quriltoyi, 2 oktabrda Butun Xorazm xalq vakillarining V quriltoyi bu masalani ko‘rib chiqib O‘rta osiyoni milliy-hududiy chegaralanishi to‘g‘risida qaror qabul qildilar. Mazkur qarorlarda O‘zbek va turkman xxalqlarigaa O‘zbekiston va Turkiston SSR tuzish huquqi, Turkiston ASSRning qirg‘iz (aslida qozoq) vakillarini Qirg‘iziston ASSR (aslida Qozog‘iston ASSR) bilan birlashish maqsadida qirg‘iz (qozoq) xalqiga Turkiston ASSRdan chiqish huquqi, qora qirg‘iz (aslida qirg‘iz) xalqiga Turkiston ASSRdan chiqish huquqi va Qora Qirg‘iziston (aslida Qirg‘iziston) avtanom viloyatini tashkil etish huquqi, tojik xalqiga Turkiston ASSRdan chiqib O‘zbekiston SSR tarkibida Toshkent avtanom respublikasi tashkil etish huquqi berilishi kerakligi ta’kidladi.

1924 yil 14 oktabrda bo‘lgan Butun Rossiya-RSFSR B MIK II-sessiyasi O‘rta Osiyodagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikasi O‘rnida O‘zbekiston va Turkiston SSR, Tojikiston ASSR, Qoraqapoq va Qirg‘iziston avtanom viloyatlari tashkil etish to‘g‘risidagi qaror qabul qildi. Nihoya 1924 yil 27 oktabrda bo‘lgan butun Ittifoq-SSSR BMIK II sessiyasi O‘rta osiyoda milliy hududiy chegaralanish O‘tkazish va yangi respublikalar xamda viloyatlar tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Shunday qilib, 1924 yil sentabr-oktabrda Turkistonda milliy-hududiy chegaralanish O‘rta Osiyo respublikalari sovet Rossiyasi va SSSR davlat hokimiyyati yuqori organlri qarrlarida qonuniy yo‘l bilan rasmiylashtirdi.

O‘zbekiston SSR hududida butun hokimiyat 1924 yil 31 oktabrida tuzilgan O‘zbekiston SSR Inqilobiy qO‘mitasining qo‘liga O‘tdi. O‘zbekiston SSR Inqilobiy qO‘mitasining raisi etib F.xo‘jaev tasdiqlandi. Turkiston inqilobiy qO‘mitani Nodirboy Oytoqov boshqardi. 1924 yil noyabr-dekabr oylarida nusratulla lutfullaev raisligida Tojikiston ASSR Inqilobiy qO‘mitasi, I.Aydarbekov raisligida Qoraqirg‘iz (Qirqiziston) muxtor viloyati Inqilobiy qO‘mitasi faoliyat

ko'rsatdi. Inqilobiy qO'mitalar «milliy muhtoriyat va muxtor viloyatlarni tuzish ishi bilan shug'ullandilar».

1925 il 13 fevralda buxoro shahrida maxsus qurilgan «xalq O'yida O'zbekiston ShO'rolarning I umumO'zbek quriltoyi bo'lib O'tdi. Unda «O'zbekiston SSR Respublikasini tuzish to'g'risida» deklaratсия qabul qilindi. Demokratiyada O'zbekiston SSR tuzilganligi qonuniy rasmiylashtirildi. O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirdi.

Quriltoya 160 a'zo va 44 nomzoddan iborat respublika davlat hokimiyatining rahbar organlari O'zbekiston SSR MI QO'mitasi saylandi. Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi. Uning tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi:

 Turkiston ASSRdan 9 ta uezd, 133 ta tuman va 7 qishloq oqrugi;

 Buxoro respublikasining 9 ta viloyati;

 Xorazm respublikasining 23 ta tumani.

O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312.394 kv kmni aholisi 4 mln. 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926 yil ma'lumotlari bo'yicha, milliy tarkibiga ko'ra aholining 74,2 foizini O'zbeklar, qolganlagini esa boshqa millatlar tashkil etar edi. O'zbekiston SSRning dastlabki poytaxti Buxoro bo'lgan. Biroq ko'p O'tmay-1925 yil aprelda poytaxt Samarqand qilib belgilndi. 1930 yil oxirida poytaxt Toshkentga ko'chirildi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O'zbekiston SSRning sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar Muvaqqat Inqilobiy qO'mita ixtiyoriga berildi. Buxoro Respublikasi hukumati raisi, taniqli davlat arbobi F.Xo'jaev O'zbekiston SSR Inqilobiy qO'mitasi raisi qilib tasdiqlandi. O'zbekiston SSR Sovetlari MIK raisi lavozimiga Farg'onalik dehqon «Qo'shchi» uyushmasi rahbarlaridan biri Y.Oxunboboev sayladi. O'zbekiston SSr hukumati – Xalq Komissarlari kengashi Raisi lavozimiga F.Xo'jaev tasdiqlandi.

Sovet hukumati O'zbekistonda O'zining rasmiy partiya, sovet, komsomol va xo'jalik tashkilotlarini tuzib, asta sekin siyosiy va iqtisodiy tayanchini mustahkamlab bodi. Shu tariqa sovetlar butun choralar bilan O'zbekistonda O'z hokimiyatini mustahkamlashda davom etdi. 1925 yil may oyida O'zbekiston SSR SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun qoidalari O'zbekistn SSR hududida bevosita ishlaydigan bo'ladi. 1927 yilda qabul qilingan O'zbekiston 1-chi va 1937 yilda qabul qilingan 2-chi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko'chirma nushasi edi. Chunki O'zbekiston qozoqdagi «severen» respublika bo'lib amalda Markazga tbe va qaram 1 O'lka edi, halos.

Shunday qilib qozoqda suveren respublika sifatida shakllatirilib, hukmron sovet imperiyasi tarkibiga kiritilgan O'zbekiston SSR amalda markazga to'la bo'ysunuvchi, arzon xom-ashyo maxsulotni yetkazib beruvchi bir chekka o'lka bo'lib qolaverdi.

20-mavzu. Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishi.

Reja

- 1. O'zbekistonda suverenitet tendesiyasining kuchayishi va Respublika ijtimoiy-siyosiy hayotida o'zgarishning boshlanishi.**
- 2. O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilinishi.**

3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

Tayanch so‘z va iboralar. Prezident Instituti, davlat boshlig‘i, Prezident vakolatlari, Mustaqillik Deklaratsiyasi, Mustaqillik asoslari.

Markaz boshqaruv qobiliyatini yo‘qotgan, har bir respublika o‘z xoliga tashlab qo‘yilgan bir sharoitda tarixiy vaziyatni to‘g‘ri baholagan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov Oliy Kengash sessiyasini chaqirish va unda O‘zbekiston Mustaqilligi xaqida Qonun qabul qilishni talab qildi. Chunki har bir milliy respublikaning chinakam teng huquqligi va mustaqilligi ta‘minlangandagina tanazzuldan chiqish mumkin edi. Ayni shu maqsadlarni ko‘zlab, respublika Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi 1991 yil 31 avgustda o‘z ishini boshladi. O‘zbekistonning Mustaqil Davlat, deb e’lon qilinishida mazkur sessiya katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. Unda «O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida» hamda «O‘zbekiston Respublikasining davlat bayrog‘i to‘g‘risida»gi masalalar kun tartibiga qo‘yilib, qizg‘in muhokama qilindi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida Prezident I.A. Karimov ma’ruza qildi. U o‘z nutqida 1991 yil o‘rtalarida Markaziy hukumat olib borayotgan ichki siyosatni taxlil qildi. 19-21 avgust kunlari Moskva Favqulodda holat davlat komiteti a’zolarining xalqlar ozodligi, respublikalar mustaqilligiga qarshi qaratilganligi xalqqa ro‘y-rost bildirildi. Oliy Kengash deputatlari moddama-modda muhokamadan so‘ng O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Qonunni qabul qildilar. So‘ngra reslublika Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot qabul qilindi. O‘zbekiston SSRning nomi O‘zbekiston Respublikasi, deb o‘zgartirildi. Mustaqillik belgilangan kun — 1 sentabr 1991 yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni, deb e’lon qilindi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi haqidagi bu hujjatlar o‘zbek xalqining asriy orzusi ro‘yobga chiqqanligining huquqiy ifodasi bo‘ldi.

«O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risida»gi Konun 17 moddadan iborat bo‘lib, mustaqil respublika uchun vaqgincha konstitutsiya rolini o‘ynaydigan bo‘ldi.

Ushbu qonunda O‘zbekiston mustaqil demokratik davlat, deb e’lon qilindi, ma’muriy-hududiy tuzilishi, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilash qonunlashtirildi. Respublikaning davlat bo‘linishi hamda iqtisodiy asoslari ham qonunda o‘z aksini topdi. Shuningdek, ushbu hujjatda O‘zbekistonning Qoraqalpog‘iston bilan munosabatlari xususida so‘z borib, O‘zbekiston Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligini tan olishi haqida fikr yuritiladi, u O‘zbekiston tarkibida ekanligi e’tirof etiladi. Bunday qonunning qabul qilinishi o‘sha davrda erishilgan yutuqlarning yuqori cho‘qqisi bo‘ldi. Shunday qilib, o‘zbek xalqi asrlar davomida orzu qilgan mustaqillikka tinch yo‘l bilan, yurtboshimiz I.A. Karimov boshchiligidagi respublika rahbariyatining oqilona yo‘l tutishi orqali erishildi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi e’lon qilinishi bilan birga Davlat mustaqilligi bilan bog‘liq qonunlar tizimini yaratish zarur edi. O‘zbekiston erishgan istiklolni mustahkamlash uchun mamlakatda referendum o‘tkazishga qaror qilindi. 1991 yil 18 noyabrda Oliy Kengash VIII sessiyasi O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Shunga muvofiq 29 dekabrda «Siz Oliy Kengash tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e’lon qilinishini ma’qullaysizmi?» mavzuida referendum o‘tkazishga katta tayyorgarlik ko‘rildi. Referendum yakuniga ko‘ra unda qatnashgan aholining 98,2 foizi O‘zbekiston mustaqilligini yoqlab ovoz berdi. O‘zbekiston mustaqil respublika, deb e’lon qilinishi jahon jamoatchiligi tomonidan ham zo‘r qoniqish bilan kutib olindi. Fikrimiz isboti sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlarining o‘sha paytdagi Prezidenti (kat-ta) Jorj Bushning I. Karimov nomiga yuborgan telegrammasi hamda Shvetsiya bosh vaziri K. Bilodtning telegrammalarida ko‘rish mumkin. 24 sentabrda Toshkentda xalqaro anjuman o‘tkazildi. O‘zbeklar (Turkistonliklar)ning birinchi xalqaro uchrashuvida O‘zbekiston Prezidenti nutq so‘zлади. 1991 yil 14 sentabrida O‘zbekiston Kompartiyasining Favqulodda XXIII s’ezdida I.A. Karimov taklifi bilan O‘zbekiston Kompartiyasi KPSS tarkibidan chiqqanligi e’lon qilindi. Partiyaning bunday buyon faoliyat ko‘rsatmasligi e’tiborga olinib, ushbu partiya o‘rnida Xalq Demokratik partiyasi tuzilgani e’lon qilindi. O‘zbekiston mustaqil davlat, deb e’lon qilingan kunning o‘zidayoq mustaqil davlat ramzlarini joriy qilish yuzasidan amaliy choralar ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida, respublika gerbining nusxasi va Davlat madhiyasining musiqiy bayoni haqida maxsus qaror qabul qilindi. Unda Konstitutsiya komissiyasining ekslert guruhiga Davlat bayrog‘ining variantlari ustida ishlashni davom ettirish, Oliy Kengashning tegishli qo‘mitalariga Konstitutsiya komissiyasi ijodiy guruhi bilan hamkorlikda Davlat bayrog‘i, madhiyasi haqida qonun loyihibarini ishlab chiqib, navbatdagi sessiyaga taqdim etish topshiriyatsi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 18 noyabrda bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasi «O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risidz» Qonun qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i ulug‘ ajdodlarimizning aqida va maslayutariga mos keluvchi, millat tabiatiga xalqimiz ruhiyatidan keli chiqib, uning milliy va ma’naviy jihatlarini ham o‘zida aks ettermog‘n kerak edi. Mamlakatimiz davlat bayrog‘i yurtimiznin! o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagi yorqin ramzi bo‘lx^b qoldi.

1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O‘zbekiston Respublikasining Davlat gsrbi» to‘g‘riskda Qonuk qabul qilindi. Davlat gerbidagi har bir belgi chuqur ma’noga ega. Gerb rangli tasvirda bo‘lib, xumo qushi kumush rangda, quyosh, boshoqlar, paxta chanog‘i va «O‘zbekiston» dggak yozuvlar tilla rangda, g‘o‘za shoxlari, barglari va vodiylar yashil rangda, torlar havo rangida, chanoqdagi paxta, daryolar, yarim oy va yulduz oq rangda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i tasvir-langan lenta to‘rt xil rangda berilgan. O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 10 dekabrida bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida «O‘zbekiston Respublykasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida»gi Qonun qabul qylindi. Sessiyada shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov tomonidan tayyorlangan madx^iya nusxasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruvining prezidentlik shakli rivoj-landi. 1991 yil 29 dekabrda o‘zbek xalqi o‘z xohish-irodasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezi-dentini sayladi. Saylovga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilib, O‘zbekiston Respublikasi saylovlari muqobililik asosida o‘tdi. Oliy^ lavozimiga ikki nomzod — O‘zbekiston XDP va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyask nomzodi I.A. Karimov va «Erk» Demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) nomzodi qo‘yidsi.

Saylovlar yakuniga ko‘ra 8 million 514 ming 136 ovoz yoki ovsz berishda qatnashganlarning 86 foizi Islom Karimov nomzodini, 1 million 220 ming 474 saylovchi (12,3%) Saloy Madaminov nomzodini yoqdab ovoz berdi. Markaziy saylov komissiyasi okrug komissiyalari majlis bayonlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risidagi Qonunning‘ 35-moddasiga asosan Islom Abdug‘anievich Karimovni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan, deb hisoblashga qaror qildi.

Jahon sivilizatsiyasida alohida o‘rin tutadigan, ko‘p asrlik boy tarixga ega O‘zbekiston diyorida butun dunyoga mashhur olimlar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Buyuk xalq, buyuk el buyuk zotlarni yaratadi. Xalqimizning ko‘p yillar davomida olib borgan matonatl Kurashi natijasida qaror topgan mustaqil O‘zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan odil, haqqoniy demokratik jamiyat qurish stixiyali (ko‘r-ko‘rona) ravishda emas, balki jahon taraqqiyotining, chunonchi, buyuk zaminimizda yaratilgan tarixiy tajribalarga, g‘oyalarga, ma’rifiy-ilmiy taraqqiyotga amal qilgan xolda ro‘yobga chiqdi.

O‘zbekiston mustaqillik tomon yo‘l tutar ekan, 1989 yilning yoz oylari va 1990 yil bahorida O‘zbekiston hayotida uning rahbarligida burilish davri bo‘ldi. Xuddi shu paytlarda o‘zbek xalqining taqdirini hal qiladigan taraqqiyot yo‘llari ishlab chiqildi. Xususan, teng huquqli mustaqil O‘zbekistonning inson manfaatini himoya qilish ustuvor vazifa deb maqsad qo‘yan demokratik yo‘lda rivojlanishi bosh strategik yo‘nalish, deya belgilandi. Ana shu yo‘ning boshida, 1989 yil iyunidan O‘zbekistonning rahbari, 1990 yil martidan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti sifatida Islom Abdug‘anievich Karimov turdi.

Sovetlarning kuchi tugayotgan va alamini kimdan olishini bilmay turgan bir paytt kommunistik mafkura va amaliyotning hayotga zid tomonlarini ikir-chikirigacha tushunib yetgan va dadil oshkora qila biladigan jasoratli, dovyurak I. Karimov o‘sha chirib borayotgan tizim uchun «ittifoqchi respublikalarda eng xavfli» shaxsga aylandi.

Asrlarga teng shu qisqa vaqgda erishilg‘an yutuqlar: mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorlik, tarixiy, milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi jamiyatda o‘rnatilgan osoyishtalikni, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyatda tutgan o‘rnining ortib

borishini butun xalqimiz, jahonning yirik davlat arboblari Islom Karimov nomi bilan bog‘laydilar.

Dunyo mamlakatlarida yangi jamiyat qurishning «O‘zbek modeliga» uning asoschisi va yetakchisi Islom Abdug‘anievich Karimovning siesiy fenomeniga qiziqish ortib bormoqsa. Amerika Qo‘shma Shtatlarida chiqadigan nufuzli «Novoe russkoe slovo» xafstanomasi (qarang: «Moskovskie novosti», 4-son, 1993 yi 1 10 oktabr) O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovni Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining ko‘p rahbarlariga namuna qilib ko‘rsatadi va BMT Xavfsizlik kengashiga murojaat qilib, O‘zbekiston Prezidentining ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga e’tibor berishga va uning tajribasi bilan notinch mamlakatlarning davlat rahbarlarini tanishtirishga chaqiradi. 1996 yili Venada (Avstriya) «XX asr xalqlari dohiylari» nomida chop etilgan kitoblarning bir jildi O‘zbekiston Prezidentiga bag‘ishlangan. Kitob mualliflari «... Islom Karimov kommunizmdan keyingi O‘rta Osiyo mintaqasidagi eng buyuk davlat arbobi», deb tan beradi.

Islom Karimovning har bir asari, ma’ruza va maqolalari bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning g‘oyaviy-nazariy asoslarini, amaliy ishlarining kundalik dasturini tashkil qiladi.

G‘arb va Sharqning rivojlangan mamlakat lari asrlar davomidagi taraqqiyot yo‘llarini, o‘zbek davlatchiligining ming yillar davomidagi tarixiy tajribasini o‘rgangan holda yaratilgan I.A. Karimov asarlarida mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlari, yangi jamiyat qurishning butun dunyoda tan olingen asosiy tamoyillari to‘g‘risida ta’limot yaratildi.

Istiqlolning dastlabki bosqichida e’lon qilingan «O‘zbekistonning o‘z mustaqil va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston — bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» va boshqa bir qancha asarlari va nutqlarida bayon etilgan O‘zbekiston Respublikasi mustaqil-ligining birinchi navbatdagi vazifalari keyinchalik g‘oyat muhim ahamiyat kasb etgan «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish vazifalari» va boshqa asarlarida o‘z rivojini topdi.

O‘zbekistonning yaqin o‘tmishida va XX asrning so‘nggi o‘n yilda bosib o‘tgan yo‘llari, ularning saboqlari, XXI asrda respublika istiqlolini mustahkamlashning strategik vazifalarining asosiy yo‘nalishlari I.A. Karimovning bir qancha xorijiy mamlakatlarda bosilib chiqqan «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarlari va ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning birinchi sessiyasidagi (22 yanvar 2000 yil) nutqida bayon etib berildi.

Islom Karimov donoligining yana bir ko‘rinishi bozor munosabatlariga o‘tish va demokratik jamiyat qurish jaraenida ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy va mafkuraviy ishlarning yuksak ahamiyatini ta’kidlab ko‘rsatganligidadir.

G‘arbning taraqqiy etgan demokratik mamlakatlarida, sovet imperiyasi parchalangandan keyin vujudga kelgan hamdo‘stlik mamlakatlarining hech birida yuksak ma’naviyatpi insonni tarbiyalash ishlarida muhim vazafalardan

deb qaralmagan. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab I.A. Karimovning har bir ma’ruza, nutq va asarlarida bozor munosabatlariga o’tish davrida insonning boyish uchun bo’lgan tabiiy harakatlari uning moddiy va ma’naviy qashshoklanishiga olib kelmasligi, yuksak ma’naviyatli, e’tiqodi kuchli shaxsni shakllantirish yangi jamiyat qurishning zaruriy sharti ekanligi ko‘p marotaba taqqoslab ko’rsatiladi.

Istiqlol sharoitida odil demokratik jamiyat qurish vazifalarining ortib borishi, xalqaro ekstremistik, diniy aqidaparastlik harakatlarning mustaqilligimizga taxdidini hisobga olib, Islom Karimov jamiyatshunos olimlar bilan uchrashuvida (aprel 2000 y.), gazeta va jurnallar muxbirlarining savollariga javoblarida (fevral 1998 y., avgust 1998 y., iyun 2000 y.) milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini ishlab chiqish va ularni aholi o’rtasida keng targ‘ib qilish, ayniqsa yoshlarimiz ongiga singdirish zarurati bu murakkab, lekin muhim ishlarning yo’llari va usullariga e’tiborini kuchaytirdi.

Vatanimiz tarixini o’rganish, uning yangi kelajak avlodni tarbiyalashdagi tutgan o‘rni, ahamiyati masalalari I.A. Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q» (1998 yil, avgust) nomli asarida keng bayon etib berildi. Yurtboshimiz haqqoniy tarix millatning o‘zligini anglashning poydevori, ma’naviy-mafkuraviy, g‘oyaviy-siyosiy ishlarimizning haqiqiy manbai ekanligini qayta-qayta taqqoslab ko’rsatadi. Prezidentimiz har bir «siyosatchiman, arbobman degan odam, agar vijdoni bo‘lsa, o‘z xalqining tarixiy o‘tmishini bilishi shart», deya vazifani keskin qo‘ydi.

O’tish davrining murakkab vazifalari, qarama-qarshiliklari davlat rahbaridan boshqaruvning har xil usullarini, kerak bo‘lsa qattiqqo’llikni talab qiladi. Prezident Islom Karimov shunday vaziyatda xalq manfaatiga ma’qul keladigan har xil usullardan foydalanib mamlakatni boshqarmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurilishining konstitutsiyaviy va huquqiy asoslarini yaratish va yuksak taraqqiyotimizning kafolati rolini muvaffaqiyatli bajarmoqda.

Mustaqillik tomon qo‘ylgan dastlabki qadamlardan biri — bo‘lajak suveren respublikaning Konstitutsiyasini tayyorlash g‘oyasi I.A.Karimov tomonidan 1990 yilning mart oyida ilgari surildi. Ko‘p o‘tmay shu yilning iyun oyida Oliy Kengashning ikkinchi sessiyasida respublika Prezidenti rahbarligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi.

Komissiya Konstitutsiya loyihasini tayyorlash jarayonida xalqaro huquq qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining xujjalilariga, Butunjaxon inson huquqlari Deklaratsiyasiga amal qildi. Dunyoning kupgina taraqqiy etgan va rivojlanayotgan mamlakatlarining konstitutsiyaviy hujjalari o‘rganib chiqildi. Shu bilan birga boy tariximizdagm davlat boshqaruvi tizimi va adolatli qonunshunoslik an’analari ham chuqur o‘rganildi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o‘z mohiyati va ahamiyati jihatidan sovet davridagi Konstitutsiyalardan, xususan, 1978 yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasidan tubdan farq qilishi kerak edi. Sobiq Sotsialistik O‘zbekiston Konstitutsiyasi o‘zining mazmuni, ruhi bilan sobiq

ittifoq Konstitutsiyasidan kelib chiqib, O'zbekistonni bu ittifoqqa qo'l-oyog'i bilan zanjirband etdi. Sinfiylik, partiyaviylik g'oyalari bilan sug'orilgan Konstitutsiya g'oyat darajada mafkuralashtirildi va siyosiyashtirildi. Inson manfaatlari nisbatan davlat manfaatlari ustun qo'yildi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi loyihasida O'zbekistonda yuz bergan tarixiy o'zgarishlar hisobga olindi. Xususan, O'zbekiston mustaqilligini qonunlashtirish, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tishning shartlari, davlat va jamiyat qurilishida demokratik tizimning tamoyillari, inson huquqining ustuvorligi ifodasini topdi. Konstitutsiyada bayon etiladigan masalalarni birma-bir o'rganib chiqish uchun 35 kishidan iborat ishchi guruh va har bir bo'limini alohida tayyorlaydigan kichik guruhlardan iborat komissiyalar tashkil etildi.

Ishchi guruh va komissiyalar 1991 yilning oktabrida Konstitutsiyaning birinchi, 1992 yil bahorida ikkinchi nusxasini tayyorladi va shu nusxasi 1992 yilning 26 sentabrida umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Joylardan tushgan minglab takliflar o'rganib chiqilib, noyabr oyida ikkinchi marta matbuotda bosib chiqildi.

Tuzatishlar va aniqlashlardan keyin mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasida qabul qilindi.

Mustaqillik Konstitutsiyasi muqaddima, olti bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat bo'ldi. Birinchi bo'limda Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari bayon etilib, unda Davlat suvereniteti, xalq hokimiyaatchiligi, Konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosatning bosh yo'naliishlari o'z ifodasini topdi. Asosiy Qonunning ikkinchi bo'limi 35 moddadan iborat bo'lib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Bunda O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanligi, O'zbekistonning butun hududida yagona fuqarolik o'rnatilganligi, fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari, vijdon erkinligi va uning kafolatlanishi yoritilgan. Insonning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishg'a bevosita hamda o'z vakillari orqali qatnashishlari, siyosiy partiylar va harakatlarga qo'shilish huquqlari ta'kidlab ko'rsatilgan.

Asosiy Qonunda fuqarolarning mulkdor bo'lish, mehnat qilish, nafaqa olish, o'z vaqtida dam olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, bilim olish huquqlariga ega ekanligi aniq qilib bayon etilgan va bu huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan taminlanadi, dsb ta'kidlab qo'yilgan. Barcha fuqarolar uchun Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlar, chunonchi, qonunlarga rioya qilish, xalqimizning tarixiy, ma'naviy meroslarini avaylab saqlash, atrof tabiiy muhitni asrash, soliqlar va mahalliy yig'imlarni o'z vaqgida to'lash, Vatanni himoya qilish kabi burchlar majburiy ekanligi ta'kidlangan.

Konstitutsiyaning «Jamiyat va shaxs» bo'limida O'zbekiston iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslanishi, uning negizini xilma-xil mulk shakllarining teng huquqqa ega ekanligiga kafolat berildi. Ishbilarmomlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlik harakatiga keng yo'l ochib berildi va

mulklorlar tabaqasini vujudga keltirish tamoyillari ishlab chiqildi. Jamiyat ijtimoiy birlashmalari, oila va ommaviy axborot vositalarining o'rni aniq bayon etib berilgan. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining o'zaro munosabatlariga maxsus to'rtinchi bo'lim ajratilgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyatining tashkil etilishi beshinchi bo'limda (50-modda) o'z ifodasini topgan. Davlat va hokimiyat organlari, Prezident, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, ularni shakllantirish yo'llari aniq va ravshan bayon etilgan. Shu bilan birga bu bo'limda mahalliy hokimiyat organlari, sud va prokuratura, davlat mudofaasi masalalari o'z ifodasini topgan.

Mustaqillik Konstitutsiyasining qabul qilinishi g'oyat katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Asosiy Qonunimiz mamlakatda demokratik tamoyillarni amalga oshishi, xalqimizni huquqiy, ma'naviy va mafkuraviy tarbiyalashda katta o'rin tutmoqda.

Prezident I. Karimovning «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida»gi farmoyishiga asosan Konstitutsiyaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini yuksaltirish, uning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish uchun 20 kishidan iborat maxsus komissiya tuzildi. Prezidentimizning Asosiy Qonunni «... bolalar bog'chasidan boshlab o'rganishni, maktablarda darslik tariqasida o'qitishni, oliy o'quv yurtlarida maxsus bir dars sifatida o'rganishni barcha mutasaddi rahbar va tashkilotlarga topshiriq tariqasidagi...» ko'rsatmasi butun respublikada mustaqillik Konstitutsiyasini tashviqot va targ'ibot qilishning dasturi bo'ldi.

21-mavzu. Mustaqil O'zbekistonda davlat hokimiyatlari bo`linishi. Reja

- 1. Oliy Majlis – qonun chiqaruvchi hokimiyat.**
- 2. Vazirlar Mahkamasi va uning faoliyati**
- 3. Davlat boshqaruvida sudlarning roli**

Tayanch so'z va iboralar. Hokimiyatlar bo'linishi, qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat, sud hokimiyati, Oliy majlis-parlament, Qonunchilik palatasi, Senat, Qo'mitalar, Doimiy komissiyalar, Spiker, Vazirlar Mahkamasi, Hukumat, Bosh Vazir, Vazirlar Mahkamasining vakolatlari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Vazirliklar.

Jahon davlatchilik va demokratik taraqqiyoti tajribasidan ma'lumki, huquqiy davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan har bir jamiyatda davlat hokimiyatini tashkil etish hokimiyatlar bo'linishi nazariyasiga asoslanishi kerak. CHunki bunday prinsip yuz berishi mumkin bo'lgan suiste'mollikni oldini olishning ishonchli

vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyat qurayotgan O‘zbekiston ham o‘z davlat organlari idoralari tizimini hokimiyatlar bo‘linishi asosida tashkil etgan.

Huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan bo‘lgan hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasi O‘zbekiston Konstitutsiyasining 11 muddasida “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning **qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga** bo‘linish prinsiplariga asoslanadi”, deb mustahkamlab qo‘yilgan. Hokimiyatlarga bo‘linish prinsipining amalga oshirilishida “bir-birini tiyib turish va o‘zaro muvozanatda ushplash” tizimining samarali ishlashi juda muhim bo‘lib, bu tizimning xuquqiy asoslari Asosiy Qonunda mustahkamlangan. Unda hokimiyatning har bir tarmog‘i vakolatiga kiruvchi masalalar doirasi aniq chegaralanib, ko‘rsatib berilgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni – Oliy majlis, ijro etuvchi hokimiyatni – Vazirlar mahkamasi, sud hokimiyatini – sudlar amalga oshiradi.

Ta’kidlash lozimki, ilmiy doiralar va kundalik hayotda ommaviy axborot vositalari haqida ba’zan mustaqil to‘rtinchı hokimiyat tarmog‘i sifatida fikr yuritiladi. Ammo, ommaviy axborot vositalarini bunday ifoda etish qandaydir rasmiy hokimiyatni bildirmaydi. SHunga qaramasdan, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishda o‘ta muhim rol o‘ynaydi va ulkan ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasidagi **davlat idoralari** davlat hokimiyatini amalga oshirishning yagona tizimini tashkil etadi. O‘zbekiston fuqarolari davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirar ekan, saylovlar va o‘z vakillari orqali davlat organlarini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Konstitutsiyaga muvofiq (99 modda), “Viloyatlar, tumanlar va shaharlar(tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar”.

Oliy majlis va uning faoliyati. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylov to‘g‘risidagi” Qonun loyihasi 1993 yil 4 sentyabrda matbuotda e’lon qilindi. Respublikadagi ko‘plab etakchi olimlar, huquqshunoslar, mutaxassislar uning muhokamasida ishtirok etdilar. Natijada mazkur Qonun loyihasiga bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. 1993 yil 28 dekabrdagi Oliy kengashning o‘n to‘rtinchı sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Oliy majlisga birinchi saylovlar 1994 yil 25 dekabrdagi bo‘lib o‘tdi. Birinchi turda 205 ta deputat, qolgan ikki turda (1995 yil 8 va 22 yanvar) 45 ta deputat (jami 250 ta) saylandi.

Oliy majlis - O‘zbekiston Respublikasining oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi hisoblanadi. U ikki palatadan iborat bo‘lib, quyi palata – **Qonunchilik palatasi**, yuqori palata – **Senat** deb nomlanadi. Qonunchilik palatasini saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 nafar deputatdan iborat. Qonunchilik palatasini ishi palata barcha deputatlarning professional doimiy faoliyat ko‘rsatishiga asoslanadi. Qonunchilik palatasining vakolat muddati – besh yil. Vakolat muddati tugagach, u yangi Qonunchilik

palatasi ishi boshlaguniga qadar o‘z faoliyatini davom ettirib turadi. O‘zbekiston Respublikasining saylov kuniga qadar 25 yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston hududida muqim yashayotgan Respublika fuqarosi Qonunchilik palatasining deputati bo‘lishi mumkin.

Senat – hududiy vakillik palatasi hisoblanib, senatorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – 6 kishidan saylanadi. YUqori palataning 16 nafer a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Oliy majlis tarkibida 12 ta qo‘mita va 4 ta doimiy komissiya mavjud.

Qo‘mitalar:

1. Byudjet, bank va moliya masalalari.
2. Qonunchilik va sud – huquq masalalari.
3. Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar.
4. Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va oziq-ovqat.
5. Sanoat, qurilish, transport va aloqa.
6. Iqtisodiyotni isloh qilish va tadbirkorlik masalalari.
7. Ijtimoiy masalalar va bandlik.
8. Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari.
9. Atrof – muhit va tabiatni muhofaza qilish.
10. Matbuot va axborot.
11. Mudofaa va xavfsizlik.
12. Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari.

Doimiy komissiyalar:

1. Reglament, odob va deputatlar faoliyatining ta’minti.
2. Oila va ayollar muammolari.
3. YOshlar ishlari.
4. Normativ – huquqiy atamalar.

Parlamentning vakolatlari quyidagi tarzda uch guruhgaga ajratiladi:

Birinchi guruh, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish, unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish;
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunlari hamda qonunlarini qabul qilish, ularga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish;
3. O‘zbekiston Respublikasining referendumini o‘tkazish to‘g‘risida va uni o‘tkazish sanasini tayinlash haqida qaror qabul qilish;
4. O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining asosiy yunalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish;

5.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O‘zbekiston Respublikasining hokimiyat tarmoqlari tizimini hamda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining vakolatlarini belgilash;

6.O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga yangi davlat tuzilmalarini **qabul** qilish va ularning O‘zbekiston Respublikasi tarkibidan chiqishi haqidagi qarorlarni tasdiqlash;

7. Boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yuli bilan tartibga solish;

8. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni joriy qilish;

9. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalarini qonun yuli bilan tartibga solish, chegaralarini o‘zgartirish;

10.Tumanlar, shaharlar. viloyatlarni tashkil etish, tugatish, ularning nomini hamda chegaralarini o‘zgartirish;

11.*O‘zbekiston* Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini qabul qilish;

12.Davlat mukofotlari va unvonlarini ta’sis etish;

13.*O‘zbekiston* Respublikasi Prezidentining vazirliklar, davlat qo‘mitalari va boshqa davlat boshqaruv organlarini tuzish hamda tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

14.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasini tuzish;

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlarining nomzodlarini ko‘rib chiqish va tasdiqlash. O‘zbekiston *Respublikasi* Vazirlar Mahkamasining a’zolari O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi;

16.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili va uning o‘rinbosarini saylash;

17.*O‘zbekiston* Respublikasi hisob palatasining *hisobotini* ko‘rib **chiqish**;

18.O‘bekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga hujum qilinganida yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zarurati tug‘ilganida **urush holati** e’lon qilish to‘g‘risidagi farmonini tasdiqlash;

19.*O‘zbekiston Respublikasi* Prezidentining umumiy yoki qisman safarbarlik e’lon qilish, favqulodda holat joriy etish, uning amal qilishini uzaytirish yoki tugatish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

20.*O‘zbekiston Respublikasining* xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya va denonsatsiya qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

21.*O‘zbekiston Respublikasining* Konstitutsiyasida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalgalash.

Palatalarning birgalikdagi vakolatlariga kiradigan masalalar qoida tariqasida, avval Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatda ko‘rib chiqiladi (*O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi*, 78-modda).

Ikkinci guruh, Qonunchilik palatasining quyidagi mutlaq vakolatlarini qamrab oladi:

1.Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o‘rinbosarlarini qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2.O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi deputatini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarini hal etish;

Z.Reglamentni hamda o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning ichki tartib-qoidalari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

4.Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Qonunchilik palatasining qarorlarini qabul qilish (O‘zbekistan Respublikasi Konstitutsiyasi, 79-modda).

Uchinchi guruh, Oliy Majlis Senatining quyidagi mutlaq vakolatlarini o‘zida mujassam etgan:

1.Senat Raisi va uning o‘rinbosarlarini, qo‘mitalarning raislari va ularning o‘rinbosarlarini saylash;

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudini saylash;

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Oliy Sudini saylash;

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Oliy xo‘jalik sudini saylash;

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining raisi va uning o‘rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish;

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati raisini tayinlash va uni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarini tasdiqlash;

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakillarini tayinlash hamda lavozimidan ozod etish;

9.O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruving raisini tayinlash va lavozimidan ozod etish;

10.O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan amnistiya to‘g‘risidagi hujjatlarni qabul qilish;

11.O‘zbekistan Respublikasi Bosh prokurorining taqdimiga binoan Senat a’zosini dahlsizlik huquqidan mahrum etish to‘g‘risidagi masalalarini hal etish;

12.O‘zbekistan Respublikasi Bosh prokurorining, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisining, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotlarini eshitish;

13. Reglamentni hamda o‘z faoliyatini tashkil etish va palataning tartib-qoidalari bilan bog‘lik masalalar yuzasidan boshqa qarorlarni qabul qilish;

14.Siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot sohasidagi u yoki bu masalalar yuzasidan, shuningdek, davlat ichki va tashqi siyosati masalalari yuzasidan Senat qarorlarini qabul qilish (O‘zbekiston Respublikasining Qonstitutsiyasi, 80-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan mansabdor shaxslarni Senat tomonidan saylash, tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish tartibi Senat Reglamentida belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining umumiy va har ikki palataning alohida ish tartiblari mamlakatimizning Asosiy qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Reglamenti, O‘zbekistan Respublikasining qonun hujjatlarini tayyorlash to‘g‘risidagi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qo‘mitalari va komissiyalari to‘g‘risidagi nizomi bilan belgilanadi.

Qo‘mitalar va komissiyalarning hal qilishi lozim bo‘lgan masalalarining ko‘lami juda keng bo‘lib, Oliy Majlis mamlakatimiz hayotiga doir bo‘lgan, xalqimizni tashvishlantiradigan barcha masalalar bilan shug‘ullanadi.

Vazirlar Mahkamasi va uning faoliyati. O‘zbekiston Respublikasida hukumat “Vazirlar Mahkamasi” deb nomlangan bo‘lib, “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi” Qonunga binoan, u O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlisning qororlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyatdir.

Hukumat – davlat boshqaruving oliy organi bo‘lib, davlat boshqaruv shaklining qanday bo‘lishidan qat’iy nazar har qanday davlatning oliy ijroya organi hisoblanadi. Hukumat Konstitutsiya va qonunlar asosida mamlakatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi, jamoat tartibi va milliy xavfsizlikni ta’minlaydi, davlat boshqaruving boshqa organlari hamda Qurolli kuchlarga umumiy raxbarlik qiladi. Hukumatning shakllanish tartibi, mazkur davlatda mavjud bo‘lgan boshqaruв shakliga bog‘liq holda o‘rnatalidi hamda turli davlatlarda turlicha nomlanadi. Misol uchun, AQSHda – Ma’muriyat, Angliyada va Turkmanistonda – Ministrlar Kabineti, Fransiya va Italiyada – Ministrlar Kengashi, Xitoyda - Davlat Kengashi, Rossiya va Tojikistonda – Hukumat, Yaponiyada – Kabinet va hok.

O‘zbekistonda Vazirlar Mahkamasi Prezident, Oliy majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘lish asosida amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o‘zi tashkil etadigan xo‘jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta’minlaydi. Vazirlar mahkamasi qonun bilan belgilab qo‘yilgan o‘z tarkibiga ega. Unga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlari, davlat qo‘mitalarining raislari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining raxbarlari kiradi.

Konstitutsiyaga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar mahkamasi faoliyatini tashkil etadi va ungi rahbarlik qiladi, uning samarali ishlashi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Vazirlar Mahkamasining majlislariga raislik qiladi, uning qarorlarini imzolaydi.

Vazirlar Mahkamasining tarkibi Prezident tomonidan shakillantiriladi. Prezident Bosh vazir nomzodini ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun Oliy majlis palatalariga taqdim etadi.Ushbu masala avval Qonunchilik palatasida, so‘ngra Senatda ko‘rib chiqiladi. Bosh vazirni lavozimidan ozod qilish Prezident vakolatiga kiradi. Vazirlar mahkamasining a’zolari Bosh vazir taqdimiga ko‘ra, Prezident tomonidan tasdiqlanadi. Vazirlar Mahkamasining doimiy organi sifatida Bosh vazir va uning o‘rinbosarlaridan iborat tarkibdagi **Vazirlar Mahkamasining rayosati** faoliyat ko‘rsatadi.

Vazirlar Mahkamasining ijro hokimiyatini shakllantirishda ishtirok etishiga doir vakolatlariga quyidagilar kiradi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Vazirlar Mahkamasining a’zoligiga nomzodlarni tasdiqlash uchun Prezidentga taqdim etadi.
2. Vazirlar Mahkamasi Respublika qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlaydi.
3. O‘zbekistonning butun hududidagi barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Vazirlar Mahkamasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagi faoliyat sohalarini keltirish mumkin:

- ma’muriy-siyosiy sohasidagi faoliyat;
- iqtisodiyot sohasidagi faoliyat;
- ijtimoiy-madaniy sohasidagi faoliyat;

Ma’muriy – siyosiy sohadagi vakolatlar:

1. Respublika boshqaruv tuzilmasini takomillashtiradi.
2. Respublika vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralari, davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to‘g‘risida takliflar ishlab chiqadi.
3. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari ishini muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.
4. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar hamda davlat byudjetida bo‘lgan davlat boshqaruvi boshqa organlarining markaziy apparati xodimlarining soni va ularga sarflanadigan mablag‘lar miqdorini belgilaydi.
5. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari raislarining o‘rinbosarlarini, bosh boshqarmalar hamda davlat boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari va ularning o‘rinbosarlarini lavoziga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi.
6. Xo‘jalik boshqaruv organlari raxbarlarining vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralari hay’atlari a’zolarini, shuningdek, Hukumat tomonidan tashkil etiladigan xo‘jalik boshqaruv organlari a’zolarini tasdiqlaydi.
7. O‘zbekistonning davlat xavfsizligi va mudofaa qudratini oshirish, davlat chegaralarini qo‘riqlashni ta’minlash, davlat manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.
8. Davlat boshqaruv organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o‘tkazish hamda Respublika va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarni muvofiqlashtiradi, katta avariylar

va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko‘radi.

9. O‘zbekistonning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta’minlaydi, hukumatlararo shartnomalar va bitimlar tuzadi hamda ularni bajarish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Iqtisodiy sohadagi vakolatlar:

1. Iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, mulkchilikning barcha shakllarini uyg‘unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining hukuqiy mexanizmini ro‘yobga chiqarish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratish.
2. Xo‘jalik yuritishning yangi shakllari-konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa ana shunday tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga ko‘maklashadi, xalq xo‘jaligi va aholi talablarini qondirishdan kelib chiqib, ular faoliyatini yo‘naltiradi va muvofiqlashtiradi.
3. O‘zbekistonda pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi, yagona narx siyosatini o‘tkazish, mehnatga haq to‘lash miqdorining belgilangan kafolatlarini va ijtimoiy ta’midot darajasini ta’minalash chora – tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.
4. Respublika byudjetini, shuningdek, mamlakatni iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish istiqbollarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqadi hamda ularning ijrosini tashkil etadi.

Ijtimoiy-madaniy sohadagi vakolatlar:

1. Fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tabirlarini amalga oshiradi.
2. Fuqarolarni ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, ularning mehnat qilish huquqini ta’minalash chora-tadbirlarini ko‘radi, ijtimoiy ta’midot tizimini takomillashtiradi.
3. Sog‘liqni saqlash, xalq ta’limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko‘maklashadi.

Vazirlar Mahkamasining majlislarida davlat boshqaruvi, xo‘jalik va ijtimoiy – madaniy qurilishning eng muhim masalalari hal etiladi. Majlislar yilning har choragida kamida bir marta o‘tkaziladi. Ularni tayyorlash va o‘tkazish tartibi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ish tartibi to‘g‘risidagi” qarori bilan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasi majlislarida muhokama etish uchun masalalar vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislari, idoralar, korporatsiyalar, kompaniyalar, konserinlar, uyushmalarning raxbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, ular bo‘lmagan hollarda ularning birinchi o‘ribbosarlari tomonidan kiritiladi.

Davlat boshqaruvida sndlarning roli. Har bir davlatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham odil sndlarning organlari tizimi ma’muriy-hududiy tuzilmalarda tashkil etilgan hamda sndlarning jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini rivojlantirish jarayonida korxona va tashkilot, davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabat natijasida kelib chiqadigan masalalarni belgilangan hududiy birliklar miqyosida ko‘rib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi besh yil muddatga saylanadigan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Xo‘jalik sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Oliy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining xo‘jalik sudi bilan shu muddatga tayinlanadigan viloyat sndlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar va xo‘jalik sndlardan iborat”, deb belgilangan. 2000 yil 14 dekabrda qabo‘l qilingan “Sndlар to‘g‘risida”

gi qonunning yangi tahririga ko‘ra, yuqorida sanab o‘tilgan sud tizimiga o‘zgartirishlar kiritilib, sndlар ixtisoslashtirildi. YA’ni, jinoyat ishlari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha Oliy sudi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo‘yicha viloyat va Toshkent shahar sndlari, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo tuman (shahar) sndlari, jinoyat ishlari bo‘yicha tuman (shahar) sndlari joriy etilgan.

O‘zbekistondagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishda sud organlarining ta’siri kuchli bo‘lib, bu jarayonni davlat nomidan kafolatlaydi. Sud organlari Konstitutsiya va qonunlarda belgilab berilgan fuqarolarni huquq va erkinliklarini millatlarning tengligi tamoyillari asosida amalda qo‘llanilishini nazorat qiladi. SHuningdek, sud organlari mamlakat ijtimoiy hayotidagi ishlab chiqarish muassasalarida, davlat idoralarida, jamoat birlashmalarida fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquqlarini mulk shaklidan qat’iy nazar himoya qilinishini ta’minlaydi. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyaviy sudi** Konstitutsiyaviy nazorat bo‘yicha sud organi hisoblanib, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘radi. Bu sud huquqiy muhofazi qiluvchi qonunlarni, qonunchilik va ijro hokimiyatining boshqa hujjatlarini Konstitutsiyaga zid deb topish va ularni harakatdan to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega bo‘lgan maxsus organ hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sud quyidagi vakolatlarga ega:

1. Oliy Majlis qabul qilgan hujjatlarni, Prezident farmonlarini, Hukumat va davlat hokimiyati mahalliy organlari qarorlarini, O‘zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomalarini va boshqa majburiyatlarini Konstitutsiyaga mosligini aniqlaydi.
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ko‘rib chiqadi.
5. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari matbuotda e’lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

6. Konstitutsiyaviy sud Oliy Majlisda qonunchilik tashabbusi bilan chiqish huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi **Oliy sudi** fuqarolik, jinoiy va ma’muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida sud hokimiyatining oliv organi hisoblanadi. Oliy sud qonunda ko‘rsatilgan protsessual shakl va tartibda umumiy yurisdiksiyali sudlar, shuningdek, harbiy sudlar faoliyatini ustidan ham sudlov nazoratini amalga oshiradi. Undan tashqari Oliy sud, quyi sudlarning ma’lum ishlar bo‘yicha yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarini tuzatish maqsadida ular tomonidan qabul qilingan qarolarning qonuniyligi va asosli ekanligini tekshirish yo‘li bilan ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Oliy sud - Oliy sud raisi, uning o‘rnbosari va o‘rnbosarlari, sudlov hay’atlari raislari, Oliy sud sudyalaridan iborat tarkibda ish olib boradi. Sud faoliyatining katta qismi sudlov hay’atlari zimmasida bo‘ladi. Oliy sudlov hay’tlari fuqarolik ishlari bo‘yicha, jinoyat ishlari bo‘yicha, harbiy ishlar bo‘yicha hay’atlar hisoblanib, ular tarkibi Respublika Oliy sudi Plenumi tomonidan tasdiqlanadi.

Oliy sud faoliyatini tashkil etish va unga rahbarlik qilish Oliy sud raisi zimmasiga yuklatilgan. Oliy sud raisi umumiy yurisdiksiyali sudlarning barcha hukm va boshqa qarorlariga qonunda belgilangan tartibda protest berish hamda ular ijrosini to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega.

Iqtisodiy sohada, turli mulk shakllariga ega tashkilotlar, idoralar, korxonalarni boshqarish jarayonida, shuningdek, tadbirkorlar orasida vujudga keladigan munosabatlarda yuzaga chiqqan bahslarni hal qilish **Oliy xo‘jalik sudlari** tizimi tomonidan amalga oshiriladi. Xo‘jalik sudlarining asosiy vazifalari – tashkilotlar va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonunchilikni to‘g‘ri va bir xilda qo‘llash, iqtisodiy munosabatlarda qonuniylikni mustahkamlash va qonunchilikning huquqiy vositalaridan foydalanishga sharoit yaratishdan iborat.

Oliy xo‘jalik sudi faoliyatining asosiy tamoyillari – qonuniylik, xo‘jalik sudyalarining mustaqilligi, sud va qonun oldida hammaning tengligi, tomonlarning teng huquqliligi, ish yuritishda oshkoraliq, sud muhokamasining bevosita va uzviy amalga oshirilishi hisoblanadi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan huquqiy hujjatlari xo‘jalik sudining to‘xtami, qarori, ajrimi barcha davlat organlari, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, hamda boshqa organlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan O‘zbekistonning barcha hududlarida bajarilishi shart hisoblanadi.